

ABDUSAID KO'CHIMOV

QAYTA TUG'ILGAN BOLA

QISSALAR
HIKOYALAR

O'SMIRLAR
ADABIYOTI

QAVTA TIHC'ILCANI BOLA
QANI ILGAN BOLA

ABDUSAID KO'CHIMOV

2-nashri



QISSALAR
HIKOYALAR

O'SMIRLAR
ADABIYOTI

„O'QITUVCHI“
NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2018

UO‘K: 821.512.133-31

KBK 84(50‘)6

K 96

O‘smirlik — inson hayotining eng murakkab, eng qaltis, eng nozik davridir. Bolalikdan balog‘atga o‘tish bosqichi hisoblanmish bu davrda xarakter shakllanadi, kuchli his-tuyg‘u, g‘ayrat-shijoat jo‘sh uradi; o‘smir qalb hissiyotga berilib, mustaqil bo‘lishga, o‘z qiyofasini namoyon qilishga intiladi.

Qator asarlari bilan o‘quvchilar mehriга sazovor bo‘lgan iqtidorli adib Abdusaid Ko‘chimovning qo‘lingizdagi kitobiga kiritilgan qissa va hikoyalarning barchasida aynan ana shu go‘zal va sertashvish manzaralar o‘smirlar ruhiy olamida sodir bo‘lguvchi rivojlanish jarayonlari badiiy talqin qilinadi.

Kitobni o‘qir ekansiz, yuragida kuchli his-tuyg‘u, g‘ayrat-shijoat jo‘sh urayotgan, inja xayollar og‘ushida mustaqil bo‘lishga, o‘z so‘zini aytishga intilayotgan ajoyib yigit-qizlarning rang-barang qiyofalari bilan tanishasiz. Yosh qahramonlarning hech qaysisi bir-biriga o‘xshamaydi: biri ta‘sirchan, biri serg‘ayrat, tashabbuskor, mehribon, biri qo‘rs, biri jizzaki, yana biri sal narsadan ranjuvchi nozik ta‘b. O‘z-o‘zini xiyol anglab, qalbida sevgi-muhabbat hislari mavjlana boshlayotgan bunday yosh yuraklarning murakkab kechinmalari, o‘zlariga sirdosh qidirishlari; ba‘zi birlarining atrofdagilar e‘tiborini jalb etish, kutilmagan ishlari bilan kattalarni hayratga solish va, hatto o‘z yaqinlarini cho‘chitib bo‘lsa hamki, maqsadga erishish niyatidagi xatti-harakatlarini ko‘rganda esa zavqingiz keladi, yonida bo‘lgingiz, ko‘mak, maslahat bergingiz, yo‘l ko‘rsatgingiz kelib ketadi. Har-xil nizolar, chorasizlik, yolg‘izlik, o‘zini kamsitilgandek his qilish, erkinlikning cheklanishi, kattalar va yoshlarning bir-birini tushunmasligi va, oxir-oqibat, o‘smirning o‘z oilasi, o‘z jamoasidan uzoqlashishi, kamgap bo‘lib, o‘zining ichki botiniy dunyosiga tushib qolishi kabi murakkab holatlar ham yuksak mahorat bilan badiiy tahlil qilinadi.

© A. Ko‘chimov

ISBN 978-9943-22-285-4

© „O‘qituvchi“ NMIU, 2018

QAYTA TUG'ILGAN BOLA

(yoki Ilhomning „Xotira“ daftaridan)

10 mart, 197... yil

Yulduzlarni hech kim menchalik yaxshi ko'rmas. Osmondagi yulduzlarga nom qo'yib olganman. Tomimizning shundoqqina tepasidagi yaltiroq yulduz — Sherdor, yonidagisi Iskandar aka, keyingilari — Ahmad, Kenja, Gulnora... Hulkardan pastroqda so'nayotgan shamday miltillab turgan ikkitasi — Himmat bilan Xolmat. Olisroqda tursin, deb osmonning bir chetiga surib qo'yanman ularni. Osmonda men uchun aziz bo'lgan yana bitta yulduz bor. Oppoq, mash'alday lovullab turuvchi bu yulduz — Oltin qoziq. „Oltin qoziq — odamning do'sti, — derdilar rahmatli bobom. — Kechasi adashib qolgan yo'lovchilar qadimda shu yulduzga qarab yo'l topishgan. Oltin qoziq hech kimni aldamaydi“.

Shu yulduzga qarasam, bobomning so'zlarini eslayman. Unga qarasam... Sanamgulning ko'zlari yodimga tushadi. Yulduz — Sanamgulning ko'zlariga o'xshaydi! Sanamgulning chaqnoq ko'zlariga. Doimo kulib turadigan, kulpsi vujudingga shirin azob beradigan ... ko'zlariga.

Har kuni yulduzim bilan suhbatlashaman, unga ko'rgan-bilganlarimni aytib beraman.

Hozir ham yulduzim bilan gurunglashib, kundaligimni to'ldiryapman.

Shu kecha yomon tush ko'rdim. Uvat yoqalab ketayotgan emishman. To'rt tomonim qip-qizil qizg'aldoq emish. Dondaraxtlar-u, tog'-u toshlar ham cho'g'day qip-qizil. To'satdan, xuddi birov shamni puflab o'chirganday qizg'aldoqlar gulxani so'ndi. Osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, qarshimda Himmat paydo bo'ldi. Oq'lida chiroyli yarrak, uzun dumlari yalt-yalt tovlanadi.

O'SMIRLAR
ADABIYOTI

2001.03.10 10:00:00

57435

— Varraging muncha yaxshi. O'zing yasadingmi? — deyman havas bilan.

— Ko'zing bormi, raketa-ku bu! — deydi u gerdayib. Chindan ham uning qo'lidagi varrak emas, raketa edi! Tumshug'i o'tkir, oppoq qanotlari o'rtasida yumshoq o'rindiq.

— Bir kataysa qilmaysanmi? Aytsam, raketam hoziroq seni yulduzingga olib boradi.

Himmatning saxiyligidan hayron qoldim.

— Erib turgan paytimda „xo'p“ de. Bo'lmasa, birpasdan keyin aynib qolaman-a.

— Bo'pti!

— O'tir, rulni mahkam ushla!

Raketa osmonga o'qday ko'tarildi. Bulut tog'larini yorib, yulduzlarga yaqinlasha boshladim... To'satdan raketa yana varrakka aylanib qolsa bo'ladimi?! Qo'limdagi rul qog'ozday g'ijimlanib ketdi! Havoda gir-gir aylanib, koptokday pastga qarab dumalab ketdim. Qulog'imga bo'sh bochkaning daranglashiday dag'al kulgi eshitildi. Qarasam, Himmat: „Bopladim, bopladim!“ — deb dik-dik o'ynayapti.

— Ilhom, ehtiyot bo'! — deb qichqirdi kimdir.

Ko'zimni katta-katta ochdim: maktabimiz yonidagi kallaklangan tutning ustiga qulab tushyapman. Nayzaday shoxlar: „Kel, kela qol. Bir kabob qilaylik“, — deb tirjayadi.

— „Voydod!“ — deb shuncha baqiraman, qani endi ovozim chiqsa?! Tamom! Ko'zlarimni chirt yumib oldim. Shu payt bir sor burgut shamolday uchib kelib, qo'llarimdan changallab yana osmon-u falakka opchiqib ketdi...

— Ilhom! Ilhom!

Cho'chib o'yg'onib ketdim. Maykam jiqqa ho'l. Yuragim gurs-gurs uryapti.

— Ilhomjon, tura qolgin, — derdilar supaning chetida kuvi pishayotgan onam. — Maktabingga kech qolasan.

Anchagacha o'zinga kelolmay karaxt bo'lib o'tirdim. Rahmatli bobom, tushingda qizil rang ko'rsang yaxshi bo'ladi, degan edilar. Mening tushim ... avval qizg'aldoqzor, keyin... Bir gap bo'ladiyov.

Himmat bilan yana urishib qolamizmi, deyman-da.

Haligi, suflyor voqeasidan buyon, mendan qanday o'ch olishni bilmay yuruvdi. Ammo-lekin rosa mayna bo'luvdi-da o'ziyam. Eslasam, haligacha kulgim qistaydi.

Boshidan ayta qolay.

Mart bayrami arafasi edi.

Bayramga pyesa tayyorlamoqchi bo'ldik. Iskandar aka tashabbusimizni quvvatladi. Har kim o'ziga yoqqan rolni tanladi. Ahmad — ayiqcha, Sherdor — bo'ri, Gulnora — qo'zi choq, Kenja — ovchi...

Yana bir kishi kerak, — dedi muallim.

Nega, rollar taqsimlab bo'lindi-ku?! — deb hayron qoldik biz.

To'g'ri, lekin suflyor kerak, suflyor! Ba'zilar hayajonlanib, aytadigan so'zini unutib qo'yadi. Sahnada bunaqa voqealar juda ko'p bo'lgan.

Ochig'i, hech kim bu vazifani bajarishni istamadi. Rostda, doskaga chiqqan Xolmatga shivirlab yordam berib turadigan Himmatga o'xshab, sahna orqasidan pichirlayman, deb kimning ko'zi uchib turibdi...

Himmatga berish kerak bu rolni, — dedim tilimni tiyolmay.

Bolalar, hatto Iskandar aka ham kulib yubordi.

Himmatjon, endi hunaringni bir ko'rsatadigan bo'lding-da, — dedi Iskandar aka jilmayib.

Himmat lavlagiday qizarib ketdi. Ammo Iskandar aka ketgandan so'ng yoqamdan olishiga oz qoldi. „Shoshma, dedim ichimda, — suflyorligingni butun maktabga voymasam...“ Shu kuni „Suflyor“ degan mana bu she'ni vozdim:

Yaqinda sinfimizda
Qo'ymoqchi bo'ldik pyesa
Birov chol, birov kampir,
Quyong bo'ldi Nafisa.
Eng zo'r rol — suflyorlikka
Himmatni topdik loyiq.
Erta-indin tomosha
Kelavering, xaloyiq!

She'ni Ahmadga o'qib bergandim, u ola solib sinfxona-ga chopdi. Katta tanaffusga chiqsak, devoriy gazeta atrofi-da tumonat odam. Hammasi piq-piq kuladi. Salimboy she'r-ning yoniga shundoq zo'r rasm chizibdiki, ko'rsangiz xuddi Himmatning o'zi deysiz. Himmat bechora ancha paytgacha boshini ko'tarolmay yurdi. Shu-shu o'ch olish payida. Ishqi-lib, bobom aytganiday, tushimning oxiri baxayr bo'lsin...

Yuvinib kelgunimcha onajonim dasturxon yozib, sopol kosada sut olib keldi: non to'g'ralgan, sariyog' solingan. Onajonginam-ey... Hamma odamlar onajonimdek shirin-so'z, mehribon bo'lsa nima qilarkin-a! Himmat bilan Xolmatga o'xshaganlar „yozuvchi“, „muxbir“ deb mazax qilish o'rniga, „Yasha, Ilhomjon! Kelajakda sizdan zo'r yozuvchi chiqadi, (koshki bu kaltafahmlarning aqli shunaqa gap-larga yetsa!) Ahmad mirquruq ham majlislarda: „Ilhom tirra-qi buzoqday qachongacha sinfga dog' tushiradi?!“ — deb chinqiravermasa-yu, „Ilhombek sinfimizning faxri. U faqat sinfga emas, maktabimizga ham shuhrat keltirmoqda“, — desa.

Xo'p, shunday maqtovlarga arzimabmanmi? Kimsan — tumanda mashhur muxbir bo'lsam! Gazetalarda maqola-larim paqillab chiqib turgan bo'lsa, maktabdagi devoriy gazetalarning birortasi mensiz chiqmasa, bayram kunlari bolalar tugul, yo'riqchimiz Asolat opa ham soyaday orqam-dan ergashib yursa... Bayram zo'r-da. Boshqalarni bilmay-man-u, ammo men bayram yaqinlashaversa, terak bo'yicha o'sib ketaman. Ikki gapning birida „Ilhom undoq, Ilhom bundoq“, deb ta'na toshlari yog'diradiganlarning hammasi girdikapalak bo'lib qolishadi. Hatto sinf rahbarimiz Olloberdi aka ham tilini asalga botirib olganday, og'zidan shirin gap tushmaydi: „Ilhomjon, gazetani bir boplab chiqaraylik, hamma qoyil qolsin!“ U kishi tugatar-tugatmas, Asolat opa paydo bo'ladi: „Ilhomjon, bosh maqola yozish esingdan chiqmasin-a. Anavi sinfdagilar adabiy kecha o'tkazishmoqchi edi, yordam bervorgin“. Shunaqa paytlarda matematikaga o'xshash boshog'riq darslarga kirmasam ham, birov g'ing demaydi.

Afsuski, bunday lazzatli kunlarning umri qisqa: bayram tugashi bilan kaminaning shon-shuhrati-yu erkaliklari ham shamol uchirgan xashakday g'oyib bo'ladi. Yana zaharli gaplar, nayzador kesatiqlar... Faqat adabiyot o'qituvchimiz Iskandar aka Boymurodovich doimo bir xil jilmayib: „Shoir bola, ishlar nechuk? Yangilarini qachon eshitamiz?“ — deydi...

— Kecha maliming otangga shikoyat qipti. Hisobdan chatoq emishsan, — xayolimni buzdi onam.

Shu muallimdan qutulmadim qutulmadim-da. Sinf rahbari, zavuch, direktor — hammasiga chaqib chiqdi. Navbat, mana, otamga ham yetib kelibdi.

— Men bug'altir bo'lmayman. Otamga ayting, muallimimizni ko'rsa, shunday desin.

Onam odatdagiday nasihatgo'yiligini boshlamoqchi edi, papkamni ola ko'chaga chopdim.

Onamga hayronman. Mehribonlikda tengi yo'q, lekin ignaday xatoyimni eshitsa, vahima ko'tarib, soatlab pand-nasihat qiladi. Nima, men bog'cha bolamidim? Buyam mayli, chidasa bo'ladi. Lekin Ahmadga o'xshaganlarni pesh qilishi!..

Xo'sh, Ahmad kim? Sinfkom demasang, maqtaydigan nimasi bor? Kitobni yodlab, to'tiqushday sayrashimi? Zo'r bo'lsa, she'r yozsin! Ikki enlik xatni eplab yozolmaydiyu... Umri bino bo'lib, „Etik kiygan mushuk“dan boshqa badiiy kitob o'qimagan. Bilgani — iks-igrik, uchburchag-u oltiburchak. Yana xo'jayinlik qilganiga kuyasanmi?

Mayli, shoshmay tursin, hademay ularning barisi yonginalarida shunday talant turganini ko'rmaganlari uchun pushaymondan burunlarini tishlashadi.

— Hoy bola, to'xta-chi!

Obbo, xayolga g'arq bo'lib, navbatchilarning tumshug'i ostidan chiqib qolibman-ku! Nahotki, dars boshlangan bo'lsa?

— E-e, o'zimizning muxbir-ku! Bugun noming qora doskani bir bezarkan-da, — deb masxara qildi bilagiga bog'ich bog'laganlarning novchasi — to'qqizda o'qiydigan Rizo.

— Kechasi bilan uxlamay, she'r yozib chiqqan-da, she'r! Va-ha-ha! — Rizoning hamrohi maza qilib kuldi.

Birinchi dars rus tili edi. Ha, tomoshaning zo'ri mana endi bo'ladi.

Qo'rqa-pisa sinfga yaqinlashdim. Ichkaridan bolalarning shovqini baralla eshitilib turibdi. Quvonib ketdim.

Rus tili o'qituvchimizning sinfda yo'qligi aniq. Demak, Egamberdi aka „besh minutlik zaril ish“ bilan ketgan. O'qituvchimizning „zaril ish“ini bilamiz. Hozir qishloqda nima ko'p, to'y ko'p. Egamberdi aka ba'zan bizga vazifa topshirib, oshxo'rlikka borib keladilar. U kishi eshikdan chiqadi-yu, sinfning cho'p suqilgan ari uyasidan farqi qolmaydi: kimdir qo'shiq aytadi, kimdir partani childirma qiladi, kimdir qog'ozdan samolyot yasab uchiradi.

Qichqiraverganidan xirillab qolsayam, Ahmad bechoraning gapiga hech kim quloq solmaydi.

Sinfga to'g'ri kirib boraversam bo'lardi, lekin xayolimga kelgan bir fikrdan keyin...

Eshik yonida Egamberdi akaday qisqa-qisqa yo'talib, shaxt bilan xonaga kirdim:

— Nima gap? Nima to'polon!

Himmatvoy doska oldida Egamberdi akaning qiliqlarini ko'rsatayotgan ekanmi, partaga qarab otildi-yu, qoqilib ketdi. Mehri, Robiya, Surayyolar dik etib turgan joyidan „voy“ deb cho'kib qolishdi. Karim qitmir ularning sochini bir-birinikiga bog'lab qo'ygan ekan. Keyin „gurr“ kulgi ko'tarildi. Mehri o'xshaganlar esa alam qilganidan xezlanib qolishdi. Qarasam, ish chatoq.

— Egamberdi aka ariqchada qo'lini yuvyapti, — bo'sh kelmadim men ham. — Hozir keladi.

Eng qizig'i, joyimga borib o'tirishim bilan eshikda iyakchaklarini kirpining tikoniday tuk qoplagan Egamberdi aka ko'rindi.

— Lug'atni yodlab bo'ldilaringmi? — dedi Egamberdi aka atrofga erinchoq ko'z yugurtib. — Yaxshi-yaxshi. Endi uy ishini ham belgilab olaylik. Xo'-o'sh, uyda ellik birinchi betdagi lug'atni yodlab kelasizlar.

Egamberdi aka shoshilmay jurnalga bir nimalarni yozdi. So'ng:

— Ahmadjon, yo'g'imda hech kim to'polon qilmadimi? — dedi.

— Ilhom, Ilhom echkiga o'xshab dikongladi! — Ahmadning o'rniga javob berdi Himmat. U yomon yiqilganmi, xaliyam tirsagini silab o'tirgandi.

— Ha, Ilhom to'polon qildi! Baqirdi, qo'shiq aytdi, — uning gapini quvvatladi Mehri.

Egamberdi akaning yomon odati bor: ikki kishi bir gapni tasdiqladimi, tamom — kim oq, kim qora, surishtirib o'tirmaydi. Aybsiz „aybdor“ni qattiq jazolaydi.

— Shunaqami? — Egamberdi akaning avzoyi birdan o'zgardi. — Hali yo'g'imizda bozor qiladigan bo'pqoldingizmi?!

— Men... o'zim... hozir keldim-ku!

— Kechikkanman ham degin? — Egamberdi aka lapanglab oldinga keldi. — Qulog'ingni ostida olov yoqib qo'yardim-u, attang, zamon ko'tarmaydi-da! O'tir!

— Men, men...

— Bas qil!

Qo'ng'iroqqacha zo'rg'a chidab o'tirdim.

Qani endi, Egamberdi aka aytganday, „zamon ko'tarsayu“, Himmatning ta'zirini bersam...

Tanaffus bo'lishi bilan Himmatga tashlandim. Agar oraga „Jirafa“ tushmaganda... „Jirafa“ — Xolmat. Mushtlashishda sinf chempioni. Urishmagan kuni uxlo olmaydi. Mushtdayligidan shu. Bo'yni uzun (bir metr borov) bo'lgani uchun Jirafa deymiz.

...Men beshinchigacha u bilan bir partada o'tirardim. Sinf rahbarimiz, „shatakka olasan“ deb tayinlagandi. U vaqtlar hisob-kitobdan tuzuk edim-da. Xolmatni sinfdoshlarimiz yoqtirishmasdi. Xolmatning o'zi bo'lsa, parvoyi palak: „Hamma mendan qo'rqadi“, deb maqtanardi. Sinf bo'yicha faqat unda motorli velosiped bor edi. Ertalablari patillatib haydab kelganida, hamma bolalarning og'zi ochilib qolardi. U bolalarni velosipedi yoniga yo'latmas, menga bo'lsa hammaga eshittirib:

— Ilhom! Bir kataysa qilib kelmaysanmi! — derdi kerilib. Bilaman, vazifani mendan ko'chirayotgani uchun shun-

day qiladi. Men velomotorida kataysa qilganim uchunmas, achinganimdan daftarimni berardim. Agar boshqalarday men ham o'zimni olib qochsam, yordam bermasam, (o'shanda ko'chirtirish — yordam berish, deb o'ylardim) sho'ppayib bir o'zi qoladi-da.

Bir kuni qiziq bo'lgan. Yozma ishimni ko'chirayotganida Iskandar aka payqab qoldi.

— Sen do'st emassan, — dedi Iskandar aka, — do'st o'rtog'ini yengilning ostidan, og'irning ustidan yurishga o'rgatmaydi.

Yer yorilmadi, kirib ketmadim. Bu ham kamday:

— Ko'chirtirmasa, Xolmat velomotoriga mindirmaydida! — dedi kimdir. Hamma kulib yubordi.

Tanaffusda Xolmatni bir chetga tortim-da:

— Bundan keyin, o'qi. Endi, daftar berish yo'q, — dedim qat'iy.

— Shunaqami? Velosipedga mindir deyishni bilasan?

— Endi unday demayman.

Shu kundan boshlab boshqa-boshqa o'tiradigan bo'ldik. Xolmat Himmat bilan yaqinlashib oldi. Endi egizakday bir-biridan ajralishmaydi. Biror kishi Himmatga qattiqroq gapirsa, Xolmat darrov jo'rasining tarafini oladi. Ilgarilari bolalarning bitta-yarimtasi Himmatni xafa qilguday bo'lsa, u yugurib borib, otasi — Xursand amakini yetaklab kelardi. Xursand amakining bufeti maktabimiz yonginasida, katta yo'l bo'yida. Nima uchundir qishlog'imizdagilar u kishini „tulki“ deyishadi. Aslida esa Xursand amaki tulkidan ko'ra ko'proq ayiqqa o'xshaydi. Qorni qopday. Lapanglab yurishi ham ayiqning o'zginasi. Xursand amakini biz — bolalar ham yomon ko'ramiz. Shop mo'ylovini burab, bir shisha limonadni ellik tiyinga, kartoshkali pirojkini yigirma tiyinga pullaydi. Bir pachka pecheniyni bir so'mdan sotishi-chi? Odamlar yulg'ichligini bilishsa ham indashmaydi. „Qishloqchilik, ko'z-ko'zga tushadi. Insofga kelib qolar“, deyishadi. Xursand amaki bo'lsa, insofga kelish o'rniga battar qiladi. Allaqayerdan go'sht keltirib, kilosini sakkiz so'mdan pullaydi. Tagida oppoq „Volga“, ko'chada yurishini ko'rsangiz, naq

ertakdagi podsho deysiz. Hovlisi-chi, hovlisi, xuddi qasrning o'zi. Onamning aytishicha, Xursand tulkini quturtirgan — pul. Puli ko'pligi uchun birov tovug'ini kisht, mushugini pisht, deyolmas emish.

Aytganday, esimda tursin, shu odamni gazetaga bir boplab yozay, „kisht“ deyish qanaqaligini ko'rib qo'ysin...

Nimani yozayotuvdim, ha, shunday qilib, Xolmat o'rtaga tushdi-yu, tishimni g'ijirlatib qolaverdim...

— Muxbirman deb kerilaverma! — dedi mushtini do'laytirib Xolmat. — Biz ham yozishni bilamiz. Himmatga yana qo'l ko'tarsang, burningni partaga ishqab tashlayman!

Aylantirib solay desam, kuchim yetmaydi, battar sharmanda bo'laman. Solmay desam, qaltirab ketyapman. Yaxshiyamki, qo'ng'iroq chalinib qoldi. Tushim baxayr bo'ldimi, bo'lmadimi, haligacha bilolmayapman.

16 mart, 197... yil

Shunday voqealar bo'ladiki, eslaging ham kelmaydi. Misol uchun bugungisi.

Dars tugadi. Uyga jo'nayotuvdim, Mehri:

— Sinfni tozalash Gulnora uchovimizning zimmamizda. Ketma, — dedi.

Farmon berishini-chi! Podsho bo'lib ket-e! Kimsan — men, Ilhom, chumchuqday shu qizchaning buyrug'iga bo'ysunishim kerakmish. Tushingni suvga ayt! Mashhur odamlar hech qachon mayda-chuyda bilan shug'ullanishmagan.

— Yuvging kelayotgan ekan, marhamat. Lekin men ikki bukilib pol artmayman! — shunday deb chiqib ketayotgandim, Gulnora aralashdi:

— Nega yuvmasakansan! O'zing o'qiydigan joy-ku!

— Siz jim tursangiz bo'lardi, jib... „jiblajibon“ deb yuborishinga sal qoldi. Yaxshiki, vaqtida tilimni tiydim. Bo'lmasa, Mehri uchun g'aroyib tekin tomosha boshlanardi. Gulnoraga hayronsan. Basharasiga qarab, ko'rsan, soqovsan, iyaging qiyshiq, de, „g'ing“ demaydi. Lekin „jiblajibon“

deb qo'ysang bormi, boshing baloga qoladi. Bu so'zning nimasi yomon ekan?

— Shunaqami? Ketsang, javobini direktorga berasan!

Murod Mo'minovichning quloqiga bu yetsa, oqibati nima bo'lishini birinchi sinf bolasiyam biladi. Eshikka yetganimda noiloj to'xtadim. „Ketmasam ketmabman-da, — o'yladim ichimda, — baribir qo'limni suvga tekkizmayman!“

Deraza tokchasida oyog'imni osiltirgancha, hushtak chalib o'tiraverdim. Qizlar supurib, tozalashga tushib ketishdi. Ularga qarab turib: „Menga uni qil, buni qil, deguncha, ishimizni ko'r-u, boplab gazetaga yoz, demaysanlarmi, jibljibonlar. Mashhur qilib yubormaymanmi, bir kunda ikkovingniyam!“ — deyman ichimda.

— Beting eshakning terisidan ham qalin ekan! — dedi Gulnora chelakni taraqlatib. — Qiz bola ishlayapti-yu, bu... Ma, hech bo'lmasa bir paqir suv opke!

Tilginangni chayon chaqqur-cy, gaplarining zaharligini! Eshakning terisi... Endi ko'rasan teri nimaligini!

Uzatgan chelagini bir tepib, sinfdan chiqib ketdim. Ketishga ketdim-u, lekin hovurdan tushgan sari vujudimga vahima o'rmalay boshladi. Yaqinda matematika darsidan „quyon“ bo'luvdim. Bugun... Ertaga hamma eshitadi, Sanamgul ham, Attang, yaxshi ish bo'lmadi-da...

17 mart, 197... yil

Bugun Sanamguldan xafa bo'ldim.

Ahmad mening masalamni ko'rib chiqish uchun shoshilinch yig'ilish o'tkazdi. Shu chog'gacha masjlisda „masalam“ ko'rilmagan. G'alati bo'lib ketdim.

Birinchi so'z Gulnoraga berildi. Kechagi voqea Gulnoraning u yoq-bu yog'idan o'tib ketgan ekan.

Qalampirday achchiq so'zlarni biram qalashtirib tashladiki...

Gulnora gapirayotganda „to'g'ri-to'g'ri“lab turgan Mehri, u so'ziga nuqta qo'yishi bilan irg'ib turdi:

— Tepdi! Suv opke, desak, bir tepib chiqib ketdi! Maktabdan haydash kerak bunaqa zo'ravonni! Tag'in bu kishim muxbir emish.

— O'zini urish kerak gazetaga!

Shov-shuv, tortishuv avjiga mindi. Men bo'lsam ko'z qirim bilan Sanamgulni izlayman. Ana u!.. Go'yo bu yerdagi gaplarga sirayam aloqasi yo'qday, derazadan ko'chaga qarab o'tiribdi. Menga alam qildi. Mehrining chiyillashi, Ahmadning kuyinishi emas, Sanamgulning beparvoligi jahlimni chiqardi.

— Jim, jim bo'linglar! — stolni mushtladi Ahmad. — O'zidan so'raylik. Qani, tur, gapir?

„Senga hisob beradigan tentak yo'q!“ demoqchiydim, Sherdor sapchib turdi:

— Nega bunga yopishasizlar. Bir marta pol yuvgisi kelmasa, nima bo'пти. Shungayam maktabdan haydavoradimi? O'ylab gapiryapsanlarmi? Axir, bu maktabimizning faxri-ku!

— Faxri-faxri deyaverib, yelkamizga chiqarib oldik! — tutaqdi Ahmad. — Agar bilsang, sinfirmizga dog' tushiryapti jo'rajoning!

— E-e, qo'y-e!...

— Nimaga qo'yarkanman? Matematikadan nechta „uch“i bor? Fizikadan, ximiyadan-chi?

— „Uch“ — „ikki“ emas...

— „Ikki“dan yomon! „Ikki“ng bo'lsa, „uch“ qilay, deb tirishasan. „Uch“ing bo'lsa-chi, „ikki“ olguncha yuraverasan, og'zingni ochi-ib.

Sherdor shashtidan tushsa ham yon bergisi kelmadi:

— Adabiyotdagi „besh“lari-chi?

— Men ham shuni aytmog'chi edim, — Ahmad ham bir pog'ona pastga tushdi. — O'qiyman desa — o'qiydi. Lekin bitta fan bilan ish bitmaydi-ku. Jamoat ishlariga qatnashmaydi. Muzey tashkil etdik, urush qatnashchilarining xotiralarini yozib oldik, kichkintoylarga yordam beryapmiz. Bu-chi? — Ahmad yana qizishib borayotganini sezdimi, tomog'ini qirib qo'ydi. — Bu yig'ilishdan maqsad, Ilhomni faqat urishishmas, do'stona tanqid qilib, xatolarini tuzatishda yordam berish. Sen, hoy, og'zingga tolqon solmay, gapirsang-chi? Ayt, qanday yordam kerak?

Ahmadning oxirgi gapi ignaday sanchildi. Sapchib turib ketdim.

— Senga og'irligim tushmay qo'ya qolsin. Aravamni tortishga kuchim yetadi! — deb xuddi kechagiday eshikni qarsillatib chiqdim-ketdim. Bir alam qildi, bir alam qildi... Ular meni hech baloga aqli yetmaydigan to'nka deb o'ylasharkan-da. Sanamgul-chi? Bir og'iz gapirmadi-ya. „Xo'p, nega gapirishi kerak, — o'ylay boshladim o'zimni sal-pal bosib olgandan keyin. — Sanamgulga men kimman? Dugonasi bo'lmasam“. Uni bir marta (aytishgayam uyala-san) ko'rib... qolganman. Eslasam qizarib ketaman.

Bu — o'tgan yozda yuz beruvdi. Chayladan kelayotuvdim. Havo issiq, dim. Anhor yoqalab guzarga jo'nadim. Guzar — bolalar cho'miladigan joy. Anhor o'sha yerdan yoyilib oqadi, ikki beti qoramtir, issiq qum. Muzday suvdan chiqib, qumga yotish maza... Anhorga yaqinlashganimda tollar orasidan qiz bolaning kulgisi eshitilganday bo'ldi. Tollarning osti qalin butazor. Biz — o'g'il bolalar ilon bor deb u yerda cho'milmasdik. Yana kulgi. Atrofdan hech zog' yo'q. Oyoq uchida butazor orasidan qirg'oqqa yaqinlashdim. Yaqinlashdim-u... ertaklar dunyosiga kirib qolganday sehranib qoldim. Anhorning u betida ho'l sochlari yonoqlariga, oppoq gulli ko'ylagi badaniga yopishgan Sanamgul turar edi. U entikib nafas olar, hamma narsadan uyalib, tortinayotganday tevarakka tez-tez hadiksirab qarardi. Bu qiz men shu paytgacha ko'rib yurgan Sanamgulga sirayam o'xshamasdi.

— Sanam, tushmaysanmi? — qistadi tol shoxiga osilib oyoqlarini tapillatayotgan dugonasi. U qiz ham ko'ylagi bilan cho'milayotgan edi.

— Hozir, hozir... — Sanamgul tikilib qolganimni sezganday o'zini suvga otdi. Vujudimni juda g'alati — tushunib bo'lmaydigan his chulg'ab oldi. Biram uyaldim, biram hayajonlandim-e. Xuddi birdan ulg'ayib qolgandayman. Bolaligim anhor suviga qo'shilib, olis-olislarga oqib ketganday, men uchun tamomila yangi, ajib bir olam boshlanganday...

Bir necha kun Sanamgulning yuziga qarolmay yurdim. Ko'rsam, oyoq bosayotgan yerim esdan chiqib ketadi. Doskaga chiqqanda qarab turganini sezsam, kalovlanib qolaman.

Bir kuni u bizlarnikiga „Boshsiz chavandoz“ni so‘rab kirdi. Darrov topib berdim. Sanamgul kitobni o‘qib, „Maqtashganicha bor ekan“, dedi. Yana bironta kitob so‘rarmikan, dedim ichimda. Yo‘q. Qaytib hech narsa so‘ramadi. Xullas... Nimalar deb valdirayapman o‘zi? Sanamgul kim — o‘ttiz ikki sinfdoshning biri-da. Nega unga achchiq qilib, boshqalarning jig‘iga tegishim kerak? Jinniman-da, g‘irt jinni... Ahmadning tili o‘n qarich bo‘ldi, endi tinch qo‘ymaydi.

20 mart, 197... yil

O‘ylaganim bo‘ldi: katta tanaffusda hovliqib sinfga kirgan Qodir karnay:

— Ilhombek, direktorning oldiga! — deya tantanali ohangda e‘lon qildi va odatiga ko‘ra „Marsh!“ deb qo‘yishni ham esdan chiqarmadi.

Direktorimizning xonasiga kiryapman-u, yurak gurs-gurs tepadi.

— Keldingmi, qani o‘tir, — dedi deraza qarshisidagi stol-da allanimalarni varaqlab o‘tirgan Murod Mo‘minovich. — Xo‘sh, nima gaplar? — Murod Mo‘minovich yaltiroq ko‘zoynagini olib, dastro‘moli bilan tozalay boshladi. „Nima gapligini sizdan so‘raymiz-da, domlajon“, degim keldi-yu, yurak qani? U kishiga baqraygancha qarab turaverdim. Murod Mo‘minovich ko‘zoynagini hafsala bilan artib bo‘lgach, quyoshga solib tozaligini tekshirdi, keyin joyidan turdi. Men ham turmoqchi bo‘ldim-u, ko‘zlarida „o‘tir“ degan ma‘no sezib, bir qimirlab qo‘ydim.

— Seni esli, aqlli bola deb yurardik, faxrlanardik, sen bo‘lsang... — Murod Mo‘minovich xonada u yoqdan bu yoqqa sekin yurib gapirardi. — Sen bo‘lsang, yo taltayib ketding yoki rostdan ham ayniyapsan. Sakkiz yildan buyon shu maktabda, shu sinfdagi bolalar bilan birga o‘qib kelyapsan. Shu paytgacha hammalaring yaxshi edinglar. Mana endi, ayni aql kiradigan paytda janjal-to‘polon, shikoyat, — Murod Mo‘minovichning ovozi orqa tomonimdan eshitila boshladi. „Betimning qalini — jonimning huzuri“, deb boshimni egib oldim. — Sinfdoshlaring ustingdan shikoyat yozishibdi. „Bizni mensimaydi, adabiyotdan boshqa fanni fan demaydi“, va

hokazo... Xo'sh, nega bunday bo'lyapti? Nega mensimaysan do'stlaringni? Men jurnalni olib varaqlab ko'rdim. Baholaring judayam past. Agar ahvol shu xilda ketaversa, to'qqizinchida o'qishingga ko'zim yetmaydi. — Og'zimga tolqon solib o'tiraverdim. „O'qimasam qanday yaxshi, muallimjon! Bemalol yozuvchilik qilib yuraveraman“, degim keldi-yu, yana tilimni tiydim. — Gap shu — birinchi navbatda intizomingni tuzatasan. Qizlardan kechirim so'raysan. O'qituvchingni masxara qilganingga kelsak... — Murod Mo'minovichning ovozi ko'tarila boshladi. — O'qituvchi — o'quvchi uchun ikkinchi ota, ikkinchi ona. Odam ota-onasini masxara qiladimi? A?! Yana bemazagarchilik qilganingni eshitsam!.. — Murod Mo'minovich joyiga o'tib o'tirdi. — Muxbirligingga kelsak, yozma demayman, lekin, avvalo, darslarni qoyillat!

Tavba, Murod Mo'minovichday odam ham anavilarga o'xshab meni „ko'rolmas“ ekan. Gapini qaranglar, aniq fanlarga qiziqmasam, mendan ming yilda ham yozuvchi chiqmasmish. Ko'ramiz. Matematika, geometriya-piometriya deganlarni o'lsam ham o'qimayman. Sinfdozlarga kelsak, nimasini hurmat qilishim kerak ularni? Sherdordan bo'lagida tirnoqcha talant yo'q. Qoriga o'xshab kitobda borini yodlashdan boshqasiga yaramaydi. Men matematikani bilmasam ham robotlarning qanday qoyilmaqom ishlar qilayotgani, Oyga necha marta sun'iy yo'ldoshlar uchirilganini besh qo'lday bilaman. Murod Mo'minovich ham men bilganlarni bilmasa kerak. „Bemazagarchiliging qulog'imga chalinguday bo'lsa...“mish. Chalinsa nima qilardingiz? Zo'r kelsa, maktabdan haydaysiz-da! Qaytanga yaxshi, yozuvchilik qilib yuraveraman.

22 mart, 197... yil

Himmatdan qanday o'ch olishni bilmay yurgandim, o'zi zo'r bahona topib berdi.

Tunov kun tumanga, — redaksiyaga bordim. Madaniyat bo'limida ishlaydigan Amiriy bilan aka-ukaday bo'lib qolganmiz.

Amiriy bugun xomush edi.

— Plagiator degan so'zni eshitganmisan? — dedi u to'satdan qoshlarini chimirib.

Bunaqa so'zni eshitmagan bo'lsam ham „direktor“, „redaktor“, „traktor“ deganday gap-da, deb:

— Ha, — dedim kerilib.

— Eshitgan bo'lsang ham ma'nosini yaxshi bilmasang kerak. Plagiator — birovnikini o'ziniki qilish, — ya'ni adabiy o'g'irlik degani. Maktablaringda Himmat Xursandov degan o'qirgan, taniysanmi?

— Birga o'qiymiz, nimaydi?

— Shunaqami? Unday bo'lsa manavini bir qaragin-a?

Amiriy ikkita xat uzatdi. Xatlarning har biriga gazeta-dan qirqib olingan maqolalar qistirib qo'yilgandi. O'qib anqayib qoldim: Himmat maqola yozarkan! Yozgandayam qanaqa deng-a, gazetadan ko'chirib! Faqat nom-familiyalar, adreslar boshqacha, xolos. Voy, hiylagar-ey!

— Ko'rdingmi, bu rasvo ish. Men bularni maktabingga yuboraman.

Amiriy yuborgan xat bugun maktabga keldi.

Himmatni „sbor“da muhokama qildik. U boshida gunohini tan olmadi.

— Ilhom, uyushtirgan buni. Moxov bo'lay agar shu maqolani yozgan bo'lsam! — deb hammani ishonitirmoqchi bo'ldi. Ammo redaksiya yuborgan qo'lyozmasini daf-taridagi yozuvga solishtirib, isbotlaganimizdan keyin miq etolmay qoldi.

25 mart, 197... yil

Iskandar aka tunov kuni: „To'qqizinchidagi G'affor to'g'risida bitta she'r yozmaysanmi“, — degan edi. She'ni bitirib, u kishinikiga jo'nadim. Ko'cha changitib ketib bor-yapman-u, „nima derkin?“ deb hayajonlanaman. Iskandar akaga bir narsani yoqtirish juda qiyin. Chiroy-li so'zlarni yoqtirmaydi. Soddaroq yozsang „jo'n bo'lib ketibdi“, deb peshanasi tirishadi. Bugun bir qancha she'r olib bor-yapman „Hech bo'lmasa, bittasi yoqar“, deyman ichimda.

2 — Abdusaid Ko'chimov

O'SMIRLAR

ADABIYOTI

ADABOTIYOTI 17

57738

Qishlog'imizning kun botishidagi ko'k darvoza Iskandar akaniki. Darvozaxonaning usti boloxona. Iskandar aka ko'pincha shu boloxonada o'tiradi. Xonaning bir tomonini egallagan javon kitoblarga liq to'la. Ko'rib havasing keladi.

Iskandar aka meni doim boloxonaga olib chiqib suhbatlashadi. Bugun ham shunday bo'ldi. Men u kishiga G'affor haqida she'r bitganimni aytdim. Keyin „Bizning qishloq“ni o'qidim. (Aytganday, yozgan she'rlarimning hammasini yodlab olganman. Iskandar aka aytgan: „O'z she'rini qog'ozga qarab o'qigan shoir — shoirmas“, deb.)

BIZNING QISHLOQ

Qirlar to'la gul-qizg'aldoq,
Barglarida shudring baldoq,
Boqsang dilda qolmas charchoq,
Bizning qishloq, bizning qishloq.
Bir tarafi yam-yashil bog',
Bir yonida ko'k o'par tog',
Bir yon dala, paykal, o'tloq,
Bizning qishloq, bizning qishloq.
Odamlari ishchan, quvnoq,
Ko'kraklarda orden, bayroq,
Kelajagi juda porloq,
Bizning qishloq, bizning qishloq.

— Tuzuk, tuzuk, — dedi Iskandar aka. Keyin miyig'ida kulib, — bir qop yong'oq, — deb qo'ydi. She'r so'zbozlik emas. Har so'z xuddi prujinaday siqiq bo'lishi kerak. Bog'-tog', buloq-inoq, degan bilan ish bitmaydi. Undan keyin so'zlarning ma'nosini ham esdan chiqarma-da. „Ko'kraklarda orden, bayroq“, debsan. Odam bayroqni ham ko'kragiga taqadimi?

Ochig'ini aytsam, muallimimizning e'tirozlaridan xafa bo'ldim. „Bog'-tog'“, „buloq-inoq“ degan qofiyalarni topish uchun ozmuncha ovora bo'ldimmi?! „Juda zo'r! Ertaga o'zimizning ansamblga beramiz, qo'shiq qilib aytadi“, deydimi, desam.

— Endi, bu ... qo'shiq-da, — dedim ming'irlab.

— Qo'shiq — she'rning qaymog'i, — dedi u kishi. —
Quruq so'z qo'shiq bo'lavermaydi-da.

— „O'ynab o'ting shabbodalar, kuylab o'ting shabbodalar“-chi, buyam qaymoqmi?

Iskandar aka kulib yubordi. Keyin jiddiy tusda:

— Hamma kasal shunda-da, — dedi kuyunib. —
Radiodan ba'zan shunaqangi betuturiq ashulalar eshitilgan-
sanki, ko'ngling aynib ketadi. Mana, hozir sen aytgan
shabbodalar. O'zingga ham yoqmabdi. Shunday ekan, ma-
za-matrasiz ashulalarni ko'paytiraverishning nima keragi
bor? Axir bunaqada odamlarni qo'shiqdan bezillatib
qo'yamiz-ku! — Iskandar aka birpas jim qoldi, keyin: —
Aytmoq-chi, boshqa narsani o'qib bermoqchiding-ku, —
dedi iljayib.

— Uncha yaxshi chiqmadi-da, — dedim o'qigim kelmay.

— O'qi, o'qiyver, — Iskandar aka tirsagini stolga tirab,
eshitishga tayyorlandi. — Sarlavhasi qanaqa?

— „G'affor — shamol“.

— „G'affor — shamol“, yomonmas. Xo'-o'sh?

Tomog'imni qirib olib, o'qishga tushdim:

Sinfimizda bir bola bor
ismi G'affor,
Doim shoshib yuguradi
xuddi shamol.
„G'affor — shamol“, deymiz uni
shuning uchun,
U shamoldek hech narsada
emas turg'un.
Kasblarning hammasi ham
soz, deydi u,
Bir kishiga qirqta hunar
oz, deydi u.
Shunday deya o'z so'zidan
qaytar yana,
Har hunarga topar „lekin“
yo bahona.

Doktorlik zo'r, faqat ishi
og'ir, deydi,
Shofyorlarning egni dog'-dug',
yag'ir, deydi.
Olim bo'lish, juda soz-u,
o'qish qiyin,
Shoirlik xo'p ajoyib, she'r
to'qish qiyin.
Xullas, barcha hunar soz-u,
„lekin“i bor,
„Lekinlar“dan dakki yeydi
g'affor shamol.
Shamol kabi chopaver
shuning uchun,
Hech bir ishga sarf etolmay
zehn-u kuchin.

— Barakalla! — deb yubordi Iskandar aka sevinchdan porlab ketgan ko'zlarini menga qadab, — mana bu boshqa gap-da! Yasha!

Qulog'imga ishongim kelmaydi. Bir gal televizorda Tuyamo'yin gidrouzeliga bag'ishlangan ko'rsatuv berilgan edi. Ko'rsatuvni tomosha qilgandan keyin „Cho'ldagi quyosh“ degan doston yozib, Iskandar akaga o'qib bergandim. „Hammasi yolg'on, — degandi o'shanda Iskandar aka, — o'zing bilmagan sohaga tumshug'ingni tiqib nima qilasan?!“ Hozir ham shunday desa-ya, degan o'y tashvishlantirayotgan edi. Sababi — G'afforni bolalar „qorinboy“ deyishadi. U baqaloq, uyquchi, dangasa bir bola. Bir marta turnikka osilayotganini ko'rib, rosa kulganmiz. Ikki martagina tortingach, gavdasini ko'tarolmay, yiqilib tushgan. Men bo'lsam, uni shamolday tez, boksyorlikni, shoirlikni orzu qiladi, deb maqtaganman.

— Yasha! — yana takrorladi Iskandar aka. — Ko'rasan, bu she'r ko'p bolalarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. She'riyatning muhim vazifalaridan biriyam shu — bitta obraz orqali ko'pchilikka oid bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatish!

Iskandar akaning oxirgi soʻzlari menga, ayniqsa yoqdi. Aslida, bu sheʼr bilan Gʻafforning emas, sinfdoshlarimning ustidan kulmoqchi boʻlgan edim. Chunki Ahmadni ham, boshqa aʼlochi sinfdoshlarimni ham haqiqatda, Gʻaffordan uncha farqi yoʻq. Gap shundaki, Gʻaffor hech nimaga intilmaydi, Ahmadlar esa nimaga intilayotganini oʻzlari ham bilmay, yomon baho olmaslik uchungina harakat qilishadi.

Iskandar akaning boloxonasida uzoq oʻtirdik. Bugun u kishi judayam ochilib ketdi. Gap orasida „Kundalik“ yozayotgan-yozmayotganimni (aytganday, meni „Kundalik“ tutishga Iskandar aka oʻrgatgan) soʻradi. Yozilgan har bir sheʼrni „Kundalik“ sahifasida qoldirish kerakligini (birinchidan, yoʻqolib qolmaydi, ikkinchidan, ijoding qanday oʻsayotganini koʻrib borasan, uchinchidan... Xullas, buning foydasi koʻp) taʼkidladi. Keyin boshqa fanlardan qanday oʻqiyotganimni surishtirdi. Gap orasida Abu Rayhon Beruniyning yirik olim boʻlgani, astronomiya, matematika, yana geodeziya degan allaqanday sohalarda asarlar yozganini, shu bilan birga zoʻr shoir ham boʻlganini aytib berdi. Soʻnggi vaqtlarda baʼzi bolalarning bilimi bir yoqlama boʻlib ketyapti, dedi xafa boʻlib. Hatto ayrimlari hozirda „Men falon fanni oʻqisam bas, boshqasining keragi yoʻq“, deb yurgan emish. Hayronman — miya tiniqligida, ishtiyoq borligida oʻqib, oʻrganib olmaydimi hamma narsani!

Iskandar aka kimga shama qilayotganini aniq sezdim: meni aytyapti, meni! Birortasi bu kishini ham „yoʻldan urgan“ga oʻxshaydi. Ishqilib, bizga tinchlik yoʻq ekan-da...

20 aprel, 197... yil

Bahorning kelganini koʻpchilik sezmay qoldi. Hatto har yili guzarimiz ayollari bilan katta qozonda sumalak pishiradigan onam ham bu yil sumalak qilishga ulgurolmadi. Janubdan esgan iliq shamol bir haftada yaxni eritdi, yerni yumshatdi. Yaqingina oppoq qor tagida yotgan dasht birdan uygʻonib, koʻm-koʻk maysaga burkandi. Chor-atrof traktorlarning hayqirigʻi, aravalarning taraq-turugʻi, odam-

larning baqiriq-chaqirig'iga to'lib ketdi. Tuproq hidi, chechaklar hidi olamni tutdi.

Dasht deganim — qishloq etagidag† past-u baland tepalarning orti. Qachondir to'qayzor, chimzor bo'lgan. Hozir qishlog'imizdagilarni boqayotgan, yedirib-kiydi-rayotgan shu — saxiy dasht. Dashtdagi yerlar jamoa xo'jaligi a'zolariga oiladagi ishlovchilar soniga qarab taqsimlab berilgan. Hamma oilaning o'z paykali bor. Har bir oila o'z yeriga ishlov beradi. Odamlar dashtdagi yerini tomorqasidan ortiq ardoqlaydi. O'zlari allaqayoqlardan go'ng topib dalasini to'ydiradi.

Bizning yer tepalikning biqinida. Bir gektardan mo'ltroq. Kuzda, tamakipoyalar o'rib olingandan so'ng, akam ikkovimiz dalaga ellik eshak arava go'ng tashib olgan edik. Traktor haydagandan keyin yer xamirday ko'pchib ketdi. Otam, akam, men — uchovimiz bir kun kechgacha plug ariqcha qilib ketgan joylarni ketmon bilan tekisladik. Tepalikdan chim o'yib, o'qariq yoqasiga keltirib terib qo'ydik. Bugun yakshanba, tamaki ekamiz...

Tamaki ekish juda qiyin. Nihol jildirab suv oqib turgan jo'yakka ekilmasa, amal olmaydi. Oyoqyalang, loy kechib har qarichga bittadan ko'chat o'tqazishing kerak. Bir gektar yerga 12–13 ming tup ko'chat ketadi. Bu bir gektar yerga tamaki ekish uchun 12–13 ming marta engashib turish kerak, degan so'z. Oyoqlaring muzlab, beling tarashaday qotib ketadi...

Kecha parnikdan tamaki ko'chatlarini yulib, savat-u yashiklarga joylab qo'ygandik. Ertalab aravaga ortdig-u dashtga jo'nadik.

Zaxlab, tepagacha qop-qorayib ketgan jo'yaklarda suv mildirab oqyapti. Ko'kragi ochiq, yaktagi-yu tizzagacha shimarilgan keng cholvariga loy yopishgan otam o'qariq boshida nazorat qilib turibdi. Goh suvni shaloplatib ariqqa tushadi: suvi ko'payib ketganlarini ozaytiradi. Muzday suvni ham, salqin shabadani ham pisand qilmaydi.

Ertaklardagi boshi majaqlangan ajdarday qishloq ustiga suzib ketayotgan qoramtir bulutlarga xavotirlanib qaray-qaray aravadagi yukni yerga tushirdi. Halizamon hashar-

chilar kelib qolishadi. Shungacha samovar qaynatib, hamma narsani taxt qilib qo'yish kerak. Kecha qarindosh-urug'larga, qo'ni-qo'shnilarga, jo'ralarimizga xabar qilganmiz. Men ham do'stlarimga, sinfdoshlarimga aytganman. Bugun Sanamgul ham keladi.

Baland tog'ning kunchiqar beti qizardi, bulutlar qizg'aldoq tusiga kirdi. Birin-ketin hasharchilar kela boshladilar. Sherdor, Ahmad, Kenja (bir-birimizni ichimizda suymasak ham bunaqa paytlarda gina-adovatlar unutiladi) nihoyat, Sanamgul...

— Qani, yosh avlod, bugun bir bellasharkanmiz-da! — shimining pochasini shimararkan, iljaydi Asad aka.

— Baribir, biz yutamiz! — bolalarga qarab ko'z qisdi Ahmad.

Ko'chatlarni olib, etak tarafdin jo'yaklarga kirdik. Suv muzday, badaning junjikadi. Chapda Sherdor, o'ng tomonimda Sanamgul. Undan keyin Mehri, Gulnora.

Gulnoraning naryog'ida akamning sinfdoshlari, undan keyin qarindoshlarimiz, jami o'ttiz kishi qaldirg'ochday tizilib tamaki ekib ketyapmiz.

— Sanamgul, qachon ekmoqchisizlar? — so'radim boshimni ko'tarmay.

— Otam, kelasi yakshanbada, dedilar.

— Shu tamakiniyam mexanizatsiyalashtirsa bo'lmasmi-kin? — po'ng'illadi Sherdor.

— Nima, tamaki senga olma yoki anormidiki, karsillatib kavshaysan. Turgan-bitgani zahar-ku! Kimga keragi bor bu zormandani! — zarda qildi Ahmad.

— Ko'p bilag'onsan-u, shunga qolganda aqling kaltalik qiladi, — dedi Kenja burniga tushib qolgan ko'zoynagini loy barmog'i bilan ko'tarib qo'yarkan.

— Ahmad to'g'ri aytdi, bir grammi otni o'ldiradigan bunaqa zaharni hech kimga keragi yo'q. — Sherdor shunday deb o'ziga bir dunyo gap sotib oldi.

Kenja qizishdi.

— Keragi yo'qmish. Tamakimiz qancha mamlakatga yuboriladi, shuni bilasanmi?

— O'zing-chi, o'zing bilasanmi? — bo'sh kelmadi Sherdor ham.

— Bir yuz o'ttiz beshta davlatga! Bundan tashqari, bizning tamaki dunyoda eng sifatli hisoblanadi. Papiros deganing — tamaki qoldig'i. Tamakidan shunaqangi zo'r dori-darmonlar olinadiki... senga o'xshaganlar yetti uxlab tushida ham ko'rmagan.

— Pakash-e, balo! Ensiklopediya deganimizcha bor.

— Shuncha aziz ekan, nima uchun hech kim e'tibor bermaydi. Shu chog'gacha hatto ekadigan traktor yo'g'-u...

— Bo'ladi! — kattalarday Sherdorni jerkidi Kenja. — Kosmosgayam bir cho'pchip chiqilgan emas...

Sherdorning gapida ham jon bor. Tamakining ishi og'ir: ekishdan, yig'ib olish-u toylab topshirishgacha bo'lgan hamma yumush qo'lda bajariladi. Qaysi yili bitta ekadigan mashina kelgan edi. Lekin sinovdan o'tmadi. Mashina niholning ildizini sindirib ketarkan. Barg tizadigan mashina ham o'zini oqlamadi. Bultur bittasini opkelishuvdi. Nomi avtomatika-yu, besh kishi ovora: bittasi barg taxlashi, bittasi igna moylashi, bittasi ip o'tkazishi, bittasi mashinaga ko'z-quloq bo'lishi... Besh kishi sarson-u, mashina jonivor kun bo'yi o'n ip tamaki tizibdi. O'n ipni bir kishi yarim kunda tizishi mumkin. Lekin ensiklopediya aytganday, asta-sekin mashinalar yaratilsa ajabmas...

— Hey, armiya! Ekishga keldinglarmi, gap sotishgami! — bizga dakki berdi Asad aka. — Changimizgayam yetolmay qotyapsanlar-ku!

Burnimiz yerga tekkuday bo'lib baravariga enkayamiz. Jo'yaklardan go'ng aralash zax isi anqiydi.

Tushlikni ham shu yerda — ajriq qoplagan uvatda qildik. Tushdan keyin havo ayniy boshladi. Osmonda qop-qora bulutlar ko'rindi. Yomg'ir hidi keldi. „Yana bir-ikki soat yog'may tursin-da, — deyman ichimda. — Buncha hasharchini ertaga qayerdan topasan“.

— Ilhom, bitta she'r aytib ber, — deb qoldi bir mahal Sanamgul.

Entikib ketdim. Shu istakni o'zi aytdimi yoki... Qani endi she'r o'lgur esga kelsa.

— O‘zingni buncha taroziga solmasang, — piching qildi Ahmad. — Aytsang ayt-da.

O‘ylab-o‘ylab esimga tushgani „Bizning qishloq“ bo‘ldi. O‘shani o‘qidim.

— Boshqacharog‘i yo‘qmi? — dedi Sanamgul hafsalasi pir bo‘lganday.

— Bunaqasini bog‘cha bolaga ayt, — mug‘ambirona iljaydi Ahmad.

— Bizga, e, yo‘q, bunga haligidaqasidan, „Seni sevaman jo-ondan“, deganidan kerak, shoir bola!

Atrofdagilar kulib yuborishdi. Sanamgul:

— Seni qara-yu,.. — dedi-da, qip-qizarib, enkaygancha to‘rt quloqli nihollarni xamirday yumshoq yerga qaday ketdi. Yashil durrachasi ostidan toshib turgan qop-qora sochlariga qo‘llarimni tekkizgim keldi...

Bulutlar quyuqlashdi. Osmondan Sanamgulning ziragiday yaltiroq tomchilar tusha boshladi. „Sharillatib quysang ham mayli, — dedim ichimda. — Biz ekishni tugalladik“.

Charchagan bo‘lishimga qaramay, o‘zimni qushday yengil sezardim. Chimli so‘qmoqdan toyg‘ana-toyg‘ana Sanamgul bilan yonma-yon chopib ketarkanman, go‘yo qanot chiqarib, qandaydir noma‘lum, sirli olam sari uchib ketganday edim...

26 aprel, 197... yil

Maktabga borsam, ilmiy mudir Normamat aka Tog‘aymurodovich kutib turgan ekan.

— Sal vaxliroq yo‘lga chiqsang bo‘lmaydimi? — dedi oldiga yaqinlashishim bilan Normamat aka. — Tez bo‘l, tumanga boramiz. Redaksiyadan telefon qilishib, seni so‘rashibdi, — izoh berdi Normamat aka hayron bo‘lganimni ko‘rib, — men tumanga borayotuvdim. Birga ketamiz.

Quvonib ketdim. Meni so‘rashibdi! Atayin, telefon qilib... Qani shu payt yonimda Ahmadmi, Himmatmi bo‘lsa-yu, bu gaplarni eshitsa. Redaksiyadagilar shuncha bola o‘qiydigan maktabdan faqat meni chaqirishganini bilib qo‘yishsa...

Maktabimizning yuk mashinasida tumanga ketyapmiz. Normamat aka kabinada, men tepada. Qarshidan esayotgan

shamol sochlarimni tortqilaydi. Dalalar, olisdagi tog'lar atrofimda gir-gir aylanadi. „Nimaga chaqirishdiykin? — so'rayman dam-badam o'zimdand. — Kirib borishim bilan „Sizni gazetaga ishga olamiz. Bugundan boshlab mana shu stol sizniki“, deyishsa-ya!“

Redaksiyaga yetguncha shirin xayollar og'ushida osmonning yettinchi qavatida uchib yurgan odam, Amiriyi ko'rgan zamonog, yettinchi qavatdan gursullab yerga urilganday hushyor tortib qoldim.

Hamisha chehrasidan tabassum arimaydigan ustozimning qovog'idan qor yog'ardi. U savolimga javoban ko'zlarini qisib, g'alati qarash qildi. Turqini o'zgartirmay, stol tortmasidan „Delo“ deb yozilgan papka oldi. Papka to'la edi. U xatlar orasidan bittasini ajratib, „Delo“ni chetga surdi. Ajratilgan xatni darrov tanidim — Xursand tulki haqida felyetonim.

— Biz senga ishonsak... — Amiriy felyetonni qo'liga oldi. — Bu yerdagi gaplarni qayerdan topding?

— Qaysi gapni?

— Limonadni 50, pirojkini 20 tiyin, pecheniyi bir so'mdan pullaydi, deganingni aytyapman.

Yengil tortdim. Shunga shunchami?

— Tulkining o'zi shunaqa sota...

— Tulki emas, Xursand aka! — so'zimni cho'rt kesdi Amiriy. — Senga kim qo'yibdi halitdan otang tengi keladigan odamga laqab qo'yishni. Bu yerdayam nuqul „tulki-tulki“ debsan. Uyatmasmi?!

Nafasim ichimga tushib ketdi. Amiriy tamaki tutatdi. Ikki-uch buruqsitib tortdi.

— Xo'sh, qayerdan olding?

— U-u. Xursand amaki shunaqa sotadi, — ovozim o'zimga zo'rg'a eshitildi.

— Shunaqami, unday bo'lsa manaviga nima deysan? Amiriy yana bitta xat olib havoda silkitdi. — Bunga tuman matlubot uyushmasining revizori qo'l qo'ygan. Xatingni tekshirgani yuborgandik. Ular Xursand aka uzoq yillardan buyon halol ishlab kelyapti, deyishgan. Xo'sh?

— Ular... ular sizni aldashibdi. Ishonmasangiz, yuring, hozir ham shunaqa qiladi.

Amiriy deraza oldiga borib, birpas o'ylanib turdi-da, so'ng tez kelib, telefonni ko'tardi. Qandaydir nomerni shoshilib terdi. Lekin hech kim bilan gaplashmay, yana joyiga qo'ydi. Menga sinovchan tikildi.

— Gap bunday, — dedi xiyol yumshoq tovushda. — Sen ketaver, kerak bo'lsang chaqiraman.

15 may, 197... yil

Amiriy qachon chaqirar ekan, deb ilhaq bo'lib yuribman. Ammo haligacha hech qanday xabar yo'q. Shu orada tamaki chopiq ham boshlanib ketdi.

Butun qishloq shu kunlarda dashtga ko'chib chiqqan. Uvatlarda qator-qator chaylalar. Yer o'choqlarda choydosh biqillab qaynaydi.

Kuzdagi ellik arava go'ngning sharofati bo'lsa kerak, paykalimizni shunaqangi o't bosib ketdiki, yarim qarich, bir qarich bo'lib qolgan tamaki g'umay, shamak, sho'ra kabi begona o'tlar orasida arang ko'rinadi.

Otam, akam, hatto o'n yoshli Umarcha ham tesha ko'tarib, o't chopadi. Qani endi, o't degani ado bo'lsa! Avval besh-olti qadamcha joydagi o'tni yulib, tamaki nihollarini ochib olamiz. Keyin ketmon bilan jo'yak ustidagi o'tlarni chopamiz. Ish sira unmaydi. Shuncha odam kun bo'yi ikki qator tamakini o'tdan tozalasak ham katta gap. Nihollar o'zini tutib olguncha shu xilda uch marta chopiq qilish kerak. Keyin traktor kultivatsiyani boshlasa bo'ladi. Ungacha traktor paykalga kirsa, nihollarni tuproq ko'mib tashlaydi. Chopiqdan keyin hamma jo'yaklarga qo'ling bilan bukchayib o'g'it sepib chiqish ham kerak. Qisqasi, ensiklopediya maqtagan bu „bebaho o'simlikni“ „odam“ qilib olguncha ona suting og'zingga keladi. Yaxshiyamki, maktab bor. O'qish bahonasida tushgacha dam olasan. Yo'qsa... Qo'shni paykalda Sanamgullar ham tamaki chopiq qilish-yapti. Belga dam berish bahonasida tez-tez Sanamgul tomon qarab qo'yaman. U bosh ko'tarmay ishlagani-ishlagan. „Nima qilsam u menga qararkin-a? — o'ylayman ichimda. — Ba-

qirib qo'shiq aytsammikin. Yoki Xolmatga o'xshab xat yozsammikin?" Voy Jirafa-yey, kesakdan olov chiqadi desa, ishonish mumkindir. Lekin Jirafaning ko'nglida shuncha gap borligiga... Aytsam, eshitgan odam ishonmaydi yoki kulaverib ichagi uziladi.

Nega deysizmi? Hozir aytaman.

Kecha maktabdan kelsam, otam allaqayoqqa ketayotgan ekan. „Kelgunimcha chaylaga borib tur, deb tayinladi. Sevinib ketdim. Birinchidan, tamaki chopishdan qutuladigan bo'lsam, ikkinchidan — chayla maza. Qovjiragan yaproqlarning shabadada shitirlashiga quloq solib, kitob o'qib yotasan. To'rt tomoning bog'. Gilos, chilgi, ertagi olma pishay deb turibdi.

Bog'ni bir aylanib kelib endi chaylaga kirgandim, bir nima shitirladi. Qarab dong qotib qoldim: Xolmat! Yolg'izligimni bilib o'chini olmoqchi bo'lib kelgan. Chaylaning burchagida otamning o'rog'i turibdi. Bir ko'nglim turiboq o'roqni olay ham dedim. Lekin Xolmat ichkari kirishga botinolmay turgani uchun fikrimdan qaytdim.

— Ke, kelaver, — dedim o'zimni botir ko'rsatib. — Nima qipyuribsan bu yoqlarda?

— O'zim, shunday. O'tib ketayotsam, turgan ekansan. Birpas o'ynaylik deb...

„Aldayapti. Ataylab meni qidirib kelgan. Ko'zi aytib turibdi. Bir gap bor. Yoki gilos o'g'irlamoqchimikin?“

Xolmat indamay yonimga kelib o'tirdi. Oldimda turgan kitobni ikkilanibroq qo'liga oldi.

— O'qimoqchimiding, qanaqa kitob?

— Indeyslar haqida.

— Sen ko'p o'qiysan. Yozganlaring ham zo'r.

Kechagina „muxbircha“ deb o'shqirayotgan odamning bunday deyishi... Hayron bo'lib unga qaradim. Xolmat ko'zini olib qochdi. Keyin:

— Meni yomon ko'rasan-a, — dedi sekingina.

Indamadim. „Bunda bir gap bor. Meni gapga solib, u yoqda Himmati gilosni shipirib ketmasa go'rgaydi“.

Bir muddat ikkovimiz ham jim qoldik. Nihoyat, Xolmat sukutni buzdi.

— Haligi... senga bitta iltimosim bor edi, — dedi u chaynalib.

— Iltimos? Qanaqa iltimos?

— Yo‘q demayman desang, aytaman.

„Aytmasang undan nari“, demoqchi edim. Lekin uning mung‘ayib o‘tirishiga qarab unday deyolmadim.

— Ayt, qani.

— Hech kimga aytmay-san-da, maylimi?

— Sen yolg‘on gapirmaysan-kuya... — Xolmat gapni nimadan boshlashini bilmay, o‘ylanib turdi. — Shu haligi, bitta xat yozish kerak edi-da. Hecham esimdan chiqarmasdim.

— Shunga shunchami? — dedim haliyam maqsadiga tushunolmay.

— Bilmaysan-da, juda qiyin, — dedi u xiyol jonlanib. — O‘zimcha ko‘p urindim, hech chiqmadi. O‘ylab-o‘ylab, oxiri sendan yordam so‘ray, deb... Gazetaga yozasan-ku, chiroyli gaplarni ko‘p bilasan.

— Muncha chaynalding, qanaqa xat, kimga yozish kerak?

— Haligi, bittasiga-da... — Xolmat duduqlandi.

Xayolimga „lop“ etib anhor bo‘yida turgan Sanamgul keldi. Hayajonlanib ketdim. „Voy Jirafavoy-e, yaxshi ko‘rib qoldingmi!“ deb yuborishimga sal qoldi.

— Gapir, gapir... — deb qistadim uni.

— Bilding-ku, bilib turibsan-ku. Endi... shu bitta qizga-da... — yelkasidan tog‘ ag‘darilganday yengil tortdi Xolmat. — Bilasanmi, tushimdayam... E, odamni yomon jinni qiptashladi-da. — Xolmatning yana bir nimalar degisi kelar, lekin so‘z topolmay duduqlanardi. U qizarib-bo‘zargan sayin qiziqishim battar oshardi. Gapirsa, ko‘proq gapirsa, deyman.

— Shuytip, haligi... xat yozib hammasini aytay dedim. Unday yozaman — bo‘lmaydi, bunday yozaman — bo‘lmaydi. O‘zing boplab ber, she‘rlar qo‘shib.

Xolmatning hayajoni, vujudimni qamrab borayotgan allaqanday tuyg‘ular o‘rtadagi gina-adovatni esdan chiqarib yubordi.

— Hozir boplaymiz! — dedim to‘lqinlanib. — Qog‘oz-qalaming bormi?

— E, yo‘-yo‘q. Birdaniga yozib bo‘lmaydi, — e‘tiroz bildirdi Xolmat. — Avval pishitib olish kerak.

— Nimani pishitadi? Qog‘ozingni ol. Kimga yozamiz? Men battar jo‘shib ketdim.

— Haligi... otini qo‘ymaylik. Hozircha, „R“ ga desayam bo‘laveradi-yu... — dedi Xolmat o‘ng‘aysizlanib.

— Menga ishonmasakansan...

— Ishonaman, ishonaman. Ishonmasam oldingga kelarmidim. Lekin haligi... u nima deyishini bilmayman-da hali, bordi-yu, „yo‘q“ desa...

— Iye, hali o‘zi bilmaydimi?

— Bilsa-ku... Hozircha nomini aytmaylik. Xo‘pmi?

— Mayli, mayli, lekin otini aytganingda yaxshi bo‘lardi-da.

— Aytaman. Javobini olgan zahoti birinchi bo‘lib o‘zingga aytaman. — Xolmat qushday yengil tortib joyidan turdi. Chayladan chiqayotib, bir narsa esiga tushganday qayrilib qaradi: — Faqat, haligi... labing unday, ko‘zing bunday degan gaplar kam bo‘lsin, xo‘pmi?

— Mixday qilamiz. Ertaga olasan.

Xolmat ketdi. Uning orqasidan qarab turib kulgim, dalani boshimga ko‘tarib qo‘shiq aytgim keldi. „Bekor ketib qoldi-da, yana birpas gaplashib o‘tirsak bo‘lar ekan“, deyman. Qiziq, „R“ si kim bo‘ldiykin? Sinfimizda ismi „R“ harfi bilan boshlanadigan... Robiya! Agar o‘sha bo‘lsa, bechora Jirafaning sho‘riga sho‘rva to‘kilibdi, deyavering. Gapini ikkita qilsa, yoqasidan olishdan ham qaytmaydi u qiz. Lekin tili zahar bo‘lsayam o‘zi chiroyli. Manglayida hind qizlarinikiga o‘xshagan no‘xatday xoli bor. Jirafavoy-e, didi zo‘r! Kim bilsin, balki Robiya emas, boshqa sinfdagi qizlardandir. Maktabda ismi „R“ bilan boshlanadigan qizlar ozmi? Undan keyin, Xolmatvoyni „jinni“ qilganning haqiqiy nomi „R“ bilan emas, „M“, „T“ yoki boshqa harf bilan boshlanishi ham mumkin-ku. Bo‘pti, endi ishga kirishaylik. Lekin „ishga kirishish“ juda qiyin bo‘ldi. „Salom, hurmatli „R“ deb boshlayman-u, ko‘z oldimga anhor bo‘yida turgan Sanamgul keladi. Chayladan chiqib, bog‘ga, ariq bo‘yini

qoplab yotgan giyohlarga, chimli, ajriqli so'qmoqqa zavqlanib tikilgim keladi. Bedazor tarafdin yo'ng'ichqa gulining odamni entiktiruvchi isi keladi. Qishda ana shu bedapoyada ko'pkari bo'ladi. Qulog'im ostida chavandozlarning dashtni larzaga soluvchi hayqirig'i eshitilgandek bo'ladi. Mening ham hayqirgim keladi. Zo'r otim bo'lsa, minvolib, hayqirib chopsam: „He-he-he!“

Kechasi o'chiraverib, yozaverib-yozaverib, o'chiraverib, oxiri xatni tugatdim. Ertalab maktabga borgan zahotiyoy uni egasiga bermoqchi edim, Xolmat qo'ng'iroq chalinganda keldi. Ulgurolmadim.

Birinchi soat adabiyot darsi edi. O'qituvchi yo'qlama qilayotganda, orqamda o'tirgan Himmat yelkamga turtib:

— Kitobingni berib tur! — dedi.

Berdim. Dars boshlandi. Anchadan keyin orqadan „piq-piq“ kulgi eshitildi. Ahamiyat bermadim. Bir mahal, dars eng qizigan paytda Robiya ho'ngrab eshikka qarab chopsa bo'ladimi?!

— Qayoqqa! Qayt! — dedi Iskandar aka hayron bo'lib. — Qayt orqangga, Robiya!

Robiya esa qaytmadi. Yig'lab sinfdan chiqib ketdi.

— Nima bo'ldi? — so'radi Iskandar aka bolalarga yuzlanib. — Kim xafa qildi Robiyani?

— Nimagaligini anavi Majnun aytsin? — deb shang'illadi Robiya bilan bir partada o'tiradigan Hanifa qo'lini menga bigiz qilib.

— Oshiq bo'pqopti! — deb hirlingladi kimdir.

Bolalar kulib yuborishdi.

Birov o'tmas bolta bilan urganday boshim zirqirab ketdi. Xat „Adabiyot“ kitobining ichidaligi esimga tushdi. Jonholatda orqaga burilib:

— Xat qani?! — deya Himmatga g'azab qildim.

— Mana! — Himmatning o'rniga javob qildi Hanifa va qo'lidagi qog'ozni Iskandar akaning oldiga — stol ustiga olib borib qo'ydi.

Bo'shashib ketdim.

— Qayerdan olding buni? — Hanifadan so'radi Iskandar aka.

— Nilu berdi.

— Men Anvardan oluvdim, — so'ramasidanoq javob berdi Nilufar.

Xat birpasda butun sinfni aylanib chiqibdi.

Bolalarning „Oldim-oldim“i Himmatga kelib to'xtadi.

— O'zi berdi. Kitobni ichida ekan, — dedi Himmat bamaylixotir.

Iskandar aka xatni qo'lida tutganicha bizga qarab kela boshladi.

— Xat... Robiyaga emas, u-u... — deya duduqlanib o'rnimdan turib ketibman.

Iskandar aka menga indamay, to'g'ri Himmatning oldiga bordi.

— Nega birovning xatini so'roqsiz o'qiding?

— Kitobning ichida turgan ekan. Nimaykin, deb ochib qaragam...

— Bu qilg'ing nima deb atalishini bilasanmi? Pastkashlik, ablahlik bu!

— Men... haligi... — Himmat dovdirab qoldi.

— O'tir!

Iskandar aka boshqa hech nima demay, xatni oldimga qo'ydi.

— Hanifa, bor, Robiyani chaqirib kel, — dedi keyin Hanifaga.

Hanifa dik etib turishi bilan koridordan qo'ng'iroqning bo'g'iq ovozi eshitildi.

Odatda, qo'ng'iroq jiringlashi bilan shov-shuvga to'ladigan sinf hozir jimjit edi. O'ttiz ikki juft ko'z hayajon ichida Iskandar akaga qadalgan. Iskandar aka kitob-daftarlarini jigarrang portfeliga joylab bo'lgach:

— Ilhom, men bilan yur! — deb eshik tomon yo'naldi.

Tamom! Xolmatni axtardim. Boshimni baloga qo'ygan oshiq miq etmay partasida mixlanib o'tiribdi. Rangi dokaday oppoq. Qo'rqqo! G'ing demay tomosha qiladi-ya! Iskandar akaga nima deyman endi? Direktorning oldiga olib borsa-ya?! Ko'chaga qarab ura qochsammikin? Qochib qayoqqa ham borardim? Ertaga yana shu gap-da. Bo'lganicha bo'ldi, bor gapni aytaman.

Iskandar aka direktorning xonasiga emas, hovliga qarab yurdi. Maktab hovlisi bolalarning qiyqirig‘-u kulgisiga to‘la edi. Yelib-yugurib o‘ynash qanchalik rohat ekanligini hech qachon o‘sha paytdagichalik his qilmagandim.

Iskandar aka sport maydoncha yonidagi tut ostiga qo‘yilgan taxta kursiga borib o‘tirdi. Nafasimni ichimga yutib, yerga tikilib turibman. Yuziga qarashga yurak betlamaydi.

— Nega qaqqayib turibsan, o‘tir.

Tik turaverdim. Iskandar aka boshdan oyog‘imgacha qarab chiqdi. Qarashlarida g‘azab emas, kulgi-zavq borday edi.

— Xo‘sh, gapir, qani. Nima bo‘ldi, Robiyaga nima deding?

Shu payt Xolmat halloslab keldi-da, yonimda boshini egib turaverdi.

— Senga nima kerak? — dedi hayron bo‘lgan Iskandar aka.

Xolmat yalt etib menga qaradi. Keyin Iskandar akaning yuziga qarolmay:

— Men... men... — deb g‘ulduradi.

— Bor, ishingni qil! — Uni jerkib berdi Iskandar aka.

Xolmat arang boshini ko‘tardi, Iskandar akaga javdirab boqib:

— Xatni men yozuvdim, — dedi zo‘rg‘a.

Iskandar aka turib ketdi.

— Xatni ber! — Iskandar aka xatni oldi. Bir menga, bir Xolmatga qarab. — Xatni o‘qisak bo‘ladimi? — dedi. Ammo javobimizni kutib o‘tirmay, buklangan qog‘ozni ochdi. Xolmat ikkimizning ko‘zimiz o‘qituvchida. Iskandar akaning ichidagilarni yuzidan o‘qib oladiganday, har bitta harakatini kuzatamiz. Nihoyat, Iskandar aka xatdan ko‘zini oldi. G‘azablandimi? Yo‘q, masxara qilyapti. Yo‘g‘-e, kulyapti-ku.

— Obbo, senlar-ey, — dedi Iskandar aka ancha yengil tortganday. — Vahimalaringni ko‘rib yuragim orqamga tortib ketuvdi-ya. Qani, mundoq o‘tiringlar-chi. — Iskandar aka bilan yonma-yon kursiga o‘tirdik. — Buncha titramasanglar. Hech bir yomon joyi yo‘q-ku buning. Do‘st bo‘laylik, men seni hurmat qilaman, deyilibdi. Xo‘p, nimasi yomon? —

Iskandar aka tilida shunday degani bilan dilida boshqa gap bor. Ammo xatda chindan ham shundan bo'lak „yomon“ so'z yo'q edi...

— Hayronman, buning nimasi qo'rqinchli? — davom etdi Iskandar aka, — qiz bola bilan o'g'il bola do'stlashsa, judayam yaxshi-ku! Bir sinfda o'qigandan keyin hamma bola o'zaro do'st bo'lishi kerak! — Biz Iskandar akaning nima demoqchiligini bilolmay, karaxt bo'lib qoldik. Yaqinda sinfdan tashqari dars o'tamiz. Darsning temasi mana shu. — Iskandar aka xatni qo'limga tutqazdi. — Do'stlik! O'g'il bola bilan qiz bola o'rtasidagi do'stlik! Hozirdan tayyorgarlik ko'raveringlar. Endi sinfga marsh!

Bechora Jirafa biram quvondi-yey.

— Yaxshiyam Iskandar aka bor ekan-a, bo'lmasa o'lar-dik, — dedi entikib.

— Himmatingni ko'rsatgan karomati-da!

— Hayvonakan. Shoshmay tursin hali!

Eshik oldida Sanamgul bilan Mehri-ga duch keldik.

— Qiz bolaga xat yozguncha, „uch“ laringni tuzatsang bo'lardi! — deb piching otdi Mehri. Sanamgul bo'lsa qovog'ini ochmay o'tib ketdi. Shundan buyon ko'rsa, ko'rmaganga oladi. Biror nima so'rasam, ensasi qotib, labini buradi.

...Umuman, Robiya bilan yarashgan bo'lsam ham shivir-shivirlar hali tingan emas. Ba'zilar meni Majnun, Robiyani Layli deyishayotgan emish. Robiya ham shu mish-mishlarga ishonadi, men bilan gaplashmaydi. Tentak!

26 may 197... yil

Tamaki tizish boshlandi. Endi uyquning ham tayini bo'lmaydi: sahar turib, shomda yotasan.

Otam bugun ham azonda hammamizni uyg'otdi:

— Juma, Ilhom, turinglar! Kun tush bo'lib ketdi!

Irg'ib turdim. Otam darvozaxonada turibdi. Hozir chay-ladan kelgan, qo'lida o'roq, oyog'i ostida bir bog' ko'm-ko'k o't. Apil-tapil yuzimni yuvib, eshakni olib chiqish uchun og'ilxonaga chopdim.

— Jumang qayerda? — so'radi otam olovni lang'illatib

sut pishirayotgan onamdan. Onam olazarak bo'lib darvozaga qaradi.

Akam kecha kechqurun Tegirmon boshiga ketuvdi. O'ninchi sinfdagilar Tegirmon boshidan bo'z yer ochib, makkajo'xori ekishgan. Akam brigadir. Uydayam, ko'chadayam o'ylagani — makka. Maktabni bitirgandan keyin besh og'ayni jamoa xo'jaligida qolib, o'sha yerda ishlashmoqchi. „Ikki-uch yil zo'r berib ishlab „Jiguli“ olaman, keyin o'qiyman“, — deydi akam. Otamning orzusi esa akamni katta shaharda o'qitish. „Men mushtdayligimdan hozirgacha ketmon chopdim, — deb nasihat qiladi otam bizga. — Shukur, birovdan kam joyim yo'q. Lekin bizlarning zamona boshqacha edi. Hozir zamon — o'qiganniki. Sizlar yaxshi o'qinglar. Yaxshi o'qisanglar, olim bo'lasizlar, rais bo'lasizlar“. Otam, imtihonlarga tayyorlansin, deb akamni uy ishlaridan ozod qilgan. Akam bo'lsa, otam uydan ketishi bilan Tegirmon boshiga qarab zipillaydi...

Otam o'rog'ini zarb bilan ayvon ustuniga sanchdi.

— Yana Tegirmon boshiga ketdimi? O'qimasa, shiltaga botib yuraversin. Ayt, kelishi bilan dashtga borsin. Tamaki tizsin. Ahmoq bola.

— Bora solib qaytaman devdi, — akamni oqlamoqchi bo'ldi onam. — Hozir kepqoladi.

— Menga qara, uning-ku bola. Seni qaysi jin chaldi! — Onamga zug'um qildi otam. — Nimaga o'g'lingni qaytarmaysan? — Otam, „kuydirdinglar-ku“, deganday supa chetiga to'nkarib qo'yilgan savatga o'zini tashladi. Tut novdasidan to'qilgan eski savat yoyilib ketdi. Otam qo'li bir yoqda, oyog'i bir yoqda o'tirib qoldi.

Tezroq bu yerdan chiqib ketish uchun eshakni aravaga qo'sha solib, ko'chaga haydadim.

Ko'cha nimqorong'i, moviy osmonda yulduzlar — mening yulduzlarim charaqlab turibdi. Otam aytgan tushga hali juda uzoq.

Aravada bir-birining pinjiga tiqilishib o'tirgan ukalarimga qarab turib yulduzlarga havasim keldi. Ularga maza. Otasi saharlab uyg'otmaydi...

Rostini aytsam, tamaki tizish boshlangandan beri otamning avzoyidan yuragim zada bo'lib qolgan. Ba'zan saharda o'yg'onib ketaman. Lekin otamning „Juma, Ilhom!“ degan hayqirig'ini eshitmaguncha ko'rpadan chiqqim kelmaydi.

Dalada ish qiziganda, otam na bizni, na o'zini ayaydi. „Yozning bir nafasi, qishning bir oyidan qimmat, — deydi otam. — Foydalanib qolish kerak“. Shunaqa paytlarda „o'qinglar“ deganiga ham ishongim kelmaydi. O'qinglar, degan odam sharoit yaratib bersin-da! Besh kishi maktabga qatnaymiz-u, uyda bitta stol yo'q. Qishda sandalda, boshqa paytlari duch kelgan yerda uzala tushib, dars tayyorlaymiz. Hatto tokcha, taxmonlarga ham kitob-daftaringni qo'yolmaysan: idish-tovoq, choynak-piyola, ko'rpa-yostiq... Uymizda esimni tanigandan beri qo'l tegmagan choynak-piyolalar bor. Bir kuni mehmonxonadagi taqir-tuqurlarni erinmay sanab chiqqanman: chinni kosaning o'zi bir yuz yigirmata, qirq ikkita katta-kichik choynak, ikki yuzta piyola, ikki taxmon, to'rt tokcha to'la ko'rpa-yostiq. Shuncha buyum kimga kerak? Otam bilan onam bo'lsa, shaharga tushdimi, kosa-tovoq tashishadi...

Aravamiz katta yo'lda qishloqdan chiqib borayotgan o'nlab aravalarga qo'shilib ketdi. Ana shunda tonggi karaxtlik o'rmini tezroq manzilga yetish, kun isimay aravani yashil barglarga to'ldirish ishtiyoqi egalladi. Issiqda tamakizorga kirib bo'lmaydi. Paykal dim, tamakining o'tkir hidi nafasingni qaytaradi.

Paykal chetidagi uvatda eshakni aravadan chiqarib, tushovladim. Erkin bilan Nodira shiradan charmday qorayib ketgan uzun ko'ylaklarini kiyishdi, boshlarini ro'mol bilan tang'ib bog'lashdi. Ular bu ishni mug'ambirlik bilan sekin bajarishdi. Azonlab dengizday chayqalib yotgan tamakizorga kirish ko'ngillik emas-da. Muzday bargga qo'l tekkizsang, baqani ushlaganday, eting jimirlaydi. Barglarda bijillab yotgan ko'm-ko'k xira shirincha yuz-ko'zing demay yopishib oladi, yoqangdan kirib qitiqlaydi, joning chiqib ketadi, bu shilqim jonivorlarning qitmirligidan.

Ukalarimning imillashidan jahlim chiqdi. Ish ko'ngildagidek bajarilmasa, tuyaning kattasi ko'prikda kaltak yeydi,

deganlariday, tosh kattaga tegadi-da. Akam „erkinlikka“ chiqmasdan avval men ham shumlik bilan uning birinchi bo‘lib egatga tushishini poylardim. Endi... maktab vaqtigacha aravani to‘ldirmasak, chatoq. Bittalab barg terib aravani to‘ldirish esa osonmas.

Ikki-uch quchoqdan barg uzgandik, akam kelib qoldi. Qovog‘i soliq, ko‘zlari qizargan. Ko‘nglim sezib turibdi, otam rosa urishgan. Akamga rahmim keldi. Qani endi shu payt bir dumalab ota bo‘lib qolsam-u: „O‘g‘lim, Jumavoy, mayli, bilganingni qilaver“, desam. Otam ham qiziq, ishlayman, degan odamni o‘qitib bo‘ladimi? Akam ishlab mashina olsa, otamgayam yaxshi-ku, shaharga borgisi kelsa, bir soat avtobus kutmay, g‘iz etib borib kelaveradi. Biz ham tushardik.

— Aka, mayli, siz brigadangizga boravering, biz tamaki teramiz, otam bilmaydi, — dedim akamga tasalli bergim kelib.

— Hecham-da, — dedi gapimni eshitib turgan Nodira bobillab. — U kishi yurarkan-u, men ishlaymanmi? Otamga aytib beraman!

Akamning o‘rnida bo‘lganimda chaqmachaqaq singlimning yuzini bir urib qizartib qo‘ygan bo‘lardim. Akam esa...

— Haliyam sizlarni ishlatib qo‘yib, o‘zim o‘ynayman deyotganim yo‘q, — dedi qovog‘ini ochmay. — Sen chaqimchilikni tashla, yomon bo‘ladi.

Koshki, Nodira „tashla“ desa tashlaydigan qiz bo‘lsa. Aksincha, doimo qulog‘i ding, gap poylaydi. Uning shu odatini otam ham yomon ko‘radi. Bir marta: „Ikkinchi chaqimchilik qilmayman degin“, deb qulog‘ini uzib olishiga sal qolgan. Nodira uch-to‘rt kun tilini tishlab yurdi, keyin chidolmadi. Bir kuni otam uni molxonaga — buzoqlarning ichiga qamab qo‘ydi.

Buyam tirnoqcha ta’sir qilgani yo‘q. Otamning aytishi-cha, Nodira ammamga tortgan. Ammam bolaligida shunaqa ekan. Uyli-joyli bo‘lgandan keyin „og‘zi yomon kuyib“, chaqimchilik qilmaydigan bo‘libdi...

Arava to‘lguncha quyosh terak bo‘yi ko‘tarilib ketdi. Familiyang „dangasalar doskasi“ga tushmasligi uchun endi shoshilish kerak.

Akam aravaning shotisidan ko'tarib turdi. Tortaverib o'rganib qolgan eshak tixirlik qilmay joyini egalladi. O'ydim-chuqur yerlardan o'tib, katta yo'lga chiqquncha akam aravaning orqasidan itarib, yordamlashib keldi. Keyin egarga o'tirdim-u, „chu jonivor!“ deya eshakka xala bosdim. Jonivor qorni to'yib, kuch to'plagan emasmi, birpasda uyga yetkazib keldi. Onam non to'g'ralgan sopol kosalarga sut, sariyog' solib kutib turgan ekan...

Anavi qizil lattali „Qorovullar“ga duch kelmaslik uchun magazin orqali yurdim. Magazin devorining maktab bilan tutashgan joyida katta yong'oq bor. Yong'oqning bir shoxi maktab bog'idagi o'rikka tutashib ketgan. Yong'oqdan o'rikka o'tsang, bas, o'zingni maktabdaman, deb hisoblashing mumkin. Hech kim ko'rmaydi. „Ko'prik“dan yerga sakrashim bilan kimdir qattiq turtib yubordi.

— Ko'zingga qaramaysanmi?

Sherdor! U bu yerda nima qilyapti? Ko'zlariyam qizarganmi? Yuragim allaqanday ko'ngilsizlikni sezganday bo'ldi.

— Urishdingmi deyman birorta bilan.

— Yo'q. Anavi... keldi.

— Otangmi?

Sherdor yuzini chetga burdi.

Sherdorning otasi ikkinchi singlisi tug'ilgan yili ularni tashlab, shaharga ketib qolgan. Sherdor otasini yomon ko'radi. Pasport olsa, familiyasini onasining familiyasiga o'tkazib olmoqchi. Odamlar: „Hayitni uch norasidaning uvoli ko'r qiladi“, deyishadi. Yaqinda yangi gap tarqaldi: „Hayitni shaharlik megajini haydab yuboribdi“. Shu gap chiqqandan beri Sherdor xomush edi. Rost ekan.

— Men ketyapman, — dedi birpas jim turgandan keyin Sherdor. Bu yangilik meni hayron qoldirdi.

— Qayoqqa?

Sherdor ko'zlarimga tikildi. Uning qarashida „Sen nimani tushunarding“, degan ma'no bor edi.

Sherdorning qiziq odati bor. Ko'p o'qishda menga tenglasholmaydi-yu, lekin sarguzasht kitob desa, tomdan tashlaydi. Qachon papkasini ochma, albatta, fantastik kitob

bo'ladi. Chet tiliyam jon-tani. Ingliz tili muallimimiz uni o'g'riday ko'radi. Uyida nemis, fors, ispan tillaridagi lug'atlar bor. U ana shu tillarni mustaqil o'rganmoqchi. Maktabni bitirsa, razvedkachi bo'larmish.

— Yuborishmasa-chi?

— Bildirmay o'tib ketaman. Rezidensiya tuzib olib, o'zimiznikilar bilan aloqa o'rnataman. Sen Artur Konan Doylga o'xshab katta yozuvchi bo'lganingda men haqimda kitoblar yozasan.

Uning gaplarini eshitib, kulgimni zo'rg'a bosaman. Mendan ham xayolparast...

— O'tib bo'psan. Kinoda ko'rdingmi, qush bo'lib chegaradan o'tgan josusni qanday boplab qo'lga tushirishdi.

Shunaqa paytlarda u ishonmayotganimdan xafa bo'lardi. Lekin hozirgisi...

— Hali chet tilini o'rganmading...

Sherdor kattalarday horg'inlik bilan bir qo'lini yelkamga qo'ydi.

— Yaxshi bolasan-u, lekin odamning ichidagilarni sezmayсан. Sendan yozuvchi chiqishi qiyin, — dedi.

Donoligini... Iskandar aka bo'lib ket-e!

— Razvedkachi bo'lmoqchi eding...

— Hozir razvedkam chiqib turibdi-yu, sen...

— Iye, aynidingmi?

Sherdor yerdan quruq shoxcha olib, jahl bilan sindirdi.

— Cho'lga ketyapman.

— Cho'lga!? Cho'lda nima qilasan?

— ...

— Otang, ket dedimi? — Bu savol og'zimdān beixtiyor chiqib ketdi.

Sherdorning jahli chiqdi. Kalovlanib qoldim. Onajonimning „O'ylamay so'ylagan, og'rimay o'lar“, degani shu bo'lsa kerak.

— Ket dermish. O'lib boryapti-yu! Ko'rsang rahming keladi. Yuzlari yara-chaqa, shaharligi haydagandan beri ko'chama-ko'cha sandiroqlab yurgan ekan. Tunov kun kelganda onam uyga kiritmagan edi. Kecha tag'in keldi. Yana haydadi. Haydadi-yu, onam o'zi tun bo'yi ingrab chiqdi. Ertalab

mollarni podaga qo'shay deb og'ilga kirsak, u tappiga bulanib, o'sha yerda yotibdi. O'zini bilmaydi. O'xchiydi, qon qusadi.

— Keyin-chi? Yana haydadinglarmi?

— Haydab bo'larmidi... enam doktorga yubordi.

— Doktor nima dedi, tuzalarmikan?

— Borganim yo'q! Bormayman!

Sherdor birdan burilib, devor tagidan keta boshladi. Yuragim „shuv“ etib ketdi.

— To'xta, Sherdor, ketma, jon jo'ra, ketma, — yalindim orqasidan borib. — Ketsang onang nima qiladi, Sherdor...

Keyingi gaplarim unga ta'sir qildimi, har qalay to'xtadi.

— Yur, maktabga boraylik. Kech bo'pketdi. — U qimirlamadi. — Yoki dashtga chiqib ketamizmi, a? Meni ham maktabga borgim yo'q. — Sherdordan yana sado chiqmadi. Qarori qat'iy ko'rinadi. Unga qo'shilib ketvorsam-chi? Yurardim bepoyon cho'lda yayrab...

— Bo'pti, ketdik. Men ham boraman.

— Qayoqqa?

— Qayoqqang nimasi, cho'lga-da!

Bu taklifim Sherdorni xursand qiladi, degandim. Aksincha, u yana tumtayib oldi. Tavba, bunga bir balo bo'lganmi?

— Hozir „ketaman“ degan odam nega miq etmaysan?

Sherdor bir nimani aytishga qiynalayotganday javdirab qaradi, so'ng xuddi biron bo'g'ayotganday:

— Otam nima bo'ladi? — dedi.

Boyagina „Otamni ko'rarga ko'zim yo'q“, deb turgan odamning gapiga qarang. „Iching achir ekan, bu yerda nima qilib turibsan? Bormaysanmi doktorga. Yoki g'ururing yo'l qo'ymayaptimi?“

— Unday bo'lsa, men doktorga xabar bera qolay, — bu taklif qayoqdan miyamga kelib qoldi-yu, qanday og'zimdandan chiqib ketganini bilmay qoldim. Lekin soz bo'ldi: Sherdor ko'zimga shunday tikildiki... Sevinganimdan:

— Men ketdim, — deb yuboribman.

Qishlog'imiz katta bo'lmagani uchun shifoxona yo'q. Ammo apteka bor. Aptekada Jo'raqul aka degan oyoqlari laylaknikiday uzun, ko'zidan shokosaday ko'zoynak tush-

maydigan kishi ishlaydi. Yaxshi odam, „Voy, polvon-ey, shungayam dard-u hasratmi, — deydi yo‘tal-po‘tal bo‘lib borib qolsang. — Hozir toychoqday gijinglatib yuboramiz“. Jo‘raqul aka do‘konni hozir ochgan bo‘lsa kerak, endigina oq xalatini kiyayotgan ekan.

— Keling, muxbir bola, keling, — dedi meni ko‘rib, burga tepdimi deyman.

Shoshilib voqeani aytib berdim.

— Shunaqa degin, obbo. Qon qusgani chatoq ekan-da.

Jo‘raqul aka chamadonchasiga allaqanday dorilarni joyladi.

— Keldik.

Sherdorning otasini ko‘rmagandim. Odamlarning gap-laridan badbashara, bir ko‘zli devday bo‘lsa kerak deb o‘ylardim. Yo‘q, Hayit aka Sherdordan bo‘ychanroq, Sherdorday qirraburun, botiq ko‘zlari katta-katta xushbichim kishi ekan. U azob bilan kalta-kalta yo‘talar, yo‘talganda tanasi dir-dir titrar edi. Saodat xola eski sochiq bilan dam-badam uning og‘iz-burnini, yostiqli artadi: xolaning qovoqlari shishib, qizarib ketibdi.

Hayit akaga qarab turib, birdan otamni esladim. „Otam ham... yo‘q, yo‘q! Mening otam hech qachon bizlarni tashlab ketmaydi. Bunaqa ahvolga tushmaydi“. Sherdor bechoraga juda qiyin.

Bu yerda turgani ortiq chidolmadim. Darvoza oldida Sherdor turgan ekan. Indamay qo‘lidan mahkam ushladim. Ikkimiz jimgina uydan uzoqlashdik. Yurib-yurib maktab yo-niga borib qolibmiz. „Nima qildik“, deganday Sherdorga qaradim. U kallasini sarak-sarak qildi.

— Ikkinchi soat — adabiyot. Borish kerak.

— Oyog‘im hech tortmayapti.

— Adabiyotni o‘tkazamiz-da, „quyon“ bo‘lamiz. Qalay?

Uni zo‘rlamasam bo‘larkan... Sinfga yaqinlashishimiz bilan bolalar qurshab olishdi.

— Nega birinchi soatga kelmadinglar? — bobillab ketdi Ahmad. — Sizlarga son kiradimi, yo‘qmi? Qachongacha sinfimizni yomon otliq qilasizlar?!

Bu dashnomlarga chidasa bo'lardi. Lekin to'satdan aytilgan bir og'iz gap hamma yoqni ostin-ustin qilib yubordi.

— Anavi tashlandiqning otasi kelgan! — mushuknikiday yoqimsiz, ingichka tovushning egasini basharasiga qaramay tanidim: Himmat! Etim jimirlab ketdi.

Sherdor bir sakrashda Himmatning yonida paydo bo'ldi-yu, yuz-ko'zi aralash tushira ketdi. Himmat dodlab yubordi. Galalashib ularni zo'rg'a ajratdik. Himmat „voy-voy“ degancha otasining bufetiga qarab chopdi...

Sherdorni zo'rg'a sinfga olib kirdik. Endigina dars boshlanuvdi hamki, sinfga o'g'lini oldiga solib, Xursand tulki kirib keldi. Ko'zlariga qon quyulgan.

— Bu yer maktabmi?! — eshikdan kira solib Iskandar akaga bo'kirdi u. — Buni ko'ring! — U Himmatni o'qituvchimiz tomonga itarib yubordi. Hech gapdan xabari yo'q Iskandar aka bir qo'lida latta, bir qo'lida bo'r angrayib qoldi.

— Ko'rdingizmi, bu itvachchangizning qilgan ishini!

— Xursand aka, kim uribdi Himmatjonni? — nihoyat, tilga kirdi Iskandar aka. — Bu yerda, bolalarning oldida shovqin solish...

— Bo'lmasa qayerga boray?

— Iltimos...

— Ko'rsatib qo'yaman bunaqa zo'ravonga! — U partalar oralab Sherdor tomon borayotgandi, kutilmaganda Sherdor siyohdonni oldi-yu, uning basharasiga otdi. Agar siyohdon doskaga tegib chil-chil sinmaganda...

Sherdor sinfdan o'qday otilib chiqib ketdi.

Iskandar aka Xursand akani yupatmoqchi bo'lgandi, u:

— Seniyam osish kerak! — dedi va eshikka qarab hayqirdi: — Shoshmay tur, bir ta'ziringni bermasam, sen haromini! — Xursand aka polni sindirgudek gursullatib chiqib ketdi. Iskandar aka ham uning orqasidan ergashdi.

Sinfga pashsha uchsa eshitilgudek jimlik cho'kdi...

Sherdor shu ketgancha qaytmadi. Darsdan so'ng portfelini olib, ularnikiga bordim. Saodat xola o'choq boshida enkayib, katta tog'orada qurut ezayotgan ekan.

- Sherdor ko‘rinmaydi?
- Hali maktabdan kelgani yo‘q. Nima, birga emas-midinglar?
- E-e, to‘garagim bor devdi-ya, — deb portfelni orqamga yashirdim. Yuragim shuvullab ketdi: „Ketib qolgan!“
- Ochiq derazadan uzuq-uzuq, dardchil yo‘tal eshitildi. Ketmoqchi bo‘lganimni ko‘rgan Saodat xola:
- Qurtova qilyapman, ichib ketmaysanmi? — dedi mehribonlik bilan. — Do‘xtirlar oshqozonga davo bo‘ladi, deyishadi.
- Zarur ishim bor edi, — deb ko‘chaga chiqdim. Nahotki, ketib qolgan bo‘lsa? Balki devona bobonikidadir. Mol tezaklari ezg‘ilanib yotgan ko‘chadan bobonikiga jo‘nadm. Lekin boboning darvozasi qulf edi. Boshim qotib qoldi.

27 may, 197... yil

Darsdan chiqib amakimnikiga bordim. Kecha jiyanim Anziratni shifoxonaga olib ketishgan ekan. Onam „Balnisada qolibdimi, yo‘qmi, bilib kel“, deb tayinlagandi.

Negaligini bilmayman-u, amakimni uncha yoqtirmayman. O‘qituvchi-yu, biror marta gazeta o‘qiganini ko‘rgan emasman. Uyimizga kelsa: „Falonchi jamoa xo‘jaligi a‘zosi bo‘la turib buncha daromad qiladi. Kun bo‘yi javraganimiz bilan...“ deb noligani-noligan. Bolalarigayam qaramaydi. Jiyanlarimning maktabda kiyib yurgan kiyimlariga qarab, men uyalib ketaman. Yirtiq-yamoq, kir-chir...

Amakim darvozaxonada eshagini aravadan chiqarayotgan ekan. Egnida tovonigacha tushib turgan uzun ko‘ylak, boshida durracha, oyog‘ida kavushsiz eski mahsi. Ko‘ylak ham, ro‘mol ham tamaki shirasidan ko‘mirday qorayib ketgan. Ikkovlashib aravadagi tamakini bo‘shatgach, uyga kirdik. Supurilmagan, iflos supada jiyanlarim bir-birini yig‘latib, shovqin-suron ko‘tarishar, bodring pushtasida yalang‘och oyoqchalarini kerib, ko‘ylagini tepaga ko‘tarib olgan kenjatoy esa allanima deb baqirib yig‘lardi. Qop-qora pashshalar bolakayning oyoqlariga, kir yuzlariga ochofatday yopishar, checham esa o‘choq boshida hech nimani eshitmayotganday nimadir pishirayotgandi.

Shu payt eshikdan xolamning shaharda ishlaydigan o'g'li Rashid bo'lam kirib keldi. U supaga chiqishi bilan jiyanlarim baravariga bo'lamga qarab chopishdi. Birpasda Rashid bo'lamning hamma yog'i chang-chung bo'lib ketdi.

Amakim kiyimlarini almashtirib keldi. Ular u yoq-bu yoqdan gaplashishdi. Men jimgina quloq solib o'tirdim.

— Aytganday, Anzirat kasalxonada emish, nima qildi? — so'radi suhbat orasida bo'lam.

Amakim atrofimizda pildirab yurgan bolalariga ma'yus termildi.

— Vrachlar o'pkasi kasallangan deyapti, — dedi keyin. — Chechang hali bilmaydi. Bir-ikki haftadan keyin keladi, deb ovutib yuribman.

— Oldinroq do'xtirga olib bormabsiz-da, — dedi bo'lam.

— Qayoqdan bilibmiz, deysan. Yo'talardi, isitmasi chiqardi-yu, yana o'ynab ketaverardi.

— Yo'talsa, isitmalasa... Pul-pul deb... manavilar ham bir baloga giristor bo'lmasaydi hali. Maktabdan oylik olsangiz, jamoa xo'jaligi minglab berayotgan bo'lsa! Yana nima yetmaydi sizga. Bolalarniyam o'ylasangiz-chi, bundoq? — Bo'lamning bu gaplaridan ichimda quvonib ketdim. „Boplang, bo'lajon, boplayvering!“

— Maktab emish. Sen nimani bilarding? — amakim piyoladagi sovib qolgan choyni zarda bilan sepib yubordi. — Hozir podachiyam bizdan obro'li.

Chechamning qo'li endi ishdan bo'shadi shekilli, kelib bo'lam bilan boshqatdan so'rasha boshladi.

— Yaxshi yuribsizmi, ukacha. Kelin tuzukmi, ola kemapsiz-da. Biz ishdan ortib borolmasak. Bu kishining ahvoli bu. Anziratniyam kasal qipqo'ydik... — Chechamning ko'zlarida yosh g'iltilladi.

— Bularingni nariroq ol. Gapni gapga qo'shmayapti, — dedi amakim xotining yuziga qaramay.

Checham jiyanlarimni ergashtirib, nari ketdi.

— Qishloqda to'ylar haddan tashqari dabdabali bo'lib ketyapti, — o'ziga gapirganday to'ng'illadi amakim. — Mana, yaqinda Xursand aka to'y qildi. Faqat jonliqning o'zidan ikkita novvos, to'rtta qo'y so'ydi...

Idoraning yonidan o'tayotganimda birov chaqirganday bo'ldi. Mundoq qarasam, avtobus bekatida Amiriy papiros chekib turibdi.

Yugurib oldiga bordim. Salom berdim. Ko'rishdik. Amiriy qo'limni mahkam qisdi.

— Shuncha chaqiraman, qaramaysan. Nima, bizdan toza... xafa bo'ldingmi? — dedi Amiriy kulib. — Redaksiyaga bormay qo'yding. Xat-xabar yuborish ham esingdan chiqib ketdimi, deyman. — Amiriyning kayfiyati chog' edi. O'qishimni, nimalar yozayotganimni surishtirdi.

— Aytganday, huv ko'chirmakash o'rtoqni nima qildilaring? — deb so'radi gap orasida.

— Yig'ilishda muhokama qildik. Qo'liga ruchka ushlaymaydigan bo'ldi.

— To'g'ri qilibsizlar. Qattiq jazolash kerak unaqalarni. To'rt-beshta bola bizga xabar yuborib turibdi. Maktablaringda muxbirlar posti tashkil etsakmi, deb o'ylayapmiz. Post tuzilgandan keyin qiziqqan bolalarga asta-sekin maqola yozishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida suhbatlar o'tkazamiz. Qalay? Ha, aytganday, senga bitta topshiriq bor. Qishloqlaringda Olim bobo degan kishi bor, bilasanmi?

— Olim bobo... Olim... E, devona bobomi? Hamma taniydi u cholni. Haligi, — barmog'imni chakamga tirab aylantirdim, — tentak chol-da.

— Yo'g'-e! Olim bobo tentakmi?

— G'irt jinni. Qilib yurgan ishini eshitsangiz, kulaverib qotib qolasiz. Uzoq yili o'ziga go'r kovlatib, oldiga chinor ekan. Chinor to'rtgami, beshgami kirdi, chol bo'lsa hali otday. Eng kulgilisi bu yoqda: Devona bobo har kuni go'riga kirib, birpas-birpas mizg'ib olarmish.

— Sen Olim boboni bilmas ekansan, — dedi u jiddiy tortib. — U kishi Katta Farg'ona kanalini qurishda Farhodday dong taratgan. Uch yil urushda nemislar bilan jang qilgan, pahlavonday to'rt o'g'li ana shu urushda halok bo'lgan.

Ko'zimni qayoqqa opqochishni bilmay qoldim.

— Olim otaning o'ziyam urushda ko'p ishlar qilgan, — davom etdi Amiriy. — Lekin keyinchalik hujjatlarini yo'qotib

qo'yan. Ba'zi kishilar odamdan bir enlik qog'ozni afzal ko'rishadi. Shunday odamni pensiyaga chiqarishda yosh boladay sarson-sargardon qilishdi-ya. Hatto bittasi: „Boboy, to'ringizdan go'ringiz yaqin, pensiyani boshingizga urasizmi?“ — debdi boboga. Olim bobo bo'lsa pensiya pulini bog'chaga beradi... Qisqasi, otaxonning hayotini, o'g'illari-ning hayotini yaxshilab o'rganishimiz kerak. Shu vazifani senga topshirsakmi, degandim. O'rtoqlaring bilan uyiga boringlar, maktabga taklif qilinglar. Borsanglar, otaxon behad xursand bo'ladi.

Shu payt olisdan avtobus ko'rindi. Amiriy men bilan xayrlashdi. Avtobus yurib ketgandan so'ng Xursand tulki haqidagi maqolani so'ramaganimga afsuslandim. E, attang, esga kelmaganini qarang. Olim bobo bilan bo'lib... Devona bobo deb yursak, haqiqiy qahramon ekan-ku. Hoziroq bobonikiga boraman.

Bobonikiga shoshilib boryapman-u, goh Amiriyning so'zlari, goh otamning Olim bobo haqidagi hikoyalari esimga tushadi. Otam Olim boboning bir ishini ko'p gapiradi.

Kunlarning birida, qishloqdagilarning bittasi mozor yonidan o'tayotsa, Olim bobo yaktagi barini belbog'iga qistirib, loy tepayotganmish.

— Ha, boboy, imorat tashvishimi? — debdi ishshayib haligi kishi. Shunda chol:

— Bu qishloqdagilar oyoqosti bo'lib ketdi. Atrofni o'rab qo'yamasam bo'lmaydi, — deb mozorotga ishora qilibdi.

Bu voqea hash-pash deguncha qishloqdagilarning qulog'iga yetibdi. Odamlar oyoqqa turishibdi. Hashar qilib, qabristonning tevaragiga paxsa devor urishibdi... Xotini o'lgandan keyin, kampirimga yaqinroq turay, deb Olim bobo ko'pincha mozordagi pastqam hujrada yasharkan. Qo'rqmaganini... Urushni ko'rgani uchun ham qo'rqmas ekan-da...

Olim boboning bo'yog'i o'chgan darvozasi qiya ochiq, lekin uyda hech kim yo'q edi. Olim bobonikiga endi kirganim uchun darvozadan hatlab og'zim ochilib qoldi. Hovli yamyashil bog'. Hosilini ko'tarolmay, shoxlari yerga tegay-tegay

deb egilib turgan oq olmalar kumushday tovlanadi. Ishkomda qop-qora daroyi uzumlar osilib turibdi. „Shuncha mevani bir o‘zi qanday yerkin-a? Yoki meva-chevalarni ham bog‘chaga berarmikin?.. Boboning o‘zi qayerdaykin? Qabristonga ketganmikin?“

Darvozani yopib, ko‘chaga chiqdim. Qabristonga bor-sammikin? U yerda bo‘lmasa-chi? Yaxshisi, ertaga yana kelaman.

28 may, 197... yil

Ikki kunki, Sherdordan darak yo‘q. Hamma oyoqqa turgan. Hatto... „ta‘ziringni bermasammi“ deb jirillagan Xursand tulki ham qop-qora terga botib, Sherdorlarnikiga bo‘zchining mokisiday g‘iz-g‘iz qatnaydi.

Men uning cho‘lga ketib qolganiga shubhalanmasam ham, ularnikiga qatnashni kanda qilganim yo‘q. Tag‘in kim biladi, deysiz...

Shomga yaqin yana Sherdorlarnikiga bordim.

— Jo‘rangdan xat oldik, — dedi Saodat xola quvonchini ham, qayg‘usini ham anglab bo‘lmaydigan qilib, — tushunib bo‘lmaydi. Mana.

Xatni o‘qib hayron qoldim. „Onajon, meni qarg‘amang. Qidirmang. Ikki-uch kundan keyin boraman. Sherdor“. Shu xolos.

Qaysar-ey, cho‘lga jo‘navoribdi-da!

Ochiq turgan derazadan dardchil yo‘tal eshitildi.

— Shu aybdor hammasiga, — dedi Saodat xola xomush. Keyin: — Kelgani yaxshi bo‘ldi, bolam. Sherdorimni ko‘rganday bo‘ldim. Birpas o‘tirgin. Qaynatma sho‘rva qilayotuvdim. Ichib ketasan, — dedi.

Sho‘rva mazali bo‘lgan ekan. Uyga kech qaytdim. Yuragimga qil sig‘maydi. Ne pallagacha yulduzlarga tikilib yotdim. „Sizlar bilasiz-ku, uning qayerdaligini? — deyman yulduzlarga qarab — ayting, uyiga kelsin. Saodat xola adoyi tamom bo‘ldi. Men ham sog‘inib ketdim“. Olisdagi yulduzlar „Sabr qil, sabr qil“, deb ko‘z qisganday bo‘ladi.

29 may, 197... yil

Ishing bir chappa ketsa, ketaverarkan. Ertalab tursak, boquvdagi qora novvosimiz yo'q. Qishloqda mol o'g'risi paydo bo'libdi, degan mish-mishlar yurgani uchun qo'rqib ketdim. „Biznikiniyam o'g'irlab ketishgan bo'lsa-ya...“

Otam joyidan turiboq novvosni izlab ketibdi.

— Sen Bulbulsoy taraflarni qarab kel, — dedi onam. — Zora o'sha yoqqa ketgan bo'lsa, bo'shalib.

Bulbulsoy — qishlog'imizga tutash tog'ning etagidagi ikki qir oralig'i. Chollarning aytishicha, burungi zamonlarda soydagi suv tuyani oqizarkan. Hozir qatra suv yo'q. Lekin hamma u yerni soy deydi. Soy ortidagi bodomzor ismalog'-u yalpizlarning koni. Biz bahorda ismaloq, yalpiz, qo'ziqorin tergani ko'p chiqamiz. Men ismaloq terishni yaxshi ko'raman. Ukam ikkovimiz chelak-chelak ismaloq teramiz. Onam ismaloq somsani tandirdan uzguncha girdikapalak bo'lganimiz-bo'lgan...

Qirga chiqishim bilan birov chaqirganday bo'ldi. Qulog'imga eshitilgandir, deb avval e'tibor bermadim. Ovoz yana, bu gal aniqroq eshitildi:

— Ilho-o-m!

Qarasam, soy yoqalab Sherdor yugurib kelyapti. Ko'zimga ishonmadim. Nahotki, Sherdor! Yoki ko'zimga... Yo'q-yo'q, uning o'zi!

— Sherdor do'stim!

Ikkovimiz quechoqlashib, o'tlar ustiga dumalab ketdik.

— O'zingmisan! Qayoqlarda yuribsan? Biram sog'indimki...

— So'rama. Bilasanmi, men mol o'g'rilarini topdim...

— Nima?

— Ha. O'zim ko'rdim. Mozorda. — Sherdor tutila-tutila gapira ketdi. — Uydan ketganimdan beri Olim bobo bilan birgaman. Olim boboni bilasan-ku, mozorning qorovuli, zo'r chol.

— Xo'sh, keyin-chi, keyin?

— Xullas, yarim kechasimi, sahardami, tashqariga chiqqim keldi. Devorning orqasiga o'tayotib, qabrlar oralab keta-

yotgan sharpalarni ko'rib qoldim. Yuragim orqamga tortib ketdi. Mozorda ajinalar bo'ladi, deb ko'p eshitgandim-da, sharpalar sigirmi, ho'kizmi yetaklab ketayotganday edi. G'oyib bo'lishguncha qimirlamay qarab turdim. Bir ko'nglim ko'rganlarimni Olim boboga aytay ham dedim, yana ikkilandim. Balki ko'zimga ko'ringandir. Ne pallagacha uyqum kelmadi. Qishloqqa mol o'g'risi oralaganini eslab, miyamga har xil gaplar keldi. Ertalab sharpalar yurgan tomonga bordim. Qabrlar orasida tuyoq izlari.

— Demak...

— Ha, o'g'rilar. Ular, menimcha, mollarni o'g'irlab, o'sha yerda nimtalashsa kerak. Tinch, hech kim ko'rmaydi, deyishadi-da.

— Ketdik! Uchastkavoyga borib aytamiz! — dedim hovliqib.

— Yo'q. Bu masalada hovliqish ketmaydi. Avval o'shalar chindan ham o'g'rilar, o'g'ri bo'lsa, kimlar, bilish kerak, — dedi Sherdor shoshilmay.

— Bundan chiqdi, sharpalaring: „Sherdorvoy, o'g'ri biz bo'lamiz. Mana oldingizga keldik. Oboring milisaga“, deguncha indamaslik kerak ekan-da.

— Unaqa deganim yo'q-ku, o'zimiz boramiz, — dedi Sherdor ranjib.

— Qaerga?

— Mozorga. O'sha yerda bir-ikki kun kuzatsak, hammasi ravshan bo'ladi.

Bu gapdan yuragim shig'illab ketdi. Qo'rqqanimni Sherdor ham sezdi, shekilli:

— Borish majburiymas, — dedi ustimdan kulganday.

— Gap qo'rqishda emas, lekin bundan biror ma'ni chiqarmikin? — dedim sir boy bergim kelmay.

— Chiqadi. Xo'sh, nima deysan, borasanmi yoki...

— Bo'пти, roziman.

Sherdor bilan kelishganimizday, shomga yaqin eski tegirmonda uchrashdik. U betoqat bo'lib turgan ekan.

— Kelmaysan, deb ketmoqchi bo'layotuvdim. Yur, tezroq borib, pastqamroq yerga bekinib olishimiz kerak.

Hali mozorga uzog'-u, yurak dukullaydi. „Ajinalar bo'lsa-ya. Bormayman, desammikin... Sherdor nima deb o'ylaydi. Bo'lganicha bo'ldi“.

Qabriston suv quygandek jimjit. Qorovulxonaning kulchaday oynasida xira yorug' miltillaydi.

Qabriston devorining nuragan joyiga qo'yilgan shox-shabbalarga tegmay, devordan oshdik. Mozorning bu tomoni qo'rqinchli ekan. Qishloq mutlaqo ko'rinmaydi. Uni o'roqday yangi oyning jonsiz shu'lasida uzun-qisqa ko'lanka tashlab turgan qabrlar to'sib turardi. Narigi taraf anhor. Anhordan keyin osmonga bo'y cho'zgan tog'gacha birorta uy yo'q.

Qabrlar oralab biroz yurgandan keyin, bir chuqurga kirib yashirindik. Biz yashiringan joy qabristonning eng baland qismida bo'lgani uchun atrofni kuzatsa bo'lardi. Qandaydir qushning vahimali ovozi eshitildi.

— Boyo'g'li, — tushuntirdi Sherdor.

Uzoq vaqt ikkimizdan ham sado chiqmadi. Boyo'g'li allaqanday dahshatdan xabar berayotganday yana sayradi. Battar vahimaga tusha boshladim. Qabrlar qimirlab yori-loyotganday, murdalar oppoq kafanlarini sudragancha zoologiya kabinctidagi skeletnikiga o'xshagan tishlarini irjaytirib, ustimizga bostirib kelayotganday... Ko'zlarimni chirt yumib oldim. Qancha vaqt o'tdi, bilmayman. Bir payt Sherdor biqinimga turtib:

— Ko'ryapsanmi? — dedi.

Ko'zimni ochsam, ikkitami, uchtami sharpa qabriston oralab to'g'ri biz tomon kelyapti. „Sezib qolishgan bo'lsa-ya, o'ldik. Hozir keladi-yu, ikkovimizniyam... O'ligimizni hech kim topolmaydi“. Ko'zlarimni yana yumib oldim. Go'yo ko'zimni yumsam, hech kim tegolmaydiganday...

— Qara, Ilhom nima qilishyapti? — Sherdorning ovozi olisdan kelayotganday zo'rg'a eshitildi.

Boyagi sharpalar bitta qabrni kovlashardi. Shu chog' bir nima qarsillab ketdi.

— Sekinroq, tosh bor dedim-ku, govkalla! — degan bo'g'iq ovoz eshitildi. Bu ovozning do'rillashi allakimni eslatganday bo'ldi. Kim bo'lishi mumkin?

— Ular nima qilishyapti? — shivirladim Sherdorning qulog'iga.

— Ko'rmisan! Tilla tish eshon boboning qabrini ochish-yapti-ku!

— Ochib... nima qiladi?

— Men qayerdan bilay.

Muzday bir narsa boshimdan tovonimgacha sizib o'tganday bo'ldi:

Xuddi shu payt:

— Hey, musulmonlar, nima qilyapsizlar? — degan tovush eshitildi. Enkayib, eshonboboning qabrini timdalayotgan sharpalar sapchib tushishdi. Nariroqda yana bir sharpa ularga yaqinlashib kelardi. Sharpaning qayerdan kelib qolganini u yerdagilar ham, biz ham payqamay qolgandik.

— Olim bobo, siz...

— Haromilar! Yangi qabrlar nega boshqacha bo'lib qoladi, desam...

Olim boboning gapi bo'g'zida qoldi. Sharpalar cholga tashlanishdi. Bir narsa xira oy shu'lasida ojiz yaltirab ketdi. Kimdir „ih“ deb yiqildi.

— Qaysi go'rdan paydo bo'ldi bu hayvon? — xirilladi birovi. Eshonni o'rniga tiqinglar. Hammasi ilgarigiday bo'lsin! Iz qotmasin!

Sherdorning qo'lini mahkam ushlab oldim. U dir-dir titrardi. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Ikkovimiz g'ujanak bo'lib, chuqurga yotib oldik. Oradan qancha vaqt o'tgani noma'lum. Hushimga kelsam, Sherdor chuqurning zax devoriga qapishib, piq-piq yig'layapti. Sharpalardan asar yo'q.

— Sherdor, yur, ketaylik, — dedim qo'rqa-pisa.

Ikkovimiz titrab-qaltirab chuqurdan chiqdik. Qabristondan chiqayotganimizda boyo'g'li yana sayradi...

30 may, 197... yil

Uyg'onsam, somonxonada yotibman. Eshik tirqishidan oppoq nur tushib turibdi. Avval nega bu yerda yotibman, deb hayron bo'ldim. Keyin tungi voqealar esimga tushdi-yu,

sakrab turib ketdim. Sherdor qani? U yonimda edi-ku! Mozordan birga chiqdik. Keyin bu yerga... Nega uygamas, bu yerga, somonxonaga keldik? Yoki, rostdan ham ajinalar chalib...

— Sherdor! — jonholatda ko'chaga otildim. Qayoqqa chopypapman? Uygami, Sherdorlarnikigami, mozorgami? Iye, odamlar ana u yerda nega uymalashib turibdi? Bu darvoza Himmatlarniki emasmi?

— Qaranglar, Ilhom kelyapti! — ovoz osmondan kelyaptimi, yerdan chiqyaptimi, anglolmasdim. Odamlar guvullab menga qarab chopishdi. Qo'rqib ketganimdan qochishgayam ulgurolmay qoldim. Allakimning zabardast qo'li mahkam quchoqlab oldi. Keyin odamlar birin-ketin quchoqlab, o'pa boshlashdi. „Yasha, qoyil!“ deb osmonga otishdi. Boshim gir-gir aylanib ketdi. Olag'ovurda odamlar orasidan yig'lab menga talpinayotgan onamga ko'zim tushdi. O'zimni onajonimning quchog'iga otdim. Onam meni bag'riga bosib, yuzim-ko'zim demay, cho'lp-cho'lp o'pa boshladi. Ko'zlarimdan tirqirab yosh chiqib ketdi.

...Sherdor peshinlarga yaqin yonboshiga „militsiya“ deb yozilgan sariq mashinada maktab hovlisiga kirib keldi. Yonida bitta militsioner va jigarrang ko'ylakli barvasta kishi. Men sinfimiz derazasidan Sherdorni ko'rdim-u, unga qarab chopdim. U menga. Bir-birimizni quchoqlab oldik.

...Somonxonaga kirganimizdan keyin, palakat bosib, uxlab qolibman. Sherdor bo'lsa birpasdan keyin hushini yig'ib olibdi-da, idoraga chopibdi. Tumanga telefon qilibdi. Buni qarangki, tungi sharpalar Xursand tulki va uning sheriklari ekan. Qabristonning tog' tarafidagi yerto'lada o'g'irlagan qoramollarini nimtalab sotisharkan.

Shu kuni maktabimiz sport maydonchasida tantanali yig'ilish bo'ldi. Yig'ilishda tumandan kelgan kishi Sherdor ikkimizga ichki ishlar bo'limining faxriy yorlig'ini topshirdi. Yig'ilishda qatnashgan tuman kattalaridan biri esa Sherdor ikkimiz Rossiya shaharlarini tomosha qilib kelish uchun bepul putyovka bilan taqdirlanganimizni aytdi. Kimdir „ur-ra“ deb yubordi. Hayajondan quloqlarim chippa bitib qoldi.

20 iyun, 197... yil

Hozir kanikul. Akam shaharda. Institutning sirtqi bo'limiga kirish uchun imtihon topshirgani ketgan. Bolalarning ko'pchiligi lagerlarda dam olishyapti. Biz avgustda Sherdor bilan sayohatga boramiz. Ungacha... Ungacha o'qishimni tuzatib olishim kerak. Shuning uchun do'stlarim yordamida aniq fanlarni o'rganyapman. O'rtoqlarim o'qituvchilarga o'xshab har kuni bir soat men bilan shug'ullanishadi. Xato joylarini tuzatishadi. Tushuntirishadi. Dars oxirida yana uyga vazifa berishadi. Buning sababi bor.

...Xursand tulki voqeasidan keyin tumanimiz gazetasida Amiriyning „Ikki izquvar va to'rt ochko'z“ degan felyetoni chiqdi. Gazetaning shu sonida Sherdor ikkimizning suratimiz ham bosib chiqarilgan edi. O'zimiz haqimizdagi maqolani o'qib, terimga sig'may ketdim.

Amiriy yozgan felyeton redaksiyaga yozgan Xursand tulki haqidagi huv o'sha felyetonim bilan boshlanardi. Keyin To'raxo'jaev degan tuman matlubot uyushmasi revizorining poraxo'rliqi, Xursand tulkining qilmishlari, u boshliq o'g'rilar to'dasining kirdikorlari ochib tashlangan edi.

Felyetoni o'qib, semirib yurgan edim, yana direktorimiz chaqirayotganini aytishdi. Borsam, Amiriy. U eshikdan kirishim bilan qo'limni mahkam qisdi:

— Ilhomjonni sal bo'lmasa yolg'onchiga chiqarib qo'yuvdik, domla, — dedi keyin direktorimizga qarab, — poraxo'r revizorning xatiga ishonib deng. — Amiriy o'shandagi voqealarning hammasini bir boshdan Murod Mo'minovichga gapirib berdi. Gap orasida meni ko'klarga ko'tarib maqtadi. — Obbo, Ilhomjon-ey, bu yog'ini rosa boplagan ekan-sanlar-da. Qoyilman, yasha!

Quvonchdan terimga sig'may o'tiruvdim, to'satdan Murod Mo'minovich:

— Ilhomjonning hamma ishi zo'r-u, o'qishi chatoq-da, — deb qolsa bo'ladimi. Mehmonning oldida shuncha obro' bir pul bo'ldi. Shu paytda yer yorilsa, jon-jon deb kirib ketardim. Murod Mo'minovich hamma gapni shu kunga yig'ib yurgan ekan shekilli, shundan keyin indamay qo'ya qoldim.

— Adabiyotdan boshqasini fan demaydi. Ancha-muncha man-manligiyam bor. Lekin endi xatolarini tuzatsa kerak. Shundaymi?

„Bundan ko‘ra yotqizvolib, qornimga tepmaysizmi, domlajon!“

— Biz Ilhomjonni muxbirlar postiga rahbar qilmoqchiydig-u, bu yog‘i qanday bo‘ldi?

— Unaqada biz bilan ham gaplashmay qo‘yarmikin deyman, — deb kuldi Murod Mo‘minovich. — Lekin rostini aytganda, harakat qilsa, hamma ish qo‘lidan keladi. Biz qarshi emasmiz.

Murod Mo‘minovichning xonasidan chiqqanimizdan so‘ng, Amiriy:

— Sendan buni kutmovdim, Ilhomjon, — dedi mendan xafa bo‘lgan bir ohangda. — Jurnalist kamtar, odamlarning qalbiga yo‘l topadigan bo‘lishi kerak. Manmanlik yomon illat. Adabiyotdan boshqa fanga qiziqmasliging undan battar. Dunyodagi barcha kasblar, kashfiyotlar bo‘yicha yetarli bilim-ga ega bo‘lmagan odamdan hech qachon yaxshi jurnalist chiqmaydi. — Amiriy gaplarim qanday ta‘sir qilyapti, deganday menga qaradi, so‘ng davom etdi. — Masalan, senga fizika yoki matematika laboratoriyasida yaratilayotgan kashfiyot haqida ocherk yozish topshirildi, deylik. Sen esa bu fanlarda haligidaysan. Nima bo‘ladi? Yo‘q, Ilhomboy, bu qilg‘ing senga hali ko‘p pand beradi. Gap shu. Xatoyingni tuzatasan. Yo‘qsa, yomon xafalashib qolamiz.

O‘ylanib qoldim. Shuncha obro‘ qozonganingdan keyin ham o‘sha dardisar fanlarni bilmasang, qiyin ekan-da. Amiriyki shunday deyaptimi...

Buning ustiga sinf majlisida yana tanqid qilishdi.

— Beshinchi sinfgacha qanday yaxshi o‘qirding. Hamma senga ergashardi. Endi-chi, bir paytlar o‘zing shatakka olgan Xolmat ham sendan o‘zib ketdi, — dedi sinf rahbarimiz Ollaberdi aka.

Ollaberdi akaning keyingi so‘zlari suyak-suyagimdan o‘tib ketdi. „Kimsan, menday izquvar va yozuvchi odamga Xolmatni pesh qilishyapti...“ Ishonsangiz, bir necha kungacha uxlolmadim. Yarim tunda allakimning qahqahasi uyg‘otib

yubordi. Tursam, hech kim yo‘q. Ko‘z yumishim bilan yana o‘sha qahqaha: hindularga o‘xshab yuzlariga ola-bula bo‘yoq surib olgan bola qo‘llarini bigiz qilib meni ko‘rsatadi. Bir to‘da bolalar qornini changallab kuladi...

„Shoshma, Ilhom, — dedim o‘zimga. — Nahotki, sen shunchalar kulgiga qolsang? Nahotki, Xolmatchalik emas-san? O‘zingning kimligingni bir ko‘rsatib qo‘ymaysanmi ularga?! Qaror shu, hammani dog‘da qoldirmasam, Ilhom otimni boshqa qo‘yaman“.

Lekin tan olish kerakki, qoyil qilish oson emas ekan. O‘tinxonada yotgan simkaravotni artib-tozalab olma ostiga opchiqdim. Yonimda matematika, fizika, ximiya darsliklari... Onam hayron, otam „Shuningdan odam chiqadiyov“, deb xursand. Kitoblarning barisini varaqlab chiqdim. Kallamga alif kirgan bo‘lsa, har nima bo‘lay! Iks, igriklar ko‘zim oldida pir-pir uchadi-yu, miyanning yonginasidan g‘izillab o‘tib ketadi. „Nima qilish kerak? Ahmadning oldiga borsammi? Onam: „Egilgan boshni qilich kesmas“, deyдилar. Ammo-lekin bukchayib borishimni ko‘rsa, boshi osmonga yetarov... Borish qochmas, avval o‘zim ko‘ray... Yana kitobga tikilaman. Yana jimir-jimir qiladi. E, bor-e! Kitobni yopib, ko‘zimni yumaman. „Sherdor nima qilayotgan ekan-a?“ — chalg‘itaman o‘zimni. Aytganday, Sherdorning otasi ketib qoldi. Onasi fermadan kelsa: „Meni kechiringlar, bolalarim. Sizlarga otalik qilolmadim. Sizlarning ko‘zingizga qarab yasholmayapman. Men ota degan nomga munosib emasman. Sizlardan bitta-yu bitta iltimosim — onangizning — Saodatning gapini ikkita qilmanglar. Dunyoda bunday halol, mehribon ona yo‘q“, degan xat qoldiribdi-yu, g‘oyib bo‘libdi. Qayoqqa ketganini hech kim bilmaydi.

Yana kitobni ochaman. Kallamga hech balo kirmaydi. Yaxshisi, Olim bobo haqida doston yozaman. Doston!

...Ana, alp qomatli jangchi Olim Sodiqov granata tishlab, tepalikka tomon o‘rmalab ketyapti. Tepada pulemyot betinim tirillab, atrofga jaladay o‘q yog‘dirmoqda. Olim bobo besh-olti qadam qolganda granatini ajal uyasiga uloqtirdi. Uloqtirdi-yu, o‘zi ham yerga yiqildi. Qudratli „ura!“ sadolari yer-u ko‘kni tutdi... Yarador Sodiqov dushman qo‘lida...

Sodiqov soqchini o'ldirib, o'rmonga — partizanlar tomon qochmoqda... Kutilmagan tasodif: jangchi Sodiqov o'g'li serjant Azim Sodiqov bilan uchrashdi! Ota-bola bir-birining diydoriga to'ymaydi, partizanlar quvonch bilan ularga termilishadi. Yana jang, yana ayriliq... Bu voqealarni xuddi jangchi Sodiqov bilan yonma-yon jang qilayotganday aniq-tiniq tasavvur qilaman. Hatto jang maydonidan anqiyotgan porox hidi va chang-to'zondan nafasim qaytayotgandek bo'ladi. Qo'linga ruchka ushlagandan keyin esa fikrlarim o'z-o'zidan boshqa tomonga og'ib ketadi. „Nahotki, men shunchalar qoloq o'quvchiman!“ Yana kitobni qo'lga olaman. Bo'lmaydi. Yana yozmoqchi bo'laman, lekin... Lekin yozaman! Bugun bo'lmasa ertaga, erta bo'lmasa, indin, qachon bo'lmasin, Olim bobo haqida, u kishining mard o'g'illari haqida, albatta, yozaman! Hozir... hozir o'qishim kerak. Anavilar oldida yuzim yorug' bo'lsin, keyin... Oxiri bo'lmadi. Ahmadga bosh egib borishga to'g'ri keldi. Menday odamning yordam so'rab borgani Ahmad tugul, boshqalarniyam eritib yubordi. Ular gina-adovatni unutib: „Ilhomga yordam berish kerak, uning zehni juda o'tkir, birpasda hammadan o'zib ketadi“, deb xushomad qilishdi. Faqat Himmatning qovog'i ochilmadi. Bolalar men bilan yarash-yarash qilayotganida sinfdan chiqib ketdi.

O'rtoqlarim shu kuniyoq meni shatakka olish planini ishlab chiqishdi. Matematikadan Ahmad, fizikadan Kenja, geometriyadan Gulnora bilan Gulsum yordam beradigan bo'lishdi. Sinfdoshlarim bilan mening o'rtamda uzilgan do'stlik iplari shu tariqa qayta bog'landi. Ular shu kundanoq menga yordam bera boshlashdi. Men ham astoydil harakat qildim. O'tilgan temalarni takrorlab chiqdim. Natijada, so'nggi chorakda to'rt fandan „besh“ chiqdi.

— Ilhom qayta tug'ilyapti, — dedi sinf rahbarimiz hazil-lashib.

Bolalar kulishdi. Ammo bu hazilda jon bor: men xatolarimni tushunib, o'qituvchimiz aytganday, do'stlarim yordamida qayta tug'ilyapman. Maqsadim yangi o'quv yili boshlanguncha a'lochilarga yetib olish.

...Ukalarim supada uxlashyapti, ikki qadamcha narida

yotgan Olapar karavotim har g'ijirlaganda boshini bir ko'taradi-da, yana kulcha bo'lgan ilonday kallasini biqiniga tiqib oladi.

Osmonga tikilaman. Yulduzlar xuddi olma shoxlariga tegib turganday... Ana, mening yulduzim. Yaproqqa qo'nib turgan kumush kapalakka o'xshaydi. Sherdor, Sanamgul, Ahmad, Mehri, Kenja, Xolmat, Gulnora, Robiya — hammasi yulduzimning atrofini qurshab olishgan. Yulduzlarga qarasam, dilimda shirin tuyg'ular qaynaydi.

Bugun dunyoda
Mendan ziyoda
Baxtiyor inson
Yo'qdir, onajon.
Kenjavoy, Ahmad,
Xolmat va Sherdor
Do'stlar, baxtinga
Siz borki, men bor.
Biringiz qoshim,
Biringiz ko'zsiz,
Osmonimdagi
Yorqin yulduz Siz!

BALAND TOG'LAR OSTIDA

I

— He-he-hey! E-e-y...

Kutilmaganda yangragan bu hayqiriq daralar, baland cho'qqilar orasida aks-sado berdi. Pastda, soylikning alfaqayerida, xuddi unga javob berganday cho'ponning iti huridi. Archazorda shirin tush ko'rib uxlayotgan qushlar ham duv etib osmon-u falakka ko'tarildi.

O't bosgan yolg'izoyoq so'qmoqda xomush ketayotgan To'raqul hayqiriqni eshitib, to'xtadi. Uzoqda, cho'chitilgan qushlar gala-gala bo'lib aylanayotgan archazor orasidan bir bola otilib chiqdi. To'raqul burni yerga tekkuday bo'lib o'rmalab kelayotgan bolani tanib, hayron qoldi: „Rahmatilla? ...Nima qilib yuribdi? Buncha hovliqmasa?“

— To'raqul, o'zingmisan? Xayriyat-e. Topolmayman deb juda qo'rquvdim, — dedi yetib kelgan Rahmatilla, — bir yaxshilik qil, yordam ber, jon jo'ra...

— Nima deyapsan? Tushuntiribroq gapirsang-chi, — battar ajablendi To'raqul.

— Menga Muzqoyaning yo'lini ko'rsat. Qolgan gapni keyin aytaman.

— Muzqoyani?

— Ha. Sen tog' gulini o'sha yerdan opkelgansan, to'g'rimi?

— Ha, opkelganman. Lekin tog' guli hozir bog'imizda bor-ku.

— Bor edi. Endi yo'q. Kimdir sindiribdi. Oqshom sindirib ketibdi.

— Sindiribdi? Nega endi sindiribdi? — kutilmagan noxush xabardan To'raqulning ovozi o'zgarib ketdi. — Kim?

— Kimligini bilganimda-ku... Haydar bo'lsa, menga baqiradi. Sen aybdorsan. Sen navbatchi eding. Topasan, yerning ostidan, osmonning ustidan bo'lsa ham topasan, deydi.

— To'g'ri-da! Sen bo'lmay, Haydar aybdor bo'lsinmi? — dedi To'raqul jahli chiqqanidan bo'g'ilib. — Navbatchimiding, qara-da. Ko'rpa-to'shak qilib yotib olmaysanmi bog'-da? Necha marta aytdig-a... — To'raqul yana nimadir deb alamdand chiqmoqchi edi, Rahmatilla gapirgani qo'ymadi.

— Ko'rsatasanmi, yo'qmi?

To'raqul sal shashtidan tushdi.

— Nima, sen rostdan ham Muzqoyaga bormoqchimisani? Hozir-a? Shu ahvolda, hech narsasiz-a? U yerga ikki kun-dayam borib bo'lmaydi-ku!

— Menga desa, o'n kun ketmaydimi? Yo'lni ko'rsat.

— Esing joyidami. O'zim ham adashib borib qolgandim u yerga. Gul opkelarmish. Ja kutib turgan ekan-da seni? Menga tasodifan bir uchrab qoluvdi-da, o'shanda...

— Ko'rsatmaysanmi? Bo'пти. Baribir boraman. Sen topgan narsani men ham topaman. Qo'rqma, adashadigan ahmoq yo'q.

— Qilg'ilikni qipqo'yib, jirillashini-chi?.. Topib bo'psan.

Nima, senga u qirda ochilib yotgan qizg'aldoqmidiki, yugurib borib bir quchog'ini terib kelasan.

— Ko'rasan! — Rahmatilla jahl bilan tepaga qarab yurdi. U tepa orqasida ko'zdan g'oyib bo'lguncha, To'raqul joyidan qimirlamadi. Keyin uyqudan uyg'onganday orqasidan chopdi.

Qachonlardir qoyadan dumalab tushgan tomday xarsang yonida unga yetib oldi. Oldinga o'tib, yo'lini to'sdi.

— Chiniminan Muzqoyagami? Sendan so'rayapman?

— Ishing nima? Qoch! — Rahmatilla To'raqulni itarib yubordi. To'raqul tizzalab qoldi. Lekin tezda o'zini o'nglab, yana Rahmatillaning yo'lini to'sdi.

— Rahmatilla, jo'rajon, unday qilma, — endi unga yalina boshladi To'raqul. — U yer judayam olis, judayam sovuq. Qishda qor ko'chishini bilasanmi? Toshlar yumalab, yo'llarni to'sib qo'ygan bo'lsa, nima qilasan?

Rahmatilla bu gaplarni eshitgisi kelmay, qoqilib-surilib olg'a intilaverdi.

— Bo'pti, — dedi uni qaytarishga ko'zi yetmagan To'raqul, — xo'p, shoshma. O'zim ko'rsataman.

Rahmatilla ishonqiramay to'xtadi.

— Faqat, avval orqangga qaytib, issiqroq kiyim kiyib kel.

— Hech qayoqqa bormayman.

— O'jarlik qilma. Muzlab qolasan u yoqda.

— O'lsam ham mayli, — dedi Rahmatilla va oldinga intildi. Nima deyishini bilmay garangsib qolgan To'raqul uning orqasidan ergashib ketaverdi.

Ular borayotgan yolg'izoyoq yo'l Langardaraga yetganda tippa-tik turgan ayiqday katta tosh yonida ikkiga ajraldi: o'ngdagisi Chinordara, Qirqqizdara, Devdara orqali to'ppa-to'g'ri Muzqoyaga olib borardi. Chapdagisi — Guldaraga. To'raqul Guldaraga ravoch, lola tergani ko'p borgan.

Rahmatilla Ayiqtosh oldida o'ngga burildi.

To'raqul ichida: „Shu yerda, albatta, adashadi“, deb kelayotgan edi. Rahmatilla to'g'ri yo'lga tushganini ko'rganidan so'ng, chuqur xo'rsinib, noiloj yana oldinga o'tib oldi.

— Bo'pti, o'zingdan ko'r, — dedi u qovog'ini uyub. — Agar sovqotdim yoki charchadim desang...

Ikkovi jimgina qiyalamasiga yuqoriga o'rlab ketishdi. To'raqul birinchi marta tog'ga chiqayotgani yo'q; nima kerakligini biladi. Hozir ham oyog'idagi silovsin terisidan tikilgan yengil va chidamli choriqqa, sarg'ish kombinezon shim va kastumi ustidan kiyib olgan nimcha po'stiniga, yelkasiga osib olgan safar xaltasiga qaragan kishi uni alpinistdan ajratishi qiyin. Rahmatilla esa faqat ko'ylak-shimda. Shu ahvolda Muzqoyaga borishini tasavvur qilish juda kulgili. Biroq hozir unga „qayt“ deb ko'r-chi...

Bir soatlardan so'ng katta archa ko'rindi. Bolalar bahor paytlari bu yerga ravoch, lola, kiyik o't terгани ko'p chiqishgan. Rahmatilla bir marta otasi bilan Qirqqizdaraga ham borgan edi. Ular archa oldida o'tirib biroz nafasni rostlab olishdi. Uzoqda Qirqqiz toshlari ko'rinib turardi. Tabiat mo'jizasi bilan bunyodga kelgan bu toshlar olisdan qaragan kishiga xuddi suhbatlashib asta-asta yurib kelayotgan bir to'p qizlarga o'xshaydi. Daraning ikki tomoni qalin archa bilan qoplangan. Dara oxirida aylanasi bir necha quloch kladigan bahaybat xarsang bor. Bolalar xarsangga yetib kelishganda butunlay holdan toygan edilar. Dam olish uchun xarsangtosh poyidagi toshsupaga o'tirishdi.

To'raqul xaltasidan non, turshak, bir bo'lak qovurilgan go'sht, tuxum oldi. Unda olmos tig'li pichoq bor edi. Go'shtdan ikki yaproq kesib, qolganini yana joyiga solib qo'ydi.

— Qorinni to'ydirib olmasak, yiqilib qoladiganga o'xshaymiz. Ke, qani, oldik.

Rahmatillaning qorni juda ochqagan bo'lsa ham, sir boy bergisi kelmay, sayr etayotgan Qirqqiz toshlariga qarab turaverdi.

To'raqul do'stining yengidan tortdi:

— Sen hadcb tumshayavermay yeb ol. Lekin oz-ozdan yemasak, keyin qiyin bo'ladiganga o'xshaydi. Men o'zimga ikki-uch kunga yetadigan qilib oluvdim. Hozircha ikkovimizgayam yetadi. U yog'i bir gap bo'lar.

Rahmatilla bir tishlam nonni og'ziga solib, chaynay boshladi. Hozir qishloqda yoz, bu yerga esa bahor endigina qadam qo'yganday edi: qiyaliklarni qoplagan qoqigullar yulduz parchalariday yaltiraydi, qorli cho'qqilar orasidan

yugurib pastga tushib kelayotgan jilg'alarning bo'yida chuchmomalar yaproq yozmoqda. Quyoshning oltinrang titroq nurlari ko'zni qamashtirguday yarqiraydi. Archazordan qushlarning sayroqi ovozi eshitiladi, atrof-tevarakda esa goh quyosh nurida tovlanib, goh soya-salqinda ko'zdan g'oyib bo'lib, katta-katta qanotlari sariq kapalaklar uchib yuribdi...

— Chiroyli, a? — dedi To'raqul kavshanib. — Bultur oqsoylik Ali bobo degan cho'pon shu yerda qiziq voqeani aytib beruvdi. Sen it bilan ilonning do'st bo'lishiga ishonasanmi?

— Yo'q. Nimaydi?

— Men ham ishonmasdim. Lekin Ali boboning gapidan keyin hayron qoldim. Ali boboning Olapar degan iti har kuni ma'lum vaqtda g'oyib bo'lib qolarkan. Bobo kunlardan birida itning orqasidan kuzatib borib, g'alati voqeaning ustidan chiqib qolibdi. It yo'g'onligi bilakday ilon bilan o'ynashib turgan emish. It oyoqlarini ko'tarib ilonni goh yerga bosar, goh yuqoriga otarmish. Ilon ham itga erkalanib suykalanar, uning bo'yniga o'ralib, „quchoqlab“ olarkan.

Ali bobo ko'rganlarini akasiga aytib beribdi. Akasi bir narsani eslaganday: „Olapar kichikligida kun issiq paytlarda katta bir daraxtning kovagiga kirib yotardi. Bir kuni senga o'xshab, uning barra yungli bo'ynida kichkinagina ilon uxlab yotganini ko'rgandim. Balki, bu o'sha ilondir“, — debdi.

Ali bobo Olapar bilan ilonni yana bir necha marta birga „o'ynashayotgani“ni ko'ribdi.

— Rostdanmi? Bundan chiqdi, ilon ham do'stlikni bilarkan-da?

— Tog'-u toshlar orasida yuraversang, bunaqa voqealarni ko'p eshitasan. Senga yana bir narsa ko'rsataymi? Qarab tur, hozir shu xarsangni tebrataman.

— Ol-a!

— Ishonmaysan-a? Qara. Hozir ko'rasan.

To'raqul sakrab turib yelkasini bahaybat xarsangga tiradi. Uning bu chiranishi tog'ni ag'darmoqchi bo'layotgan qumursqaga o'xshardi. Rahmatilla piqillab kulgan joyida og'zi ochilganicha qotib qoldi: tosh asta-asta tebranayotgan edi!

Qo'rqib ketganidan Rahmatilla sapchib o'rnidan turib, o'zini chetga oldi. Tosh xuddi ustiga ag'darilib tushayotganday edi.

— Ishondim. Qimirlatma. Hozir ag'anab ketadi! — dedi titrab.

— Qo'rqma, ag'anamaydi, — dedi To'raqul tirjayib yelkasidagi changlarni qoqarkan, — Ali boboning aytishiga qaraganda, bu tosh ming yildan buyon shu holda turarmish. Xo'sh, buning sababi nimada? Bilmaysan. Bilmaysan-a? Mana, eshit: daraga turli tomondan esgan shamol har xil zarrachalarni olib kelib, to'g'ri shu toshga uradi. Qor, yomg'ir suvlari ham tagini kalamushday yemirgani-yemirgan. Tayanch maydoni yetarlicha bo'lmagani uchun uni bir kishi qimirlatishi mumkin.

Tushundingmi? Endi yo'lga tushamiz. Qorong'i tushmay Devdaradan o'tib olishimiz kerak, bo'lmasa yotishga joy topolmay qiynalamiz. Yana ikkovimizniyam bo'ri yeb qo'ymasin. Devdarada bo'ri bor-a, eshitganmisan?

Rahmatilla uning gapi hazilmi, chinmi, e'tibor bermadi. U tezroq Muzqoyaga yetib olishni o'ylardi.

— Bugun Muzqoyaga boramizmi?

— Erta peshinda borsak ham jon de.

Ular yo'lga tushishdi. „To'raqul balo, tog'ni besh qo'lday biladi, — o'ylardi Rahmatilla, — gulni topib, Iskandarni bir qoyil qoldirsaydik“. Rahmatillaning chopgisi, baqirib qo'shiq aytgisi kelardi. U o'tlar orasida to'nkarilib yotgan tunuka idishni bir tepdi. Idish daranglab toshga urildi. Oldinda ketayotgan To'raqul borib idishni qo'liga oldi: bo'sh konserva bankasi. Qayoqdan kelib qoldiykin?..

— Ichida tilla borakanmi, muncha tikilib qolding?

— Buni topganimiz yaxshi bo'ldi, — dedi To'raqul to'rvasini yerga qo'yib. — Yur, qorag'atga to'ldirib olamiz, hali kerak bo'ladi.

— Qo'ysang-chi, hozir meva teradigan paytmi?

— Ayni payti-da. Devdaraning naryog'ida toshdan boshqa narsa topib bo'psan.

Rahmatilla noiloj ko'ndi. Tog' qiyaliklarida ko'kka bo'y cho'zgan archalar, egilib turgan butalar oralab qorag'at terishga kirishdilar. To'raqul butalar tagida mushukdek sharpasiz yurar, mevalarni qo'llari va hatto lablari bilan uzib olardi.

Qorag'at shirasiga belangan sadafday oppoq tishlari bir zunda ko'mir chaynaganday qop-qora rangga bo'yaldi. Idish mevaga to'ldi. To'raqul uni avaylab to'rvasiga joyladi.

— Mana bu ishimiz zo'r bo'ldi, — dedi u lablarini artarkan, — endi bemalol jo'nayversak bo'ladi.

Yashil archalar-u bodomzorlar orqada qoldi. Endi qalashib yotgan toshlardan boshqa diqqatni tortadigan hech narsa ko'zga tashlanmasdi.

Kechga yaqin pichoq bilan kesganday tik qoyaga yetib kelishdi. Qoya tubiga allaqayerdan guvullab tushayotgan sharshara to'lqinlari botayotgan quyosh nurida qizg'ish tusda tovlanar, suvga qarasang, yuragingni vahima bosardi.

— Huv anavi so'qmoqdan o'tishimiz kerak, — dedi To'raqul qoyaning qoq belidagi toshlarni quchoqlab, zo'rg'a yursa bo'ladigan yo'lni ko'rsatib.

— Shu yerdan o'tsak, yo'limiz ikki hissa qisqaradi. Botinkangning ipini yaxshilab bog'lab ol. Yurganda pastga qarama, boshing aylanib ketishi mumkin. Ktdik.

Rahmatillaning ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. „Boshqa yo'l yo'qmi“, deb so'ramoqchi ham bo'ldi-yu, To'raqul qo'rqqoq ekansan, demasin deb tilini tiydi.

To'raqul toshlarni quchoqlab sekin-asta ilgariladi. Rahmatilla ham oyoq ostini paypaslab qadam bosgancha orqasidan boraverdi. Hademay qo'llari toliqa boshladi. To'xtab bo'lmasdi. To'xtash — yutqazishdan boshqa gap emas. O'tirib, qo'l-oyog'ingning chigilini yoza olmaganingdan keyin... aksincha, to'xtasang, og'irliging oshib, toliqishing battar zo'rayadi. Bir marta Rahmatilla shoshib qolib, omonat toshni bosib oldi. Tosh sirg'alib borib boshqasiga urildi. Pastda toshlarning guldurashi olis-olislarda aks-sado berdi.

— Ko'zingga qaramaysanmi? — deya baqirib yubordi To'raqul. — Avval bosib ko'rib, keyin oyoq qo'y, dedimku! — uning yuzlari terdan qorayib ketgandi. Orqasidagi yuki hozir pastga tortib ketadiganday edi. — Qayerdadir, shu o'rtada g'or bo'lishi kerak. Lekin qani u?

Tog'ni tun pardasi qoplay boshlagan, hech nimani ajratib bo'lmasdi. Pastda sharsharaning vahimali guvullashi

eshiriladi. Atrofda gung, kar toshlardan boshqa... Kutilmaganda To'raqulning ko'zi yon tomonda o'pqonday qorayib turgan joyga tushdi.

— Topdim! G'or.

G'orga birinchi bo'lib To'raqul, keyin Rahmatilla chiqdi. Ikkovining barmoqlari ham shilinib qonab ketgan, Rahmatillaning esa toshchalar kirib ketgan tizzalari shilingan, kaftlari cho'g'day qizib achishardi. Ular guvullayotgan daraga, qorayib turgan uchi o'tkir toshlarga, o'zlari o'tib kelgan tomonga tikilgancha anchagacha so'zsiz o'tirishdi. Keyin bir-biriga qarab kutilmaganda kulib yuborishdi.

— Tunni shu yerda o'tkazamiz. Xavfsiz, — dedi To'raqul atrofni ko'zdan kechirib. Ular turgan joy g'ordan ko'ra ko'proq dala shiyponiga o'xshardi. Faqat ustunlari yo'q, hamma yog'i qo'ng'ir toshlardan edi bu „shiypon“. Ro'parada, daraning u yog'ida, ulkan qoyalar qorayib ko'rinar, qorong'ilik quyuqlashgan sayin sharsharaning shovqini yanada baland va qo'rqinchliroq eshitilardi.

— O'tin topilgandami, gurullatib bir gulxan yoqsak, zo'r ish bo'lardi-da, — dedi To'raqul. — Xuddi kinolardagiday baland qoyaning qoq o'rtasida olov gurullab tursa...

— Dara yomon guvullarkan.

— Ko'nikkuningcha shunaqa bo'ladi. Keyin bilinmay ketadi.

— Bu yerda ilgari yotganmisan?

— Ha. Bu — ikkinchisi. Birinchi marta adashib kep-qoluvdim. Rosa qo'rqanman o'shanda. „Qush ham uchib kelolmaydi-ku, nimadan qo'rqasan“, deb o'zimga-o'zim dalda beraman. Qayoqda, hamma narsa ko'zimga dev-u ajinaga o'xshab ko'rinaveradi. Baqirib odamlarni chaqiray desam, ko'rib turibsan. Shunaqa qilib, qo'rqib-qaltirab, oxiri uxlab qolibman. Aytganday, Rahmat, tog'ga ketganimni qayoqdan bilding?

— Uylaringga borayotib yo'lda Nazarni ko'rib qoldim. U qir tomonga ketayotganingni ko'rgan ekan. O'zing-chi, nega bir haftadan buyon bog'ga bormaysan?

To'raqul xo'rsindi. Uning xo'rsinishini o'zicha tushungan Rahmatilla:

— Otang haliyam uradimi? — dedi rahmdillik bilan.
— Ichib kelsa, ayamaydi. Shu uydan butunlay qochib ketay deyman-u, onamga achinaman. Kun bermaydi u onamga.

— Onangniyam uradimi?

— Hm... Ko'p uradi... Kecha kechqurun uyga qamab oldi. Men ularning janjaliga hech qachon aralashmasdim. Onam qo'ymasdi. „Bizlar bugun janjallashsak, ertaga yana yarashib ketaveramiz“, derdi. Kecha onamning voy-voylashiga chidab turolmadim. Kirdim. Qarasam, sochidan burab... Keyin otamni itarib yubordim. Mastligi uchunmi, ag'anab tushdi. U o'zini o'nglab olguncha, men qochdim. „O'ldiraman“ deb xo'p so'kindi. Hech nima qilolmaydi. Siri ochilib qolishidan qo'rqadi.

— Sir? Qanaqa sir?

— Ziraga o't aralashtirib sotadi. Shivitni bilasan-u, shuni ziraga qo'shib bug'laydi. Qaynagandan keyin ziraning hidi o'tga unnab qoladi. Keyin qarabsanki...

— Shivitni kim terib keladi?

— Kim-kim... Albatta men-da. Nima qilay? Zira kam. Shivit bo'lsa Guldarada to'lib-toshib yotibdi.

— Yo'q, desang bo'lmaydimi?

— Yo'q deganga qo'ysa-ku... Yaqinda Tbilisidan bir oshnasi kelishi kerak. Shungacha o'n besh kilo to'playsan, degan. Onam indamasa o'zim bilardim-a...

— Onang nimaga buncha qo'rqadi, a?

— Nimagamish... seni otang ham onangni har kuni kaltaklab uraversin-chi, nimagaligini o'shanda bilasan.

— Meni otam unaqamas.

— Shuning uchun ham sen bu gaplarga tushunmaysan. E-e, bunaqa gaplarni qo'y. Kel, yaxshisi, uxlaylik. Ertaga ko'p yurish kerak.

Ikkisi to'rvaning ikki tomoniga bosh qo'yib, cho'zilishdi. Rahmatilla ko'zini yumishi bilan bahaybat devlar tappa bosadiganday sira uxlolmadi. Bir yoqdan tizzasi, qo'llarining achishi... To'raqul bilan gaplashib, vahima va og'riqni unutmisi kelar, lekin uxlab qolgan deb, gap qotishga botinolmasdi.

Aslida esa To'raqul ham uyg'oq edi. U yolg'iz qolgan paytlarida Rahmatillaga o'xshab vahimali narsalarni emas, eng quvonchli voqealarni, yaxshi ko'rgan odamlarini eslardi. Hozir ham u Qarshi bobosini o'ylab yotibdi. Bu cholni To'raqul jonidan ortiq yaxshi ko'radi. „Peshanamga ota tugul, bobo ham bitmagan ekan-da“, deb o'kinadi. Unga cholning mehribonligi, doimo bolalar bilan chaqchaqlashib yurishi, „falon joyga ketdik“, desa „ketdik“ deb ketaverishi yoqadi.

II

...Qarshi bobo har qancha hurmatga arziydi. Agar biron kun uyda qamalib yotsa dalani sog'inib qoladi. Tong havosini dalada simirmasa jon rishtalaridagi chigillik yozilmay, qoni uvushib, ruhi tushib ketayotganday tuyulaveradi. Dala havosi dimog'iga urilishi bilan ko'nglidagi xijillik oftob taftida erigan qirovday hovurga aylanib ketadi. Dilini tiniq tuyg'ular yoritadi. Ko'zlarida havas nuri uchqunlanib, peshanasidagi ajinlar silliqlanganday bo'ladi. Buning boisini izohlash qiyin-u, lekin bobo dalani ko'rganda dardini unutadi, ochin-to'qinligi xayolidan chiqib ketadi. Bir kun dala havosiga to'yolmay qolsa bormi, yuragi siqilib go'dakday arzimagan narsadan ranjib, nevaralari bilan g'ijillashaveradi. Bu hol bahor boychegagi g'uncha yozguncha davom etardi. Yaxshiyamki, o'quvchilar tajriba uchastkasi tashkil etishib, uydagilarniyam, cholniyam ko'ngli tinchidi. Bir yildan buyon bobo bolalar bilan ovora. Ba'zan qish kunlari ham dalaga chiqib ketadi, qor kechib bolalarga allanimalarni tushuntiradi. Bahor sepini yoyishi bilan ko'ch-ko'ronini aravaga ortib, bog'ga — bolalar yoniga ko'chib keladi. Eski bog' bilan yangi bog' oralig'idagi sarhovuz bo'yiga chayla qurib, qishni o'sha yerda qarshi oladi.

Qarshi boboning chaylasi bilan bolalarning so'risi o'rtasi 20—25 qadam ham chiqmaydi. To'raqul ba'zan hazillashib, boboni o'zlarining baland so'rilariga olib chiqmoqchi bo'ladi. Shunda bobo:

— Yigitligimda Ahmad qo'rboshini quvib qoplon sakrolmaydigan Ilondaradan hatlab o'tib ketganman. Endi qarib qoldim. Bo'lmasa yakkamoxov bo'lib, bir o'zim chaylada o'tirarmidim, — deydi o'kinib.

— Bobo, pensiyadasiz, jo‘ralaringizga o‘xshab uyda o‘tirsangiz bo‘lmaydimi? — cholning tilini qichitadi To‘raqul.

Bobo shunaqa paytlarda yosh boladay ko‘ngli cho‘kib, xafa bo‘lib qoladi.

— Sizlarga og‘irligim tushayotgani yo‘g‘-u... Uyda nima bor menga? Belimda hali kuch-quvvat bo‘lsa, hasa tutmasam. Bog‘ tilini, yer tilini biladigan menga o‘xshash qariyalar sizlarga hali ko‘p kerak bo‘ladi. Menga hech nima kerak emas: azonda turib, bog‘ni bir aylanib kelsam, yer o‘choqda choy qaynatib ichsam, o‘-o‘, buning gashtiga nima yetsin.

Chol yerni yaxshi ko‘radi.

To‘raqul hovuz bo‘yida Qarshi boboning tong qucho-g‘ida orom olayotgan bog‘larga mahliyo bo‘lib turganini ko‘p kuzatgan. Hatto boboning yer bilan gaplashganini ham eshitgan. Ha, bobo dalalar bilan gaplashadi, bahslashadi, har xil topshiriqlar beradi. Bu yerlarning qitig‘i qayerda, dardi qayerda, besh qo‘lday ayon-da u kishiga. Ehhe, qancha vaqt ketdi zabonsiz zamin bilan tillashguncha. Yetmish besh yilning saratoni entikib-entikib o‘tib ketdi. Bu atrofda Qarshi boboning peshana teri tommagan joy qolmadi hisob. Niyoz-boyning eshigida xizmatkor bo‘lgan otasi omoch qo‘shsa oyoqyalang ho‘kiz, ot yetakladi, tok kessa novdasidan ushlab turdi, tosh fonus ko‘tarib ekinlarga suv taradi. E, aytgan bilan ado bo‘lmaydi u paytlarning dardli qo‘shig‘i. Inqilobdan so‘ng jamoa xo‘jaligiga kirdi. O‘zi faxrlanib aytganiday, tug‘ilganida ota-onasi „bog‘bon bo‘lsin“ deb husayni so‘rdirgani uchunmi bog‘bon bo‘ldi. Ota-bobosi ostona hatlab qishloqdan chiqmagan bu odam bir necha marta Moskvaga bordi, ko‘ksi orden-u medallarga to‘ldi. Odamlar bo‘lsa G‘o‘ssoy shinnilari, musallas-u kishmishlari haqida tilidan bol tomib gapirar edilar... Keyin allaqayerdan tamaki keldiyu, Qarshi boboning dunyosi ostin-ustin bo‘lib ketdi. Odamlar daromadi zo‘r ekan, deb o‘zlarini tamakiga urishdi. Bog‘lardan olinadigan hosil kamayib ketdi. Buyam kamdek, ayrim brigadalarda mevazor-u uzumzorlar buzilib, o‘rniga tamaki ekildi. Ana shunda boboni kimdir haqoratlayotgandek bo‘ldi. G‘azabi toshib, oppoq kalta soqoligacha titrab ketdi. Besh-

olti bolani yetaklab, to'g'ri raisning oldiga kirdi. Ular orasida To'raqul ham bor edi.

— Aytgan gaplaringiz juda to'g'ri, ota, — dedi rais boboning so'zini mulohaza qilarkan. — Biz haqiqatan ham bog'ga kam e'tibor beryapmiz. Tamaki xo'jaliklargayam, jamoa xo'jaligigayam katta foyda keltiryapti. Qolaversa, jamoa xo'jaligimizdagi bog'larning hammasi eski, yangilarini bunyod etish uchun esa yer yo'q, suv yo'q, eng muhimi, odam yo'q, odam! — rais shu so'zlarni aytarkan, siz yetaklab yurgan manavi churvaqalar bilan ish bitadimi, deganday To'raqul va uning o'rtoqlariga qarab bosh chayqab qo'ydi.

— Guldursoyda qadimdan bo'zlab yotgan qancha yer bor, — bo'sh kelmasi bobo ham. — O'sha yerga sen suv chiqarib ber, rais bolam. Odamni men topaman.

— Qayerdan topasiz, ota, qayerdan?

— Maktabdan opkelaman...

— E, qiziq ekansiz-ku. Bola bilan...

— Xo'p deya qol, o'g'lim. Otang rahmatli bilan rosa partizanlik qilganmiz, qalin oshna edik...

— Bu yog'ini bilaman, — kuldi. — Lekin bolalar...

— Sen deyman, rais o'g'lim, bu bolalarni bilmaydiganga o'xshaysan. Naq o't-olov. O'zimizning bolalar-da. Senga aytgan gapni avval ular bilan pishitib olganman. Manavi puchuqlar o'shalarining vakili, ko'nglingni to'q qilaver u yog'idan. Urush davrida qo'sh qo'shib, bug'doy o'rganda sen ham ona suti og'zidan ketmagan go'dak eding-da...

Xullas chol g'alaba qozondi. Rais Guldursoyga kanaldan nasos bilan suv chiqaradigan, bobo ishchi kuchi topadigan bo'ldi.

Hademay bo'm-bo'sh yotgan Guldursoyda buldozer gurulladi. Bolalar darsdan chiqib to'g'ri shu tomonga yugurishar, kun botguncha astoydil mehnat qilishardi.

Mehnat zoye ketmadi...

— To'raqul, uxlayapsanmi? — sekingina so'radi Rahmatilla.

— Yo'q. Qarshi boboni o'ylab yotibman.

Rahmatilla „piq“ etib kulib yubordi.

— Nega kulasan?

— Men ham Qarshi boboni eslab yotuvdim, shunga. Bir kuni-chi, eski bog' yonida boboning ovozi eshitib qoldim. Yonboshlavolib birovga do'q qilyapti: „Kelgusi yil bir yuz qirqdan beramiz, eshitdingmi, oqsoqol? Bulturgi maynavozchilikni bas qil. Bir marta ko'king bilan ko'zimizni aldab, aravani quruq qaytarganing yetar. Yaxshiki, ukalaring bor ekan. Aybingni yopdi. Bu yil hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib ter to'kmasak, ko'radiganingni ko'rasan-a, mendan?“ Kimga do'q qilyapti? Atrofga qarayman, hech kim yo'q. Bilsam, bog'lar bilan bahslashayotgan ekan. Oqsoqol — eski bog', ukalari — yangi bog'lar ekan...

Ikkovi ham kulib yubordi.

III

— Rahmatilla! Rahmat, tur, kun yoyilib ketibdi! Jo'nash kerak.

Ular tepaga, yalanglikka chiqib olguncha kechagiday chag'ir toshli so'qmoqdan ehtiyotlik bilan yurishdi. Rahmatillaning qo'li shishib ketgan edi. Toshlar uning kaftiga chaqirtikanday sanchilardi. Tishini-tishiga qo'yib zo'rg'a chidadi. Buning ustiga havoning soviy boshlagani ham har qadamda sezilayotgan edi. Quyosh bulutlar qa'riga singib ketgan, atrofnı sezilar-sezilmas tuman qoplab turardi. Yurish xatarli, qor bosgan jarga bexosdan tushib ketish hech gapmasdi. Tog'da yurib ancha tajriba orttirgan To'raqul qorg'ovak bo'lib turgan joylarni chetlab o'tardi. Bir joyda birpas to'xtab, dam olvolishdi. Ikkinchi marta nafas roslash uchun to'xtaganlarida, To'raqul sovuqdan tishi takillab, lablari ko'karib ketgan do'stiga nimchasini yechib berdi.

— O'zing-chi, sovqotmaysanmi...

— Kastumim qalin, ol, kiyvol.

Yana biroz yurishgandan keyin oyoq kiyimlar ham almashtirildi.

— Tufingni yechib menga ber, — dedi do'stining ahvoliga chidolmagan To'raqul. — Meni paytavam bor, issiq.

Rahmatilla bir choriqqa, bir jiqqa ho'l poyafzaliga qarab:

— Qayt, deganingda chopib borib almashtirib kelsam bo'larkan-da, — dedi afsus bilan.

To'raqul uni gap bilan uzib-uzib olay dedi-yu, yana rahmi kelibmi, alamini ichiga yutdi.

Choriq kiyganidan so'ng Rahmatillaning yurishi ancha tezlashdi. Lekin To'raqulning oyog'i muzlab qolayotganday edi. Nam paytavadan o'tib, sovuq ignaday sanchilardi.

Oldinda baland qoya ko'rindi. Qoyani qalin tuman qoplab olgandi.

— Keldik, — dedi To'raqul va qor orasida qorayib ko'rinib turgan toshga o'tirdi. — Shu qoyani aylanib o'tsak, bo'ldi.

Qoya orti — qalin tuman bilan qoplangan muz dengizi. Muzlikning ba'zi yerlari oftobda kumushday tovlanadi. Havo sovuq.

— Shu o'rtada bitta kamar bo'lishi kerak, — dedi To'raqul atrofga alanglab. — O'sha yerda oyoqni quritib olamiz.

Muzlik yoqalab yurishdi. To'raqul adashmabdi. Toshlar orasida kichkina kamar bor ekan. Kamarning bir burchida tosh o'choq, boshida bir quchoq o'tin. O'tin namiqib qolibdi. Pufflay-pufflay oxiri olov yoqishdi. Poyafzallarini yechib, olovga tutishdi. Rahmatillaning oyoqlari qavarib, qontalash bo'lib ketibdi. Uning to'pig'i zirqirab og'rir, tizzasini shishib ketgan edi. To'raqul paytavasini yirtib, do'stining tizzasini bog'lab qo'ydi.

— Rahmat, — dedi tanasiga issiq o'tib, ancha o'ziga kelgan Rahmatilla. — Yaxshiyam, sen bor ekansan. Bo'lmasa...

To'raqul indamay o'choqqa o'tin tashladi. Rahmatilla uning olovga tikilib turgan chehrasiga havas bilan termilib qoldi. U kechadan buyon To'raqulni boshqatdan kashf etayotgan edi. To'raqulning tadbirkorligi, chidamliligi, ko'p narsalarni bilishi Rahmatillaning havasini keltirar, uning oldida o'zini yosh boladay sezib o'ng'aysizlanar, ayni paytda do'stiga bo'lgan hurmati har qadamda oshib borardi. „Bu tog'da To'raqul bilmaydigan narsa, To'raqul bormagan yer yo'q, deb o'ylardi Rahmatilla. — Hatto mana shu kovak-kayam ilgari kelgan. Nimaga kelgan ekan-a? Zira axtarib kelganmikan desang, bu tosh-u muzlarda biror giyohning o'sishiga ishonish qiyin. Shunchaki tomoshaga kelgan desang...“ To'raqul ko'zini olovdan uzib, Rahmatillaga jilmayib qaradi.

— Isinib bo'ldingmi? Jo'naylik endi.

— Yana birpasgina o'tiraylik, — dedi qimirlagisi kelmay Rahmatilla. — Judayam yaxshi joy ekan. Qachon topa qoluvding?

— Nimani? Ha, bunimi, bultur, ayiq ovlab keluvdim, Shodmon amaki bilan.

— Ayiq dedingmi? — qayta so'radi Rahmatilla cho'chib. — Ayiq bormi hali bu yerda.

To'raqul kulimsiradi.

— Bo'lganda qandoq. Panjasi oppoq, o'zi qo'ng'ir ayiqlar yashaydi bu yerlarda. Biz bittasini otganmiz. Filday edi-da o'ziyam. Shodmon amaki uch marta otganidan keyin arang yiqilgan. Ustingdagi nimcha po'stin o'sha ayiqning terisidan.

— Yo'g'-e!?

— Bu tog'da-chi, shu paytgacha hech kim bilmaydigan xazinalar ham bor. Agar birovga gullab qo'ymasang, senga bir gap aytaman.

Rahmatilla qiziqish bilan To'raqulga qarab qoldi. Bu boladan har nimani kutsa bo'ladi.

Mana, bulturgi voqea: u bitta turnaning bo'yniga xat bog'lab, uchirib yubordi. Besh-olti oydan so'ng, Afrikadan, Edmon degan boladan xat keldi. Turnaning bo'ynidagi xat Edmonga tegibdi. „Men sen bilan do'st bo'laman, To'raqul“, — debdi Edmon. Edmonning xati hozir maktab ijodkor o'quvchilar xonasida „Internatsional do'stlik burchagi“da saqlanyapti.

Tog'-toshlar orasida To'raqul yasagan son-sanoqsiz inlar bor. Bu inlarda qushlar maza qilib yashaydi.

To'raqul qishda ham inlardan xabar olib turadi.

To'raqulning ishi tezda o'quvchilar orasida ommalashib ketdi. Endi bo'lsa, Rahmatillaning butun vujudi quloqqa aylanib, To'raqulning og'ziga termilib turardi.

— Buncha cho'zding, ayta qolmaysanmi? — qistadi toqati toq bo'lib u.

— Men qayerga yur desam, o'sha yoqqa borasan, shundaymi?

— Bo'пти, boraman, — o'ylab o'tirmay rozi bo'ldi Rahmatilla.

— Xazinani yakka o'zim topmoqchi edim-u... Hay, mayli, bo'lganicha bo'ldi. — To'raqul qo'ynidan sarg'imgir, yaltiroq qog'oz olib, o'rtog'iga ko'rsatdi:

— Bunda nima yozilganini bilasanmi?

Qog'ozda arab imlosida yozilgan uch qator so'z bor edi.

— Bunda: „Muzli sahro. Qo'ng'ir ayiq. Ajdar g'or ostidagi ko'lda“ — deb yozilgan. Sovg'onlik mulla Ochil bobo degan kishi o'qib berdi.

Rahmatilla baribir, hech nimaga tushuna olmadi. Qog'ozni qo'liga olib, aylantirib ko'rdi.

— Hali bu hammasi emas, — dedi To'raqul kissasidan yana bir varaq yaltiroq qog'oz chiqarib. Bu qog'oz ham oldingisidek sarg'ayib ketgan, ammo ushlang, mayin shildirardi. Qog'ozning bir tomonida xiraroq g'alati chiziqlar bor edi.

— Bu nima? Qayerdan topding?

— Ajina g'ordan topdim. G'or oldidan o'tib ketayotsam, bir gala chumchuq chirqillab yotibdi. Qarasam, yo'g'onligi odamning soniday keladigan olachipor ilon g'or og'zidagi uyada yotgan chumchuqlarni bitta-bitta yutyapti. Bunday katta ilonni birinchi ko'rishim. Uzunligi uch metrdan oshadi. Terisidagi qo'ng'ir xollar quyosh nurida yalt-yalt tovlanadi. Tosh otdim. Ilon g'orga kirib ketdi. Katta ilon bor joyda xazina bo'ladi, deb eshitgan edim. O't yoqib, ilon kirgan teshikka tiqdim. Ilon chiqmadi. Keyin, teshikni kovlab kengaytirdim. Kichkina ko'za chiqdi. Og'zi juda mahkamlab berkitilgan ekan, tosh bilan urib sindirdim. Qora matoga o'ralgan mana shu qog'ozlar chiqdi. Teshikdan boshqa hech vaqo topolmadim. Meni qog'ozdagi yozuv qiziqtirib qo'ydi. Muzli sahro degani — cheksiz muzlik, qo'ng'ir ayiq — tosh. Men bularni ko'rganman. Endi Ajdar g'orni topish kerak. G'orosti ko'l, ko'l ostida xazina bor.

O'zini sinfdagi eng zo'r tarixchi deb yurgan Rahmatillani To'raqulning fikrlari tamomila asir qilib qo'ygan edi.

— Muzli sahro degani, mana shu — o'zimiz turgan joy emasmi?

— Ha, lekin qo'ng'ir ayiqqa hali uzoq. Gulni topgandan keyin Ajar g'orni izlaymiz. Bo'ptimi?

— Bo'lmasam-chi! — dedi Rahmatilla hovliqib. — Shundan-shunga keldikmi, topmay ketmaymiz.

Atrof tuman. Quyosh ko'rinmaydi. U yer-bu yerda qaqqaygan toshlar ko'zga tashlanadi. Katta xarsang yonidan o'tayotganlarida bir to'da kaklik kakr-kukrlab osmonga ko'tarildi. To'raqul emaklab xarsang ustiga chiqdi. Atrofdan na daraxt, na buta ko'rinardi. Hamma yoqni kulrang tuman, kulrang tosh va muz o'rab olgan. Bora-bora ikkovining ham tinka-madori quridi. Shunday bo'lsa ham tuz sepib qo'yganday oppoq toshlar ustida sirpana-sirpana rosa kezishdi. Rahmatilla bir necha marta munkib, yiqilib tushay dedi. Bir marta toyg'anib ketganida To'raqul suyab qoldi. Oxiri butunlay holdan toyib, yassiroq toshga o'tirib oldi.

— Ortiq yurolmayman! — dedi u ko'zlarini yarador ohunikiday mo'ltiratib. — Oyog'imda jon qolmadi. Rahmatilla og'zini qo'li bilan to'sib kalta-kalta yo'taldi. Shilinib ketgan chap tizzasini tuz sepganday achishib azob berayotgan qo'llari bilan siypadi.

Muzlikning shu tomoni sal-pal manzarali edi. Nariroqda toshlarni yorib chiqqan bitta daraxt shoxlarini tubsiz jarga osiltirib turar, toshlarning kungay tarafi ham har xil rangpar giyohlar bilan qoplangan edi.

— Topolmaydiganga o'xshaymiz, — dedi Rahmatilla umidsizlanib, To'raqul qovog'ini ochmay to'rvadan oxirgi burda non bilan go'shtni oldi. Teng ikkiga bo'lib bir bo'lagini Rahmatillaga uzatdi. Rahmatilla nonni ikki kavshashda lo'q etkizib yutib yubordi-yu, lekin go'shtni saqichday uzoq chaynadi.

Umidsizlik To'raqulni ham o'z domiga tortayotgan edi. Uning taxminicha gul shu atrofdan bo'lishi kerak. U ilgari tog' gulini shu o'rtadan topgan edi. Bir tomondan kech kirib kelardi. Qorong'i tushib qolmasidan, hech bo'lmasa, birorta boshpana topish kerak.

To'raqul Rahmatillani shu yerda qoldirib, o'zi tevarakni tekshirib kelmoqchi bo'lib qo'zg'aldi. Yolg'iz qolgach, Rahmatillani vahima bosa boshladi. Tuman qoplagan muzlikdan

filday ayiq chiqib kelayotganga o'xshardi. U inqillab arang o'rnidan turdi. Endi To'raqulning orqasidan yuraman deb turganida olisdan:

— Rahmatilla! Topdim! Ur-re! — degan quvonchli hayqiriq eshitildi. Rahmatilla tovush kelgan tomonga chopdi. U og'riqni unutgan, toshdan-toshga sakrab yugurar edi.

Quvonchdan terisiga sig'may ketgan do'stlar bir-birini quchoqlab o'yinga tushib ketishdi.

Gulni toshlar orasidan kovlab olishguncha ancha vaqt o'tdi. Ular o'zlarini baxtiyor hisoblab, gulga termilib turganlarida muzlikning allaqayerida dahshatli o'kirik eshitildi. Ovoz nimaniki ekanini anglab ulgurmaslaridan, tuman orasidan bahaybat ayiq, tumshug'ini cho'zib havoni hidlar, muzliklar olamini titratib na'ra tortardi.

— Qochdik! — dedi To'raqul.

Lekin yuzlari qorday oqarib ketgan Rahmatilla joyidan jilolmasdi. To'raqul uni qo'lidan ushlab sudrab ketdi. Hamma yoq tomday-tomday xarsang, yashirinadigan joy yo'q edi.

— Tamom. O'ldik! — kutilmaganda yig'lab yubordi Rahmatilla. To'raqul ham qo'rqib ketgan, qayoqqa yashirininishni bilmasdi... Ayiq esa tuyaday yo'rtib, tobora yaqinlashib kelardi. Yana besh-olti yo'rtsa...

— A-a-a! Onajon! Qutqaring! Onajon! — deb dod sola boshladi butunlay es hushidan ayrilgan Rahmatilla. To'raqul bo'lsa uni hamon sudrab chopishiga urinardi. Eplolmay, oyog'i chalishib, yiqilib tushdi. Jonholatda, yonidagi toshga suyanib turmoqchi bo'lgan joyida yana yiqildi. Tosh nishablikda omonat turgan edi, atrofni gulduratib pastga dumalab ketdi. Tosh ko'chgan joyida odam sig'adigan teshik ko'rindi.

— Rahmat, teshik, Rahmat!

To'raqul shosha-pisha avval xaltasi bilan gulni teshikka tiqdi, keyin oyog'i bilan yarim beligacha kirib Rahmatillaning oyog'idan torta boshladi:

— Rahmatilla, bu yoqqa! Rahmatilla!

Rahmatilla: „O'ldim. Meni ayiq yeyapti!“ — deb oyog'ini piltillatar, uning qo'lidan chiqib ketishga urinardi. To'raqul jon-jahdi bilan yana tortardi. Ikkovi qop-qorong'i, zax g'orga ag'anab tushishdi. Izma-iz yetib kelgan ayiq ham xumday

paxmoq boshini teshikka suqdi. Teshik uning beso'naqay gavdasiga torlik qildi. Yovvoyi maxluq alamli o'kirib, yelkalari, muskuldor panjalari bilan teshikni to'sib turgan toshlarni uloqtirmoqchi bo'ldi. Uning na'rasidan g'or larzaga keldi, allanimalar tarsillab yerga tushdi.

Rahmatilla tamoman hushidan ajragan, To'raqul ham qo'rquvdan o'zini yo'qotish darajasiga kelgan edi.

Ayiq yana bo'kirdi. Vahimali o'kirik To'raqulni hushiga keltirdi. U paypaslab yerdan tosh oldi-da, ayiqqa otdi.

Ayiq dahshatli bo'kirib tumshug'ini teshikdan tortib oldi.

To'raqul yana timirskilanib xaltani topdi. Undan qo'l fonari olib yoqdi.

— Qutuldikmi, a? — deb so'radi ovozi titrab Rahmatilla.

— Qara, bu yerga ayiq tugul, tulkiyam kirolmaydi.

Fonar shu'lasida g'orni kuzatib chiqishdi. G'orning eni besh-olti, balandligi uch metrecha kelardi. Devorlari ohaktosh qoplanganday oppoq, shiftining ba'zi joylarida oqimtir gullar, sumalaksimon narsalar osilib turardi. Boya To'raqul tashlagan tog' guli shu sumalaklarning biriga osilib qolgan edi. Gulni avaylab olvolib, yana g'or ichini kuzata boshlashdi. Devor, shift nam, ikki-uch yerdan suv tomchilardi. G'orda har xil o'tlar o'sib yotar, oxirida esa bitta teshik qorayib ko'rinardi.

— Endi nima qildik? — dedi To'raqul.

— Bu yerdan tezroq ketaylik.

— Qayoqqa?

Rahmatilla teshikka qaradi-yu, lekin „o'sha yoqqa“ deyishga jur'at etolmadi. Ayiqning bo'kirishi eshitilib turibdi-yu, u yoqqa chiqib bo'ladimi?! Anavi teshik esa... Qayerga olib borarkin? Ajdar g'ori shu bo'lmasin yana. To'raqul fonarni o'sha tomonga to'g'riladi. Nur qop-qora tumanday zulmatni yorib olis-olislarni yoritdi-yu, lekin teshikning adog'i ko'rinmadi. U xaltadan pichoqni olib, yukni orqasiga bog'ladi.

— Ketdik, nima bo'lsa ham teshikdan o'tamiz, — dedi bir qo'lida pichoq, bir qo'lida fonar, o'rnidan turarkan. — Sen gulni ehtiyot qil.

To'raqulning botirligi Rahmatillaga ham kuch bag'ishladi. Uning orqasidan emaklab teshikka kirdi. Teshikning devorlari

zax, g'adir-budur edi. Chirindining achchiq hidi dimog'ni teshguday edi. Teshik ular o'ylaganday beadoq emas ekan... Ko'p yurmay, yana bitta g'orga borib qolishdi. Bu g'or birinchidan keng va baland edi. Shipdan oqib tushgan har xil eritmalar antiqa manzara hosil qilgan: ayrimlari machitning naqshinkor ustunlariga, ba'zilari turli hayvonlarning haykaliga o'xshardi. Yon tomonda shoyi pardadek osilib turgan yapaloq, lentasimon sumalaklar ham juda chiroyli edi.

— Bu yerda odamlar yashaganmi deyman, — pichirladi To'raqul.

— Yashasa yashagandir, endi qayerga boramiz?

Bu g'orda o'zlari kelgan yo'ldan boshqa hech qanday teshik yo'q edi.

— Orqaga qaytmasak bo'lmaydi, — dedi Rahmatilla. — Bu yerda odam bo'g'ilib o'lib qoladi.

To'raqulning miyasiga „G'orda yo'l bo'lishi kerak“ degan fikr qattiq o'rnashib qolgan. U fonar bilan g'or devorini sinchiklab tekshira boshladi. Yon tomonidagi osilib turgan sumalaklarni qo'li bilan sekin itarib ko'rdi, qimirladi. Orqaroqqa chekindi. Yerdan tosh olib otdi. Sumalaklar qasir-qusur qilib ko'chib tushdi. Anqayib turgan Rahmatilla birdan baqirib yubordi?

— Anavini qara, teshik!

Sumalaklar ortida kattagina teshik berkingan ekan. G'orning davomiga ana shu teshik orqali o'tilar ekan.

IV

G'adir-budur devorlardan suv chak-chak tomadi. Yurish mushkul. Ikki-uch yuz metrlik cho'zilgan zim-ziyo, qo'rqinchli yo'lakdan o'tib olishguncha ikkisining ham joni halqumiga keldi. Ro'parada ko'p xonali tog'osti „qishloq“ chasi paydo bo'ldi. „Qishloqcha“ oralab o'tgan yo'lak hashamatli saroyga olib chiqdi. Saroy katta, xuddi xonlarnikiday to'riga baland tosh supa o'rnatilgan edi.

— Xuddi ertakning o'zi-ya! — dedi hayratlanib Rahmatilla.

Tosh supaga yaqinlashganda qayerdandir vishillagan tovush eshitildi.

— Ilon! — dedi qoʻrqib ketgan Rahmatilla. — U ayiqni koʻrgandan keyin yuragini oldirib, judayam qoʻrqoq boʻlib qolgan edi. — Ajdarning uyasiga kelib qopmizmi, deyman.

Toʻraqul nafas olmay tovushga quloq tutdi. Vishillagan ovoz tosh supa orqasidan kelardi.

— Shamol... Yoʻq-yoʻq. Suv. Suv shovullayapti. Shu atrofda sharshara borgan oʻxshaydi.

Tosh supa ortidan boshlanuvchi toygʻoq yoʻlakdan pastga qarab ketishdi. Yoʻlakning har joy-har joyida koʻlmaklar, tosh uyumlari bor edi. Birozdan soʻng suvi tip-tiniq, katta koʻl boʻyidan chiqib qolishdi. Koʻlga shirdan shovqin bilan suv tushib turardi. Tubida yorigʻi boʻlsa kerak, suv sathining koʻtarilishi bilinmaydi. Chap tomonda, suvdan bir metrlik chamasi balandlikda eshikka oʻxshash toʻrtburchak teshik koʻrindi. U yerga borish uchun koʻldan oʻtish kerak edi.

Halidan beri oldinda kelayotgan Toʻraqul ikkilanib toʻxtadi.

— Chuqurga oʻxshaydi, — dedi Rahmatilla.

— Koʻrib turibman.

— Shuncha suv qayerdan kelarkan-a?

— Keladi-da. Bu yogʻini oʻylasang-chi?

— Nima qilardik? Oʻtamiz. Balki shu yerdan oʻtsak bu zimistondan chiqib ketarmiz.

Koʻlga birinchi boʻlib Toʻraqul, keyin Rahmatilla tushdi. Muzdey suv koʻkrakdan kelardi. Qoʻl ushlab, ohista „eshik“ tomon yurdilar. Besh-olti qadamdan soʻng Rahmatillaning oyogʻi bir narsaga tegib qoqilib ketdi.

— Toʻraqul, nimadir borgan oʻxshaydi, — dedi oʻzini oʻnglab u.

— Qani, suril-chi.

Toʻraqul iyagigacha suvga botib, suv ostini paypasladi.

— Toʻrtburchak... Sandiqqa oʻxshaydi.

— Toshdir. Sandiq nima qiladi bu yerda.

— Yoʻq. Tosh bunaqa toʻrtburchak boʻlmaydi. Sandiq. Aniq sandiq! — dedi u ishonch bilan.

Rahmatilla birdan hovliqib ketdi:

— Balki, sen aytgan xazina shudir.

— Ha, oʻsha xazina! Koʻtar, olib chiqamiz.

— Avval naryoqqa chiqib olaylik. Hali yo'l bormi-yo'qmi. Oyog'im muzlab ketdi.

Ust-boshi shalabbo, sovqotgan ikki do'st sekin-sekin qirg'oq tomon siljishdi. Ko'rinib turgan „eshik“ka toyg'anoq zinalardan chiqilar ekan. Chiqish yerda devorga chizilgan suratlar shu qadar chiroyli ediki, bolalar bunaqasini hech qayerda ko'rishmagan edi. Rasmlarning quloqlari kichkina, yuzi, yoli atrofida kamon o'qlarning rasmi chizilgan. Ikkinchi rasmdagi hayvon, shubhasiz, to'ng'iz edi, faqat uning oyoqlari ko'rinmasdi, oyoq o'rnida aji-buji chiziqlar qolgan edi? Balki, yillar o'tishi bilan o'chib ketgandir. Qiziq, bular qayerdan kelib qoldiykin shuncha balanddagi g'orga?

Rahmatilla charchoqni ham, og'riqni ham, qo'rquvni ham unutib yubordi. To'raqulning qo'lidan fonarni yulqib olib, goh u, goh bu rasmning oldiga chopadi:

— Buni qara! — deydi hayajonini bosolmay. — Gavdasi bilan boshi qushniki, oyoqlari odamniki. Xo'sh, bu nima?

— Tuyaqushmi?..

— Yo'q. Qush niqobidagi odam — ovchi. Qadimda ovchilar shunaqa hiyla ishlatishgan. Eh, qani endi bularni shu hoida muzeyga olib borsang. Odamlarning oqib kelishini ko'rarding-da. Quldortepada qancha shov-shuv bo'lgani esingdami?

Esida. Hammaning esida bu voqea. O'shanda ularning maktabi tillarda doston bo'lgandi. Eng qizig'i, o'sha ekspeditsiya Rahmatillaning tashabbusi bilan uyushtirilgan. Tarix desa, o'zini tomdan tashlaydigan Rahmatilla jurnalda Dalvarzintepadan topilgan tarixiy yodgorliklar haqida qiziq maqola o'qib qoldi. O'qidi-yu, bobosining Quldortepa haqidagi hikoyasi esiga tushdi: qadim zamonda ulkan tilla qasr bo'lgan ekan. Qasrning hamma yeri tilladan bo'lgani uchun tunda ham quyoshday charaqlab turarkan. Odamlar „Quyosh qasri“ deyisharkan uni. Biroq vaqt-soati yetib, odil shoh olamdan o'tibdi-yu, o'rniga zolim shoh taxtga minibdi. U xalqqa zulm qila boshlabdi. Shundan so'ng „Quyosh qasri“ „Quldor qasri“ deb ataladigan bo'libdi. Yillar o'tibdi-yu, bir kuni to'satdan qasr kultepaga aylanib qolibdi. Shu-shu odamlar tepani „Quldortepa“ deb kelishadi...

Rahmatillaga bu afsonada haqiqat borday tuyulaverdi. „Axir bu yerda bizdan oldin ham kimlardir yashagan-ku. Suv bo‘lsa, ajoyib havo bo‘lsa...“

U fikrini o‘rtoqlariga aytdi, butun sinfni oyoqqa turg‘azdi. Quldor tepada bir oycha qazuv, qidiruv ishlari olib borildi. Bir qancha sopol idishlarning siniqlari, qadimgi uy-ro‘zqor buyumlari, kumush taqinchoqlar, toshlardan yasalgan hayvon haykalchalari topildi. Hash-pash deguncha Toshkentdan mashhur arxeolog-olimlar kelishdi. Tepalikda haqiqatan ham quldorlik davrida odamlar yashagan ekan...

— Manavi rasmda...

— Bu rasmlarning hammasi ham yaxshi, — dedi Rahmatillaning so‘zini bo‘lib To‘raqul. — Lekin sandiq esdan chiqib ketmasin.

— Nega esdan chiqarkan? Sandiqda xazina bor-a? Kuldi Rahmatilla, u rasmlarni ko‘rganidan o‘zida yo‘q xursand edi. Shuning uchun ham o‘ylab o‘tirmay suvga tusha boshladi.

— Sen shu yerda tur, chuqurga borma, oyog‘imlab yurma tag‘in.

— Gapingni qara-yu, bir o‘zing ko‘tarib bo‘psan zilday sandiqni. Ikkovimiz ham tushamiz. Hech nima qilmaydi.

— O‘zing bilasan. Keyin voy-voylab yurmasang bas.

To‘raqul yelkasidagi ho‘l bo‘lib ketgan yukini yerga qo‘yib, suvga tushdi.

Sandiq juda og‘ir edi, zo‘rg‘a zinaga yaqinlashtirib, chirana-chirana tepaga olib chiqishdi. Sandiqning og‘zi suv kirmaydigan qilib berkitilgan edi, zulfindagi katta qulf zanglab ketibdi.

— Ichida nima bo‘lishi mumkin? — dedi To‘raqul o‘tkir, qirrador tosh bilan qulfni buzishga chog‘lanib.

— Bilmadim, — dedi Rahmatilla yelka qisib. — Lekin qimmatbaho narsa bo‘lmasa, buncha mahkamlab tashlashmasdi.

— Rost aytasan. Menimcha, tilla.

— Hozir bilamiz.

Ikkovlashib ura-ura qulfni zo‘rg‘a buzishdi: sandiq to‘la kitob edi. Ipakdek mayin, shildiroq sahifalardan achimtir

mog'or hidi kelardi. Sahifalardagi yirik-yirik harflar, hoshiyasidagi rasmlar tilladek yaltirardi.

— Mana buni xazina desa bo'ladi! — dedi quvonchi ichiga sig'may Rahmatilla. — Juda qadimgi kitoblarga o'xshaydi. Yozuvlarini ko'r, arabcha: Xoliq domlanikida shunaqasidan ikki-uchta ko'ruvdim. Ko'tar, olib ketamiz.

— Opketamiz? Qayoqqa? Avval o'zing bu go'ristondan qutulib ol! Keyin...

— Qutulaman! Nima, sen endi shu g'ordan chiqolmaymiz, deb o'ylaysanmi. Haligi, qog'ozing qani, bu yoqqa ol, hozir yo'lini topamiz-da.

Rahmatillaning kayfiyati juda baland edi. U To'raqul bergan qog'ozga tikilarkan, „Hozir topamiz-da, do'stim. Odam pessimist bo'lmasligi kerak“, deb qo'yardi. Rahmatilla qog'ozga qancha tikilmasin, hech narsa tushunmadi.

— Kalla ishlamayapti, — dedi u oxiri, — qorin ochqab ketdi-da, qorin. Biror narsa yeb olaylik, keyin avtomatday ishlab ketadi.

— Ushoq ham qolmadi-ku. Nima yeysan?

— Yo'g'-e, xaltangni bir silkilab ko'r, biror narsa chiqib qolar.

— Silkilamish... Mana, mana, — To'raqul xaltadagi narsalarning hammasini to'kdi. Tunuka idish taq etib yerga tushdi. Qorag'at mevalari sochilib ketdi.

— Aytdim-ku, bor deb! — sevinib ketdi Rahmatilla.

— Esga kelmaganini qara-ya! — dedi To'raqul.

Qorag'atning yerga tushganlarini ham bitta qo'ymay terib, og'ziga solishdi. Tishlari, lablari qoraydi-yu, lekin qorin qappaymadi.

— Ko'proq tersak bo'larkan-da, — deb afsuslandi Rahmatilla.

— Qani endi, shu paytda bir savat shaftoli bo'lsa, — dedi labini yalab To'raqul.

Rahmatillaning ko'z oldida Guldursoydagi so'ri, hil-hil pishgan mevalarini ko'tarolmay shoxlari egilib qolgan shaftoli-yu o'riklar kelib, „qult“ etib yutindi.

— Shu yerdan chiqib olaylik, qornim yorilguncha o'rik yeyman, — dedi u tamshanib.

— Xo'sh, qorin to'ydimi, endi kallani ishlatib, chiqish yo'lini topaylik, — dedi To'raqul. Ikkisi sandiqqa yonmayon o'tirib, yana qog'ozga tikilishdi.

— Menimcha, bu qog'ozda chiqish yo'li ko'rsatilmagan, — dedi Rahmatilla.

— Xazinani topdingmi, bas, u yog'iga eplab o'zing olib ket, deyishgan-da.

— To'g'ri. Biz olib ketamiz, albatta. Menga qara, kel, bunday qilamiz. Sandiq hozircha shu yerda turib turadi. Biz anavi yo'lakdan boraveramiz. Yo'lni topgandan keyin, kelib olib ketamiz. Bo'ptimi?

— Mayli, ketdik, — rozi bo'ldi To'raqul. — Voy-bo'y, tizzam qotib qopti-ku.

Sandiqning qopqog'ini yopib, tosh bostirib qo'yishdi.

Adog'i ko'rinmaydigan tor yo'lak juda zax, o'ydimchuqur edi. Rahmatillaning yarasiga mayda toshlar kirib azob berar, og'riq borgan sayin kuchayib uni tobora holdan toydirardi. Yo'lak toraya-toraya oxiri yurib bo'lmay qoldi.

— Bu yog'iga yurolmayman, — dedi tamomila holdan toygan Rahmatilla yo'lakda uzala tushib. — Sen borib bilib kel, men shu yerda kutib turaman.

Shundan boshqa chora ham qolmagan edi. To'raqul toshbaqaday to'rt oyoqlab, emaklab ketdi. U zim-ziyo qorong'ilik qa'rida g'oyib bo'lgandan keyin Rahmatillani yana vahima bosdi. Xuddi hozir tog' bosib majaqlab tashlaydiganday beixtiyor:

— To'ra!.. — deb yubordi.

Hech kim javob bermadi. Ovozidan o'zi qo'rqib ketdi. Ko'ksini muzday zax yerga bosib, ko'zlarini chirt yumib oldi. Qo'rquvning zo'ridanmi, og'riq ham, ochlik ham unutilganday bo'ldi. Mudhish vahimadan qutulish uchun do'stlarini, Guldursoyni, azim chinor ostidagi qadrdon so'rini eslay boshladi.

V

„So'ri qanday yaxshi-ya, — deb o'yladi u. — Qani endi shu payt maza qilib yotgan bo'lsang...“ Xayoliga ikki beti bog' va tokzor soy, shoxlari tarvaqaylab ketgan ming yillik

ulkan chinor keldi. Chinorning yo'g'on shoxida xuddi ulkan bedanaqovoqday osilib turgan qadrdon so'ri ham, ariq bo'yidagi yero'choq ham aniq ko'z oldiga keldi. Har kuni kechqurun ana shu o'choqda choy qaynatiladi, daraxtlar, bog'lar oralab, zangori tutun uzoq-uzoqlarga yoyilib taraladi. O'choqda lovullab yonayotgan olcha shoxlarining alangasida bolalarning soyasi judayam katta bo'lib ketadi, hatto soyalar daraxtlar ustida yuradi. Keyin, birdaniga soyalar daraxtlardan pastga tushadi-da, kichrayib borib yo'qolib qoladi. Bu paytda gulxan atrofidagilar so'riga chiqib olgan bo'ladilar. Eh, so'riyam, so'rimisan so'ri-da! O'zi to'rtburchak — ko'pdan beri jamoa xo'jaligi saroyida chang bosib yotgan eski „Gaz-51“ mashinasining kuzovidan. Kuzovning to'rt burchigiga bog'langan to'rta sim balandroqdagi bilakday arqonga tutashadi. So'rini ko'tarib turgan ana shu arqon undan ham teparoqdagi g'ildirakli blok orqali harakatga keladi.

So'rining o'ng burchagida usti oq tunuka bilan qoplangan joy bor. Bu boshqaruv markazi. Boshqaruv markazidan so'rini tepaga ko'tarish yoki pastga tushirish mumkin. Markazi o'zi tokzor oralab o'tgan elektr liniyadan quvvat oladi.

Besh og'ayni — Iskandar, Abror, Rustam, Rahmatilla, To'raqul har yili yozgi ta'til boshlanishi bilan shu so'riga ko'chib kelishadi. Shu yerda dam olib, har xil tajribalar o'tkazishadi.

Oqshom chog'lari so'rida chalqancha yotib tiniq osmonga tikilish biram rohatki... Ko'zni yumib, bir tasavvur qiling-a? Qishloqda chiroqlar o'chgan. Beg'ubor osmonda sanoqsiz yulduzlar-u, Guldursoydagi so'rining lampa chirog'i (Haydar lampaning boshqacha gashti bor deb, elektr chirog'i qo'ydir-magan) tun qo'ynida alvon shu'lalar sochib turibdi. Ba'zi-ba'zida uzoqdan itlarning hurigani eshitiladi. Tog' tarafdan esgan shabada chinor barglarini sirli shitirlatadi, simga osilgan chiroqning olov tilini ko'rinmas qo'llari bilan har tomon-ga „yulqib“ o'ynaydi. Siz bo'lsangiz yalpiz-u chechaklar hidi ufurib turgan tog' shabadasini qimiz ichganday simirib yotaverasiz. Hech kim o'ylaringga xalaqit berolmaydi..

Rahmatilla kecha oqshomda ham so'rida edi. Abror ikkovi yostiqa ko'ksini bosib, shaxmat o'ynar, Haydar bo'lsa

o'xshovsizroq xontaxtada Rustam bilan kuyib-pishib matematikadan masala ishlardi. Haydarning gaplari Rustamning bir qulog'idan kirib ikkinchisidan chiqib ketayotganini sezib turgan Abror:

— Hey, o'rtoq muallim, bugunga yetar, dam olish ham kerak-da, — deb Haydarning jig'iga tegardi. — Nima balo, otaliqqa oldim deb, bola bechorani uxlatmaysanmi, deyman.

— Yuziga qara, yuziga, — deb hazil qilardi Rahmatilla ham, — seni qo'lingga tushdi-yu, cho'pday ozib ketdi bechora jo'ramiz.

— Ke, dam ola qolaylik, — deb Haydarga mo'ltirab qarar edi shaxmatchilarning hazili moyday yoqib ketgan Rustam. — To'g'risini aytsam, keyingi gaplaringning bittasiyam miyamga kirgani yo'q.

Bolalar maza qilib kulishar, Haydar bo'lsa:

— Shuncha vaqtdan beri devorga gapirayotgan ekanmanda, — derdi qattiq xafa bo'lib. — Bu ahvolda... Bilasanmi...

— Bilaman-bilaman. Ibn Sino bir yil bilimlar g'orida qolib ketganini aytmoqchisanda, — deb gunohkorona jilmayardi Rustam.

Haydar esa darhol ovozi tushib, Majid akadan eshitgan hikoyani ayta boshlardi.

— Qadim zamonda bitta g'or bo'lgan ekan. Bu g'orda dunyoning tamomi bilimlari yashiringan ekan. G'or og'zi bir yilda bir marta ochilib, yana berkilarkan. Ilmga tashna odamlar g'or og'zida poylab o'tirisharkan-da, ochilgan zahoti kirib o'zlashtirganlaricha bilim olib chiqishar ekan.

Buni eshitgan Ibn Sino g'orga kelibdi. Ochilishi bilan ichiga kirib olibdi. U bilan kirganlar g'or yopilib qolmasdan chiqib ketishibdi. Ibn Sino esa g'orda bir yil qolib, ja'miki ilmlarni egallab olibdi.

— Ko'rdingmi, Rustambek, mashhur odamlar qanday o'qishgan. Sen bo'lsang...

Bolalar zavq bilan kulishadi.

Kecha kechqurun bolalar so'rida To'raqulni „ig'vo“ qilishgan edi. Avvaliga, „To'raqul nega ikki-uch kundan buyon bog'ga kelmayapti“, — deb bir-birlaridan so'rashdi.

— Kasal-pasal bo'qqoldimikin? — taxmin qildi Abror.
— E, To'ra kasal bo'ladimi, tog'ga jo'navorgan, — dedi Rustam. — Kechasiyam bir o'zi tog'ma-tog' yuraveradiya, — degan edi Rahmatilla hayajonni yashirolmay.

— Qo'rqmasmikin-a...

— Hamma senga o'xshaganmi, chumchuq pir etsa yuragi shir etadigan, — deb kuldi Haydar. — U mard, jasur.

Keyin To'raqulning g'alati-g'alati odatlarini eslashdi. „Bir qarasang, ish deganni do'ndirib, do'st deganni kuldirib yuradi, bir qarasang, qovoq-tumshug'i osiladi-qoladi, — dedi Abror. — Ba'zida esa suvga tushgan toshday ikki-uch kunlab qorasini ko'rsatmay ketadi: „Lekin bultur tog'dan topib kelgan o'simliklari, gullari eslaringdami, — dedi Rustam. — Bu gullarning nomini Majid aka tugul, „akademik-bog'bon“ deb yurgan Qarshi bobomiz ham bilmadi-ya. Attang, tajribasizlik qildikmi yoki adirning havosi bilan tuprog'i to'g'ri kelmadimi, To'raqul topib kelgan gullarning ko'pi ko'karmadi-da“. „Lekin anzurpiyoz, nargiz, tog' guli hoziram yashnab turibdi-ku! — dedi Haydar. — Ayniqsa, tog' guli judayam chiroyli-ya! Olib kelgan kunlari gulning nomini topolmaganimiz eslaringdami? Qarshi bobo: „Bu atir gulga o'xshar ekan, kelinglar, uni tog' guli, deb ataymiz“, deganiga ishonib yuraveribmiz-a...“ „Majid aka o'sha jurnalni topib kelmasa bilmasdik-da, — suhbatga qo'shildi Rahmatilla. — Jurnalni o'qigandan keyin gulning nomi sossureyaligini bilib olgan edik“.

Gurung qizib turgan paytda, to'satdan, so'ri qimirlab ketdi.

Bolalar jim bo'lib qolishdi. Qiziq, birontasi hazillashayotganmikin? Yarim kechada bu yerga kim ham kelishi mumkin? Yoki...

— Oqshom chiroq yoqib, tabiat oromini buzayotgan kim? — do'rillagan tovush eshitildi to'satdan. — Hozir uning ta'zirini berib qo'yaman!

— Iyc, bu Majid akamiz-ku!

So'rida qah-qah ko'tarildi. Kulgiga pastdagi odam ham qo'shildi.

— Qani, azamatlar, narvonni tushiringlar, — dedi keyin u.

Rustam o'tirgan joyida temir halqalardan birini bosdi. Tepadan, chinor shoxlari orasidan bir narsa shig'illab pastga tushib ketdi. Bu bolalar ijod qilgan narvon edi.

Narvondan o'rta bo'yli, 40—45 yoshlardagi Majid aka chiqib keldi.

— Obbo shovvozlar-ey, shu yurak bilan dashtda yotib yurganmidilaring? — dedi u xontaxta yoniga chordana qurarkan iljayib, — lekin ancha botir ekansizlar. Yoshligimizda biz shunaqa hazil bilan bir mullani rosa boplagan edik.

— Rostdanmi, qachon? — qiziqishdi bolalar.

— Urush yillarida. Qishlog'imizda Xo'jamurod qori degan xasis, chalaroq mulla bo'lardi. Mullaning chorbog'ida ertapishar olma bor edi, — joylashibroq o'tirgach, hikoya qila boshladi Majid aka. — Bu atrofda shunikidan oldin pishadigani yo'q edi. Lekin biror kishi ta'mini bilmasdi. Qurumsoq mulla olma pishguncha so'ri qurib, tun-u kun poyloqchilik qilardida, keyin bozorda pullardi.

Bir kuni sizlarga o'xshagan bo'z bolalar yig'ilib, qanday qilib bo'lsayam olmadan olishga qaror qildik. O'shanda oq, ko'k, qizil rangda yonadigan qo'l fonari endigina chiqqan edi. Tunda ikkitamiz so'ri yaqinidagi toklar orasiga berkinib, fonarni har xil qimirlatib, fonar yorug'ida yalang'och bo'lib o'yinga tushishga kelishib oldik.

Rejamiz alomat chiqdi. Bechora mullada yurak degan narsadan chumchuqniki hayam yo'q ekan. So'ri tebranib, ola-bula shu'lada yalang'och o'yinga tushayotgan „shayton“larga ko'zi tushgan zamon, so'ridan tusha oyog'ini qo'lga ola qochdi. Doimo boshiga laylak uyaday salla o'rab, salobatli yurgan odamning lapanglab chopishi juda kulgili bo'larkan. Qizishib ketib qishloqqacha izma-iz quvlab boribmiz.

Ertasiga qishloqda, Xo'jamurod qoriga jinlar hujum qilibdi, Xudoning karomati, duoning zo'ri bilan zo'rg'a omon qolibdi, degan gap tarqaldi. Mulla bir necha kun uyidan chiqmay, ko'rpa-to'shak qilib yotdi.

Bolalar rosa kulishdi.

— Bizniyam mullaga o'xshagan quyonyurak degan-

midangiz? — dedi kulgi aralash Rahmatilla. — Agar ovoz chiqarmaganingizda „Katyusha“mizni ishga solib yuborardik.

— Qanaqa „Katyusha?“ — hayron bo‘ldi Majid aka.

— Hozir ko‘rasiz-da, — Rustam shunday deb boyagi temir halqalarning ikkinchisini tortdi. Tepadan kattagina yashik tushib kelib, so‘ri yonboshida to‘xtadi. Yashikda ko‘rinishi qadimgi zambarakni eslatuvchi bir narsa bor edi.

— Bu — Haydarning ixtirosi, — Majid akaga qarab faxr bilan tushuntirdi Rustam. — Ko‘rinishi zambarakka o‘xshasayam, „Katyusha“dan qolishmaydi. Bir otishda yigirma marta paqillatib otadi.

„Katyusha“ning otadigan nayi vodoprovod quvuridan, qolgan qismlari yog‘ochdan edi, ba‘zi joylariga tunuka qoplangandi. Majid aka ko‘zlariga ishongisi kelmas, bolalarga qoyil qolar, ayni mahalda cho‘chirdi. Bu tinchimagurlardan har narsani kutish mumkin-da. O‘tgan gal „Dizel“ motorini yondirib yuborishlariga sal qoluvdi. „Katyusha“siyam...

— Bu bilan kimni „o‘qqa“ tutmoqchisizlar?

— Kimni deganingiz nimasi? — Majid akaning ko‘nglidagini sezganday darhol javob berdi Haydar, — „Katyusha“mizning eng dahshatli snaryadi — mosh bilan no‘xat. Bog‘dagi giloslarning qanchasini qushlar yeb ketganini o‘zingiz ko‘rdingiz-ku!

— Shunaqa demaysanmi, — dedi Majid aka zavqi toshib. — Nega bular shiyponga bormaydi, desam, bu yoqda gap bor ekan-da.

— Shiypon yomonmas-u, bu yerning havosi boshqacha-da, Majid aka. Shamol esib tursa, shaxmat, radio, hatto radiotelefonegacha yest bo‘lsa...

— Radioaloqalaring ishlayaptimi?

— Ishlaganda qandoq, — Rahmatilla darhol chinor shoxiga osilgan ixchamgina radiopriyomnikning qulog‘ini buray boshladi.

Radiotelefon haqidagi gaplar o‘tgan yili chiqqandi-yu, keyinroq nimadir bo‘lib esdan chiqqanday bo‘lgan edi. Kanikul boshlanishi bilan bolalarning tilida „Haydar“, „telefon“ degan so‘zlar yana aylanib qoldi. Haydarning qo‘lida „Radiotexnika“ degan kitob paydo bo‘ldi. Majid aka radio-

texnika degan narsani uncha tushunmas, shuning uchunmi, Haydarning kuyib-pishishidan bir gap chiqishiga ishonqiramasdi. Bola-bola-da, ularning ko'nglini cho'ktirmaslik, qiziqishlarini susaytirmaslik kerak. Ajab emas, bugun buzuk radiolarni kovlayotgan shu boladan kelajakda mashhur radiotexnik chiqsa. Juda zehnli. Majid aka, bir marta mushtumday shu bolaning aqliga qoyil qolgan: oldida o'ntacha eski-tuski radiolar. Xontaxtada sochilib yotgan temirtersaklarni ko'rib aqling shoshadi. „Nima qilmoqchisan?“ desa, „Radiotelefon“, — deydi. — Yaqinda shu yerda turib, shiypondagilar bilan bermalol gaplashaveramiz“. Nahotki o'sha gap chinga aylangan bo'lsa...

— Ikkinchi javob bermayapti. Uxlab qolishganmi, nima balo.

— Uchinchiga qo'ng'iroq qil-chi?

Rahmatilla radio qulog'ini yana buradi. Xuddi shu payt:

— Uchinchi eshitadi! Nima gap? Qabulga o'taman! — degan ovoz jaranglab ketdi.

— Men birinchiman! Qanday dam olyapsizlar? Priyom! — dedi unga javoban og'zini radioga yaqinlashtirib Rahmatilla.

— Osmonda nechta yulduz bor, deb bahslashyapmiz. Sizlar-chi? Priyom!

— Bizdayam shunga o'xshash gaplar. Tunlaring yaxshi o'tsin. Aloqani to'xtataman.

Hayajondan Majid akaning tili kalimaga kelmay qoldi.

— Obbo, shovvoz-ey, obbo shovvoz-ey! — derdi u goh Haydarga, goh mo'jizakor radioga qarab. — Bu yerni so'ri emas, kashfiyotxona qilib yuboribsizlar-ku, a? Narvongacha avtomat bo'lgandan keyin... Hoynahoy buyam sening ixtirong bo'lsa kerak. Haydarga yuzlandi Majid aka.

— Yo'q. Buni To'raqul topgan.

— Aytganday, To'raqul qani? Kechayam ko'rinmadi. Nima bo'ldiykin, xabar oldinglarmi?

— Ishlar ko'payib, borolmadik, — dedi Haydar.

— Ish ko'p. Lekin ish deb do'stlarni unutish yaxshimas. To'raqul esli bola. Olov bola. Olovligi xuddi otasining o'zi...

Majid akaning tomog'iga bir narsa tiqilganday bo'ldi.

— Majid aka, siz To'raqulning otasini bilarmidingiz? — so'radi Rustam.

— Nega bilmasakanman? Birga o'sganmiz, — Majid aka tun qa'riga tikilgan ko'yi, bolaligini eslayotganday sukutga toldi. — Soddadil edi, quvlikni bilmasdi, traktorni jon-dilidan yaxshi ko'rardi. Traktorchiga shogird tushgan kezlarida, plug ostida qolib, bir oyog'idan ajraluvdi. Shundan keyin ham traktorchilikni tashlamadi, bir so'zli edi-da. Brigadamizning hamma yerlarini o'zi shudgor qilardi.

To'raqul dunyoga kelgan yilmi, ha, o'sha yil bo'lishi kerak. Yonariqdagi qirlarga lalmi bug'doy ekamiz, o'zim haydayman, deb turib oldi, u yerda traktor yurolmaydi deb, biz rozi bo'lmadik. U paytlar Yonariqdagi yerlar juda notekis edi. Hamma yoq o'ydim-chuqur, otda yurishgayam qo'rqadi odam. Muxtor bo'lsa gapimizga kirmay, qishloq uyquga ketganda traktorini qirga haydab chiqibdi. Muxtorning jasadini ertalab dara tubidan topdik...

Allaqayerda chigirtka chirillab, chiroqning olov tili o'zini shisha devorlarga uradi.

— Shunaqa. Muxtorday o'zini o'tga, suvga uradiganlar hamisha topilavermaydi. Boqidaqalar esa...

— Ertalab ularnikiga boramiz, — anchadan so'ng o'rtoqlari nomidan va'da berdi Haydar.

— Bu boshqa gap. Albatta boringlar... Ha, aytmoq-chi, bugungi uchrashuv yoqdimi?

— Bo'lmasam-chi! Mamat boboni sirayam shunaqa deb o'ylamagandik. Jamoa xo'jaligimizning birinchi mexanizatori ekan-a?

— E, haliyam hammasini gapirmadi. Mamat bobo jamoa xo'jaligini „opichlab katta qilgan“lardan. O'g'rilar boboni ko'zi oldida o'zining traktori bilan uyini buzishgan, uyda kampir ona bilan beshikdagi qizchasi bo'lgan. Mamat bobo o'shandayam o'zini yo'qotib qo'ymagan. Ha, bu chollarning soyasiga sajda qilsak kam. Bugun Mamat boboday yana bir ajoyib otaxon bilan uchrashdim. Keyingi yakshanbada ana shu kishi bilan uchrashuv o'tkazamiz.

— U kishi kim? — baravariga so‘rashdi bolalar.
— Bu yog‘i sir. O‘sha kuni ko‘rasizlar. Xo‘sh, bugun qancha xas o‘rdilaring?
— Bog‘laganimiz yo‘q. O‘ttiz-qirq bog‘lar chiqsa kerak.
— Zo‘r-ku! Aytmoq-chi, xomtokni men aytganday qilyapsizlarmi?

— Hammasi aytganingizday. Ishonmasangiz, borib ko‘ring.
— Nega ishonmas ekanman. Ishondimki, brigadaning bog‘ini sizlarga topshirdim-da. Men boshqa narsani — bu ishni tezroq tugatish kerakligini aytmoqchi edim. Bog‘dagi olchalarni tezroq terib olish darkor. Undan keyin bir yoqda o‘rik, olma, bir yoqda o‘zlarining yerlaringdagi ishlar, xullas, shoshib qolish mumkin. Eng muhimi, musobaqada yengilmasligimiz kerak.

Abror so‘ri yonidagi yero‘choqqa o‘t yoqib, choyidishni qo‘ydi.

Alanga yo‘l yoqasidagi pichan g‘aramini yoritdi.

„To‘rt yuz bog‘cha bo‘lib qolibdi. — G‘aramga qarab xayolidan o‘tkazdi brigadir. — Shularning yordami bilan planni oshirib bajardik. Daraxtlarimiz shig‘il-shig‘il meva tugdi, bir yilda ikki yillik xashak to‘plash haqidagi va‘dayam so‘zsiz bajariladi“.

— Rahmatilla, quruq choy tashla.

Abror so‘nayotgan olov yorug‘ida choy damladi.

„Ishlar sal kamaysin, raisdan bitta mashina olib, sizlarga to‘g‘onni ko‘rsatib kelaman, — Abrorga qarab xayolidan o‘tkazdi Majid aka, — bir maza qilasizlar“.

Yero‘choqning choyi juda mazali bo‘ladi.

— Endi men boray, — dedi bosib-bosib ikki-uch piyola choy ichgach brigadir, — sizlar ham dam olinglar. Aytganday, sal bo‘lmasa esimdan chiqayozibdi. Sizlarga bog‘bonlik haqidagi kitobni olib kelgandim. Bu kitobda bog‘bonlikning hamma sir-u sinoati aytilgan. U shunday deb yonidan ko‘k muqovali kitob olib, xontaxtaga qo‘ydi. Keyin xayrlashib narvondan tushdi...

Ertasiga esa... Tongda bolalar qo‘rqinchli hayqiriqdan uyg‘onib ketdilar.

— Hey, kim bor?! Bolalar, Haydar! Bu yoqqa, cho-pinglar, bu yoqqa! — deb qichqirardi allakim.

Bu ovozdan shoxchalarda shirin tush ko'rib uxlayotgan qushchalar pir etib osmonga ko'tarildi. So'ridagilar cho'chib uyg'onib o'zlarini yerga tap-tap otib, tajriba bog'ida ayyu-hannos solayotgan Qarshi boboning yoniga chiqishdi.

Rahmatilla va uni deb tog' ostida sarson-sargardon bo'lib yurgan To'raqulning boshiga tushgan savdolarning hammasi shundan boshlandi.

...Tajriba uchastkasi uch gekardan ziyodrog'-u, lekin butun boshli botanika bog'iga o'xshaydi. Ikki yuz xil dov-daraxt, o'simlik, gullar bor bu yerda. Bir tomonda olma, o'rik, do'lana, bodom, archa, chinor, yeryong'oq, ikkinchi tomonda kartoshka, sabzi, piyoz, anzurpiyoz, sarimsoq piyoz, uchinchi tomonda gullar, to'rtinchi tomonda har xil tog' o'simliklari, beshinchi tomonda donli ekinlar... Ehhe... hammasini birma-bir sanayman desang, yarim soat kamlik qiladi. Lo'nda qilib aytganda, „Qizil kitob“dagi noyob o'simliklarning hammasidan bor.

— Axir bu qotillik-ku! — derdi cho'nqayib o'tirgan Qarshi bobo g'azabdan bo'g'ilib. — Qanday qilib qo'ling bordi, qo'lginang singur...

Sossureyani sindirib ketishganini ko'rgach, bolalar ham qabr tepasida turganday qotib qolishdi. Kim qilgan bo'lishi mumkin? Mol tikanli to'siqdan o'tolmaydi. Sossureyaning yagonaligini maktab o'quvchilarining deyarli hammasi bilishardi. Xo'sh, unda kim?

— Kecha kim navbatchi edi?! — o'rtoqlariga yuzlandi Haydar.

— M-men... — Rahmatillaning ovozi birov bo'g'a-yotganday zo'rg'a chiqdi. — Kechqurun joyida turuvdi. Abror ikkovimiz kelib ko'ruvdik. Gul joyida edi. — Rahmatilla najot tilayotganday Abrorga qaradi.

Abror Rahmatillaning so'zini tasdiqladi.

— Sen... — Haydar birdan tutaqib ketdi. — Shuncha mehnatni puchga chiqarib, yana o'zini oppoq qilib ko'rsatadi-ya? O'zingning qo'lingdan baloyam kelmaydi-yu...

Topasan, navbatchimiding, topasan! Yerning ostidan bo'lsayam topasan, bildingmi?!

Dovdirab qolgan Rahmatilla o'kinch, alam bilan o'rtoqlariga boqdi. Hech kimdan sado chiqmagach, shartta burilib qishloq tomon qushday yelib ketdi.

— Rahmatilla, qayoqqa?!

U qaramadi. Chopib borarkan: „Topaman, Tyanshandan bo'lsayam topaman. To'raqulni topsam bo'lgani“, — deya takrorlar edi...

„Mana, To'raqulni ham, gulni ham topdik, — yotgan joyida pichirladi Rahmatilla. — Butun boshli xazinani qo'lga kiritdik. Ko'nglim sezib turibdi, bu kitoblar juda bebaho. Endi eson-omon yo'l topib olsaydik. To'raquldan ham darak bo'lmay ketdi. Biror joyda tosh bosib qolgan bo'lsa-ya! — Rahmatilla boshini ko'tarib, atrofga alanglab qaradi. Ammo ko'zlarini qancha katta ochmasin, hech narsa ko'rolmadi. Kimsasiz, tor va zax g'or uning yuragiga g'ulg'ula sola boshladi.

Kutilmaganda, uning miyasida g'alati xom xayol paydo bo'ldi: uch-to'rt qadam narida g'or ikkiga ajraladi-yu, biri tog'ning eng chuqur yeriga olib boradi, ikkinchisi esa qishloqning shundoq yonidan chiqadi. O'sha yo'l shu yaqin o'rtada. Balki orqaroqdadir. Boya e'tibor bermasdan yo'lakni ko'rmay o'tib ketishgan. Rahmatilla orqaga qarab o'rmalay boshladi. Ancha joygacha sudralib bordi. Na yo'l, na yalt etgan nur ko'rinardi atrofda. To'pig'ining qaqshab og'rishiga chidolmay yana cho'zilib qoldi. Ayqash-uyqash qo'rqinchli o'ylar miyasiga bostirib kiraverdi. O'zini chalg'itish uchun yana o'rtoqlarini o'ylay boshladi. „Haydarlar nima qilisha-yotgan ekan, — deb o'yladi u. — Hoynahoy meni izlab yurishgandir. Uydagilar ham zir yugurib qolishgandir. Agar voqea onamning qulog'iga yetgan bo'lsa, Haydarga kun bermayotgani aniq. Bechora Haydarga qiyin bo'ladi-da...

VI

...Haydarga qiyin bo'ldi.

Rahmatilla Haydarning koyishiga javob bermay chopib ketgach, bolalar uni o'rab olishdi.

— Yaxshi qilmading, Haydar.

— Unda gunoh yo'q.

— Endi gulni qayoqdan topadi?

Shusiz ham ezilib o'tirgan Haydar boshini egdi. Yaxshiyamki, uning joniga Abror oro kirdi.

— To'raqulni topib, yana Muzli qoyaga chiqish kerak, — taklif qildi Abror.

— To'g'ri, to'g'ri, — deyishdi boshqalar.

Ular to'g'ri To'raqulning uyiga borishdi. Qishloqning etak qismidagi atrofi uch paxsa devor bilan o'ralgan hovli To'raqullarniki. Bolalar darvozadan kirib borishganida Boqi aka maykachan qornini do'ppaytirib, uzun rezina ichak bilan pomidor sug'orayotgan edi. Ichakning bir uchi vodoprovd jo'mragiga tiqilgandi.

— Kelinglar, kelinglar, — dedi bolalarga ko'zi tushgan Mastura xola.

Mastura xola — To'raqulning onasi. Og'ir mehnat va oiladagi baxtsizlik bu ayolning sochlarini bevaqt oqartirib, musichaday yuvosh qilib qo'ygan. U erining haqoratlariga bardosh bilan chidar, biror kishiga bir og'iz shikoyat qilmasdi. Erning ruxsatisiz uydan bir qadam nariga chiqolmas, to'y-ma'rakalarga ham „xo'jayin“i ijozat bergandan keyingina borardi.

Mastura xola To'raqulning o'rtoqlarini juda yaxshi ko'rardi. Eri yo'q paytlarida ularning atrofida girdikapalak bo'lardi. Boqi aka borida esa dilidagini tiliga chiqarolmay, xijolatdanmi yoki qo'rquvdanmi dovdirab qolardi. Hozir ham shunday bo'ldi. Ko'zi bolalarga tushgan zahoti sevingandan qo'lidagi oppoq sovun ko'piklarini ham artmay ularga peshvoz chiqa boshladi. Bir-ikki qadam yurgandan keyin esa birdan pomidor pushtasida kundaday g'o'dayib turgan eriga bir qara-di-yu, yurishiniyam, yurmasliginiyam bilmay qoldi.

— Kelinglar, kelaveringlar...

— To'raqul kerak edi, — dedi Haydar.

— To'rajon tog'ga ketuvdi-ya.

— O'zi yaxshimi? — so'radi Abror, — bir haftadan beri bormayapti bog'ga.

— O‘ynab yuribdi. Otasini... ozroq ishlari chiqib qoluvdi, yordam beryapti.

— Qachon qaytadi tog‘dan?

— Ertaga kelib qolsa kerak. Nimaydi, bolam?

— Bolalar! Uni qaranglar, o‘zimizning gul-ku? — deb to‘satdan baqirib yubordi Abror.

Ezg‘ilangan, chang va tuproqqa belangan sossureya supa pastida — bolalar yotgan chorpoqa tagida yotardi.

— Kim olib keldi uni bu yerga! — dedi birinchi bo‘lib gulni qo‘liga olgan Haydar.

— Bilmadim... Kecha kechqurun bolalarning qo‘lida ko‘rdim. Otasi opkepti. Nimaydi, o‘g‘lim? — dedi dovdirab qolgan Mastura xola.

— He, bola! Xo‘rozga o‘xshab buncha bo‘yningni cho‘zasan! — deya dag‘dag‘a qildi Boqi aka qo‘lidagi ichakni yerga qo‘yib, ular tomon yurarkan. — Men olib keldim, men. Xo‘sh, nima demoqchisan?

— Bu... axir bizning bog‘imizdagi eng yaxshi gul edi-ku!

— Bo‘lsa bo‘pti-da. Haydab solmasimdan tuyog‘ingni shiqillatib qol-chi bu yerdan.

— O‘rgimchak kana! — o‘zini tutolmay baqirib yubordi Haydar.

Boqi akaning shishinqiragan yuzi bo‘zday oqarib ketdi. U qishloqdagilar qo‘ygan bu laqabni eshitganda doimo shu ko‘yga tushardi: ko‘zlariga qon quyulib, qoshlari pir-pir uchar, tili aylanmay qolardi. Ammo insof bilan aytganda, uning xafa bo‘lishi o‘rinli edi. Negaki, ko‘rinishida o‘rgimchakka o‘xshaydigan hech qanday belgi yo‘q edi. U o‘rta bo‘yli, biqqi, sochlari dag‘al, lekin soqol-murtini hamisha tozalab yuradigan ziyolinamo kishi edi. Ishi ham yurish-turishiga yarashardi. Qishloqdagi yagona magazin uning ixtiyorida edi. U choshgohda shoshilmay do‘konni ochardi-da, deraza oldida choy ho‘plab, eshikka tikilib o‘tirardi. Uning shu o‘tirishi o‘z to‘riga pashshalarni o‘rab olishga tayyor turgan o‘rgimchakka o‘xshab ketardi. U magazinga kirgan xaridorlarni ochko‘zlik bilan shilish payida bo‘lardi...

Boqi aka eng shaloq so‘zlar bilan so‘kingancha Haydarga tashlandi. Haydar chap berdi. Qochib, ko‘chaga chiqishdi.

— Shu ostonaga ikkinchi yaqinlashganingni ko'ray, oyog'ingni urib sindirmasam! — darvozada turib baqirdi Boqi aka.

— Hali shoshmay tur, — sansiradi Haydar ham, — sharmandangni chiqaramiz!

G'azablangan, ruhi tushgan uch do'st tuproqli ko'chada ancha jim ketishdi.

— Ablah. Zararkunanda! — hamon jahlini bosolmasdi Haydar. — Qilg'ilikni qilib, yana do'q qiladi-ya!..

— E'tibor berdinglarmi, devordagi elektr schotchigi ham aylanmayotgan edi.

— Nega? — baravariga Rustamga qarashdi Haydar bilan Abror.

— Nega bo'lardi, oynasiga plyonka tiqib qo'yilgan-da. Bexosdan ko'zim tushib qoldi. Avval e'tibor bermadim. Keyin akamning: „Kimdir tokni o'g'irlyapti. Hech qo'lga tushirilmayapman“, — degani esimga tushib qoldi. Elektr samovar qaynasa, „Kir yuvish“ mashinasi ishlasa-yu, bu... Tikilibroq qarasam...

— Voy qallob, o'g'ri-yey! — Haydarning qo'llari musht bo'lib tugildi. — To'raqulni topaylik, keyin boplab ta'zirini beramiz bu qallobni.

Bolalar To'raqulni izlab Qirqqiz daragacha borishdi. Birpas o'tirib, noiloj orqaga qaytishdi. Burgutqoyaning yo'lini hech qaysisi bilmasdi.

Keyin bog' ishlari bilan mashg'ul bo'lgan bolalar kechga yaqin Rahmatilladan ham, To'raquldan ham darak yo'qligini bilishdi. Rahmatillaning onasi gapning bir uchini eshitdi-yu, „U o'zini bir baloga duchor qilgan“ga chiqardi-qo'ydi. „U nohaqlikka chidolmaydi. Bir marta otasi noo'rin koyigani uchun o'zini boloxonadan otib yuborishiga bir bahya qolgan, — dedi u kuyib-pishib. — Chopinglar, hamma yoqni qidiringlar. Topinglar, bolaginamni, topinglar!“

Bolalar qo'rqib ketishdi. Ular kezgan joylarda Rahmatilla tugul, soyasi ham yo'q edi. Ana shunda Abdunazar ertalab uni tog' tarafga ketganini aytdi. Demak, Burgutqoyaga ketgan. To'raqulni topib olgan bo'lsa, yaxshi-kuya... Agar qiziq ustida bir o'zi jo'navorgan bo'lsa...

VII

To'raqul ketgan tarafda miltirab ko'ringan shu'la Rahmatillaning xayolini bo'ldi: „Ishqilib, yo'l topgan bo'lsin-da“. To'raqul chuvalchangday zo'rg'a sudralib keldi. Uning yuzidan qop-qora loy aralash ter quyular, hansirardi. Egni-boshiga qarab bo'lmasdi, shimining tizzalari yerga ishqalanaverib yirtilib ketgan, poyafzali tumshug'idan qontalash barmoqlari ko'rinib turardi.

To'raqul „tamom“ deganday boshini zaxga qo'yganicha, indamay yotib qoldi. Rahmatillaning vujudidan muzday ter chiqib ketdi.

„Yo'l bor. Bo'lmasligi mumkin emas, — o'zini ovuta boshladi u. — Topish, qanday bo'lmasin topish kerak“.

— Chiqish plani, balki, sandiqdadir, — dedi Rahmatilla.

To'raqulga jon kirganday bo'ldi. Ikkovi sudralib sandiq turgan joyga kelishdi. Sandiqni ochib, kitoblarni bittama-bitta ochib ko'ra boshladilar. To'raqul sandiqning tubidagi oxirgi kitobni ochdi-yu: „Buni qara! G'orning kartasi“, — deb yubordi. Kitobning birinchi sahifasiga egri-bugri uzun qizil chiziq tortilgan, chiziq atrofiga har xil rangdagi dumaloq, yapaloq belgilar qo'yib tashlangan, ba'zi belgilarning ustiga ko'paytiruv alomatiga o'xshatib qora chiziq tortilgan edi.

— Uzun chiziq g'orning asosiy yo'lagi bo'lishi kerak, — deb mulohaza yurita boshladi To'raqul. — Dumaloqchalari — g'ordagi xonalar, shlapaga o'xshagan ko'k joy — suv, ya'ni mana bu ko'l. Ko'lni topdikmi, bu yog'iniyam topamiz. Xo'sh, ko'lning tepasida katta-katta belgilar ko'p. Biz o'sha belgilar orasidan kelib, ko'lga tushamiz. Ko'ldan chiqib, mana bu ikki doira orqali... Topdim! Xuddi shu nuqtada adashganmiz! Ko'ryapsanmi, qizil chiziq ikki doiradan sal keyin tepaga, so'ng o'ngga burilgan. To'g'riga ketgan yashil chiziq ustiga ko'paytiruv alomati qo'yilgan. Biz tepadagi teshikni ko'rmay to'g'ri ketaverganmiz. Qaytdik. Yuqoriga ketgan yo'l yaqinimizda.

Yuqoriga ketadigan yo'l g'orning odam tik yursa bo'ladigan joyida edi. Ular oyoqlari ostiga tosh qo'yib, gilamning

o'rnicha keladigan chog'gina xonaga chiqishdi. Xonaning burchagida tog'oraday teshik bor edi. Rahmatillaning yuragi hovliqar, tezroq yorug'likka chiqishga talpinardi. To'raqul esa juda charchab qolgandi.

— Birpas dam olaylik, — dedi u Rahmatillaning hovliqayotganini sezib, — bu yerning havosi yengilroq ekan.

Rahmatilla noiloj o'tirdi.

— Kartani kim chizgan ekan-a? — dedi To'raqul o'ziga-o'zi savol berganday.

— Mening xayolimga bir narsa tushib qoldi. Esingdami, Qarshi bobomiz bir tabib chol haqida gapirib bergandi.

— Mulla-eshonlar gulxanda yondirishgan cholni ayt-yapsanmi?

— Ha, ha.

— Nurbobo.

— Qarshi bobo: „O'sha tabib o'lim oldidan kutubxonasidagi noyob kitoblarning hammasini tog'ga yashirgan“, degan edi. Sandiqdagi kitoblar o'sha emasmikin? Agar o'sha bo'lsa, kartani ham Nurbobo chizgan bo'ladi.

Ikki og'ayni yana birpas har xil fikr-mulohazalarga borish-gach, emaklab keta boshlashdi.

Anchadan keyin oldinda borayotgan Rahmatillaning:

— To'raqul, yorug'lik ko'rinyapti! — degan quvonchli hayqirig'i zax bosgan tor yo'lakka jon kiritib yubordi.

VIII

Qishloqdagi chiroqlar o'chgan. Musaffo osmonda sanoqsiz yulduzlar-u Guldursoydagi so'rining lampa chirog'i tun qo'ynida alvon shu'lalar sohib turibdi. So'rida besh bola — Haydar, Abror, Rustam, Rahmatilla, To'raqul — xontaxta atrofida, ehtimol, yuzinchi martadir, poytaxtlik akademikdan kelgan maktubni o'qishyapti.

„Qadrli yosh do'stlarim!

Siz o'lkamizdagi shu paytgacha fanga ma'lum bo'lmagan eng qadimgi, eng uzun g'orni kashf etdingiz. Bu g'orda arxeologlar — paleolit, geologlar to'rtlamchi davr deb ataydigan ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar yashagan bo'lishi mumkin. U yerga juda katta ekspeditsiya bormoqda. G'ordan

topib bizga yuborgan kitoblaringiz tabiat olami ensiklopediyasi bo'lib, ularda ulug' alloma Ibn Sino asarlarida ham tilga olinmagan fikrlar qayd etilgani aniqlanmoqda. Kitoblarning birida meditsinada hanuzgacha dardi bedavo deb ataladigan kasalliklardan birini tog' giyohi bilan davolash mumkinligi aytilgan. Shuning o'ziyoq sizning nomingizni haqli ravishda fan tarixida qolishiga to'liq asos bo'ladi. Kitoblar bilan bir guruh yirik olimlarimiz shug'ullanishmoqda.

Qimmatli do'stlar! Tog' gulini topganingiz uchun yana bir karra rahmat. Bu gul tabiat olamidagi eng shifobaxsh o'simlik hisoblanadi. Agar tog' gulini ko'paytirishga muvaffaq bo'lsangiz, fanimizning rivojiga yana bir bebaho hissa qo'shgan bo'lar edingiz.

Sizlarga sihat-salomatlik, o'qish va ishlaringizga muvaffaqiyatlar tilayman“.

— Nima qildik, ko'paytiramizmi? — dedi xatdan boshini ko'tararkan jilmayib Haydar.

— Yo'q, endi men bormayman, — dedi Rahmatilla jo'rttaga qovog'ini solib.

Bolalar baravariga kulib yuborishdi.

— Ha, hademay ajoyib gulzorimiz bo'ladi, — dedi To'raqul faxr bilan. — O'shanda poytaxtga yana xat yozamiz. To'g'rimi, jo'ralar?

— Ha!!! — baravariga javob berishdi bolalar.

So'ring chirog'i besh og'aynining quvonchini, orzularini tong yog'dulariga, bobo quyosh nurlariga ulamoqchidek alvon shu'lalar sohib turardi...

OQ KAPTARLAR OROLI

I

Suyarqul maktabdan keldi-yu kutilmagan janjalning ustidan chiqdi: katta chechasi o'choq boshida, kichigi — peshayvonda, bir-biriga shang'illashayotgandi.

— Kecha kelib, bugun xo'jayinlik qilishni senga kim qo'yibdi, oyimcha! — derdi qo'lini paxsa qilib kattasi. Kichigi ham ovsinidan qolishmay, battar o'chakishardi:

— Ho-o, cho'rim bo'ladi, men Xonzodaxon bo'lib o'tiraman, deb o'ylovdingmi, tushingni borib suvga ayt!

Sho'rlik ona nima deyishini, kimning tarafini olishini bilmay ikki o't orasida qiynalardi.

— Bas qilinglar, bo'ldi qilinglar, bolalarim, — derdi u qalt-qalt titrab. — Qo'ni-qo'shnidan ham uyatdir, axir? Sekinroq, jonim qizim, sekinroq. Sizning yoshingiz katta, ovsiningizdan bir-ikki ko'ylakni ko'p yirtgansiz, bo'ldi qila qoling, aylanay.

— Oxirgi marta aytyapman, xola, bobomga ayting, yo bizni, yo anavi jinqarchani opchiqib ketsin bu uydan. Shunday qilmasa, ketaman, dedimmi, baribir ketaman, bir kun ham turmayman bu g'urbatxonada! Turolmayman! — Katta kelin eshikni qarsillatib yopib, uyiga kirib ketdi. Kichik kelin ovsinini o'zicha „bir boplamoqchi“ bo'lib endi og'iz juftlaganda darvozadan kirib kelayotgan qaynatasiga ko'zi tushdi-yu, og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qoldi, ters burildi-da, u ham o'zini ichkariga urdi.

— Otamdan qolgan molni talashyapsanlarmi yetti mahal-laga jar solib, muncha baqirmasanglar! — dedi darvozadan hatlar-hatlamas xotiniga jahl bilan Malik muallim. — Ko'chaga chiqib, quloq solib o'tiribdi qishloqning yarmi. Tiling qirqi-larmidi, uyga kir desang, a! Uyatsizlar, bezbetlar! — Malik muallim bir-ikki depsinib, supa yaqinidagi so'rining bir chetiga o'tirdi. — Qishloqning narigi boshidan eshitib kelyapman-a, o'zi nima janjal? Nimaga hiqillaysan?

Risolat xola ro'molining bir uchi bilan ko'z yoshini artib, cholining ro'parasiga, supaga omonat cho'kdi.

— Ajratmasangiz bo'lmaydi. Jinni bo'pqolaman, adoyi tamom qiladi meni bularingiz.

— Hiqillama! Hiqillamay gapir. Nimaga janjallashadi? Biron nima yetmayaptimi, qorni och, usti yalang'ochmi? Janjalning sababi bormi, axir?..

— Kuchugim biladimi! Bir-biriga ko'zi tushdimi, it mushukni ko'rganday vag'ir-vug'ur, qiy-chuv...

— Ayolsan, qaynanasan, so'ramaysanmi sababini?

— Sababi, sababi... Sababi — bitta! Bir hovliga sig'maydi

bularingiz. Tomorqa olib, bittasini shartta chiqarib yubor-
masangiz, el-yurt oldida sharmanda-yu sharmisor bo‘lamiz.

„Tomorqa“ so‘zini eshitgan Malik muallim besh battar tutaqdi.

— Tomorqa, tomorqa deyaverib, miyamni qoqib qo‘-
limga berding. Qayerdan olaman tomorqani? Yer egasiz,
jamoat xo‘jaligi darvozasizmi senga!

Risolat xolaning yuragi to‘lib turgan edi, ichida borini to‘kib soldi:

— Tomorqa desam, joningiz chiqadi. Odamlar beshik-
dagi bolasigacha joy olib, ravot tiklab qo‘yyapti-ku! Qayoqdan
olyapti ular? Hammaga bor narsa sizga yo‘qmi? Siz...

— Hey, inson, tushunsang-chi, axir. Senga necha marta
aytdim, hozir bu gapning mavridimas, deb. Bir yildan
keyin qishloq etagidan yangi ko‘cha tushar ekan, hammaga
tomorqa berilar ekan. Raisning o‘zi, o‘z og‘zi bilan aytdi.
Sizga bir emas, ikkita tomorqa beramiz, dedi. Raisday odam
shunday deb turgandan keyin, men nima ham qilardim?..
„Yo‘q, bersang ham berasan, bermasang ham berasan!“
deb tomog‘idan g‘ippa bo‘g‘aymi, a? Ayt, nima qilay?!

Risolat xola lom-mim demay, tizzalariga tayanib, zo‘r-
bazo‘r o‘rnidan turdi. Ayvonning bir chetida ustunga suyangan
ko‘yi garangsib turgan Suyarqulga ko‘zi tushdi-yu, allanechuk
bo‘shashib, ko‘zlariga yosh qalqdi.

— Keldingmi, bolam, — dedi u nihoyat ovozi qaltirab. —
Sigiringga nima bo‘ldi ekan? Ochiqap, bo‘kirib o‘layotgandir. —
Kampir chuqur xo‘rsinib, o‘choq boshiga yurdi. — Dasturxon
opchiq, — dedi u to‘xtab ortiga o‘girilarkan, — tokchadagi
piyolada murabbo bor, avval qorningni to‘yg‘azib ol.

Suyarqul maktab formasini yechib, eski qora shimi bilan
yangi uzun qizil ko‘ylagini kiydi. Non o‘ralgan dasturxon
hamda yarim piyola olcha murabboni ko‘tarib, so‘riga chiqdi.
Otasi choponiga yonboshlagancha ko‘zlarini bir nuqtaga
qadab, hars-hars nafas olardi. Suyarqul otasining oldiga
dasturxon yozdi, piyolalarni so‘rining tagidan oqayotgan
ariqchada obdan yuvdi. Malik muallim bir bo‘lak nonni
murabboga botira turib, o‘g‘lini shunchaki so‘roqqa tutdi:

— O'qishing tuzukmi, anchadan beri kundaligingni ham ko'rsatmay qo'yding.

— Bitta „besh“, bitta „to'rt“ oldim. Kecha ikkita „besh“ oluvdim... — Suyarqul shu so'zlarni aytdi-yu, otasining og'ziga tikildi. U otasidan, „Barakalla, o'g'lim, doimo shunday o'qish kerak. Bor umidimiz sendan“, degan maqto'vni kutgan edi. Otasi bo'lsa maqtash, erkalash u yoqda tursin, qaytaga tutaqib oshxona tarafga qarab baqirdi:

— Bir choydosh choyning qaynashi shunchayam qiyin bo'pketdimi, a? Sigir ochidan o'ldi u yoqda! Shu jonivorning uvoliga qolasan hammang!

Suyarqul so'ridan sakrab tushib, o'choq boshiga yugurdi. Onasi choy damlab, choygunga yana suv to'ldirayotgan ekan. Suyarqul choynakni apil-tapil oldi-yu, so'riga tomon chopib ketdi. U otasining yoniga yetmasdan tashqarida allaqanday mashinaning „g'iyq“ etib to'xtagani eshitildi. Suyarqul choynakni dasturxonga qo'ya solib, ko'chaga yugurdi. Tashqarida tog'asi — Turdi g'ilay „Jiguli“sining eshigini ziehlab yopayotgandi. Tog'asini ko'rdi-yu, birdan Suyarqulning hafsalasi pir bo'ldi. U tog'asini uncha yoqtirmasdi. Ilgarilari, otasi aytganday, „pichog'i moy ustida“ligida eshiklari oldidan mashinasida g'iz-g'iz o'tsa ham, jiyanlarimni birrov ko'ray deb, ularnikiga biron marta kirmasdi. Kasirlikdan bo'shab, fermadan haydalgandan keyin esa bo'zchining mokisiday serqatnov bo'lib qoldi. Jiyanlari endi esiga tushibdi-da...

— Ko'rishging ham kelmaydi, ha, nima bo'ldi senga? — Turdi jiyanining burniga boplab chertib qo'ymoqchi edi-yu, lekin uning tumtayib olganini ko'rib, fikridan qaytdi. — Kim bor, otang uydami? — u shunday deb, javob ham kutmay darvozadan hovliga kirdi. So'rida yonboshlab choy ho'playotgan Malik muallimga yaqinlashar-yaqinlashmas, he yo'q, be yo'q, birdan kesata ketdi:

— Xafa bo'lmang-u, pochcha, ammo g'irt latta ekansiz. O'sha kuni raisning bir og'iz shirin so'ziga uchib, laqillab qaytib kelaveribsiz-da, a? Kim aytadi sizni qirq yillik muallim, oq-qorani tanigan odam deb? Uchta ro'zg'or katalakday joyga tiqilib o'tirgan bo'lsa-yu, siz tomorqa ololmasangiz!

Axir, molxonaning yonida ikki tomorqali bo'sh joy bor, shuni aniq bilaman, deb aytuvdim-ku sizga. Hatto xuddi oldindan sezganday, rais u yerni bironta qorni kattaga mo'ljallab yurgan bo'lsa, mabodo aldoviga uchmang, mahkam turing, deb qayta-qayta tayinlabman-a! Esizgina gap, shuncha harakat, hammasi osmonga uchib ketibdi. Rais boplabdi, yosh boladay rosa laqillatibdi sizni!

Boyagi janjaldan keyin hali o'ziga kelolmagan Malik muallimga Turdi g'ilayning kesatiqlari og'ir botdi.

— Ha-a, osmon uzilib yerga tushibdimi? — U qaddini rostlab, Turdiga yomon tikildi. — Eshikdan kirmay turib, buncha dag'dag'a qilasan. Avval o'tir munday, keyin gapir odamga o'xshab.

Turdining ovozini eshitgan Risolat xola oshxonadan shosha-pisha chiqdi.

— Ana shu-da, — dedi Turdi g'ilay opasiga o'girilib va burnini tortib. — To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi. Men bu odamni deb kimlar bilan bo'g'ishib yuribman-u...

— Menga qarang, Turdivoy, — dedi Malik muallim o'zini zo'rg'a bosib, choy ho'plarkan. — Biz o'ligimizni birovning ustiga ortadigan darajada emasmiz hali. Qo'lingizni hadeb paxsa qilavermang unaqa. Gapingiz bo'lsa, avval bundoq o'tiring, so'ng odam bolasi tushunadigan qilib gapiring.

— Iye! Xabaringiz yo'qmi hali? — Turdi g'ilay Malik muallimning yoniga cho'kdi. — Rost aytyapsizmi? Axir, rais jamoa xo'jaligiga ombor quramiz degan joyga, O'sar bug'altir imorat solyapti-ku!

Malik muallim bu gapdan boxabar edi. Kecha eshitgan, bugun O'sar buxgalterning loy tepayotgan paxsakashlarini ham ko'rgan, ko'chadan fe'li aynib kelishining sababi ham shunda edi.

— Bir nima desangiz-chi! — oraga gap qo'shdi Risolat xola.

— Nima deyman? — xotiniga zahrini sochdi Malik muallim. — Bor gapni o'zbekcha qilib tushuntirdim-ku, senga. Yana nima kerak?

— Bir kungina uyda o'tirib, kelinlaringizning g'idi-bidisini eshiting. Shunda bilasiz, nima deyishni. Ichim zardobga to'lib ketdi! — Risolat xola jahl bilan ukasining yengidan tortdi. — Turdi, tur! Bu kishining bo'lgan-turgani shu. O'zim boraman o'sha raisning oldiga.

Buni kutmagan Malik muallim ham o'rnidan irg'ib turdi.

— O'tir! Men o'lganim yo'q hali! — dedi u do'ppisini tizzasiga urib. — Chulchutday buncha bidillaysan!

— Qon bo'pketdim, qon... — Risolat xola supaga o'tirib piq-piq yig'lay boshladi.

— Nima qil deysan, a? Nima qilay? — xotiniga zug'um qildi u. — Mushtlashaymi endi rais bilan?

— Tomosha qiling, rais ombor quramiz degan joyda bosh bug'altir solayotgan uyni tomosha qiling! — yana kesatdi Turdi g'ilay.

— Qursa qurar, bizga nasib qilganiyam bordir, axir. Shungayam ota go'ri qozixonami.

Malik muallimning bu gapi Turdi g'ilayni battar tutaqtirdi:

— Qanaqa odamsiz o'zi? Ahmoq qilishayotganini nahotki haliyam tushunmasangiz?

— Bu kishimning xayoli yetti qavat osmonda. Tumshug'i tagidagi oshni pishak „halollab“ ketsayam, g'ing demaydi! — gap tashladi kampir.

Malik muallim tiliga burov solingandek, qaqqaygancha turib qoldi.

— Gap shapaloqday yerda emas, pochcha! Dunyoda hamiyat, izzat-nafs degan gaplar ham borligini bilasizmi o'zi?

— Tokaygacha bersang yeyman, ursang o'laman, deb o'tirasiz!

Malik muallim hammasiga bardosh bersa ham xotinining bu gapiga chidolmadi, olovday sachrab ketdi.

— Biz senga bersang yeyman, ursang o'laman deb, qornini qashib yotgan lo'lining erkagi bo'pqoldikmi hali! — dedi u rangi qum o'chib. — Bo'pti! Ko'ramiz! Malik muallim g'azabdan titrab-qaqshab chorpoyadan tushdi, tumshug'i yapaloq eski tuflisini oyog'iga ildi-da, jahl bilan tashqariga otildi.

— Tag'in qayoqqa? — yig'lamsirab so'radi Risolat xola.
— Ochiq lahadga!.. Idoraga-da!
— Senam borgin, Turdijon. Bu kishining qo'ynini yana puch yong'oqqa to'latib yuborishmasin.

Ikkovi Turdi g'ilayning qaymoqrang „Jiguli“siga o'tirishdi-yu, katta yo'lga chiqib, idoraga qarab yelib ketishdi.

Suyarqul ham chala-chulpa nonushta qilgach, sigiridan xabar olgani dashtga jo'nadi.

II

Mashina joyidan qo'zg'algandan boshlab, to manzilga yetguncha Turdi g'ilay pochchasini „o'qitib“ bordi:

— Endi sirayam bo'sh kelmang. Ularning niyatini mana, biz bilamiz. Agar indamasangiz...

Turdi g'ilayning gaplari Malik muallimning qulog'iga kirmasdi. U ombor quriladigan joyga jamoa xo'jaligining bosh buxgalteri o'g'liga atab imorat solayotganini eshitgandan buyon o'ziga kelolmas, o'quvchisi, o'zi o'n yil o'qitgan o'quvchisi laqillatgani alam qilayotgan edi.

Mashinaning bexosdan to'xtashi Malik muallimning xayolini to'zitib yubordi. Ular jamoa xo'jaligining ikki qavatli oppoq binosiga yetib kelgan edilar.

— Menam kiraymi yo...

Malik muallim, Turdining gapini eshitmaganga olib, indamay mashinadan tushdi. U kap-katta odam, bir parcha yer deb janjal ko'tarmoqchi bo'layotgani uchun ichida o'zini koyir, ayni chog'da sobiq o'quvchisiga aldamchilik qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'ygisi kelardi.

Nazarov Malik muallimni iliq qarshi oldi:

— Derazadan ko'rib, hoynahoy, oldimga kelayotgandirsiz, deb o'ylovdim, — dedi u muallimga peshvoz chiqib. — Adashmabmanmi, ustoz?

Negadir kabinetiga kirishim bilan qosh-qovog'ini uyub, do'q-po'pisani boshlaydi, deb o'ylagan Malik muallim raisning bunday muomalasidan bir zum esankirab qoldi. „Demak, Turdiniyam ko'ribdi. Shu palakatni ergashtirmay devdim-a“, deya xayolidan kechirdi.

— Qani, domla, marhamat, o'tiring. E-e, u yergamas, bu yoqqa, mana bu yerga, yuzma-yuz o'tiraylik.

Uzun yaltiroq stolning ikki yonidagi stullarga ro'para-ro'para joylashishdi. Rais to'rga o'tib stol yonidagi tugmachani bosdi, kotiba kirdi.

— Bitta achchiq ko'k choy damlasangiz. Ustoz bilan bir otamlashaylik, a?

— Shart emas, ovora bo'lmang, qizim, — dedi Malik muallim battar xijolat chekib. — Men bir minutga...

— „E-e, har kun kelyapsizmi, ustoz. Ozib-yozib bir yo'qlabsiz-u, yana bir minutga deysiz-a. Esingizdami, yomon baho olgan paytlarimizda xuddi mana shunaqa qilib, ro'parangizga o'tqazib qo'yib nasihat qilardingiz.

Malik muallim boshini silkitib kuldi-yu, lekin bironta jo'yali gap topib ayolmadi. Yo tavba! Uni o'quvchisining salobati bosdimi?..

— Xo'sh, sog'liqlar qalay, domla. Zerikish yo'qmi, ishqilib?

— Zerikib bo'ladimi. Shu... — Malik muallim chaynaldi. — Kelinlar sal noboproq chiqib qoldi-da, Nazarov uka.

— Aytuvdingiz, aytuvdingiz. Hozirgi kelinlarning bari-siyam shu — bir og'iz gap — kam, ikki og'izi — ko'p, doimo bir yarim og'iz gap topib aytishi kerak bechora qaynata-yu qaynana.

— Kampir ham quloq-miyani yeb tashladi tomorqa deyaverib. Haligi... — Malik muallim aytaymi, yo'qmi deb ikkilanib qoldi.

— Xo'sh-xo'sh?

— Shu, haligi, molxonaning yonboshiga bug'altir imorat qurayotganini eshitibdimi-ye, toza garang qilvordi odamni.

— Shunday deng, — Nazarov xiyol to'lisha boshlagan gavdasini stul suyanchig'iga tashlab, shiftga qaradi. — O'zi-mam bir ishkal chiqadi devdim-a...

Jimib qolishdi. Nazarov suhbatdoshiga yer tagidan qarab qo'ydi: „Bunaqa g'alvalar bilan muallimning ishi yo'q. Uni Turdi g'ilay tezlagan“. „Ishning tig'izida kallani qotirib o'tirganimni. O'zi ayolning gapiga kirgan erkak — erkakmas-da...“ — xayolidan kechirdi Malik muallim.

Jimlikni Nazarov buzdi.

— Sizga rostini aytsam, o‘zim ham oldingizda juda xijolatdaman. Lekin bir joyda ishlagandan keyin „yo‘q“ deyishdan qiyini bo‘lmas ekan, domla. Molxonaning yoni haqiqatan ham omborga planlashtirilgan edi. O‘sarxon akamiz tiralib olgandan keyin... — Nazarov sekin joyidan turib, deraza yoniga bordi. — Shuncha kutdingiz, yana yarim yil sabr qiling, domla. Yaqinda qishloq etagidan yangi ko‘cha tushadi. O‘ttiz xo‘jalikka uy-joy, tomorqa beramiz. Shuning ikkitasi sizniki.

Malik muallimning qulog‘i ostida Turdining „O‘sha bug‘altirchalikmasmisiz?“ degani jaranglab ketganday bo‘ldi. Xijolati allaqanday og‘riq bilan almashdi.

— Har qalay, o‘sha yerni O‘sar bug‘altirgayam bermaslik kerak edi-da, — dedi u raisga tik qarab.

Nazarovning g‘ashi keldi. „Jiguli“ga suyanib, shu tarafga tikilib turgan Turdi g‘ilayga ko‘zi tushdi. Jahl bilan deraza pardasini tushirdi. So‘ng:

— Bo‘lgan ish — bo‘ldi, domla, — dedi ijirg‘anib. — Endi O‘sar akaning paxsasini buzolmaymiz-ku!

Malik muallimning ham tajangligi qo‘zidi:

— O‘sarga topilgan yo‘l, bizgayam topilar, — dedi o‘tirgan joyidan bir qo‘zg‘alib. — Bizzi sharoitam unikidan yaxshimas, ukam.

— Yo‘q, demayapmiz-ku, — oshkora jahli chiqdi Nazarovning. — Tushunish kerak-da, ustoz. Xo‘jalik katta, rais bo‘lsa bitta.

— Men-ku, tushunaman-a... Lekin sizlar, sizlar...

— Nima bizlar, nima qipmiz bizlar! Hamma kelib bizni ayblaydi! Hamma yoqamizga yopishadi. Go‘yo biz yeb, boshqalar quruq qolganday.

Nazarovning po‘pisasi Malik muallimga yana Turdining gaplarini eslatdi: „Past kelsangiz...“

— Menga yo‘q deb, bug‘altirga tomorqa berib o‘tirganingizdan keyin, aybimiz nima? Bug‘altir bo‘lmaganimizmi?!

— Shunday bo‘pqoldi, xo‘sh! — Nazarovning yuzidagi boyagi tabassum-u tavozedan asar ham qolmagan, qahrli ko‘zlari allanechuk chaqchayib turardi. Boyagi shirin kalom-u

soxta tabassumlar shunchaki bir niqob ekanini Malik muallim endi tushundi. Tushundi-yu, ko'pdan buyon tomirlarida to'ngib yotgan qon qaynab, vujudi misday qizib, o'rnidan turib ketdi.

— Shunaqami, atayin qildim, deng?

— Shunaqa!!!

Malik muallim bo'zardi. Birov go'yo quloq-chakkasiga qarsillatib urganday, garangsib qoldi. Nazarovning shunchalar kattazanglikka borishi uning yetti uxlab tushiga kirmagan, quloqlariga ishongisi kelmasdi.

— Menga qarang, uka, — dedi u raisni insofga chaqirmoqchi bo'lib. — Siz...

— Qarab turibman, — uning so'zini cho'rt kesdi Nazarov. — Bir soatdan beri televizorga qaraganday tikilib o'tiribman aftingizga. Nima demoqchiligingizniyam, bu yerga sizni kim yuborganiniyam yaxshi bilaman. Endi, menga qarang. Anavi Turdingiz bir yil bezori jon qildi, bormagan eshik, bormagan idorasi qolmadi. Endi siz... Qo'yasanlarmi, yo'qmi? Agar shu joy kerak bo'lsa, ana, olinglar. Qo'sh qo'llab topshiraman! Qo'sh qo'llab!

— Joying o'zingga buyursin, ukajon. Men...

— Domla! Dardlashib bo'ldik, — gapni cho'rt kesdi Nazarov. — Demak, bizdan norozisiz? Norozi bo'lsangiz, katta-katta idoralar ko'p, istagan joyingizga borib arz qiling. Lekin meni tinch qo'ying. Shundog'am ishim boshimdan oshib yotibdi.

— Hali shunday deng?!

— Ha, shunday!

Malik muallim yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, deyolmadi, jahl bilan eshikni itardi. Eshik choy damlab kirayotgan qizga zarb bilan urildi. Qizning qo'lidagi choynak yerga uchib tushib, chil-chil sindi. Qiz „vo'y!“ deb chinqirib yubordi. Malik muallim bunga e'tibor bermay, tashqariga chiqib ketdi.

* * *

Malik muallimning Turdi g'ilayga allanimalar deganini, Turdi g'ilay idoraga qarab qo'l silkitganini, keyin ikkovi mashinaga o'tirib jo'nab ketishganini Nazarov derazadan

ko'rib turdi. G'azabi qaynadi: „Sen yetmay turuvding! Eshakmiya chol, gapga tushunmaydi-ya! „A“, degan zahoti „ma“, deb og'ziga solsang bularning. Sabr-qanoat, muomala degan gap yo'g'-a birontasida. Hamma dono, hamma zakunchi. Kimga yaxshilik qilishniyam bilmaysan“.

Qalampir nusxa gulli do'ppini qulog'igacha bostirib kiygan shopmo'ylov, ellik besh yoshlardagi baqaloq O'sar buxgalter kabinetga kirib, raisning xayolini buzdi:

— Malik muallim tajang bo'pketyapti, nima gap o'zi? — dedi u yoshiga yarashmaydigan chaqqonlik bilan yo'rg'alab kelib, Nazarovning qarshisida to'xtarkan. — Nima gap? Tinchlikmi, ishqilib.

Nazarov unga o'qrayib tikildi:

— Nima gap, nima gap? Xuddi hech gapdan xabari yo'qday talmovsiraydi-ya. Nima bo'lardi, tomorqaning janjali-da!

— E, shunga shunchami, sal bo'lmasa yuragimni yorvoray dedingiz-a, — dedi O'sar buxgalter yoqasiga tuflab. — Bunaqa janjalni endi ko'ryapsizmi, Begmatjon. O'zingiz ham juda asabiy bo'lib ketyapsiz-da, keyingi paytlarda.

— Sizga oson, kontsertni qo'yib, tomosha qilib o'tiraverasiz bir burchakda cho't qoqib. Hamma balo-qazoga balogardon — biz. Bugun o'qituvchi kelib do'q uradi, ertaga podachi gavron ko'tarib keladi. Ishongan tog'im siz bo'lsangiz... Bitta tomorqa deb, boshimni do'zaxga tiqib o'tiribsiz.

Bosh buxgalter pinagini buzmedi.

— Parvo qilmang, — dedi u xotirjamlik bilan. — Qo'lidan hech balo kelmaydi. Qolaversa, bu — yig'ilish qarori. Tamom-vassalom.

Nazarov hozir bu tepsa tebranmas odamga nima deyishni yaxshi bilardi-yu, attang, tili qisqa-da. U ich-ichidan toshib kelayotgan nafrat va g'azabni arang yutib, chuqur so'lish oldi.

* * *

Turdi g'ilayning qo'llari quvonch va hayajondan titraydi, ichidagini Malikka sezdirib qo'ymaslik uchun rulga mahkam yopishib olgan. „Mana, endi hunaringni ko'rsatadigan payt

keldi, Turdivoy, — deydi ichida o'ziga-o'zi. — Oldin yolg'iz eding, gunohkor eding — tiling tushovda edi. Endi bo'lsa... pochchani ishga solib, sen rais to'rani bir uray, bir urayki, qaysi teshikka kiraringni bilmay qolgin! Qasosli dunyo bu, og'ayni, qasosli!“

Turdi g'ilay surunkasiga olti yil xo'jalikda kassirlik qildi. Jaraq-jaraq pullar qo'ldan o'tdi. Bir kunda bir necha yuz ming so'mlab tarqatgan paytlari ham bo'lgan. Yuzdan birni, mingdan o'nni ushlab qolardi.

Kim nima desa-desin, lekin dunyoda kassirlikday tushumli ish yo'q. Odamlar rais bo'lay, vazir bo'lay deydi. Xo'sh, raislikning nimasi yaxshi? G'alvaning uyasi-ku! Kassir bo'lsa... Oti sal anaqarog'-u, lekin payti kelganda uncha-muncha raislikning bir oy ishlaganini bir soatda topadi.

Turdi g'ilay olti yil kassirlik qilib, shu fikrga keldi. Ammo Begmat uning olti yillik toat-ibodatini bir pul qildi. Rais bo'lgan yiliyoq ishdan bo'shatdi. Sabab? „Odamlar norozi“ emish.

Turdi g'ilay eski raisning biqinida yurib, xo'jalikning ancha-muncha „siri“ni bilib qolgan edi. Yil oxirida shu „sir“dan bittasini ochdi. „Xo'jalik jun planini pul bilan to'ldirdi“, degan mazmunda tuman hokimiga shikoyat xat yozib yubordi. Afsuski, fakt tasdiqlanmadi. „Bu xumpar hokimning og'zini moylagan“, deb yana yozdi. Shikoyatni yangi ma'lumotlar bilan „semirtirdi“. „Xo'jalik fermasida raisning ikkita shaxsiy ho'kizi bor (Jo'raqul aka shunday qilardi, buyam undan qolishmas), choyxona uchun keltirilgan pishiq g'isht-u yog'ochdan rais o'ziga dang'illama uy qurdi“.

Xo'jalikni bir necha kun komissiya tekshirdi. Yana hech gap yo'q. Jig'ibiyroni chiqqan Turdi g'ilay endi ochiq „hujum“ga o'tdi. „Meni hech qanday gunohsiz ishdan bo'shatdi“, deb to'g'ri raykomga bordi. Shayton rais buning ham yo'lini topdi. O'n-o'n besh chog'li jamoa xo'jaligi a'zosidan „tilxat“ yozdirib olgan ekan. Raykomga eltib berdi. „Sobiq kassirning olti yillik ishini tekshirib ko'ringlar“, — deyishibdi raykomdagilar. Turdi g'ilay qarasa — ish chatoq. Birovga otgan toshi qaytib kelib uning boshini yoradigan. „Olti bolamga rahming kelsin“, deb Begmatnikiga yig'lab

bordi. „Yana shunday ahmoqchilik qilsam, til tortmay o‘lay“, deb qiziq ustida „echki“ qasam ichdi. Har qalay, Begmat ishni bosdi-bosdi qildi. Birov ko‘ngliga rahm-shafqat soldimi, ishqilib, sal o‘tmay Turdini sut-tovar fermasiga hisobchi qilib qo‘ydi. Shunisiga ham shukurlar aytib, sochilgan nasibasini ko‘p qatori terib yeb yurgan edi. Shu yilning boshida fermadan ham qadami qirqildi. Nima emish — yem-xashak sotganmish. Bir to‘rva yem, bir qop somon bilan xo‘jalikning uyi kuyib ketarkanmi! Farmon ferma uni himoya qilib raisga ancha yalindi. Rais ko‘nmadi. „Bu odamni tarbiyalab bo‘lmaydi“, debdi.

Turdi g‘ilay Farmon fermaning ikki juft qunajinini yarim yil boqib, buqaday semirtirib bergan, Begmat o‘g‘liga to‘y qilganda, xo‘jalikning eng semiz ho‘kizini o‘z qo‘li bilan so‘yib, aravaga ortib yuborgan, lekin endi isbotlash qiyin, ustiga-ustak otim yomonga chiqqan, deb chidab kelardi, dardi ichida edi. Yana boshqa gaplar ham bor. Mana endi raisning ko‘zini moshday ochib qo‘yadi!

III

Suyarqul anhor ko‘prigidan o‘tishi bilan, o‘rik yaqinida arqonlangan ola sigir cho‘zib „mo‘-o“ladi. „Taniding-a, jonivor, — dedi Suyarqul xayolan sigiriga murojaat qilib. — Qorning ochdimi, suvsab ketgandirsan. Hozir ariq bo‘yidagi barra o‘tlardan yulib beraman. Maza qilasan. Keyin suv ichasan. Yo‘q, avval sug‘orib, keyin o‘t beraman. Odam ham och yurishi mumkin, lekin suvsizlikka chidolmaydi-ku. Ertalabdan beri bir ho‘plam suv ichganing yo‘g‘-a, sen jonivor“.

Suyarqul xuddi aytganiday qildi: avval sigirni anhora yetaklab borib sug‘ordi, keyin uvatning sero‘t joyiga, yo‘n-g‘ichqazorga yetmaydigan qilib qoziqni qoqdi. Sigir xuddi ochofatday, ko‘m-ko‘k maysaga yopisha ketdi. Sigirning may-salarni chirt-chirt uzib kavshanishidan zavqlangan Suyarqul: „Meshqorin-ey, tozayam ochqopsan-ku“, deb kuldi.

Bu „meshqorin“ni o‘tlatish Suyarning zimmasida edi. U har kuni ertalab sigirni dashtga olib kelib qoziqlab ketadi. Maktabdan so‘ng esa yana kelib sug‘oradi, o‘t yulib beradi, ba‘zan uvatda, anhor bo‘ylarida yetaklab o‘tlatadi. Ammo

bu meshqorinni to'ydirish osonmas. To'rt taraf — ekinzor. Anhor bo'yi demasa, gilam o'rnicahalik ham mol o'tlatadigan o'tloq yo'q. Bedazor — xo'jalikniki. Qorovul — Qarshi cho'loq, badjahl odam. Bir tutam beda yulganini ko'rsa, qaytib bu yerlarga yo'lamaydigan qiladi. Agar shu odamning gapi chin bo'lsa, bu joylar ilgari qalin chakalakzor ekan. „Tustovuq, quyon, jayra, shoqol, bo'riyam bo'lardi“, degan edi u. Hozir, huv Ajinatepa biqinida bir-biriga suyanib turgan teraklar qolgan, xolos. Tepalik olisdan orolchaga o'xshaydi — gir tevaragi suv, teraklarning osti ko'krak bo'yi butazor. Bu yer Suyarqulning eng sevimli joyi — „Shirin xayollar orolchasi“.

Orolchanning „kashf“ etilish tarixi ham qiziq, ham g'aroyib bir ertak.

Geografiya o'qituvchisi „Orollar va yarim orollar“ temasidan dars o'tayotgan edi.

— Quruqlikning materiklarga qaraganda kichikroq, hamma tomondan suv bilan o'ralgan qismi orol deb ataladi. Orollar katta-kichikligiga qarab uch guruhga — Materik, Vulqon va Marjon orollariga bo'linadi. Misol uchun... — O'qituvchi gapni shu yerda to'xtatib, sinfga savol tashladi.

— Xazinatepani kim ko'rgan?

Bolalar hayron bo'lib bir-birlariga qarashdi.

— Ajinatepani aytyapman, — kuldi o'qituvchi.

Hech kimdan sado chiqmadi.

Qishloqdan ancha narida, dasht etagida joylashgan bu tepalik haqida vahimali mish-mishlar tarqalgan edi. Ajinalar tepaga yaqinlashgan odamni chalib, ko'zini g'ilay, og'zini qiyshiq, oyog'ini shol qilib tashlagan emish...

O'qituvchi bolalar dilidagi shubhani sezib, kulimsiradi.

— Ajinatepa bilan bog'liq afsonalarning bari uydirma. Unga ishonmanglar. Ajina degan narsaning o'zi yo'q. Menga qolsa, uni Ajinatepamas — Xazinatepa deb atardim. Tepa suv bilan o'ralgani uchun traktor kirolmaydi. Axir, u yer ekzotika! Tabiatning tabiiy muzeyi! Birontang borganmisan yaqinrog'iga?

Yana hech kim miq etmadi.

— U yerga borib bo'larkanmi? — deb to'ng'illadi kimdir orqadan.

— Men borganman, — dedi sabri chidamay Suyarqul.

Osmondan bir g'aroyib narsa shalop etib sinfga tushganday, hamma baravariga Suyarqulga qaradi.

— Qachon?!

— Bir o'zing-a?! — degan hayratomuz savollar yog'ildi.

— Yozda. Hamid akam bilan yo'qolib qolgan qora novvosimizni izlab boruvdik.

— Ajinadan astoydil so'raganingda, novvosingni topib berardi, — hazil qildi Mamayusuf.

— Ajina... ko'rinmadi, — dedi Suyarqul qizarib. — Kaptar, chumchuqlar rosayam ko'pakan.

— Vey, ajina-da shu! Senga qush bo'lib ko'ringan! — dedi Jumavoy. Sinfda „gurr“ kulgi ko'tarildi. O'qituvchi kulgini bosib, gapni boshqa yoqqa burdi.

— Xo'p desanglar, darsdan keyin o'sha tepaga boramiz. Men sizlarga Xazinatepaning xazinalarini ko'rsataman.

Shovdarsoy kanali tepalikka yetmay teng ikkiga bo'linadi-da, aylanib o'tib, yana bitta o'zanga tushib ketadi. Qachonlardir anhor ustiga ag'anab tushgan yo'g'on tol antiqa ko'prik hosil qilgan. Suv shaloplab „ko'prik“ka uriladi. Orolcha qirg'og'i tizza bo'yi yalpiz bilan qoplangan. Bir-biriga chirmashib yotgan o't-o'lanlar belga uradi. Tanasi quchoqqa sig'maydigan uch tup terakning atrofi odam bo'yicha butazor. Terak shoxlari qushlar iniga to'lib ketgan.

— Bunday go'zal bog' qayerda bor! — dedi o'qituvchi atrofga suqlanib qarab. — Havosining tozaligini-ye! — U qulochini kerib chuqur nafas oldi, o'quvchilar ham turli-tuman giyohlar isi anqib turgan havodan to'yib-to'yib simirdilar.

— Manavining nomini kim biladi? — deb so'radi bir mahal o'qituvchi, binafsharang gulli chiroyli o'simlikni ko'rsatib.

Yigirmadan ortiq o'quvchining bittasi ham uning nomini bilmas ekan. Muallim xafa bo'ldi. Engashib, o'simlig-u gullar nomini sanay ketdi:

— Mavrak bu, mavrak! Anavi qizg'ish gullilar — qo'zi-quloq. Anavilari to'rang'il, yulg'un, ilonchirmoviq. Yovvoyi jiydani bilarsizlar hech bo'lmasa? Bu ahvolda... Kelinglar, shu yerni otaliqqa olamiz, avaylab asraymiz. Tuprog'ini, o'simliklarini yaxshilab o'rganamiz, qushlarga g'amxo'rlik qilamiz...

Ertasi kuni bolalar orolchani otaliqqa olishga va unga munosib nom topib, uning yangi loyihasi uchun tanlov e'lon qiladigan bo'ldilar.

Tanlov qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Birov: „Orol-dagi hamma o'simliklarni yo'q qilib, yangidan bog' yaratish kerak“, desa, boshqasi: „Tevaragini temir panjara bilan o'rab, tepalik ustiga fontan o'rnatish“ni taklif qildi. Eng oxirida Suyarqulning fikri hammaga yoqib tushdi:

— Orolchadagi narsalarning bittasigayam tegib bo'lmaydi, — dedi u. — Faqat ba'zi yovvoyi o'tlarni yulib, o'rniga atirgul eksa yaxshi bo'ladi. Tepalikka shiypon qurilsa, yozda juda maza: g'ir-g'ir shamol, hamma yoq kaftdek ko'rinib turadi. Teraklar ostidagi butazorning bir qismini olib tashlab hovuz kovlasak, baliq urchitish ham mumkin.

— Nomi-chi, nomi nima bo'ladi? — so'radi kimdir.

— Yotvolib xayol suradigan joy ekan. Kelinglar, „Shirin xayollar orolchasi“ deb ataymiz.

Shu-shu Ajinatepa „Shirin xayollar orolchasi“ga aylandi.

Orolchada ishlar qizib ketdi: har kim har xil gullar, o'simliklar keltirib ekdi. Qushlarga inlar qurildi. „Kuzatuv daftari“ga orolchada yuzdan ziyod giyoh, o'simlik va jonivorlar borligi qayd etildi. Qushlar bu hisobga kirmasdi. Navbat hovuz qazishga kelganda, geografiya o'qituvchisi tumanga ishga o'tib ketdi. O'quvchilarning ba'zilari xo'jako'rsinga, ba'zilari o'qituvchidan uyalgani uchun o'zini tabiatparvar qilib ko'rsatib yurgan ekan. O'qituvchi ketgach, orolchaga kelmay qo'yishdi. Besh kishi — Suyarqul, Mavlon, Mamyusuf, Jumaboy va Hakim qoldi. Besh o'rtoq orolchaga qatnab turishgan edi. Bultur yozda, cho'milishayotganlarida, Jumaboyning bilagiga suvilon osilib chiqqanidan keyin, ularning ham orolchadan qadami uzildi. Suyarqul yolg'iz qoldi. U kunda shunda. Sigiriga o't yulib bergandan keyin orolchasiga

boradi. Gullarni, daraxtlarni chelakda suv tashib sug'oradi. Qushlarga, kaptarlarga don-dun beradi. Ayniqsa, oq kaptarini judayam yaxshi ko'radi. Bir kun ko'rmasa turolmaydi. Jonivorning o'ziam kaptarmisan kaptar-da!

Uchganda hamma kaptardan balandga parvoz qiladi. Suyarqul Semurg' deb ot qo'ygan bu kaptarga. U Semurg' bilan gaplashadi. Xuddi ertakdagiday, uzoq suhbatlashadi. Ba'zida ko'zlarini chirt yumib: „Ey, Semurg'im, qaydasan, kel yonimga!“ — deb chaqiradi qushni. Shunda Suyarqulning xayollari ichiga kirib olib, bir tomosha qilsangiz edi, og'zingiz ochilib qolardi!

„Sen o'tlab tur, — dedi Suyarqul sigiriga, — men g'izillab borib orolchamizdan xabar olib kelaman. Tez qaytaman, sal hayallab qolguday bo'lsam, bo'kirib trevoga ko'tarib yurma tag'in. Xo'pmi? Men ketdim“.

Suyarqul, suv shaloplab urilayotgan „qil ko'prik“dan o'tib, ehtiyotkorlik bilan oyoq uchida teraklar yaqiniga bordi. Keyin ikki barmog'ini og'ziga tiqib, hushtak chaldi. Qushlar, kaptarlar patir-putur qilib osmon-u falakka ko'tarildi. Suyarqul yana hushtak chaldi. Kaptarlarning ko'z ilg'amas balandliklarda tizilishib uchishlarini zavqlanib kuzatdi. Kaptarxonasidagi idishlarga suv quydi, qushlarning qaytib kelishiga „ziyofat bo'ladi“ deb non ushoq, don sepdi.

Terakdan tushib, simdan to'qilgan belanchakka yotib, tebrandi-da: „Nega hamma yer orolchadek tinch emas. Odamlar nima uchun janjallashar ekan-a?“ — deb o'ylay ketdi. — Misol uchun, chechalari. Uyda hamma narsa bor. Uncha ko'p ish ham qilishmaydi. Lekin onasi aytganiday, bir-birini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q. Hadeb janjal qilishguncha, opa-singil bo'lib, ahil yashashsa nima qilarkin? Chechalari yo'g'ida uylari tinch, qanday yaxshi edi-ya! Kichigi keldi-yu... Kelinlar urishib-urishib, in-iniga kirib ketaverishadi. Qiyin-qiyin, bechora onasiga qiyin. Janjal chiqmasin, deb hamma ishni o'zi qiladi: azonda turib sigir sog'adi, kelinposhshalarning uyqudan turishiga sut pishiradi, hovlini supuradi, yana choy damlab qo'yadi. Suyarqulning rahmi keladi onasiga, chechalarini, ular tufayli akalarini ham yomon ko'radi. Axir, akalari onamga qarashgin, deb xotiniga

aytsa bo'ladi-ku. Yo'q, sira indashmaydi. Yoki aytgani bilan chechalari gapga kirmaydi. Tezroq ketgani yaxshi edi ikkovining ham. Otasi tomorqa olib bersa edi... Tomorqa olish ham qiyin ekan. Rais bobo ham o'lguday xasis odammi, nima balo, shuncha yerdan bitta tomorqa ajratgisi kelmaydi-ya! Otasi ham juda qiynalib ketdi.

Elas-elas ko'zga tashlanadigan balandlikda uchayotgan kaptarlar birdan turgan joylarida qotib qolishdi va pastga tomon sho'ng'ishdi. „Semurg'im, — ularga qarab ich-ichidan murojaat qildi Suyarqul. — Rais boboga ayt, otamga tomorqa bersin. Bermasa, onam kasal bo'lib qoladi“. Kaptarlar chug'ullashib o'zlarini kaptarxonaga urishdi.

Suyarqul „belanchak“dan tushib, sigirining yoniga ketdi. Yo'l-yo'lakay yovvoyi yo'ng'ichqa, qorapechak, g'umay yulib, quchog'ini to'ldirdi. Keyin yarmini sigirga berdi, yarmini bog'lab, orqalab oldi. Ola sigirning kechki ovqati bu.

Sigirni og'ilga bog'lab, ariqchada qo'lini yuvayotganida, tepasiga otasi keldi. Judayam alamzada, nimadandir qattiq noroziga o'xshab ko'rindi u: yuzi bo'g'riqqan, burun kataklari goh kengayib, goh torayib, lablari pir-pir uchardi.

— Suyarqul, tez borib amakilaringni chaqirib kel, — dedi otasi ovozi titrab. — Hozir borarkansiz, degin.

Suyarqul oshxonadan aka meros eski velosipedni sudrab chiqdi.

Hademay mehmonxona qarindosh-urug'lar bilan to'ldi. Qarindoshlarining ko'pligini Suyarqul shunda bildi. Voy-bo'y! Qishloqning yarmi qarindosh-urug' ekan-ku. Tog'a, amaki, quda buva, jiyan... Ehhe! Sanab sanog'iga yetolmaysan. Qarindoshlar yarim tungacha allanimalarni muhokama qilishdi. Turdi tog'asi: „Sizni, qirq yillik muallimni shunchayam oyoqosti qiladimi? Bunga kim chidaydi? Men ularning kirdikorlarini besh qo'lday bilaman. Og'aynilar, endi birlashib ish ko'raylik. Bugun raisning shoxini qayirib tashlamasak, ertaga u hammamizni eshak qilib minvoladi“, deb o'tirganlarga gap uqtirdi. Uni birov yoqladi, kimdir qoraladi. Quda buva indamay nos chekib o'tira berdi. Tortishuv qizidi.

Poygakda papkasini quchoqlagancha mudrab o'tirgan

Suyarqulga hech kim e'tibor bermadi. Kattalar uning shu yerdaligini go'yo unutib yuborganday edi.

Suyarqulni uyqu elitar, kipriklari qo'rg'oshinday og'ir-lashib borardi. Kap-katta kishilarning yosh boladay baqirib-chaqirishlarini jon-jon deb tomosha qilgisi kelar, ammo uyqu... Oxiri uyqu zo'r chiqdi: papkani boshiga qo'ygan-cha dong qotib uxlab qoldi.

IV

Turdi g'ilay yozib bergan „Shikoyat“ini o'qiy turib, Malik muallimning a'zoyi badanidan muzday ter chiqib ketdi. „Agar shu gaplar chin bo'lsa, uchdan biri rost chiqsa ham, juda vijdotsiz bo'pketgan ekan bu Nazarov, — deb o'yladi u. — Balki yolg'ondir. Qariganimda menga lozimmidi shu. Eshitganlar nima deb o'ylaydi. Malik chol o'z o'quvchisining ustidan yozibdi, deb nafratlanmaydimi? O'quvchisi, nima bo'lgandayam o'zi o'qitgan o'quvchisi-da, bu Nazarov.

„Shikoyat“ bir haftacha laxcha cho'g'day ko'kragini kuydirib yurdi. Bir hafta davomida ikkilanib, o'zi bilan o'zi olishdi. Idoraga bormoqchi, bir paytlar Nazarovni sinfda hammadan keyin olib qolib koyiganidek, kabinetiga kirib pand-nasihati qilmoqchi, shu qog'ozdagi gaplar rostmi, deb so'ramoqchi ham bo'ldi. Oxiri, bordi idoraga. Lekin raisning bir qiligi... Uni ko'rib, xuddi ko'rmaganday, yonginasidan mashinasida ko'chani changitib o'tib ketishi og'ir botdi Malik muallimga. „Senday kaltabin, badnafs kimsaning bir kun, hatto bir soat ham rais bo'lishga haqqing yo'q ekan. Bor-e, bo'lganicha bo'lar“. Jo'natib yubordi...

V

„Gaz-24“ idora oldida to'xtar-to'xtamas, Nazarov irg'ib yerga tushdi. Eshikni zarda bilan yopdi. Bir qadam tashlab birov orqasidan tortganday to'xtadi — mashina eshigi plashining belbog'ini qisib qolgan edi.

— Yopishmagan sen qoluvding! — siltandi. Uzilib ketgan belbog' eshikda ilon po'stiday osilib qolaverdi. „Toza po'stagini qoqishganga o'xshaydi, — deya kuldi o'zicha shofyor. — Endi sho'ring qurg'ur bir bechoradan boplab alamini oladi“.

Kotiba rais kirishi bilan dik etib o'rnidan turdi.

— „O'zqishloqxo'jalik ta'minot tuzatish“dan telefon qilib aytdiki...

— Bosh bug'altirni chaqir! — Nazarov qizning gapiga quloq solmay eshikni shaxt bilan ochib, xonasiga kirib ketdi. Plashini burchakdagi ustiga qip-qizil gilam to'shalgan divan-ga uloqtirib, xonada betoqatlanib yura boshladi. Hozir uning bosh buxgalterga aytadigan gapi juda ko'p edi: „Seni deb shu baloga giriftor bo'ldim. Senga yaxshilik qilaman, tomorqa beraman deb, yer bilan teng bo'ldim. Misqollab yig'gan obro'yim bir pul bo'ldi...“ Qulog'iga qalam, qo'ltig'iga bir dunyo qog'oz qistirib olgan O'sar buxgalterga yuzma-yuz kelgandan keyin esa... Hech vaqt, hech qachon bunday deymasligini tushundi: „O'-o', ne-ne sandiqlarning kaliti bor-a, bu mo'ylovning qo'lida.

U hamisha hisoblashishga mahkum bu odam bilan!“ Dilidagini tiliga chiqarolmay, ichi tutab ketdi. Yer tepib borib, o'zini divanga tashladi. Tishlari orasidan alamnok bir nido titrab chiqdi:

— Endi nima qildik, oqsoqol?

Raisning vazohatidan ko'p narsalarni fahmlagan O'sar buxgalter qog'ozlarini stolga qo'ya solib, deraza tokchasida ustiga duxoba „chopon“ kiygizilgan choynakdan bir piyola choy quyib, raisga uzatdi.

— Shuni ichvoling, taftingiz bosiladi.

Nazarov piyolani O'sar buxgalterning yuziga otguday bir shaxt bilan ko'tardi-yu... sipqorib yubordi. Muzday choy haqiqatan ham ichini qovurayotgan alanga taftini sal pasaytirganday bo'ldi. O'sar chaqqonlik bilan piyolaga yana choy quydi. Rais piyolani qo'lga olayotib:

— Isqirt! Ipirisqi! — dedi pishqirib.

O'sar buxgalter tumshug'ini ari uyasiga tiqib olgan ayiqday ortiga chekindi.

— Kim...ni aytyapsiz, Begmatjon?

— Kimni! — Nazarov „Sendan bo'lak isqirt ham bormi bu dunyoda“, demoqchi edi. O'sar buxgalterning „kimni“ deb o'smoqchilashi... Nazarov stolga bir musht tushirdi. Piyola dirillab ketdi. — Miyasi qurtlagan cholingizni-da! Yana

bir quloch ariza yozibdi. — Raykomga! Bir tog'ora mag'zava to'kibdi ustimga!

— A-a... — O'sar buxgalter stulga o'tirib qoldi.

— Nimani yozipti, rais?..

— Hojatxonaga borganim qopti, xolos. Xo'jalikda madaniy ishlar dabdala, shiypon, bog'cha — nomiga, rais — amir Olimxon — xushlaganning boshini silaydi, xushlamaganning boshini oladi...

— Opshiy gaplarakan-u. Yomonam vahimachisiz-da, o'zingiz...

— Oxirigacha chidab turing! Sizni ham quruq qo'ygani yo'q.

— Ibi! Biz nima qippiz?

— Tayyor bo'pturing. Hammomga ketgan xarajatlar uchun javob berasiz hali.

O'sar buxgalter ilon bosib olganday seskanib ketdi. Xo'jalik hammomi uchun olib kelingan qurilish materiallaridan o'g'liga besh xonali uy tiklab bergani rost. Lekin u ishni juda puxta qilgani uchun, qilni qirq yoradigan ustasi farang ham topolmaydi kalavaning uchini, degan xayolda yurardi. Raisning sovuq gapidan so'ng boloxonali, oldi oynavand imoratning devorlari ustiga bosib tushayotganday qujanak bo'lib qoldi.

— Voy, iplos, voy, iplos-ey... — deb vishilladi u.

Uning talvasaga tushishi Nazarovning alamini biroz bosgandek bo'ldi.

— Jamoa xo'jaligiga kelgan yuz kub taxtani bosh bug'altir „oltmish kub“ deb rasmiylashtirgan. Qolgan qirq kubini sotgan. Ikkita ko'prik, to'rtta shiypon, klub kapital ta'mir qilindi, degan qog'ozdagi ish uchun xalqning o'n ikki ming so'm puli o'marilgan. — Raisning og'ziga qarab qolgan O'sarning sarg'ish yuzi oqardi. Ko'kish ko'zlari olaydi.

— Bu... bu... bularni qayoqdan bilibdi, a?

— Sizdan so'raymiz bu yog'ini, bug'altir bobo! Ko'r-sichqonday uyda qamalib yotgan chol shuncha ma'lumotni qayoqdan oladi! Hamma hisob-kitob daftarlari qo'lingizda bo'lsa. Temir sandiqlarning kalitini kissangizga solib qo'yan bo'lsak. Yana ikki tillik qilib... Ikkita shoxga osilgan odam ajaldan burun o'ladi-ya!

— Iye-e, shuni o'ylab aytyapsizmi, Begmatjon! — O'sar buxgalter titrab-qaqshab, joyidan turib ketdi.

— Meni kim deb o'ylayapsiz, uka? Yetti bolam, yigirma uch nevaram bor meni! Qiziq odam ekansiz-ku, uka.

— Bo'lmasa, shaytonga aylanib seyfingizga kirib chiqibdi-da, anavilar! A!

— Menam... shunisiga dog'man-da, uka. Keyingi vaqtlarda Turdi g'ilay idoraga tanda qo'ygan. O'sha...

— Buyam holva. Qolganini eshiting! Xo'jalik ikki yildan buyon go'sht, moy planini bozordan sotvolib bajaradi, debdi. Bozordan kimlarning moli sotib olingani-yu, har bitta molning haqiqiy narxi qanchaligigacha aniq qilib yozilgan u yerda. Bunisiga nima deysiz?

O'sar buxgalter yelkasini uchirdi. Nazarov hozir uning ko'nglida: „Bu tovoqning oshini Farmon bilan o'zing yegansan. Qancha dodvoylaganim bilan yuqini ham yalatmagansanlar menga. Uvol-savobiyam, endi o'zlaringga siylov“, — degan o'y kechayotganini sezdi. Raykomdan kelayotib, yo'l-yo'lakay tuzgan rejasini aytish fursati yetganday, asosiy maqsadga ko'chdi:

— Yo uchovimiz, yoki uchovimizdan bittamiz, — dedi u hamsuhbatiga ma'noli nazar tashlab. — Uch kishining jabr tortganidan bir kishining jabr tortgani osonroqqa o'xshaydi. Shunday emasmi?

O'sar buxgalter qilich kimning bo'yniga tushayotganini ko'rdi. Ko'rdi-yu, xiyol yengil tortdi.

— Shundaylikka shundayku-ya, Farmon ko'narmikan.

— Ko'nadi! Ko'nmay go'rga borarmidi. Ikkovlashsak, albatta ko'nadi. — Nazarov boshini orqaga tashladi. — Avvalambor, unchalikka bormas. Yor-u jo'ralar o'lgan emas, axir!

— Ilonlar-ey, kelib-kelib kovlashga topgan vaqtini qarang.

— Nimasini aytasiz, — Nazarovning bo'g'zini o'kinchli xo'rsiniq kuydirib o'tdi. — Hamid Ko'bayevich joyida turganidami!.. — qiyiq ko'zlari g'azabdan qisildi. — Qumursqani ezganday, mana bunday qilib, — bosh barmog'ini stolga bosib aylantirdi, — majaqlab tashlardim bu itdan tarqaganlarni!

Xonaga og'ir sukunat cho'kdi.

— Keyingi paytda zamon nozik bo'lib qoldi, — afsus bilan bosh chayqadi O'sar buxgalter.

— Tillo edi Hamid Ko'bayevich! Hazilakam xizmati singmagan u kishining bu rayonga. Shunday odamning qadriga yetishmadi-ya! Ko'rasiz, pushaymon yeyishadi hali. — Nazarov qizishib ketdi. — Men zavuchlik paytimdan bilan u kishini. Bizzi odam qilgan ham Hamid akam bo'ladi. Bo'yniga qo'yishgan aybni qarang — poraxo'r, ko'z-bo'yamachi emish! O'zi bergandan keyin kim ham olmaydi. Yangisini ham ko'ramiz, uzog'i bilan bir yil avliyolik qilib turadi, keyin, Asqartog'ni qanday yutganini ko'rolmay qolasiz. — Nazarov ichidagi bor alamini to'kib soldi-yu, birdan hushyor tortdi. — Yana kim biladi deysiz. Yangi rahbarning tutumi boshqacha.

— Og'zini iskab ko'rmadingizmi, Begmatjon, til topib bo'lmasmikan?

— Iskovuch tozimidim men! — O'sarni jerkib tashladi Nazarov. — Gap deganda tuturiq ham bo'lishi kerak-da. — O'sar buxgalter o'tirgan joyidan irg'ib turib, qo'l qovush-tirdi.

— Men... unday demoqchimasdim. Birga ishlasak bo'lar-kanmi, deb...

— Sizga nima, o'tiraverasiz-da, cho'tingizni shiqillatib. Qiyin-qiyin — bizga qiyin. Mana bugun yig'ilishda soyasi-dan shayton hayiqadigan To'qliboyevday odamni yer bilan bitta qildi.

— Yaratganning o'zi asrasin. Yaxshi niyat qilaylik, ukajon, — dedi O'sar raisga mo'ltayib. — Bu yog'i nima bo'ladi?

Nazarov sukut ichida xonani bir aylanib, O'sar buxgal-terning ro'parasida to'xtadi:

— Kechqurun majlis o'tkazamiz. Men bilay, siz biling, yaqinlarimizdan bir-ikkitasiga tayinlang, Farmon akaga ul-bul deb, irimiga koyigan bo'lamiz.

— Ma'qul, ko'p ma'qul, — uning fikrini quvvatladi O'sar buxgalter. — Faqat, xo'jako'rsinga bo'lsayam, uch-

to'rt oy fermadan chetlatgan tuzukmidi. Tag'in o'zingiz bilasiz.

Rais tirsillab yo'g'on torta boshlagan bo'ynini qashidi.

— Aka g'idi-bidi qilmaydimi? Hozir ikki ko'zingning do'stligiga ham ishonib bo'lmay qoldi. Bo'lmasa, o'zingiz shohid, hazilakam yaxshiliklar qildimmi Turdi g'ilayga. Men indamasam, onasini Uchqo'rg'ondan ko'rardi. Oxir-oqibat, zang'arning qilib yurgan ishini qarang. Arining iniga cho'p suqadi-ya!

— Shuni aytyapman-da men ham, Begmatjon. Zamon o'zgardi. Hozir hamma haqini tanigan. Shunaqa qaltis paytda, o'zingiz aytganingizday, Farmonga xo'jako'rsinga bo'lsa ham qattiqroq chora ko'rmasangiz, anavi „yozuvchi“lar tinchimas, deb qo'rqaman. Nima bo'lganda ham, Malikning jilovi Turdi g'ilayning qo'lida-da.

— He... — Nazarov go'yo qarshisida Turdi turganday yomon so'kindi. — Yaxshilikni bilmagan haromi! Bu ko'zing ham oqib tushadi hali sen hayvonning. Ayb asli o'zimda. Ikki buklab tiqib yuborish o'rniga, men nodon unga tuppa-tuzuk ish berib o'tiribman-a! — Nazarov bir-bir bosib deraza yoniga bordi. — Nichevo, — dedi ko'chaga qarab. — Bir mishiqidan tepki yeb, qarab turadigan ahmoq yo'q. — Rais O'sar buxgalter tomon o'girilib yovuz iljaydi. — Shunday boplayki, o'z-o'zi bilan qirpichoq bo'lib, bir-birining go'shti-ni yeydi hali ular.

Nazarovning o'ch olish usulini yaxshi bilgan O'sar buxgalter uning maqsadini sal-pal fahmladi. Lekin bir narsani aniqlolmadi: Malik muallim pensiyadagi chol — ushlagulik joyi yo'q. Turdi g'ilayning gunohlari ham eskirib ketgan. Pichoqqa ilingudek kim bor bu urug'da? To'ychi? Topibdi! Jon joyidan ushlabdi. Baloyi azim bu! — O'sar buxgalter boshini yelkalari orasiga tortib hirlingladi:

— Magazinchimi?

— Tss... Damingiz chiqmasin. Qalay?

— Naq kekirdagidan bo'g'ibsiz, kekirdagidan!

— Ilonga — ilonmiz, chayonga — chayon. Shundan keyin ham ko'zi ochilmasa, bir o'zini moxovday ajratib

tashlayman odamlardan. Ha! Hozircha, el ko'ziga yon bergandek bo'lamiz. Muallimga tomorqa beramiz, yer davlatniki, olsin xohlagan joyidan. Uch-to'rt cholni uyiga yuborib, kechirim ham so'raymiz. Tomosha ana undan keyin boshlanadi.

VI

Suyarqul kunbotar pallada „meshqorin“ni yetaklab, qishloqqa qaytdi. Sigirni og'ilga bog'ladi. Mehmonxonaga — otasining oldiga kirmoqchi edi, bo'sag'ada bir biriga mingashgan kalishlar, chang-chung botinkalarni ko'rib, ichkari kirishga botinmadi. Qiya ochiq eshikdan Turdi tog'asining darg'azab ovozi eshitildi:

— Endi vositachining zarurati yo'q. Kerak bo'lsa, Toshkentgacha boramiz!

Suyarqulning yuragi dukullab urib ketdi. Tashqariga otildi. Deraza oldida laylak qilib qo'yilgan eshak arava turardi. U aravaga suyangan kishiday, ichkariga qulog'ini ding qilib turdi.

— Hoy, mulla bobo, qurbaqani bossa nima deydi, „vaq“ deydimi, a? — do'rilladi tog'asi. — Bu kishi odam-ku! — Turdiboy, ulim, sizam ja qizishavermang-da, — dedi bosiq bir ovoz. — Xom sut emgan banda borki, adashadi. Rais bobo ham bir toydi. Ammo-lekin xatosini tan olyapti, kechirim so'rayapti katta boshini kichkina qip.

— Paytavasiga qurt tushgandami?

— Arzimagan gap deb, xo'jaligimizning otini yomonga chiqarmaylik-da, ulim, — tortishuvga qo'shildi boshqa bir ovoz. — Hammamiz qarindosh-urug', quda-anda bo'lsag-u, shuytib o'tirsak...

— Qarindosh-qarindosh deysiz. To'ychini korrupsiyaga bostirgan kim? Suyukli qarindoshimiz o'rtoq Nazarov emasmi? — Bizni bilmaydi deb o'ylaydi-da. Yo'q, bilamiz. Yer ostida ilon qimirlasa bilamiz. Sizlar esa bilmaysizlar. Siz ham bilmay turib o'rtaga tushmang-da, mulla bobo!

— Ho'-o'y, nima qilyapsan?

Suyarqul yalt etib orqasiga o'girildi: uch qadamcha narida akasi Hamid turardi. Suyarqul o'g'rilik ustida qo'lga tushganday qip-qizarib ketdi.

Akasi kayfdan qisilib, miltillab turgan ko'zini unga qadab:
— Baqa ke, qani, hiq... — dedi. — U yerda... nima bo'lyapti? — mehmonxonaga imo qildi. — Yo tag'in, hiq... maylisma? — Hamid birovni urmoqchiday qo'llarini siltadi, chayqalib ketib, ariq labidagi katta kundaga o'tirib qoldi. Qizargan ko'zlarini suzib Suyarqulga tikildi.

— Suyarga o'xshaysanmi... ukam-ku! Ke... hiq... uka, o'tir, — u og'ir qo'zg'alib, kundaning bir chetidan ukasiga joy ko'rsatgan bo'ldi. Bir yoqasi shalpaygan kastumi cho'n-tagidan timirskilab, yarimlagan shisha chiqardi. Shishani burniga yaqinlashtirib, qiziqsinib tikildi-yu, dast ko'tarib, qult-qult icha boshladi.

Suyarqul akasining burishib, tirishib borayotgan aftiga qarab achinib ketdi: „Har kuni ichadi. Ilgari bunaqamasdi. Yoki Mamayusufga o'xshagan „jo'ra“lari xafa qilarmikan...“ Uning nazarida akasi bilan o'zi o'rtasida allaqanday o'xshashlik borday edi. Ikkoviyam nochor. Ikkoviyam yakkamoxov. G'alati bo'lib ketdi. Akasini quchoqlab olib yig'lagisi keldi. Kundaning bir chetiga omonatgina o'tirdi:

— Aka, jo-on aka, ichmang...

— „Ichma“. Ichmaganingga qo'yadimi, — Hamid mehmonxonaga qarab olib, chuqur xo'rsindi. — Anavi, g'ilay tog'angam bormi?

— Him...

— Maylis de? — Hamid birdan qizishdi. Qo'lidagi shishani zarda bilan devorga otdi. Shisha chil-chil sindi. Ukasining yelkasiga tayanib, bazo'r oyoqqa turdi. — Maylis de? — takrorladi yana. Tevarakka alangladi, chayqalib borib devor tagida taxlog'liq po'stlog'i archilgan tol xodalaridan birini shartta sug'urib oldi.

— Aka, nima qilmoqchisiz, aka?

— O'ldiraman! — Hamid xodani ikki qo'llab ko'tarib darvozaga urdi. Xoda qarsillab sinib ketdi. — Chiq ham-mang! — mehmonxonaga qarab hayqirdi u. — Senga ayt-yapman, o', g'ilay!

To's-to'polonni eshitib, Suyarqulning katta akasi Nasim yalangoyoq yugurib chiqdi. U:

— E, sadqayi odam ket-e! — deb Hamiddan xodani tortib oldi. Oʻzini boʻlsa yosh boladay dast koʻtarib, ichkariga olib kirib ketdi.

— Qoʻyvor, qoʻyvor, dedim senga! — yulqinardi Hamid. — Senda kalla yoʻq. Hamma jirkanadi bizdan. Or qiladi, bildingmi, or qiladi! Hey, qoʻyvor deyman!

— Vos-vos boʻpqopsan! — dedi Nasim peshayvon toʻridagi eshikni tepib ochar ekan. — Hamma nima gʻamda-yu... Odamning oʻlgani yaxshi bu kunidan. — U Hamidni bir qop somonday opichlab, olib kirib gilamga otib yubordi.

Burilayotib, orqasida turgan Suyarqul bilan toʻqnashib ketdi.

— Daydi pishakday muncha oyoq ostida oʻralashsang! — tishlarini gʻijirlatdi u. — Bor, ishingni qil!

Devorga qapishib qolgan Suyarqul tirnalgan tirsagini silab, supa labiga borib turdi. Nasim mehmonxonaga kirib ketgandan keyin oyoq uchida borib, asta eshikni ochdi. Uy oʻrtasida yuztuban yotgan Hamid akasi yosh boladay hoʻng-hoʻng yigʻlar, gʻoʻldirab soʻkinar, yana yigʻlar edi.

Suyarqul koʻzlaridan tirqirab chiqqan yoshni toʻxtatolmay, tashqariga otildi. Mehmonxona ostonasida toʻdalashib turgan kishilar yonidan oʻqday uchib oʻtib, koʻchaga chiqdi-yu, yugurib ketdi. U qayoqqa chopayotganini bilmas, faqat hech kim koʻrmaydigan, hech kim eshitmaydigan joy topib, Hamid akasiday hoʻngrab-hoʻngrab yigʻlagisi kelardi...

Suyarqul koʻchama-koʻcha qancha yurdi, qayerlarga bordi — bilmaydi. Qaytib uyga kelsa, mehmonxonada otasi, Nasim va Turdi gʻilaydan boshqa hech kim qolmabdi.

— Ana jiyanchayam keldi. Borib amakilarini aytib kelsin. Tagʻin bir kengashib koʻraylik, — dedi Turdi gʻilay Suyarqul eshikdan kirishi bilan.

Malik domla qovogʻi ostidan oʻgʻliga qaradi. „Ne kunlarga qoldik-a, bolam...“ deganday.

— Bor, jivan, amakilaringni chaqirib ke, — domladan nido chiqmagach buyurdi Turdi gʻilay. Suyarqul togʻasining mallarang qoshlariga tikilgancha, bu gapni goʻyo eshitmaganday indamay turaverdi. Negadir hozir togʻasiga gap qaytargisi, „Sizni yomon koʻraman!“ deb baqirgisi kelardi.

— Nimaga bo‘zrayib qolding, yugur! — o‘shqirdi Turdi.
Suyarqul noiloj piyozdog‘, kuyundi isi tutib ketgan oshxonadan shalog‘i chiqqan velosipedini yetaklab chiqdi.

VII

Suyarqul terlab-pishib chimzorga yetib borganida, o‘yin hali boshlanmagan edi. Maykachan, ko‘ylakchan, ishtoni-ning pochasini tizzagacha shimarib olgan bolalar shunchaki oyoqning chigilini yozish uchun to‘p tepishayotgandi. Suyarqul tol tanasiga suyanib, shosha-pisha yechindi. U cho‘kkalab tuflisining ipini bog‘layotganida, uch-to‘rt bola mashqni to‘xtatib, shu tomonga xezlanib kela boshladi. Suyarqul eng oldinda jo‘jaxo‘rozday hurpayib kelayotgan Mamayusufni ko‘rib, bo‘shashib ketdi: „Hozir bir baloni boshlaydi bu bochka. Jalolning o‘chini oladi. Bir o‘zi bo‘lganda-yu... ishqilib, tepalashamiz, demasin. Kelmasam bo‘larkan-da...“

Suyarqul toshmi, kesakmi izlab tevarakka olazarak ko‘z tashladi. Yaqin atrofda qo‘lga ilinguday narsa ko‘rinmagach, oyog‘idagi tuflisining bir poyini yechib, ichini kovlash-tirayotganday, kishi bilmas hamlaga shaylandi.

— Yana keldingmi? Biz bilan o‘ynamaysan, devdim-ku! — olisdan o‘dag‘ayladi Mamayusuf.

— Yelkasi qichigan-da, yelkasi, bizning tepkini sog‘ingan, — kemshik tishini ko‘rsatib ishshaydi Mamayusufning „o‘ng qo‘l vaziri“ Jumaboy. — Hozir peshanasidan darcha ochib qo‘yamiz, ana undan keyin hech nima esidan chiqmaydigan bo‘ladi. — U harbiy xizmatni o‘tab kelgan akasining kamarini belidan yechib, qo‘liga o‘radi. Kamar uchidagi rosa artilgan to‘qa quyoshda yaraqlab ketdi. Suyarqulning quti o‘chdi. Axir, bir o‘ziga to‘rt kishi-ya, hazilmi bu! Najot izlab atrofga alangladi. Girdiga ola-bula ohak to‘kilgan chimzorda bolalar qiy-chuv qilib to‘p tepishyapti. Yaqin o‘rtada o‘zi-yu raqiblaridan bo‘lak hech kim yo‘q. To‘p tepayotganlar orasida faqat bir kishi — Mavlon shu tomonga qarab turgan ekan. Lekin Suyarqulning qarayotganini sezgan zahoti u ham chopqillab bolalarga

qo'shilib ketdi. Nega?! Baribir, jonajon jo'rasining shu yerdaligi Suyarqulga biroz madad berganday bo'ldi.

Ustiga quyunday bostirib kelayotgan xatarni aniq sezib tursa-da, Suyarqul hozir janjallashmoqchi emasdi. U, umuman, janjalni xush ko'rmaydi. Kecha ham, agar Mamayusufning o'zidan o'tmaganda, unga yarim og'iz ham yomon gap aytmagan bo'lardi. Qolaversa, uning o'zi ham azaldan Jalolni yomon ko'radi. Jalol kim? Govzombir! Yaqinlashgan odamni jizillatib chaqvoladi. Maktabda birov bilan yoqalashmagan kuni, albatta, ukalarini chirqiratadi. Nos otib, tamaki tutatib yurishlari-chi? Tag'in o'zini „shef“ sanab, Suyarqulni o'z „soya“siga olmoqchi bo'lib kerilishiga o'lasanmi! Tunov kungi qilig'ini qarang: o'sha — Jalol govzombir Mamayusufni ko'chada tutvolib: „Suyarga g'ing desang, burningni devorga ishqab, pachag'ingni chiqarib tashlayman“, debdi. Govzombirda kalla bo'lsa, odam qurib ketganday, kelib-kelib Mamayusufga po'pisa qiladimi? Tavba. Mamayusufning o'zi nima-yu... Bochka! Bochka bo'lgandayam, ichi bo'm-bo'sh bochka. Bir chertsang, voy-voylab borib onasini yetaklab keladi. Suyarqul kelib-kelib shu bochkadan qo'rqarkanmi? Qo'rqib bo'pti! O'sha kuni adabini berib qo'yardi-ya, attang. Yana Jalol govzombir xalaqit berdi-da. Bochka bilan endi bir hisob-kitob qilay, deb turgan edi. Xuddi osmondan tushganday yonginasida Jalol paydo bo'lib qolsa bo'ladimi? Bunisiyam mayli-ya, he yo'q, be yo'q: „Suyarga teginadigan senmisan hali?“ deb Mamayusufning orqasiga o'xshatib bir tepganiga nima deysan! Bechora Mamayusuf „Voy, onajon“lab baqirgancha orqasiga qaramay ura qochdi. Suyarqul unga qo'lini tekkizgan bo'lsa, o'lay agar! Aslida esa bochkani tuproqqa belab tepkilasa ham haqi ketardi. Xo'sh, birov seni hammaning oldida bekordan-bekorga to'polonchiga chiqaradi-yu, indamaysanmi? Nima emish — Suyarqul dunyo xaritasini yirtganmish! Mamayusuf o'z ko'zi bilan ko'ribdi. „Yirtma, bu o'quv qurolimiz-ku“, desa, „Birovga g'ing desang, Jalolga aytaman, tilingni sug'urib oladi“, deb qo'rqitganmish Suyarqul uni. Jumaboy bilan Hakimcha-chi? Voy tavba, voy tavba! Ikkoviyam: „Biz ham ko'rdik, Suyarqul yirtdi“,

deb ko'zini lo'q qilib turdi-ya! Endi tuhmat qilib, Suyarqulni sharmanda qilishmoqchi. Uch kishining gapi bir bo'lgandan keyin kim ishonmaydi ularning so'ziga. Butun sinf oldida Suyarqulning yuzi qora bo'ldi. Muallim ham chippa-chin ishondi: „Seni yaxshi o'quvchim deb yurardim, — dedi u qattiq ranjib, — lekin keyingi paytlarda ayniyapsan, har xil bo'lmag'ur qiliqlar chiqaryapsan“. Suyarqul: „Men yirtganim yo'q“, deyolmadi. Degani bilan, baribir befoyda, hech kim ishonmasdi uning so'ziga. Xullas, Suyarqul tuhmat qilish qanaqa bo'lishini Mamayusufga ko'rsatib qo'yimoqchi bo'ldi. Darsdan keyin boshqalardan oldinroq sinfdan chiqib, katta yo'l bo'yidagi tutning panasida raqibini poylab turdi. Dimog'i chog' Mamayusuf g'o'ng'illab qo'shiq aytib o'tayotganida, panadan chiqib, yo'lini to'sdi. Lekin gapirishga ulgurmasidan, hali aytganimizday, Jalol paydo bo'lib, ishning rasvosini chiqardi. Mamayusufning jirtakiligini ko'rabila turib, bir tepdi. Mamayusuf bo'lsa, xuddi odatdagiday, ho'ngrab uyiga — onasining oldiga chopdi. Onasining fe'li hammaga otning qashqasiday ma'lum. Ustiga-ustak, Suyarqulning otasi Malik muallimdan qanday o'ch olishni bilmay yurgan emasmi, shu zahoti Suyarqullarnikiga yetib kelib, hovlini boshiga ko'tardi: „Fermaning boshiga yetganlaring kammidi. Butun nonimni yarimta qulganlaring kammidi! Shirin oshimga zahar qo'shganlaring yetmovmidi! Endi bolamni urib mayib-majruh qilmoqchimisanlar!“ Bo'ldi shovqin, bo'ldi g'avg'o! Suyarqul yosh boladay onasining etagiga yopishib „piq-piq“ yig'layotgan Mamayusufga qarab turib ham hayron bo'ldi, ham qo'rqib ketdi: ust-boshi tuproq, sochigacha chang-loy, kastumining bir uchi uzilgan, belbog'i echkinning dumiday likillab, orqasida osilib turibdi. Birov tuproqqa bulab rosa tepkilagan, deydi uni ko'rgan kishi. Mamayusufning onasini Suyarqulning onasi bir nima deb yupatmoqchi bo'lgan edi, u battar avjiga chiqdi: „Iloyo ilovando, u dunyo-yu bu dunyo kosang oqarmasin! Uyingga o't tushsin. Eringning ko'kini kiyaverib, kuyib o'lgin!“ Ikki ayol yulishib ketishiga sal qoldi. Shovqin-suronni eshitib chiqqan qo'shnilar o'rtaga tushib, ularni zo'rg'a ajratishdi.

Bo'zarib ketgan Malik muallim Suyarqulning qulog'ini shunday buradiki, bolaning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Birinchi marta so'ramay-netmay ko'cha to'la odamlar oldida yuziga shapatilab yubordi. Zarbi hozirgacha qulog'i tagida... Eng yomoni, Suyarqulning oti „mushtumzo'r“ga chiqdi. Mamayusufning „o'ng qo'l vaziri“ o'sha kuniyoq „Suyarqul Jalol tog'asi bilan Mamayusufni rosa uribdi“, deb hamma yoqqa ovoza qilib yubordi. Bu xabarni eshitgan bola Suyarqulni yomon ko'rib qolishi tabiiy. Ayniqsa, qizlar biram g'azablanishdiki. Gulsum bo'lsa go'yo Mamayusuf emas, o'zi tayoq yeganday, „Ichidan pishgan pismiq bu! Unga yaqinlashgan kishi baloga qoladi“, deb Suyarqulga zahrini sochdi. Mamayusufga xuddi shu narsa kerak edi. U bolalarning hammasini o'z tomoniga og'dirib oldi. Og'dirib oldigina emas, yakkamoxov qilib, ajratib tashladi Suyarqulni.

U Jumaboyning turqiga, qo'lida chaqmoqday yaraq-layotgan kamar to'qasiga qarab turib, yuragini vahima bosdi. Jumaboy o'pkadan har baloni kutsa bo'ladi. Agar, o'pkaligi qo'zib, kamar bilan, o'zi aytganday, Suyarqulning miyasiga solib qolsa bormi...

Mamayusuf uch-uch yarim qadamcha narida to'xtadi: oyoqlarini kerib, qo'lini beliga tirab, Suyarqulga ishshayib qaradi. Sheriklari esa Suyarqulni o'rab olishdi.

Suyarqulning tufli tutgan qo'lga titroq kirdi. Bir ko'ngli shartta burilib, qishloqqa qochay dedi-yu, butun maktabga kalaka bo'lishini o'ylab, zo'rg'a o'zini tiydi: sir boy bermaslik uchun, bir qadam tislangan joyida raqiblariga qo'rquv aralash o'qrayib qaradi. Jumaboy Mamayusuf, „ol“ desa, Suyarqulni tappa bosadigan qiyofada, bir imoga mahtal, tirjayib turardi. Hakimcha allanimadan ikkilanayotganday, go'yo unga achinayotganday, pastki labini mahkam tishlab olgan. Qo-sim kadikalla bilan Rahim daroz esa tomoshaga intiq — tezroq janjal boshlansa-yu, ular ikki tarafni bir-biriga gij-gijlab, maza qilishsa. Mamayusufning qiyofasi o'sha-o'sha: „Qalaysan, endi bolakay?“ deyayotganday. U Suyarqul tomon bir qadam tashlab, mensimay:

— O'zing ketasanmi yoki... — dedi-da, hamrohlariga iljayib qarab qo'ydi. Suyarqul ham bo'sh kelmadi.

— Yaqinlashma! Mana shu bilan bir uraman, o'lasan, — dedi u tuflisini o'qtalib, — o'lging kelayotgan bo'lsa, mayli, kel, yaqinroq kelaver. — Lekin uning do'qi shu qadar zaif ediki, raqiblar baravariga „va-xa-xa“lab yuborishdi.

— Ishqilib, Mamay jo'rangning qorniga tepmagin-da, tarvuzday yorvorasan-a! — mayna qildi uni Jumaboy. Kulgidan ko'zlari qisilib ketgan Mamayusuf ham qarab turmadi:

— Turishini ko'ringlar buni, turishini! Hojimuqon-a, Hojimuqon! Puf deb uchirvoraman deydi-ya, odamni!

— To'xtanglar, bir nima deyaptimi? — dedi Jumaboy kulgidan to'xtab. — Nima deding, so'kdingmi?! Yana bir qaytar! — U kamarini o'ynatib Suyarqulga xezlandi.

— Hech nima deganim yo'q, — dedi Suyarqul qujanak bo'lib.

— Hech nima? Onangni... deb so'kkan kim? O'zim eshitdim-ku! Yana tonadi-ya! Tilini sug'urib olish kerak bu zo'ravonni! — Jumaboy hozir aytganini qiladiganday Suyarqulning ustiga ot surayotgan edi, Hakimcha o'rtaga tushdi. U Jumaboyni itarib, Suyarqulga dag'dag'a qildi:

— Sen bola, esing borida etagingni yig'ib, daf bo'l bu yerdan. Bo'lmasa, sichqonning ini ming tanga bo'lmasin keyin.

Suyarqul: „Men sizlarga nima yomonlik qildim“, demoqchi edi-yu, lekin: „Ketmayman. Chimzor onangniki emas!“ — degan so'zlar beixtiyor og'zidan chiqib ketganini bilmay qoldi. Mamayusufga sadoqatini doimo birinchi bo'lib ko'z-ko'z qiladigan „o'ng qo'l vazir“: „Onangning chimzori mana bunday bo'ladi!“ deb Suyarqulning kallasini ko'zlab kamar bilan soldi. Yaxshiyamki, uning o'pkaligi Suyarqulga ma'lum. Vaqtida engashib, zarbaga chap berdi. Yo'qsa... Jumaboy yana hamla qilgan edi, bu safar Mamayusuf qo'ymadi.

— Hovliqma! Joyimas! Hamma qarab turibdi! — dedi u Jumaboyni jerkib. — Oshiqma, kuchingni ko'rsatadigan payt keladi hali.

— O'zing aytuvding-ku, o'lasi qilib uramiz, — deb norozi bo'ldi Jumaboy. Mamayusuf uni itarib yubordi va qat'iy qilib dedi:

— Ishing bo'lmasin. Bor, anavi yerga borib tur. — Keyin Suyarqulga tomon bir qadam tashladi. Suyarqul beixtiyor orqasiga tislandi. Mamayusuf shap etkazib yelkasidan changallab oldi. Biri qo'rquv va alamdan, biri g'azab-u nafratdan yongan ko'zlar to'qnashdi. Shu asno bir-biriga bir nafas tikilib turishdi.

— Menga qara, shpionbachcha! — Suyarqulning gardanini omburday qisib o'shqirdi Mamayusuf. — Senga bir ko'rsatib qo'yardim-u... Mayli, hisob-kitobni boshqa joyda qilamiz. Yo'qol bu yerdan! — Uni siltab yubordi. Suyarqul bolalarning oyog'i ostida toptalgan maysalar ustiga cho'kkalab tushdi. — Sen Jalol gozvombiringga ishonma ko'pam, — burilib ketayotib yana po'pisa qildi Mamayusuf. — Uning-niyam ishtonini boshiga kiydiraman hali.

Suyarqul oson qutulganiga ichida shukur qilib turgan bo'lsa ham raqiblarning ketayotganini ko'ribmi, o'zini g'azabdan tiyolmadi.

— Yakkama-yakka chiq, zo'r bo'lsang! — tirsagiga ilashgan xasni qoqa turib talab qildi u. Mamayusuf taqqa to'xtadi:

— Nima deding? Yana bir qaytar!

Suyarqulning dami ichiga tushib ketdi. Hakimcha uning ahvoliga achindimi yoki janjal bo'lishini istamadimi, har qalay, Mamayusufning qo'lidan mahkam ushlab, urishgani qo'ymadi.

— O'lging kelyaptimi? Nimangga muncha gerdayasan! — dedi Hakimcha Mamayusufni chimzor tomon tortarkan, Suyarqulga qarab. — Hozir Mamay bir „bos“ desa, musht ketdi bo'lasan-ku, ko'k kartishka! Ket degandan keyin esing borida quyon bo'lgin-da!

Xuddi shu payt ishtonining pochasini shimarib olgan, oyoqyalang, yarim yalang'och „sudya“ning, „Hey, Mamay, kelasanlarmi-yo'qmi?!“ degan ovozi eshitilib qoldi.

— Shoshmay tur! — tishini g'ijirlatdi Mamayusuf. — Tug'ilganingga pushaymon yeysan hademay!

— Menga rahmat degin-da, uyingga qarab qoch. — Hingir-hingir kuldi Hakimcha. — Bo'lmasam, sho'ring quruvdi, ko'k kartishka! — Hammasi ortiga qaray-qaray, maydon sari

chopib ketishdi. Suyarqul ularni gap bilan chaqib olgisi kelar, biroq quruqshab qolgan tili aylanmasdi. „O‘ynayman! Baribir o‘ynayman!“ — o‘jarlik bilan yana tuflisini kiyaverdi. Kimdir tepasiga kelib, „shilq“ etib burnini tortdi. Cho‘chib boshini ko‘tardi: Muso. Yapaloq burni artilaverib, qizarib ketgan Muso:

— Ha, burunboy, senam urishmoqchimisan? — deb zo‘rg‘a iljaydi Suyarqul.

— Nimaga tirjayasan! Ular seni o‘ldirmoqchi-yu... — Muso tezgina atrofga alanglab olgach, enkayib Suyarqulning qulog‘iga pichirlay ketdi. — Mamay, Suyarqulni urib o‘ldirgan savobga qoladi, dedi. Otasi yomon odam, hammaning ustidan yumaloq xat yozib, birovni birovga gij-gijlaydi. Agar Suyarni hozir bir yoqlik qilmasak, kattarganda uyam otasiday hammani bezor qiladi, dedi. Jumavoy jinni bo‘lsa, Suyarni yakkamoxov qip, ajratib tashlash kerak, dedi. Hakimcha aytdiki, Suyarqul otasining shpioni, bizdan gap o‘g‘irlab otasiga tashiydi, bundan keyin hech kim u bilan o‘ynamasin, dedi. Keyin barisi bir bo‘lib, o‘lasi qilib urmoqchi bo‘ldi seni. O‘-o‘, yomonam qo‘rqquvdim-da... — Muso to‘satdan boshini ko‘tardi. — Suyarqul, otang shunaqa yomon odammi? — dedi ko‘zlarini olaytirib.

Suyarqul qanday javob berarini bilmay o‘ylanib qoldi. So‘ng yuzini chetga burdi. Ochig‘i, otasi haqida har xil gaplar eshitaverib...

— Hech qaysisi tarafimni olmadimi, a? — gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo‘ldi Suyarqul va chimzordagi bolalar orasidan Mavlonni izladi. Mavlon koptok orqasidan halloslab yugurib yurardi.

— Men olay dedim-u... Mamaydan qo‘rqdim. Hay, bo‘lmasam, sen endi ket, men o‘yinni tomosha qilmasam bo‘lmaydi. Bilasanmi, bugun zo‘r o‘yin bo‘ladi. — Muso burnini bilagiga arta-arta chimzor tomon chopib ketdi. Suyarqul uning ketidan birpas qarab turdi-da, boya tol shoxiga ilgan ko‘ylak-shimini qo‘ltig‘iga qisdi. Burunboyning gaplari Mamayusufning do‘qidan ham yomonroq ta‘sir qilgandi unga. Futbol o‘ynash ishtiyoqi birpasda so‘ndi-

qoldi. Uvat yoqalab borib, tutzorni kesib o'tdi. Bedazorga yetganda negadir madori qurib, oyoqlari qaltiradi. Qizg'al-dog'-u chuchmomalar bilan qoplangan ariq uvatiga behol cho'kdi. Chimzor tomon termildi. O'yinchilar ko'rinmas, tutzor ortidan: „Tepmaysanmi! Oshir!“ degan hayqiriqlar eshitilardi. Turib-turib ichi qizidi, alami g'azabga aylandi: „Nima haqi bor!“ O'rnidan beixtiyor uchib turdi. Chimzor sari besh-olti qadam bosdi-yu, xuddi kimdir ko'krigidan itarib turganday, yana taqqa to'xtadi. „Battar bo'linglar!“ — chimzorga qarab qo'l siltadi. Yo'ng'ichqa-yu chuchmomalarni bosib-yanchib anhor tomonga jo'nadi. U sigiriga bir tutam ham o't yulmay „qil ko'prik“dan yurib orolchaga o'tdi. Anhor bo'yidan bir tutam yalpiz yulib oldi-da, ko'k terak tagiga cho'kdi. Terak shoxlaridagi kaptarlar uni tanibmi, patirlab osmon-u falakka ko'tarildi. Boshqa payt bo'lganda Suyarqul qattiq hushtak chalar, zavqi toshgan kaptarlarning uchishlarini tomosha qilgan bo'lardi. Hozir esa yuragiga qil sig'maydi. U tizzalarini quchoqlab o'yga toldi. Ko'z oldiga yana chimzor keldi. Mamayusufning gaplari birdan nash'a qilib ketdi. „Shpionbachcha dedimi?! — Bu so'zning ma'nosini endi anglaganday, tutaqdi. — O'zing-chi? O'zing kimsan?! — Mamayusuf bilan yuzma-yuz turganday o'dag'ayladi u. — Tuhmatchisan, ahmoqsan, bildingmi?! Otang bo'lsa — ochko'z, xo'jalikning molini yeb qo'ygan. Ochko'zligi uchun ham qamaladi endi. Shuni bilib qo'y, mening otam ming dod-voy deganing bilan otangga o'xshagan muttaham emas. Hammaning o'ziday halol, insofli bo'lishini istaydi, bilding!“ — Shu gaplar boya esiga kelmaganini qarang-a! Suvga tushgan mushukday shumshayib turguncha, sheriklari oldida yer bilan bitta qilib tashlamaydimi, o'sha bochkani! Suyarqul ancha hovuridan tushdi. Qo'liga boshini qo'yib yotdi. Kaptarlar moviy osmonda dam to'planib, dam ajralib uchishardi. Shoxdan shoxga uchib qo'nayotgan chumchuqlarning chirqillashi bu safar Suyarqulga yoqmadi. U yana Mamayusufni esladi. Unga bir balo bo'ldi. Ilgarilari hecham bunaqa emasdi. Birdan o'zgarib, Suyarqulni yomon ko'rib qoldi. Nuqul janjalga bahona qidiradi, boshqalarning oldida mayna qilmoqchi bo'ladi. Partaga o'tirayotganida bildirmay tagiga siyohdon

qo'yib qo'yadi. Koridorda ketayotganida pusib kelib papkasini urib tushiradi. Sinfga kirayotganida eshikning panasida turvolib, oyog'idan chaladi. Nega? Shu tariqa otasining o'chini olyaptimi? Otasi...

Suyarqulning ko'z oldiga tunov kungi ko'ngilsiz manzara keldi.

...U otasi va onasi bilan chorpoyada nonushta qilib o'tirgan edi. Bir mahal darvoza taraqlab ochildi-yu, Mamayusufning onasi Uljon xola hovliga quyunday bostirib kirdi. Chorpoyaga yetmasdanoq, qo'llarini siltab, yengini halpilatib qarg'ay ketdi:

— Hey, umidginang uzilgur Malik. Domulla bo'lmay ochiq mozor yutkur, Ferma senga nima qiluvdi. Nimaga ustidan yozding, bo'yning tagingda qolgur!

Suyarqulning otasi shuncha qarg'ishdan keyin ham qilt etmadi. Onasi chidolmay, kavushini olib Uljon xolaga otdi:

— Og'zingdan chiqib yoqangga yopishsin! Olashaqshaqday nimalar deb shaqillayapsan o'zi, alvasti?

Suyarqul bu „tomosha“ sababini Mamayusuf bilan bo'lgan janjaldan keyin bildi. Malik muallim Mamayusufning otasi Farmon fermaning ustidan yozib, uni mudirlikdan bo'shatibdi. Hozir ishi sudda emish. Farmon ferma Mamayusufga motorli velosiped olib beraman deb turgan ekan. „Agar otam qamalsa, orolchangda yotgan joyingda o'roq bilan chavaqlab tashlayman seni!“ — deb do'q urdi unga Mamayusuf. O'sha kuni ularning orasidan olamushuk o'tdi. Shu-shu...

Suyarqul chuqur xo'rsindi, ko'zlarini yumib o'yga toldi: „Otam nega unday qildiykin. Tomorqa debmi? Tomorqani bermagan Mamayusufning otasimas, rais bobo-ku!“ O'ylab o'yining tagiga yetolmasdi. Boshi g'ovladi. Yorqin quyosh nurida nuqtaga aylangan kaptarlarga birpas ma'nosiz tikildi, so'ng ko'zlarini yumdi. „Kim to'g'ri ish qilyapti? — deya oq kaptarlarga murojaat qildi u. — Otammi yoki...“ Xayol osmonida qanotlari samolyotnikiday katta-katta, o'zi qorday oppoq Semurg' paydo bo'ldi. „Otang haq yo'ldan boryapti. Sen qo'rqma, ikkilanma, yordam ber otangga, — javob berdi Semurg'. — Lekin kurash oson bo'lmaydi“.

VIII

...Ota-bola har doimgi joylari — ko'cha tomondagi uyda yotishgan edi. Shirin uyqu og'ushidagi Suyarqul deraza oynalarining sharaqlashidan uyg'onib ketdi: birov derazani ustma-ust mushtlar edi.

— Kim u? — joyidan turayotib ovoz berdi otasi.

— Oching tezroq, menman — To'ychi!

Malik muallim choponini yelkasiga tashlab avval chiroqni yoqdi, so'ngra derazani ochdi.

— Ha, bemahalda, tinchlikmi?

— Ado bo'ldim, aka. Uyim kuydi! OBXSS do'konni pechatlab ketdi!

— A-a... — Malik muallimning yelkasidagi chopon sirg'alib yerga tushdi. — Nima deding, tushuntiribroq gapir.

— Nimasini tushuntiraman. Magazinni OBXSS bosdi... Korrupsiya! Bolalar sag'ir qoladi endi.

— O'chir chakagingni, kir uyga. Ko'chada turib muncha jar solasan.

— Aa-yy... — To'ychi cho'ntagidan sigareta olib tutatdi.

— Senga necha marta aytdim, — yarim tanasini derazadan chiqarib, ukasini koyidi Malik muallim. — Nafsingni tiy, besh panjangni og'zingga tiqma, deb. Sen...

— Ey, ko'taring o'sha nasihat-pasihatingizni! — akasiga zahrini sochdi To'ychi. — Qachon sizdan jo'yali gap chiquvdi o'zi. Odam bo'g'ilib o'laman deyapti-yu, bu kishi... — To'ychi sigaretani uloqtirib, yo'lda turgan mashinasiga qarab yurdi.

— Qayoqqa? Shoshma! — Malik muallimning derazadan pastga tushib ketishiga oz qoldi. To'ychi burilib qaramadi. Gazni qattiq bosib, mashinasini g'izillatib haydab ketdi.

Malik muallim nima qilarini bilmay, turgan joyida bir zum tun qa'riga tikilib qoldi: „Endi nima qildik. Bitta-yu bitta ukam. Hayvon! Zarda qiladi-ya, yana. Qayoqqa daf bo'ldi? Turdini topish kerak, Turdini. Shundan bir gap chiqmasa...“ Shosha-pisha kavushini kiyib, narigi uyda ikki nabiraning o'rtasida yotgan xotinini uyg'otdi:

— Tez tur, Hamidingniyam turg'iz, g'izillab borib Turdini topib kelsin. — Erining ovozidagi vahimadan Risolat xolaning uyqusi o'chib, vujudiga titroq kirdi.

— Bir gap bo'ldimi? — dedi u nabiralari orasidan sirg'alib chiqarkan. — Hay, gapirsangiz-chi!

Malik muallim xotining savoliga javob bermay, xonadan chiqdi. Suyarqulning yoniga kelib, o'rinning bir chetiga o'tirdi. Chuqur uh tortib, yerga yonboshladi. Risolat xola kirdi:

— Yuragimni yorvoray dedingiz-ku! Nima bo'ldi o'zi, a?

Malik muallim qomatini rostlab, chordana qurdi:

To'ychini korrupsiya bosibdi.

— Voy o'lmasam! — Risolat xola o'z ovozi bilan qo'rq-qanday ro'molining uchi bilan og'zini berkitdi.

Jimib qoldilar.

Hamid kelib Turdi tog'asi To'ychi amakisi bilan alla-qayoqqa ketganini aytdi.

— Qayoqqa ketadi yarim oqshomda. Endi nima qildik?

— Chiroqni o'chir, joyingga borib yot, — dedi Malik muallim xotining savollariga qanday javob berishni bilmay. O'zi choponini yechmay Suyarqulning yoniga cho'zildi.

Uy ichi zim-ziyo bo'lib qoldi.

Suyarqulning ham uyqusi o'chib ketgan edi. U otasining tikan ustida yotganday to'lg'anishidan juda xunuk voqea yuz berganini sezdi. Korrupsiya yomon odam bo'lishi kerak. „Bolalarim sag'ir qoladi“, deb yig'laguday bo'ldi-ya, amakisi. Yo'g'-e... Rostanam... Axir, To'ychi amakisining oltita bolasi bor! Eng kattasi ham Suyarquldan kichik — bir sinf pastda o'qiydi. Amakisi qamalsa ular nima qiladi...

Darvoza ro'parasiga mashina kelib to'xtadi. Malik muallim shosha-pisha turib chiroqni yoqqunicha, Turdi g'ilay bilan To'ychi ichkariga kirishdi. To'ychi poygakdagi quvurlari qiyshayib yotgan cho'yan pech ustiga omonat o'tirdi-da, yerga qaragancha indamay papirosiga zo'r berdi. Turdi g'ilay esa Malik muallim bilan salomlashgach, gapning lo'ndasini aytdi.

— Ikki ming topish kerak, pochcha, ikki ming. Hozir. Bo'lmasam ish chatoq.

— Ichkariga kirishga botinolmay ostonada turgan Risolat xola bu talabni eshitib „Voy, sho'rim!“ — deb yubordi. Malik muallim xotininga olayib qaradi. To'ychi ijirg'anib po'ng'illadi:

— O‘lar holdamasdirez.

Bir yoqda To‘ychining surbetlarcha zug‘um qilishi, bir yoqda tiyinlab to‘plagan ikki mingdan ajrab qolayotgani Risolat xolani o‘rtab yubordi.

— Bu nima deganingiz, ukacha. Zamonaga qarab ish tutish kerak edi-da!

— Nimaga o‘layotgan odamning ustiga chiqib tepasiz. Bermasangiz bermang! — To‘ychi sapchib turib ketdi. Pechkaning zo‘rg‘a turgan quvurlari taraqlab yerga tushdi. Burchakni qop-qora to‘zon qopladi. Is bosgan quvurlarni tepib, chiqib ketayotgan To‘ychi akasining „To‘xta!“ degan amirona hayqirig‘ini eshitib, noiloj to‘xtadi.

— Qayt orqangga, tirmizak! — Malik muallim irg‘ib turib ukasining qo‘lidan ushlab, siltab yubordi. To‘ychi yosh boladay gilam ustiga cho‘kkalab qoldi. Erining qalt-qalt titrayotganidan kapalagi uchib ketgan Risolat xola sandiqli uy tomon g‘izilladi.

— Hammasini opke! — xotiniining ortidan baqirdi Malik muallim.

Xonaga pashsha uchsa eshitilgudek jimlik cho‘kdi. Hammalari Malik muallimning hansirashini eshitib turishar, o‘zlari esa nafas chiqarishga qo‘rqayotganday qotib qolgan edilar. Jimlikni Risolat xolaning ayvondan kelayotgan ovozi buzdi.

— Yo‘g‘amas, Xudoga shukur, bor. Nevaramning to‘yiga, deb yig‘ib yurganimiz bor. Zaril ekan, ayarmidik o‘z jigarimizdan.

Malik muallim kuyadori isi gupurib turgan tugunchani xotiniining qo‘lidan yulqib olib, To‘ychining oldiga uloqtirdi.

— Ol! Lekin bunaqa gapni boshqa tilingga olma! Ochdan o‘lsam o‘lamanki, seni tashlab qo‘ymayman. Ahmoq!

To‘ychi „do‘p“ etib yoniga tushgan tugunga bir qaradi-yu oyoqlarini yig‘ishtirib, devorga suyandi: yuzini chetga burib chuqur uf tortdi, „qult“ etib yutindi. Turdi g‘ilay darhol cho‘k tushib, tugunni yechdi.

— Xafa bo‘lmanglar. Nasib bo‘lsa bu kunlar ham o‘tib ketadi. Hisobli do‘st — ayrilmas. Yerdan topsang ham sanab ol, deganlar.

Malik muallim ko'z ilg'ar-ilg'amas bir abjirlik bilan pul sanayotgan Turdiga qarab turib, g'alati bo'lib ketdi. „Bu nima? Porami? Yo'g'-e... Nega, yo'q? Kimgadir poraga beriladi-da bu pullar, poraga... To'ychini saqlash uchun. Gunohini yopish uchun. Pora... Pora desa, poraxo'r desa, tepa sochi tikka bo'lib ketardi. Mana endi mo'ltayib tomosha qilishini... Tavba deyish kerak ekan, tavba...

Bo'yi past, boshini iyagi aralash qora shol ro'mol bilan tang'igan Robiya — To'ychining xotini hovliqib keldi. U yig'idan qizargan ko'zlari bilan uydagilarga birrov nigoh tashladi-yu:

— Ukachangizni Xudo urdi, ovsin, — deya ho'ngrab, Risolat xolaning yelkasiga osildi. Risolat xola:

— Qo'ying, qo'ying, — deb uni ovuta boshladi.

— Bas! O'kirma! — Xotiniga o'shqirdi To'ychi. — Bolalarni tashlab nimaga sang'ib yuribsan? Jo'na uyga!

Robiya shishgan qovoqlarini yengiga arta-arta qora baxmal nimchasi ichidan gazetaga o'rog'liq bir nimani olib eriga uzatdi:

— Bir yarim ming. Akamdan opkeldim... — burnini tortib, yana yig'lab yubordi.

— Men senga pul top dedimmi? Sen...

— Olaver. — To'ychining gapini bo'ldi Turdi g'ilay. — Bunaqa mahalda ziyon qilmaydi. — Qani, tur, ketdik, ish-qilib ishimiz o'ngidan kelsin. — Shunday deb ikkovlari chiqib ketishdi.

— Men necha marta aytdim bu ahmoqqa, nafsingni tiy, ko'zingga qara, — deb. — Jig'ibiyron bo'ldi Malik muallim. — Mana oqibati.

— Qiron kelsin tomorqasigayam. — Yozg'irdi Risolat xola. — Men hadeb tomorqa, tomorqa demasam, shu gaplar bo'lmasmidi.

— Qamaladi, sog' qo'yishmaydi endi, — deb hiqilladi Robiya. Malik muallim yana „qult“ etib yutindi. „Xafa bo'lmang, kelin, nasib bo'lsa hech nima qilmaydi“, demoqchi edi-yu, lekin beixtiyor og'zidan:

— Qilmishiga yarasha jazosini tortadi-da! — degan so'zlar chiqib ketdi.

— Hali siz... akam deb yursak... — Robiya yuzini qo'llari bilan to'sib o'ksib-o'ksib yig'ladi.

— Nima balo, yuragingiz kesak bo'pqoldimi? — Risolat xola eriga yalinchoq boqdi. Malik muallim tutaqib ketdi:

— Yegandan keyin qusadi-da, ha!

Robiya birdan yig'idan to'xtadi, qo'lining orqasi bilan ko'z yoshini sidirib, Malik muallimga tik qaradi:

— Sizni deb, sizni deb shu ko'rgilikka duchor bo'ldi, aka, bildingizmi?

— Ni-ma?! Malik muallim yalt etib keliniga qaradi. Birov bigiz suqib olganday ko'kraging osti sanchib og'ridi.

— Ha-a?! Qanday bo'larkan. Kim qo'yuvdi sizga rais bilan o'ynashishni! — Robiya sira tap tortmay Malik muallimning yuziga ta'na toshlarini otaverdi. — Ukani do'zaxga tiqib, tilni bir qarich qilishini ko'ring. Siz aybdorsiz, siz!

— Bobillama! — umrida birinchi marta kelinini sansirab yubordi Malik muallim. — Rais o'chini mendan olmay, sendan oladimi, zang'ar!

Robiya Malik muallimnikidan qolishmaydigan bir g'azab bilan ilkis javob qaytardi:

— Sizdan? Nimangizdan?! So'ysa bir tomchi qon chiqmaydi-yu... Ikki ming berganga joningiz chiqib ketdi-ku. Qo'rqmang, yeb ketmaymiz, yetsa molim, yetmasa jonimni sotib to'layman! — Robiya ortiga keskin burilib, tashqariga chiqib ketdi. Risolat xola unga ergashdi:

Malik muallimning biqinidagi og'riq shunday zo'raydiki, xuddi birov pichoqni sopigacha tiqib buraganday bukchayib qoldi.

Ko'rpadan boshini chiqarib yotgan Suyarqul irg'ib turdi.

— Ota! — dedi qo'rquv bilan otasini suyab. — Ota!

— Suv... suv ber, bolam...

Suyarqul tokchadan choynakni olib otasiga tutdi. Malik muallim choynak jo'mragidan ikki-uch qultum sovuq choy ichdi. Sudralib borib, to'shakka cho'zildi. Tashqarida Risolat xolaning: Qiron kelsin tomorqasigayam“, deb qarg'agani eshitildi. Uyg'a kirib choynak ushlab turgan Suyarqulni ko'rdi.

— Seniyam uxlatishmadimi, qurib ketsin barisi. Bor, yot. Chiroqni o'chiraman.

— O'chirma, — chappa qarab yotgan joyida xirilladi Malik muallim. — O'zim... so'g'inroq o'chiraman.

Risolat xola birpas kalovlanib turdi-yu, chiqib ketdi.

Birozdan keyin Malik muallimning biqinidagi og'riq xiyol bosildi. Bir-ikki marta chuqur-chuqur nafas oldi. Hamon qaltirayotgan qo'li bilan o'g'lining kalta, tikandek sochini silab;

— Uxla, — dedi astagina. — Ertaminan maktabingga kech qolasan.

Suyarqul hozir otasiga bir og'iz yaxshi gap aytish zarurligini his etdi. Ammo harchand bosh qotirmasin, o'sha bir og'iz gapni topolmadi.

Malik muallim deraza tomonga o'girildi. To'rdagi deraza oldida ustiga guldor kleyonka dasturxon solingan sarg'ish stol turardi. Stolda kundalik gazeta va jurnallar taxlab qo'yilgan. Uning o'ttiz yillik ish stoli bu. O'ttiz yil shu stolda darslarga tayyorlandi: kitob titdi, gazeta-jurnal varaqladi, konspekt yozdi. O'n besh yillik konspektlari, ish planlari hozir ham anavi yerda — ikki tokcha o'rtasidagi qizg'ish shkafda turibdi. Tokchalar ilgari har xil kitoblar, darsliklar bilan to'la bo'lardi. Pensiya chiqqandan keyin maktabga berib yubordi hammasini. Alisher Navoiy bilan Muqimiyning suratigina ilingan joyida — tokcha tepasida qoldi. Bu ikki shoirni jonidan ortiq suygani uchun hech kimga bermadi. U Navoiy bilan Muqimiyning o'nlab g'azalini yod bilardi. Uning dars o'tishiga, she'r o'qishiga havas qilmaydigan odam yo'q edi maktabda. Dars o'tish metodini umrida birinchi marta „bo'lmaydi“ga chiqargan odam Nazarov bo'ldi.

Nazarov, Nazarov... Mushtdayligidan biladi uni. Cho'pday ozg'in, doimo burni oqib yuradigan bola edi. Yuqori sinfda birdan o'zgardi: tirishqoq, tinib-tinchimas, har sohada o'zini ko'rsatishga ishqiboz. Institutda ham yaxshi o'qibdi. Gapi rost bo'lsa, diplom qo'liga tekkanidan keyin domlalar unga „Qoling, sizdan zo'r olim chiqadi“, deb ko'p yalinishibdi. Nazarov „Olisning donidan yaqinning somoni yaxshi“, deb to'g'ri o'zi o'qigan maktabga kelgan. Bir yilda

kabinetini shu darajada o'zgartirib yubordiki, ko'rsangiz, tarix muzey deysiz. Uning kabinetida ikki marta tuman o'qituvchilarining o'quv ko'rgazmasi o'tkazildi.

Malik muallim sobiq o'quvchisi bilan faxrlanardi. Bir marta darsini kuzatganidan keyin... Avvalo, sinfdagi jihozlar yoqmadi unga. Xuddi kelinchakning uyi. Ortiqcha bezaklar o'quvchining fikrini bir nuqtada jamlashga xalaqit beradi. Dars ham... „Juda past saviyada o'tdingiz darsni, — dedi Malik muallim darsdan keyin Nazarovga. — Bu usulingiz, kechirasiz-u, ura-uradan bo'lak gap emas“. Begmat iljaydi: „Har kimning o'z metodi bor, domla. Kamchiliklarimizni sizday ustozlarga qarab tuzatamiz-da, sekin-sekin“.

Shu orada Nazarov lop etib ilmiy bo'lim mudirligiga ko'tarildi-yu, xatolarini tuzatishga vaqti yetmay qoldi. Direktor bo'lganidan keyin esa dars berishni butunlay yig'ishtirdi. Endi uning uchun boshqalar dars o'tadi, direktor bo'lsa maktab shuhratini oshirish bilan ovora. Har ikki gapning birida: „Bu yil birorta o'quvchi ham „2“ olmasligi kerak. Men tuman Xalq ta'limi bo'limiga yuz foiz o'zlashtirishga erishamiz, deb va'da berganman“, — deb ta'kidlaydi. Kunlarning birida direktor Malik muallimni kabinetiga chaqirtirdi. Ularning o'rtasida ilk marta keskin tortishuv bo'ldi: „Bir sinfda ikki o'quvchiga „2“ qo'yibsiz“. „Bilmaganidan keyin...“ Sizdan nima ketdi, „3“ qo'yib yuboravermaysizmi, magazinchimidingizki, rastarat qilaman, deb cho'chiysiz“. „Yolg'ondakam, oshirib baho qo'yolmayman“. „Judayam soz. O'qiting, o'rgating. Domla, sizni hurmat qilaman, lekin ish-ish. Agar „ikki“laringizni tuzatmasangiz, masalangizni kengashga qo'yaman!“ „Ikki“lar meniki emas“. „Farqi nima? Tuzating kengashgacha“.

Kengashda Malik muallim yigirma besh yil badalida birinchi marta ogohlantirish oldi.

Bu ustoz-u shogird o'rtasidagi ilk to'qnashuv edi. Ikkinchisi yil oxirida yuz berdi.

„Viloyat Xalq ta'limi bo'limi bilan talashib-tortishib, to'rtta medal undirdim. Shunga nomzod tanlayapman. Siz kimlarni tavsiya qilasiz? — dedi direktor qo'lini qo'lga ishqab. — Bir maktabdan to'rtta medalist. Zo'r-a!“.

„Bitiruvchilar orasida bittayam arziydigani yo‘q“.

„Yo‘q?“ — Bu nima deganingiz. Hech bo‘lmasa mening fanimdan, deng!“

„Ana, siz aytganchalik bo‘la qolsin“. — Baribir emasmi?!“

„Yo‘q, baribir emas! Maktabning, jamoaning obro‘yi bor o‘rtada. Yuqori maktabni qancha o‘quvchi tamomlaganiga qarab emas, nechta bolaga medal berilganiga qarab baho beradi ishimizga. Siz... Domla, keling, bekorga tortishib o‘tirmaylik. Medal oladiganlarning bittasiyam adabiyotchi bo‘lmaydi. Texnika oliy o‘quv yurtlariga kiradi. Shunday bo‘lgandan keyin... Jurnalning uch-to‘rt joyini tuzatsangiz nima qipti“.

„Gap bunday, hurmatli direktor. Men jurnalga tegmayman. Men qo‘ygan baholarga bironing qo‘l tegizishiga ham yo‘l qo‘ymaymiz!“

Nazarov yomon o‘chakishgan edi shunda Malik muallim bilan. O‘sha yili jamoa xo‘jaligiga katta lavozimga o‘tib ketdi-yu, hammasi unutildi. Hatto ketar chog‘i: „Sizni biroz ranjitdim, bizdan o‘tgan bo‘lsa, kechiring“, deb uzr ham so‘radi. Xullas o‘rtadagi choh yillar o‘tishi bilan tuproqqa to‘lib, tekislanib ketgan edi. Mana endi yana kovlanyapti. „Kim kovlayapti, kim? Yana o‘sha. Shoshma, — Malik muallim to‘satdan hushyor tortdi. Kelinining achchiq kesatig‘i quloqlari tagida jaranglab ketganday bo‘ldi: — Rais bilan o‘ynashishni sizga kim qo‘yuvdi. Siz aybdorsiz, siz!“ „Men?.. Yo‘g‘-e...“ Malik muallim miyasini kalamushday kemirayotgan iztirobli o‘ylardan qutulmoqchi bo‘lib ko‘zlarini yumib oldi. Ammo kelinining kesatig‘i go‘yo ilonga aylanib, naq miyasidan chaqdi, og‘u asta-asta butun vujudiga yoyila boshladi. „Kelinning gapi rost, — dedi unga begona bir ovoz. — Sendan, to‘ridan go‘ri yaqin cholning nimangdan o‘ch oladi? Bolalaring ham o‘zingday toleyi past chiqdi — ularda na amal bor, na unga havas. Urug‘-aymog‘ingda To‘ychidan bo‘lak pichoqqa ilinguday odam bo‘lmagandan keyin...“ „Odam bolasi shunchalik ham pastkash bo‘ladimi! — Malik muallimning a‘zoyi badani qizib, tanasi laxcha cho‘g‘ga aylanib bormoqda edi. — Tag‘in rais — jamoa xo‘jaligining otasi emish. Ey, dunyoyi qo‘tir... — u og‘ir tin oldi. — Nima keragi bor edi To‘ychiga teginishning? Axir, uning odati

ma'lum-ku! Birovga kanaday yopishsa, o'la qolsa qo'ymaydi. Janjal katta bo'ladi endi, judayam katta bo'ladi". „Janjal o'chog'iga o'tin qalayotganlarning birinchisi o'zingmasmi? — yana eshitildi begona ovoz. — Tomorqa ololmay, laqillab qolganingdan keyin..." „Men haqiqat yuzaga chiqsin degandim". „To'xta! Shu paytgacha qaysi kovakda berkinib yotgan eding?! Bexabarmiding shuncha gapdan. Yo'q, xabaring bor edi, har kuni eshitar eding. Lekin kar-u ko'rlikka olarding o'zingni". „Gaping qiziq bo'ldi-yu, — yon bergisi kelmadi Malik muallim. — Na sonda, na sanoqda yo'q menday qari chol qanday qilib olishadi tog'day ajdaholar bilan". „Qanday olisharmish. „Olishyapsan-ku baloday". „Majbur bo'ldim. Chidayolmadim!" „Ha-a, barakalla, bu endi boshqa gap. Senga o'xshash loqayd kimsalarning fojiasi ham ana shunda — birov tumshug'iga solmaguncha mudrab yuraveradi. Tayoq yegandan keyin esa..." „Men ishonmasdim, eshitar-dim-u, lekin ishonmasdim ko'zbo'yamachi, qallob kimsalar borligiga". „Opqoch-a, opqoch! Shu gapimga birov ishonadi, deb o'ylaysanmi. Chuchvarani xom sanabsan. Bilarding, boshqani bo'lmasa ham Nazarovni besh qo'lday bilarding. Faqat „Sen menga tegma, men senga“, deb beparvo qo'l siltab yurarding. Qadr-qimminatingni haqorat qilishgach, noi-loj kovlashga tushding. Kovlab-kovlab kuching Farmon fermaga yetdi. O'g'riboshi Nazarov esa..." „Qo'ymayman uni ham!" „Qo'yma". „Faqat To'ychi..." „Ha-a, ana endi o'zingga kelding. To'ychi kim? O'g'ri! Odamlarni aldab, cho'ntagini qoqlab yurgan o'g'ri. Sen bo'lsang... E, o'rgildim sendaqa haqiqatgo'ydan". „Nima qilay, axir?! To'ychi ukam, jigarrim..." „Ha-a, qanday bo'larkan? Pichoqni o'zingga ur, og'rimasa birovga. Aslida, o'zing ham o'g'ri-kazzoblarning birisan". „Yolg'on! Tuhmat!!!"

Malik muallim tun bo'yi tikan ustida yotganday to'lg'anib chiqdi.

IX

Bugun yana ko'ngilsiz voqea yuz berdi: ikki yildan buyon bir partada o'tirib kelayotgan Gulsum he yo'q, be yo'q: „Men Suyar bilan o'tirmayman“, deb Masturaning yoniga

o'tib ketdi. Qiz bola shunaqa qilib tursa, odamga yomon alam qilarkan. Nega bunday qildi? Tushunolmadi. Tanaffusda Mavlonga dardini yormoqchi edi, u ham chap berdi. Chizmachilik darsida bundan besh battari bo'ldi: Saodatning flomasteri yo'qolib qoldi. Mamayusufning qistovi bilan portfellar tintuv qilindi. Yo tavba! Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, flomaster uning — Suyarqulning portfelida yotardi... Olti yil bir sinfda o'qib, „o'g'ri“ligini bilmagan bolalar Suyarqulga qarab hayron qolishdi. „Ishonging kelmaydi-ya!“ — Oshkora hayratlandi kimdir. „O'g'ri?! Bo'lishi mumkin emas“, — uning yonini oldi Omon. Suyarqulning o'zi bo'lsa yer yorilmadi-yu yerga kirib ketmadi. Flomaster qayoqdan portfeliga tushib qolganini o'ylayverib, boshi og'rib ketdi. Keyin... Portfelida turgan „Kapitan Grant bolalari“ kitobi g'oyib bo'ldi. Maktab kutubxonasidan olgan edi. Qidirmagan joyi qolmadi. Darsdan so'ng uyga ketayotganda esa... Maktabning orqasidagi ariqda loyga belanib yotgan kitobini ko'rib, yig'lab yuborayozdi. Axir, u hech kimga yomonlik qilmagan edi-ku!.. Birdan papkalar tintuv qilinayotganda Mamayusufning „Hammani o'g'ri deb gumonsirab nima qilasizlar, o'g'ri ana!“ deb Suyarqulni ko'rsatgani esiga tushdi. „Shu, shu qilgan!“ degan fikr miyasiga urildi. Undan boshqa hech kim bunday qilmaydi. Shoshmay tur hali“.

X

Qasos! Uning fikr-u zikrini ana shu so'z egallab oldi. Har minutda ming xil rejalar tuzadi. Oxiri yakkama-yakka uchrashishga ahd qildi. O'zini kinolardagi qasoskor qahramonlardek tutib, raqibining iziga tushdi. Darsdan keyin orqasidan borib, muyulishda shartta yelkasidan ushladi, siltab o'ziga qaratdi. Suyarqul Mamayusufning oldida qiltiriq ko'rinsa ham o'nta Mamayni pachaqlagudek qudrat sezardi hozir o'zida.

— Qo'lga tushdingmi, bochka! — uning vajohati Mamayusufni dovdiratib qo'ydi.

— Qo'yvor, ko'ylagimni yirtasan, — dedi Mamayusuf ketiga tislantib, — qo'y deyaipman senga!

— Yo'-o'q. Hozir menga yo nimaga kalaka qilmoqchi bo'lganingni aytasan, yoki... — Suyarqul uni bor kuchi

bilan siltab o'ziga tortdi. Bir nima „shirr“ etib yirtildi. Mamayusuf yelkasiga qarab, ko'ylagining yirtig'ini ko'rib, birdan Suyarqulning yoqasiga tirmashdi. Yoqalashib ketishdi. Suyarqul raqibining zarbalariga dosh berolmay, chekinib borib, yo'l chetidagi ariqqa chalqanchasiga yiqilib tushdi. Mamayusuf uning ustiga minib oldi. „Tamom, o'ldim“. Suyarqul ko'zini chirt yumib, qo'llari bilan yuzini to'sdi. Lekin xuddi shu payt kimdir uning ustida pishqirib turgan Mamayusufni koptokday tepib yubordi. Sapchib turgan Suyarqul, Mamayusufning ustiga minib olgan Jalolni ko'rdi. Ko'rdi-yu, bir hamlada uni itarib yubordi. Fursatdan foydalangan Mamayusuf tura solib, ura qochdi.

Mamayusufni ancha yergacha quvib borgan Jalol, hansirab qaytib kelgach, Suyarqulga zahrini sochdi:

— Nega unday qilding, ahmoq?

Suyarqul indamay ust-boshini qoqaverdi.

— Shu bochkadan tayoq yeb o'tiribdi-yu, tag'in...

— Ishing bo'lmasin. Aralashma! — uning gapini cho'rt kesdi Suyarqul. — Bildingmi? Mening ishimga aralashma.

— Kallang bormi?!

— Yo'q!.. — Suyarqul qarindoshiga yovqarash qildi. Tuproqqa belanib yotgan papkasini olib, changini artdi.

— E-e, menga desa o'lib ketmaysanmi? — deya qo'l siltadi jahli chiqqan Jalol.

Ikkovi ikki tarafga ketishdi.

Jalol tufayli kaltakdan qutulib qolgan bo'lsa ham u qarindoshidan norozi edi. Endi Mamayusufning tili o'n qarich bo'ladi.

Ertalab turgan Suyarqul ariqda bet-qo'lini yuvayotgan edi, Hamid akasining eshigi taraqlab ochilib, chechasi uydan otilib chiqdi: bir qo'lida katta tugun, bir qo'lida nimcha, supada turib, ochiq qolgan eshikka qarab qarg'ana ketdi:

— Ig'vogarlar, ichi qora pismiqlar! Odamgarchilik borakanmi senlarda. Men it, shuncha yil chidabman tag'in. Bo'ldi, ketaman! Yelkamning chuquri ko'rsin moxov tekkan bu uyni!

Malik muallim go'ng to'la zambilg'altakni go'ngtepa tomon surib borayotgan, Risolat xola sigir sog'ayotgan joyida

hang-u mang bo'lib, qotib qolishdi. Kelin jadallab hovli-
dan chiqib ketguncha sas-sado chiqmadi ikkovidanam. Keyin
biri zambilg'altagini, biri chelagini tashlab, darvoza tomon
hovliqishdi.

— Kelin, hoy, aylanay, to'xtang, — kelin allaqachon
hovli-dan chiqib ketgan bo'lsa ham Risolat xola yalinib
kelaverdi. Shu payt Hamid uydan chiqib onasini to'xtatdi.

— Ovora bo'lmang, ena, baribir qaytmaydi.

— Nimaga qaytmaydi, bolam, saharlab nega urishdinglar?

— Urishganimiz yo'q biz. Ana, otamdan so'rang, aytib
beradi hammasini.

— Men... Nimani aytaman? — hayratdan ko'zlari olaydi
Malik muallimning.

— Nimani bo'lardi, otasining ustidan yozganingizni-da.

— Kim yozibdi? Nima deb valdirayapsan, ahmoq!

— Bilmaslikka oladi-ya. Yozibsiz-ku, qudam bir moshin
g'ishtni hujjat-pujjat so'ramay tushirib oldi, deb. Kecha kelib,
bitta qo'ymay opketishibdi sizga rahmat aytib.

— Miyang bormi, qaynatangning qishti bilan nima
dardim bor?

— Qo'ying-e, ota. Yozaman desangiz, boshqa gap qurib
ketuvdimi.

— Hoy, inson, yozganim yo'q deyapman, senga. O'lim-
dan xabarim bor, lekin bundan bexabarman.

— Usta Murodning yog'ochini ham men yozmagan-
man, dersiz hali? Kecha unikiniyam opketishibdi. Sharmanda
bo'ldik, ota!

— Sen... hayvon, shu gaplarga ishonib yuribsanmi, hali!

— Ko'chada yurgiligimiz qolmadi sizning yoz-yozingiz-
dan. Siz...

— Yo'qol ko'zimdan! — o'g'liga tutaqib baqirdi u. —
Mendan nomus qiladigan bo'pqoldingmi hali.

Ket, daf bo'!

— Ketaman, ota. Haydamasangiz ham yurolmayman
endi bu qishloqda.

Hamid shaxt bilan ko'cha tomon yurdi. Dovdirab qolgan
Risolat xola orqasidan chopdi:

— Hamid, bolam!

— To'xta, borma! — xotiniga alamli hayqirdi Malik muallim. — Kerakmas, kerak... — Malik muallim to'satdan ko'kragini changallab, qujanak bo'lib o'tirib qoldi. Qo'rq-qanidan rangi quv o'chgan Suyarqul chopib borib otasini suyadi. Ichkaridan Nasim bilan xotini yugurib chiqishdi. Malik muallimni uyga olib kirib, o'ringa avaylab yotqizishdi. Yuzi dokaday oqarib ketgan Malik muallim bir qultum suv ichganidan keyin arang ko'zini ochdi.

— Men... emas, men emas, bu qanday balo! — deya ingradi u.

XI

Katta yo'l bo'yidagi oshxonada g'ala-g'ovur avjida. Xo'randalar bir stol atrofida beshta-oltitadan bo'lvolib, ovqat-lanyapti. Bir qo'lida kosa, bir qo'lida qoshiq, ko'zlari olazarak joy izlayotganlar burchakdagi butun boshli stolni egallab o'tirgan ikki kishiga ijirg'anib qarashadi: „Onangning uyimi bu, yalpayib o'tiraverasan. Qorning to'ydimi, bo'shat-da, joyni!“ Ikki kishining esa hech kim bilan ishi yo'q, tamaki buruqsitib, o'zlaricha allanimalarni berilib muhokama qilish-yapti. Oyoq ostida bo'sh shisha dumalab yotibdi. Kir-chir stolda bir taqsimcha sho'r bodring... Yog'i qotib qolgan kabob atrofida pashshalar g'ujg'on o'ynaydi.

— Onasini o'ldirdimmi, molini taladimmi, a Turdi aka! — deya boshini mastona chayqadi ularning biri.

— Akangning kasriga qolding, To'yehiboy, akangning...

— Odamgarchilik qani, aka, odamgarchilik! Og'zim endi oshga yetganda. O'nta ketdi, aka, o'nta! — To'yehi gursullatib stolni mushtladi. Idishlar sharaqlab ketdi. Atrofdagilar qiziqish aralash norozilik bilan ularga qarab qo'ydilar.

— Xabarim bor-ku, uka, hammasidan xabarim bor. Faqat chida, yana ozroq chida. Mashoyixlar aytganki, oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug' deb. — Turdi g'ilay sherigi tomonga engashdi. — Senga bir gapni aytay, Nazarov deganlaring hademay tovonimni yalaydi, ukam, tovonimni. Qani, oldik. — Cheti uchgan piyolalar bir-biriga jaranglab urildi. To'yehi sho'r bodringni g'archillatib chay-narkan:

— Nazarov! Shu itvachchani bir yoqli qilmasam bo'lmaydi, — dedi g'azablanib.

— O'ldirib nima zaril. O'zi o'ladi, o'zi, — unga dalda berdi Turdi. — Pombug'altirning kaliti akang qarag'ayni kissasida. Bir gaplarni aytib berdiki... Maymunday o'ynataman hali Nazarovni.

— Bo'lmaydi! — To'ychi yana stolga mushtladi. — Nazarovni yo'qotish kerak. Naz-zarovni!

— Pombug'altir aytdiki...

— Bug'altir-mug'altir bilan ishim yo'q. Odammas, peshka, peshka ularning hammasi. Nazarovning go'rini kovlang, Naz-zarovni!

— Nazarov, Nazarov deb buncha bo'kirmasang! Nazarovning kim bo'пти! Chuvalchang, yo'q, qumursqachalik ham joni yo'q Nazarovingni. Arslonday garillab yurgan paytlari o'tib ketdi. Zamon-zamon — bizning zamon bo'ladi endi bu yog'i. Shuni qasd qilganlarning past bo'lishi uchun ko'taramiz!

Ikkovlon bir-biriga suyanib oshxonadan chiqdi. Suvog'i ko'chib ketgan zinadan tushayotib, To'ychining oyog'i chalishdi. Agar Turdi g'ilay ushlab qolmasa, burni bilan yer tishlab qolgan bo'lar edi.

U Turdining yelkasiga osilib, qaddini rostlarkan:

— Hozir Orol qassobning to'yiga boramiz... — dedi.

— E-a, bizda to'yonasi bor edi-ku! Esingga balli, qani, yur ketdik.

Ular to'yxonaga bazm ayni qizigan paytda kirib borishdi. Yarim tanobcha keladigan joyning atrofiga qalin gilamlardan „devor“ qilingan. Qator-qator stollarning atrofi mehmonlar bilan to'la. Do'ppini dol qo'ndirib olgan novcha hofiz to'yxonani boshiga ko'tarib xonish qilyapti. Ko'rsatilgan joyga o'tirib, to'y qulluq bo'lsin qilishdi, atagan to'yonalarini berishdi. Darhol mehmonlar oldiga yangi patnis berildi. To'ychi kattalar bilan to'rdagi so'rini egallab o'tirgan Nazarovga ko'zi tushib, bir zum ikkilandi-yu, keyin so'ri yaqiniga borib, raisga qarab musiqa ohangiga moslab muqom boshladi: qoshini uchirib, qiyshangladi; qo'lini beliga tirab yelkasi-yu orqasini beo'xshov likillatdi. Bo'ldi kulgi, bo'ldi kulgi!

Nazarov o'tirgan joyida bezovtalandi, to'yxonadagilar To'y-chining emas, o'zining ustidan kulayotgandek tuyuldi unga. Sheriklarining hiring-hiringgi yaraga tuz sepganday, battar alamini qo'zitdi. Hali-hanuzgacha uncha-muncha odam rais o'tirgan joyga yaqin yo'lamasdi. Katta-yu kichik uning ko'nglini olish payida, bitta imosiga mahtal, hamma qo'l qovushtirib turardi. Uning ikki og'iz fatvosisiz qishloqda bironta to'y boshlanmasdi. Bugun esa...

Idora xodimlari kelganida to'y allaqachon qizib ketgan, hatto ularga ajratilgan joy ham band edi. So'ridagilar pastga tushguncha biroz tik turishga to'g'ri keldi. So'ridan zo'rg'a va og'rinib tushayotgan po'rim bir kimsaning, „Katta bo'lsa o'ziga, vaqtida kelish kerak-da, deb to'ng'illashi Nazarovga ayil botdi. „To'ying boshingdan qolsin“, — deb chiqib ketmoqchi bo'ldi-yu, yana shaytonga hay berib, yuqoriga ko'tarildi. Lekin dasturxonga qarab bo'lmasdi: sho'rdanak po'choqlari-yu, tovuq go'shtining suyaklari, papiros qoldiqlari... Ko'rpachaning ikki-uch joyiga choymi, nimadir to'kilgan, ho'l. Nazarov kimga achchiq qilayotganini o'ziyam tushunolmay, sheriklarini turg'izdi-da, ko'rpachaning teskarisini ag'darib to'shadi. To'y egalaridan birontasi irimiga bo'lsa ham „nima bo'пти?“ deb so'ramadi. O'shandan buyon to'yda emas, azada o'tirganday dili xufton edi Nazarovning. To'ychining tomoshasi o'lganning ustiga chiqib tepgandan battar bo'ldi.

— Ho'-y, Qosim! — dedi u xizmat qilib yurgan yigitga zarda bilan. — Manavi itni haydasang-chi, harom qilib tashladi-ku hamma yoqni!

Qosim yetib kelgunicha To'ychi o'yinni to'xtatib, so'rini aylanib o'tdi-da, Nazarovning oldiga bordi. Cho'zilib dasturxondan sharob to'la piyolani oldi.

— Rais to'r-ra! Sizam o'lasiz, bizam. Ke, bevafo dunyoda bir cho'qishtiraylik.

G'azabdan Nazarovning tili aylanmay qoldi. Dasturxon chetidagi yarimlagan shishaning bo'ynidan changallab joyidan qo'zg'alayotganida O'sar buxgalter irg'ib turib, yelkasidan bosdi:

— Rais bobo, shaytonga hay bering, o'tiring. — U Nazarovni ovutish barobarida tirjayib tekin tomosha ko'rayotgan Qosimga dag'dag'a qildi. — Maymun o'ynatyaptimi, enag'ardi bolasi. Olmaysanmi bu itni!

— It! Kim it! — To'ychi qo'lidagi piyolani qulochkashlab buxgalterning yuziga otdi. Qosim vaqtida To'ychining qo'lga turtib yubormaganida, piyola so'ri suyanchig'iga emas, O'sarning qoq peshanasiga tegib, chilchil singan bo'lardi.

Qosim To'ychini quchoqlab olib chetga tortdi. To'ychi uning quchog'idan qutulmoqchi bo'lib yulqinar va hadeb so'kinardi:

— Yaloqxo'r. Raisning laychasi!

To'ychini to'yxonadan zo'rg'a sudrab olib chiqishdi.

U yoqda: „Nima uchun To'ychini to'ydan haydaysanlar!“ deb Turdi g'ilay to'polonni boshladi. Turdini aldab-avrab yupatishguncha, xo'jalik kattalari o'tirgan so'ri huvullab qoldi. To'yxona birpas sovib turdi, keyin doira, o'yin-kulgi, qiyqiriq sadolari yana avjiga mindi.

XII

Nazarov yelkasida bosh emas, go'yo tegirmontosh olib yurganday, ertalab idoraga arang keldi. Kabinetga kirsam boshi tars yorilib ketadiganday edi. Shu sababli dam olish xonasiga o'tdi. Eshikdan kiraverishdagi ustiga qimmatbaho gilam solingan divanga behol cho'kdi. Kabinetdagi buyumlar uning toliqqan ko'zlariga go'yo begonasirab qarab turganday edi. Bugun birinchi marta o'zi bilan xonadagi narsalar o'rtasiga allanechuk yot hissiyot qutqu solganini sezdi-yu, a'zoyi badaniga titroq kirdi: „Sen bu yerda mehmonsan. Hademay o'rningga boshqa odam keladi“, deyayotganday bo'lardi sher panjali stol-stullar uning nazarida. Nazarov shiftda sovuq nur sochayotgan qimmatbaho qandilga ko'zlarini qadagan ko'yi g'ujanak bo'lib oldi — go'yo qandil hozir ustiga bosib tushadiganday edi. Obdan ezg'ilanganday bo'shshadi. Yonboshlab, kirtaygan ko'zlarini yumdi. „Bu mebellar, bu qandillar, bu bezakdor anjomlarni topguncha qancha vaqtim, qancha mol-dunyom ketdi, — o'ylay boshladi u. — Endi

barisi sabil qoladi. Yonib ketmaydimi! Hammasi behuda. Hamma-si!..“

Uzoqdan bir nimaning jiringlagani qulog‘iga chalindi. Jiringlayotgan telefon ekanini tushunguncha oradan bir necha daqiqa o‘tdi. Trubkani olgani erindi. Uzun stolning to‘rida zo‘r berib jiringlayotgan qizg‘ish apparatga ma‘yus termilib yotarkan, „Saharlab kimga zarur ekanman“, deb o‘yladi. Qo‘ng‘iroq ovozi o‘chdi. „Qani endi kechgacha shu ahvolda maza qilib yotsa. Hech kim xalaqit bermasa“. U chuqur-chuqur so‘lish oldi. Endi ko‘zini yumgan ham ediki, telefon yana jiringladi. „Ob-bo, birpas mizg‘igani qo‘ymaydi-ya. Norchuchuk qaysi go‘rda ekan. Olsa o‘ladimi. Men olmayman. Oldiyov. Kim ekan? Zarur bo‘lsam kelib aytadi“.

Eshik ochilib, kimdir ichkariga kirdi.

Nazarov istamaygina ko‘zini ochdi. Norchuchuk. Andak tashvishli.

— Ahmedov so‘rayaptilar. Hozir telefon qilarkansiz.

Ahmedovning nomini eshitgach, Nazarovning karaxtligidan asar ham qolmadi. Irg‘ib turib, apparatga yopishdi.

Qiz xonadan chiqib ketdi.

— O‘rtoq Riza Ahmedovich, salom... men... shu yerdaman, idorada... Bugunmi? Hozir... Xo‘p-xo‘p, o‘rtoq... — aloqa uzildi. Nazarov birpas serrayib turdi-yu, birdan kalavanning uchini topganday hovliqib, stol yonidagi tugmachani qattiq bosdi. Norchuchuk kelmaguncha tugmachani qo‘yvormadi.

— Tani maymoq bilan bosh bug‘altirni topib kel, — deb buyurdi eshikdan ko‘rinishi bilan Norchuchukka. O‘zi toqatsizlanib, deraza oldiga bordi. Pardani kattaroq ochib, osmonda tog‘ tomon suzib borayotgan ko‘rpaday qop-qora bulutga qaradi. „Yana qanday balo kutayotgan ekan meni. Bir oyda uchinchisi-ya...“

Bolaligida chap oyog‘ini arava bosib ketgan Tani oqsoqning kirganini rais sezmedi. Burilib, poygakda qo‘l qovushtirib turgan idora qorovulini ko‘rgandan keyin zardasi qaynadi:

— Nemisning shpioniga o‘xshab sasing chiqmaydi? Keldim desang, o‘lasanmi, ovsar!

Achchiq-chuchuk gaplarni eshitaverib qulog'i pishib ketgan qorovul sabr-qanoat bilan gapning daromadini kutdi.

— Mehmonxonani tayyorla. Kassirni top. Ayt, g'izillab bozorga tushib chiqsin. Komissiya keladi. Bor, oyog'ingni qo'lingga ol.

Tani bir gap aytmoqchi bo'lgan edi, rais baqirib berdi:

— Haliyam shu yerdamisan, cho'chqa! Chop dedim senga! — Tani yutinib chiqib ketdi. U ketishi bilan xonaga kirgan O'sar buxgalter Nazarovning avzoyini ko'rib, gap boshlashga botinolmay, raisga termildi.

Nazarov qahrli iljaydi.

— Keldingizmi. Sizning dastingizdan umrning qolganini qil ko'prik ustida o'tkazamiz shekilli, a?

— Tag'in bir gap bo'ldimi, Begmatjon?

Nazarov javob berishga shoshilmay, asta borib divanga o'tirdi. Cho'zilib o'ng tarafdagi xonaning bir tomonini egallab turgan kitob javonining g'aladonini titkilab, har zamonda bir chekadigan „BT“ qutisini oldi. Bitta sigareta olib, labiga qistirdi, yondira turib:

— Qoqqan qoziqday g'o'daymay, o'tiring! — deb O'sarga zug'um qildi.

O'sar buxgalter divanning bir chetiga omonat cho'kdi.

— Tumanda bizzi tekshirmagan idora qolmadiyov. Mana endi navbat viloyatga yetibdi.

O'sar buxgalterning ichi muzlab ketdi.

— Viloyatdan...

Nazarov sigaretani yutoqib so'rib, to'ppa-to'g'ri O'sarning yuziga pufladi. Nafas qisar kasaliga duchor bo'lgandan buyon o'zini ehtiyotlab yurgan O'sar buxgalter g'aflatda qoldi: nafasi qaytib, yo'tal xuruj qildi. Nazarov uning holini ko'ra-bila turib, yana tutun pufladi. O'sarning afti bujmayib ketdi. Boshqa odam bo'lganda yonidagi stul bilan boshiga solardi. Bu kimsan — Nazarov bo'lsa...

— Begmatjon... O'h-ho', o'h-ho'!.. Unday qilmang, bilasiz-ku... O'h-ho', o'h-ho'... jo-on uka... o'h-ho'...

Titrab-qaqshab o'xchiyotgan O'sar buxgalterga qarab turib, Nazarov rohatlandi. Sigaretani chig'anoq-kuldonga bosib o'chirarkan, mazax aralash:

— E-e, kasalingiz bor edi-ya, — dedi.

O'sar buxgalter dastro'moli bilan og'iz-burnini artdi.

— Enangni yegur shu yo'tal bir kun jonimni sug'urib oladi-da.

— Jon berishga shoshilmang. Hech bo'lmasa komissiya kepketsin.

— Kalaka qilasiz, taningiz sog'-da, — ginaxonlik qildi O'sar buxgalter. — Biz yoshimizni yashab, oshimizni oshagan odam bo'lsak...

Nazarov ijirg'andi: „Diydiyoga topgan vaqtingdan o'rgildim seni!“

— Anavilarning hisob-kitobini to'g'rilab qo'yganmisiz.

— Nimani?

— Go'shtga olgan mollarni aytyapman.

— Shundan ko'nglim sal notinchroq, uka. To'g'rilashga to'g'riladim-u, lekin iskovuchroq odam darrov topadi.

— Yuragingiz yorilmasin! Komissiyaning oldidayam shuytib o'tirsangiz, uyimga o't qo'yib yuborasiz-ku!

— Siz so'radingiz, men aytdim, rais bobo. Yigirmata mol ignamaski, bir kovakka berkitib qo'ysak.

Nazarov indayolmay qoldi.

Yil boshida go'sht rejasini bajarish uchun bozordan yigirmata qoramol sotib olindi. Har biri o'rtacha sakkiz yuz so'mdan baholangan mollarni Nazarov ming so'mdan qilib daftarga yozdirdi. Xarajatim ko'payib ketdi, degan bahonani ro'kach qilib, to'rt ming so'm foydani yakkash hamyoniga urdi. Bosh buxgalterga to'rt mingdan ortiq tiyinni ham ravo ko'rmadi. O'sar buxgalter hozir shuni raisning yuziga sola-yotgandi.

Nazarov toshbaqani minib olgan chayonday raqibining qayeriga nayza sanchishni bilolmay, birpas tajang bo'lib tur-di-yu, so'ng qo'lini bigiz qilib.

— Barisiga siz aybdorsiz! — dedi g'azab bilan. — Tomorqa deb miyamni achitmaganingizda, bu g'avg'olar yo'q edi. Endi bo'lsa, uyalmay bor aybni menga to'nkab o'tiribsiz.

— Men sizga bir nima deyayotganim yo'q-ku, rais bobo. Tomorqaga kelsak... kim bilibdi deysiz, bir parcha yerdan shuncha janjal chiqishini.

Rais unga yeb yuborguday qattiq tikildi.

— Bir narsaga hech tushunolmayapman, — dedi zaxarli tovushda. — Turdi ko'r buxgalteriyamiz hisob-kitoblarini qayerdan, kimdan olyapti?

O'sar buxgalter yelkasini qisib, o'ylanib qoldi.

— Buyuq urganday namuncha junjikasiz! Bitta yarimtadan gumoningiz bordir. Pomingiz qanaqa bola?

— Qurbonmi, yo'g'-e... Tag'in, kim biladi, deysiz. Hozirgilarning ichidagini Yaratganning o'zi bilmasa, bandasi ojiz.

— Gumonim bor o'sha bolangizdan. Ehtiyot bo'ling, oldida har nimani valdirayvermang, deb necha marta aytdim sizga. Quloq solmadingiz. Mana endi...

O'sar gapni boshqa yoqqa burib o'zini oqlagan bo'ldi.

— Buzoqning yugurgani somonxonagacha, Begmatjon. Azroil — Turdi g'ilay. To'ychi voqeasiyam ko'zini ochmadi. Qaytaga, yana bitta g'anim ko'paydi. To'ydagi qilg'ini qarang. Tuproq bilan teng qildi odamni. Tezroq bir ilojini topib tinchitmasangiz, dunyoni chappa aylantirguday shashti bor bu g'ilay o'lgurni. Malik muallimnikida har kuni maylis o'tkazarmish. Bir dunyo xatomizni topibdi. Idora faollarini tavbasiga tayantirmasam, otimni boshqa qo'yaman, deb yurganmish. Yuborgan oqsoqollarimizni ham kaltak olib quvlaganday haydab yuboribdi.

Nazarovning burun kataklari kerilib, bezovta otday pishqirdi. Yapaloq yuzlari avval ko'kardi, so'ng marmartoshday qorayib, qizargan ko'zlarida sovuq o't chaqnadi.

— Shu cholni juvonmarg qilmayin, bolalarining qar-g'ishiga qolmayin devdim. Attang, o'ziga o'zi qildi. Umringni turmada chiritmasam, sen zang'arni! — Turib borib xona burchagidagi kattakon temir sandiqni ochdi. Muhri buzilmagan bir pachka yuztalikni oldi. Salmoqlab ko'rayotganday bir muddat qo'lida ushlab turdi. So'ng sandiqni qulflab, xotirjam O'sarning yoniga kelib o'tirdi.

Pulni ko'rib, O'sar buxgalterning rangi quv o'chdi. Raisning niyati kunday ravshan bo'ldi unga. Ko'z oldiga Sulaymon brigadirning haykalday jonsiz yuzi, izillab yig'layotgan bolalari kelib, dami ichiga tushib ketdi. „Yo'q-

yo‘q“. Unaqa qilib bo‘lmaydi. Sulaymon brigadirning, bolalarining qarg‘ishi avlod-ajdodimga yetadi. Men aralashmayman. Men...”

— Oling buni, — dedi Nazarov pulni O‘sar buxgalterning tizzasiga qo‘yib. — Yana bir marta hunaringizni ko‘rsatasiz. Boshqa yo‘l yo‘q.

O‘sar buxgalter tizzasiga pul emas, bir xokandoz cho‘g‘ qo‘yilganday sapchib ketdi.

— Gunohga botgan odamman, Begmatjon, meni qiynamang, — yig‘lamoqdan beri bo‘lib zorlana boshladi u. Men bir taqvodor odam edim... Qo‘llarim harom bo‘ldi. Oqshomlari... — O‘sar buxgalter birdan cho‘kka tushib raisning tizzalarini quchoqlab oldi. — Bolangdan aylanay, Begmatjon, unday qilmang. Sulaymonning qarg‘ishi yetti pushtimga yetadi, aylanay.

Rais oyog‘iga it tirmashganday bir siltab tizzalarini tortib oldi-da, O‘sar buxgalterning yoqasidan bo‘g‘ib, qattiq siltadi:

— Tur-e! Soxt-u sumbatingdan o‘rgildim, senday taqvodorni! Bizni tandirga tiqib, yonishimizni tomosha qilmoqchimisiz hali! Diydiyoni narigi dunyoga borganda onangizga qilasiz. Ikki qulog‘ingiz bilan eshitib oling, agar aytganimni qilmasangiz, lang‘illab turgan tandirga boshingizni tiqaman. Ha! Tiqaman. — Nazarov O‘sarni itarib, turib ketdi. O‘tirib qolgan O‘sar shalviragan tanasini arang tutib, o‘zini divanga tashladi. Uning tili g‘uldurab, oyoq-qo‘li dag‘dag‘ qaltirardi.

Qiziq ustida quyushqondan chiqib ketganini anglagan Nazarov, bir zum garangsib turib qoldi. Bu odam bilan o‘rtasi buzilsa, oqibati nima bo‘lishi ma‘lum edi. Darhol tusini o‘zgartirib, „andavalashga“ o‘tdi.

— Jahl ustida qizishib ketibman, aka, — dedi u O‘sar buxgalterning yoniga kelib joylasharkan. — Shundoq mahalda bir-birimizni tushunmasak, bu yog‘i nima bo‘ladi, aka.

O‘sar buxgalter unga azroilga qaraganday hadiksirab tikildi. Rais yerga tushib ketgan pulni ehtiyotlik bilan oldida, yana O‘sar buxgalterning tizzasiga qo‘ydi.

— Gunohi mening bo‘ynimga, yo‘q demang. Sizdan bo‘lak suyanadiganim yo‘qligini bilasiz-ku, aka...

O'sar buxgalter qo'llari dir-dir titrab pulni oldi. Raisga oxirgi marta javdirab qaradi. Hech qanday najot alomati topolmagach, zo'rg'a oyoqqa turdi, birov bo'yniga arqon solib sudraganday xonadan chiqdi. U ketgandan keyin Nazarov xiyol yengil tortib, endi o'tirgan ham ediki, kasaba uyushma raisi — Baxtiyor Jo'rayev hovliqib kirib keldi.

— Bu yoqda ekansiz-ku, rais aka, izlamagan joyimiz qolmadi.

— Keling, — dedi rais xushlamaygina. — Xo'sh?

— Majlisda buxgalteriya masalasi qo'yilgan. Bosh buxgalterning hisobotini eshitmoqchimiz.

— Nima uchun endi buxgalterni?

— Ancha-muncha xatoliklar borga o'xshaydi.

Nazarovning afti burishdi.

— Menga qarang uka, — dedi u iloji boricha o'zini bosishga tirishib. — Buxgalterni o'z holiga qo'ya turing. Shusiz ham tekshir-tekshirdan boshimiz chiqmay qoldi. Malik chol bilan Turdi g'ilayning qilib yurgan ishlarini ko'rib turibsiz-ku. O'shalarni bir yoqli qilib olaylik avval.

— Buni majlisga nima daxli bor? — dedi Baxtiyor qo'rslik bilan. — Bizniki planli yig'ilish, viloyat tasdiqlagan. Undan keyin... — Baxtiyor bir nimani mulohaza qilganday birpas indamay turdi. Nazarovning sabri chidamay uni qistadi:

— Xo'sh-xo'sh?

— Malik domlaning yuziga hadeb qorakuya surtavermaslik kerakmidi. U kishining da'volarida ham asos bor.

— Shunaqa deng? — Nazarov Jo'rayevga boshdan oyoq mensimay qaradi. — Malik domlangiz to'g'ri xo'ja-yu, biz egri ekanmiz-da! „O'zimdan chiqqan baloga, qayerga boray davoga“mi, deyman bu yog'i-a?

— Birov sizni egri deb ayblayotgani yo'q-ku, Begmat aka, nega jahlingiz chiqadi?

— Malik domla haq bo'lsa, biz aybdor bo'lmay, kim aybdor bo'ladi? Bizni hech baloga aqli yetmaydigan anoyi deb o'ylayapsiz, shekilli?

— Kim oq-u kim qoraligi hali hozircha ma'lummas. Ammo xo'jalik faollari adresiga aytilayotgan har xil bo'lma-

g'ur gaplarga biz indamay qarab turolmaymiz. Xo'p desangiz, ikki-uch kishilik komissiya tuzib...

— Yana komissiya! — baqirib yubordi g'azabiga chidolmay Nazarov. — Nima balo, hammangning onang komissiya deb tanglayingni ko'targanmi, a? O'n kunda uch marta komissiya keldi. Yarim soatdan so'ng yana keladi. Kovlakovlardan boshqa tashvishlaring yo'qmi. Menga qarang, hech qanday komissiya tuzilmaydi, majlis ham o'tkazilmaydi. Qulog'imiz sal-pal tinchisin, har kun majlis o'tkazsangiz ham ishim yo'q.

— Majlisni o'tkazmasak bo'lmaydi, — o'jarlik qildi Jo'rayev. — Biz...

— Unday bo'lsa, istagan vaqtda, bilganingizcha o'tkazavering. Boshqa gapingiz bo'lmasa, sizga javob.

Rais yolg'iz qolgach, Jo'rayevning so'zlari battar nasha qildi. Shu bola ham boshga bitgan balo bo'ladiyov. Anavi ishni tezlashtirmasak... O'sha masala qo'zg'alsa, odamlarning diqqati bo'linarmidi, ungacha komissiya bilan til topishib olarmidik...

XIII

Turdi g'ilayning kayfi chog'. Keyingi paytlarda qo'li ustun. Raisga sichqonning ini ming tanga bo'lib qoladi hademay. Komissiyalar zulukday qonini so'ryapti. Bugungi xatni tekshirish boshlansin, ana undan keyin ko'rasiz tomoshani. U ming'illab qo'shiq ayta boshladi:

Qaro ko'zim kel-ey mardum!
Qaro ko'zu-um kele-ey ma-ardum...

U yog'ini eslolmadi. Boshqasini aytdi:

Og'a sog' borsangiz avval,
Otamlarga salom ayting...

Bu qo'shiqdan ham esida qolgani shu edi. O'zidan o'zi xafa bo'lib ketdi. Shu yoshga kirib, birorta qo'shiq bilmasaya. „Artistlarga qoyil. O'nlab qo'shiqlarni yod aytishadi. Raisni tinchitay, zo'r qo'shiqdan bittasini o'rganib, katta to'yda o'rtaga chiqib bir olayki...“ Qishloqqa kirgach, yo'lning

o'ng betida charm papkasini qo'ltig'iga qistirgancha engashib ketayotgan maktab direktori Berdiyevni ko'rdi. Mashinaga ilkis tormoz bosdi. Eshikni ochib, kabinadan boshini chiqardi.

— Domla Berdiyev, assalom-u alaykum, o'tiring, oborib qo'yaman.

Berdiyev Turdining yoniga o'tirdi. Qo'l olib ko'rishgach, eski charm papkasini tizzasiga qo'ydi.

— Bugun maktabga andak kech qopsizmi, domla?

— Ha, mehmon bor edi uyda. Ushlanib qoldik. O'zingiz tumanga tushgan ekansiz-da?

Turdi g'ilay bosh irg'adi.

— Ha...

Mashina joyidan qo'zg'aldi.

Berdiyev joylashibroq o'tirib olgach, hamrohiga yuzlandi.

— Ishlaringiz xushmi, Turdiboy?

— Yuribmiz, tuproqdan tashqarida.

— Turdiboy, shu, chakki ishlar bo'lyapti-da.

— Labbay? Nima qippiz, ustoz kalon?

— Nimaligini bilasiz, uka. Lekin ko'pdan beri sizga bir gapni aytmoqchi bo'lib yurgan edim. Mavridi kepqoldi, mana aytyapman. Buzg'unchilikdan hech zot baraka topgan emas.

— To'g'ri aytdingiz, domla. Osish kerak unaqa o'yin buzuqilarni.

— Bitta tirraqi tana butun boshli podani bulg'aydi. Qishloqning oti yomonga chiqib qolyapti, uka. Qo'shni qishloqlarga to'y-ma'arakaga borib, boshni ko'tarolmay qoldik. Hamma „Qishloqlaringdagi janjal nima bo'ldi?“ deb ijikilaydi. Shunchalikmas-da, axir! Sizga nima yetmaydi? Bola-chaqa bor. Ostingizda moshin. Ko'rinishingiz tuppa-tuzuk. Qilib yurgan ishingiz-chi?

— Ehha, gap buyoqda, deng? Bu deyman, raisning dumi emasmisiz ishqilib?

— To'xtat moshiningni! To'xtat deyman!

Mashina shartta to'xtadi. Berdiyev pastga tushdi. Ammo eshikni yopmay, engashib boshini ichkariga suqdi:

— Menga qarang, uka. Men xolis odamman. Tinchlik

bo'lsin, deyman. Raisgayam xuddi shu gapni aytdim. Buzoqning chopgani somonxonagacha. Senlarni chopib-chopib, rasvong chiqadi-yu, lekin ba'zi vijdonli odamlarning boshiga shilta sochayotganlarning xun qiladi odamni. Jilla qursa, Malik muallimni aralashirmanglar shu harom-xarish ishlaringga. Halol, pokiza bir odamning oti yomonga chiqmasin.

— Rahmat, ustoz, qulluq. Osmon qo'lingizda turganga o'xshaydi, ishqilib tashlab yubormang-da!

— Suf-e, senday odamga! — Berdiyev eshikni qarsillatib yopdi.

Turdi g'ilay Berdiyevni mashina bilan bir urib, qurbaqaday majaqlab tashlagisi keldi. „Shoshmay tur, seniyam surobini to'g'rilab qo'yadigan payt keladi“.

Mashinani Malik muallimnikiga burdi. Suyarqul maktabga o'tlanib turgan edi. Uni yonboshiga o'tqizib, uyiga olib ketdi. „Birpasda bitta xatni ko'chirib berasan“, deb yarim soatcha allanimalarni yozdi. Darsdan kech qolayotgan Suyarqul cho'g'da o'tirgandek zo'rg'a chidadi.

Nihoyat, Turdi g'ilay unga ruchka, qog'oz berdi. U tog'asi uzatgan „xat“ni olib, ishga kirishdi.

„Tuman Xalq ta'limi bo'limiga. 17-maktab direktori Berdiyev ustidan shikoyat“. Birdan hushyor tortdi. Bu Qodir Inoyatovich-ku! Shoshib yana qog'ozga tikildi. „Q. I. Berdiyev o'n yildan beri maktabni sog'ib ichib keladi. U boshliq bo'lgandan keyin maktabda ta'lim-tarbiyaviy ishlari izdan chiqdi. O'quvchilarning yetmish foizi „ikki“chi. Lekin ularga qonunga xilof ravishda „3“, „4“ qo'yiladi. Maktab o'rtoq Berdiyevning shaxsiy xo'jaligiga aylangan. Ukasi, kelini, jiyani shu yerda ishlaydi. O'zi direktor bo'la turib, adabiyotdan dars ham olgan. Lekin saboq o'tmaydi. Amalidan foydalanib, yosh o'qituvchilarni ekspluatatsiya qiladi“. — Suyarqulning qo'llari titray boshladi. Axir bu tuhmat, qip-qizil tuhmat-ku! Qodir Inoyatovichning qanday o'qituvchi ekanini bilmasa ham mayli edi. Eng yaxshi ko'radigan, hurmat qiladigan o'qituvchingni birov shunday deb tursa...

— Yozyapsanmi? — engashib so'radi Turdi g'ilay. Suyarqul uning mallarang qoshlari tagidagi qisq, ayyor ko'zlariga tikilib, eng yomon so'zlar bilan uzib olgisi kelar,

lekin azbaroyi g'azabi qo'zg'aganidan tili aylanmas edi. U sapchib turdi. Qog'ozni g'ijimladi, yirtidi.

Turdi g'ilayning esxonasi chiqib ketdi.

— Siz... yolg'onchi! Tuhmatchi. Tuhmatchi! — Suyarqul ko'chaga otildi.

— Voy tirmizag-ey, Hamidga o'xshab buyam devona bo'pqopti-ku! — orqasidan qichqirgancha qoldi Turdi g'ilay.

Suyarqul orqa-oldiga qaramay, boshi oqqan tomonga chopib ketaverdi.

Mol tappilari ezg'ilanib yotgan ko'cha. Anhor. Uch yonini suv qurshagan tepalik. Bir-birini suyab turgan teraklar... Suyarqul o'zi bilmagan holda „Shirin xayollar orolchasi“ga kelib qolgan edi.

U bir zum kalovlanib turdi. So'ng hamon changalidagi qog'ozni yerga tashlab, oyoqlari bilan rosa ezg'iladi. Go'yo qandaydir iflos narsadan qutulganday, qo'llarini shimiga artdi. O'zini biroz yengil his qildi-yu, yana birdan ma'yus tortdi. „Tamom! — chuqur xo'rsindi. U boshini quyi solib uzoq o'tirdi. — Hammasi tugadi“. Keyin o'z fikrlarini xuddi qirq tugunli arqonni yechgandek yecha boshladi.

„Tog'am... Bundan chiqdi Mamayusuflarning da'vosi to'g'ri ekan-da! Nahotki, otam... ham!!!“

Suyarqul otasi bilan doim faxrlanardi. Uning halolligiga, to'g'riligiga ishonardi. Endi-chi... „Bitta tomorqa, raisning ikki kalima so'zi deb, qishloqni ikki dushman guruhga ajratish...“ Odamlardan eshitgan bu gaplar qulog'i ostida jarangladi.

„Rost-da, — o'yladi u, — axir, tomorqa degani nima? Bir parcha yermi? — Yer — ana yuz, ming, million kishidan ortib-oshib yotibdi-ku! Otamni anavi g'ilay yo'ldan urdi. Yo'q! Ikkovining tili bir. Ikkoviyam... Shuning uchun odamlar yomon ko'radi bizni. „Ilg'vogar, ig'vogarning bolasi, shpionbachcha“, deydi.

XIV

Qo'ng'iroq. Bir necha daqiqali hayajonli shovqinlar. Dilni entiktiruvchi sukunat. Qodir Inoyatovich boshini o'ziga xos ravishda engashtirib kelishi...

Suyarqul partaga qapishib oldi. „Qaniydi, esidan chiqib... Yo‘q. Qodir Inoyatovich aytganini unutmaydi. Hozir turg‘izadi. Hozir...“

— Xo‘sh, o‘tgan darsimizda, ba‘zi bolalar bizga so‘z berishgan edi, shundaymi? — „Tamom!“ Suyarqul oyoqlari titrab o‘rnidan turdi.

— Men... men... haligi... — deb chaynaldi, mijg‘ovlandi. O‘qituvchi tushundi. Ruchkasini stol chetiga qo‘ydi.

— Malikov, senga nima bo‘ldi? — dedi keyin past, lekin o‘quvchilarning u yoq-bu yog‘idan o‘tib ketadigan ohangda. — Nega bo‘shashib ketyapsan? Yoki tobing yo‘qmi?

— Dars qilishga vaqti yo‘q, — luqma tashladi Hakimcha.

— „Dumaloq xat“ yozadi.

Suyarqul ovoz egasini tanib, yalt etib Mavlonga qaradi. Badani tok urganday jimirlab ketdi. U tog‘asi bilan bo‘lgan mojaroni tanaffusda, do‘stim, deb shu bolaga aytuvdi. „Qasam ichuvdi-ya...“

Sinfda shivir-shivir boshlandi.

— Jim! — qat‘iy ohangda buyurdi o‘qituvchi. — Xolmatov, o‘rtog‘ing shunday qilganini qayoqdan bilasan? — so‘radi jahl bilan.

— O‘zi aytdi. Sizning ustingizdan yozishgan ekan. — O‘zini oqladi Mavlon.

— Yolg‘on! — o‘rnidan shartta turib, baqirdi Suyarqul va bo‘shashib yana joyiga o‘tirdi.

— Sotqin ekansan! — dedi Omon.

— To‘ppa-to‘g‘ri! — Omonning fikrini o‘qituvchi quvvatladi. — Demak, o‘rtog‘ing senga ishonib sirini aytgan, sen bo‘lsang...

Og‘ir sukunat cho‘kdi sinfga.

Qodir Inoyatovich qo‘lini orqasiga qilib, partalar orasida u yoqdan bu yoqqa yurdi, deraza oldida biroz o‘ylanib turdi. So‘ngra bolalarga yuzlanib, xotirjam va qat‘iy qilib dedi:

— Omon juda to‘g‘ri aytdi. Xolmatovning bu qilig‘i xoinlikdan boshqa narsa emas! Shunday! Malikovga kelsak, parishonxotirlikka, va‘dabozlikka chek qo‘y endi. Qani, jim bo‘linglar. Shodiyev, sen javob ber o‘tgan dars yuzasidan.

Shu daqiqadan boshlab, Suyarqulning quloqlari tom bitdi. Tanaffus bo'lganini ham hammadan keyin — sinfda g'ovur-g'ovur boshlanganida sezdi. Tuyqusdan uyg'onib ketganday irg'ib turdi. Mavlonni izladi. Tulkinikiday oriq, cho'zinchoq yuzi oqarib ketgan Mavlon doska yaqinida turar, Omon unga allanimalarni uqtirar edi. U Suyarqulning bo'g'riqib ketgan yuziga, hayratdan baqraygan ko'zlariga qarab, qo'rqib ketdimi, beixtiyor orqaga tislandi. Shu payt Mavlonni dahshatga solgan voqea sodir bo'ldi. Suyarqul uning ustiga tashlandi. Ikkovi gursullab polga ag'anab tushishdi. Suyarqul abjirlik bilan yuzi-ko'zi demay raqibini mushtlay ketdi. Qizlar, „ajratinglar!“ deb chiyillashar, kimdir baqirar, kim-kimga gap uqtirar...

O'zini yo'qotib qo'ygan Suyarqul esa nima qilayotganini anglolmasdi. Hushini yig'ib qarasa — Omon mahkam quechoqlab turibdi. Atrofdan bolalar, qizlar.

— To'g'ri gap alam qildimi?

— Sotqinga buyam kam!

— Qoyil, kesakdan olov chiqdi! — degan ovozlari eshitildi. U bir siltanib, Omonning quehog'idan chiqib, o'zini eshikka urdi. Gilamga o'xshatib o'rtasi qizil, ikki cheti sariq rangga bo'yalgan uzun yo'lakdan o'qday uchib, hovliga chiqdi. Sershovqin hovlini kesib o'tib, darvozadan chiqayotganda Jalolga duch keldi. U panada G'ani degan sinfdoshi bilan papiros chekib turgan edi.

— Ha, ajina quvdimi? To'xta! — dedi Suyarqulni ko'rgan Jalol. Suyarqul istamaygina to'xtadi.

— Seni gapirib turuvdik, — Jalol tamaki so'rib sherigiga uzatdi. — Tunov kuni kim seni o'yinga qo'shmadim? Mamyusuf qildimi shuni?

Suyarqul javob bermadi.

— Attang, o'sha kuni eshitmabman-da. Haliyam qutulib bo'pti! — Darsdan keyin hov anavi yerda, tollarning orqasida kutib tur. Oldingga sudrab kelib, burnini yerga ishqayman. Ko'rasan! Mengayam qoldir. — U sherigining qo'lidagi tugay deb qolgan sigaretani yulqib olib, ustma-ust yutoqib tortdi. So'ng yerga tashlab, tovonni bilan obdan ezg'iladi.

— Ketdik, zvonok chalinganga o'xshaydi.

Suyarqul ularning ketidan kalovlanib qarab turdi. So'ngra ko'cha chetidan yurib ketdi. Maktabdan olislashgan sari o'zidan o'zi qadami tezlashardi.

Bir mahal oyog'i butalarga ilashib, munkib ketdi. Tiz-zasining ko'zi ari chaqqanday qizib og'ridi. Boshini ko'tarib, yana „Shirin xayollar orolchasi“ga kelib qolganini angladi. Butalar oralab borib, anhor yuzida lopillab turgan „qil-ko'prik“dan o'tdi-da, o'zini yerga otdi. Ammo endi istagan joyini topganda, ko'zidan qatra yosh chiqmadi. Haligina tomog'iga qadalib turgan allaqanday tugun ham go'yo erib ketgandek... yuragi bo'm-bo'sh. Dimog'iga zax aralash yalpiz hidi urildi. Tizzalarini quchoqlab, bo'tana suvning „qil-ko'prik“ka shaloplab urilishiga tikilib qoldi. Jo'ralari bilan shu ovloq orolchada o'tkazgan baxtiyor kunlari yodiga tushdi. Mavlonning kitob o'qiyotgan Suyarga mo'ltayib qarab turishlari, Mamayusufning terakdagi chumchuq uyasini buzaman deb yiqilib tushganlari, anhorda cho'milayotganlarida Hakimning bilagiga suvilon osilib chiqqani...

Suyarqul joyida turib, sekin-sekin yurib orolchani aylanib chiqdi. Shamol qiyshaytirgan gullarni to'g'riladi, na'matak yaqinidagi ikki tup chinni gulni sariqpechak bosgan ekan, erinmay terib, tozaladi. Tinimsiz uchib-qo'nib turgan kaptarlar uning har bir harakatini kuzatishar, aftidan, kaptarxonaga don-dun sepmayotgani, idishlaridagi suvni yangilamayotgani uchun Suyarquldan norozi bo'lib, o'z tillarida allanimalar deb vag'ir-vug'ur qilishar edi.

Suyarqul aylanib kelib, simto'r belanchakka cho'zilib, o'zini o'zi tebratdi. To'g'risidagi terak shoxida o'sha katta oq kaptar — Semurg' unga tikilib turardi. Qush xuddi „Senga nima bo'ldi? Birov xafa qildimi? Qanday yordam kerak?“ deb so'rayotganday g'alati qarab turardi unga. „Ishlarimiz yomon, — dedi Suyarqul xayolan unga murojaat qilib. — Juda yomon. Oxirgi jo'ram Mavlon edi. U ham sotdi meni. Birortayam o'rtog'im qolmadi sinfda. Mamayusuf aytganday yakkamoxov bo'pqoldim, yakkamoxov... — uning yuragi to'lib, xo'rliigi kelib ketdi. Ho'ngrab yig'lavoray dedi-yu, yana o'zini qo'lga oldi. — Shu qilganiga Xolmat chaqimchidan

tortib, Mamayusuf bochkagacha hammasining ta'zirini bera-man. Pushaymon yeysanlar hali, pushaymon!“ U ko'zlarini yumib, qasos olish rejalarini tuza boshladi. „Top, oldinga haydab kel ularni!“ — buyurdi Semurg'ga u. Semurg' ko'z-ochib yumguncha uning amrini ado etdi — to'rt bolani orolchaga haydab keldi. „Endi daraxtga chiqib, tomosha qil, — dedi Suyarqul qushga. — Ammo janjalga qo'shilishni xayolinggayam keltirma. Do'sti Semurg' bilan bizni urdi deb, mish-mish tarqatishdan ham toymaydi bular. Qani, do'stim, bor, boraver, senga javob“.

— Xo'sh, polvontoylar, yaqinroq kelinglar-chi? — Bolalar qimirlamadilar. — Bitta-bitta chiqasanlarmi yoki... Menga baribir. Xohla, yakkama-yakka, xohla to'rtoving baravariga. — Bolalardan yana sado chiqmadi. — Ha, Mamay, buncha taysallamasang. Vaqtida, Jalol bilan Suyarqul meni urdi, deb gap tarqatganing esingdami? Chimzordagi voqea-chi? Manavi dumlaringga „Suyarqulni urib o'ldirish kerak“ deganing esingdadir? Eslolmayapsanmi? Balki, Hakimchang eslar, a, Hakimboy?

— Anaving qarab turibdi-da, — daraxt tepasiga ishora qilib to'ng'illadi Hakimcha. — Bo'lmaganida-ku...

— Xo-xo-xo! Shu yurak bilan yuribsanmi hali! — Uni kalaka qildi Suyarqul. — Qoyil-e! Bitta qushchaga shunchami? Qo'rqma, aytdim-ku, agar meni o'ldirib qo'ysang ham u endi qo'shilmaydi. Sen bola mendan qo'rqin, mendan, Suyarbek akangdan!

— To'rt kishi shu mishiqiga masxara bo'lib o'tiramizmi? — Yuragini bosvolib, hamrohlarini gijgijladi Hakimcha. „Mamay, Juma, davay bosdik!“ — Uchovi Suyarqulning ustiga bostirib kelaverdi. Mavlon bo'lsa qulay fursatdan foydalanib qochmoqchi bo'ldi. Buni ko'rib turgan Suyarqul yotgan joyida pinagini buzmay Mavlonni mayna qilib kuldi:

— Ha, quyonbotir, siz qayoqqa? Qochib qolishni xayolingizga ham keltira ko'rmang-a! Bugun sen bolakay bilan alohida hisob-kitobimiz bor.

Bu orada raqiblar o'rtasidagi masofa yarim qadamcha qoldi. Bostirib kelayotganlarning qo'llari musht bo'lib tugil-

gan, Jumaboyning qo'lida esa o'sha — chimzorda Suyarqulning peshanasini yorishiga oz qolgan akasining kamari. Suyarqul bo'lsa hali ham pinagini buzmay jilmayib yotibdi. Ana, Jumaboy, har doimgidek birinchi bo'lib mushtlashuvni boshlab berdi: u kamarini boshi ustidan aylantirib Suyarqulning yuziga urdi. Lekin kamar hali mo'ljalga tegmasdan mo'jiza sodir bo'ldi. Suyarqul xuddi prujinaday sakrab turib ketdi. Turish barobarida Jumaboyning biqiniga chunonam tepdiki, u koptokday uchib borib, terakning shoxiga osilib qoldi. Qurshovni yorib chiqqan Suyarqul chaqqonlik bilan burilib, navbatdagi hamlaga shaylandi. U xuddi kinolardagi kurashchilarday muskullarini o'ynatib, g'alati vishilladi, qo'llarini avval ilonday buradi, keyin xuddi nayzaday raqiblariga o'qtaldi va ovozinig boricha:

— Xiy-iy!!! — deb hayqirganicha hujumga tashlandi. Qo'li bilan Mamayusufni urdi, oyog'i bilan Hakimchani tepdi. Mamayusuf daraxtga borib urilib yiqildi-yu, o'sha joyda yerparchin bo'lib qoldi. Butalar orasiga uchib ketgan Hakimchanning qayerga tushganini esa Suyarqulning o'zi ham ko'rmadi. Rangi quti o'chib ketgan Mavlon burilib qochib qoldi. Lekin Suyarqul uni „qil-ko'prik“ ustida ushlab oldi-yu, paxmoq sochidan changallab, suvga mushukday pishaverdi.

— Onajon! O'ldim! — deb baqirardi Mavlon.

— Ikkinchi marta sotqinlik qilasanmi?

— Yo'q! Tavba qildim! — Og'zidan suv purkab yalina boshladi Mavlon. — O'lay agar unday qilmayman. Pes bo'lay, moxov bo'lay!..

Suyarqulning burniga bitta xira pashsha uchib qo'naverdi. U ko'zini xiyol ochib pashshani kuzatdi: yana, naq burnining uchida, isqirt oyoqlarini pitillatib, go'yo kesak ustida o'tirganday o'yin ko'rsatyapti. Suyarqul pashshani mo'ljallab turib, joni boricha urdi-yu, o'zi ham sapchib turib ketdi. Xayolida burni paq etib yorilganday bo'ldi. Ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Anhorda yuzini yuvgandan keyingina sal-pal o'ziga keldi. Lekin qizishib ketib, xayol bilan burniga qattiq urgan ekanmi, og'rig'i hadeganda bosilavermadi. U burnini shilq-shilq tortib, yana belanchagiga borib o'tirdi. „Musht-

lashishning oxir-oqibati mana shu, — dedi o'z-o'zidan ranjib. — Bir gal burning qonaydi, bir gal peshanang qashqa bo'ladi, yana bir gal. Shoshma, hadeb qasdlashguncha, bir yerga to'planib, yaxshi gap bilan orani ochiq qilib olsa bo'lmaydimi? — Suyarqul miyasiga kelgan ana shu fikrdan quvonib ketdi. — Rost-da, — o'zicha ta'kidladi u: — Hadeb yoqalashishdan nima foyda? Yaxshisi-chi, mana bunday qilish kerak: „Mamayusuf, — deyish kerak Mamayga. — Sen, Jumaboy, Hakim, Xolmat — hammang bugun orolchaga boringlar. Judayam zarur ish bor“. Ular kelishadi, albatta, kelishadi. „Mana, keldik, — deydi Mamayusuf avval do'q urib. — Xo'sh nima deysan?“ „Men-ku, hech nima demayman-a, lekin sen, sen bochka!..“ E, yo'q, unaqada janjal chiqib ketadi. Bunday nozik paytda qiziqqonlik ketmaydi. Suhbatni mana bunday boshlagan ma'qul: „Kelinglar, jo'ralar, kelinglar. Qani, mana bunday o'tiringlar-chi. Eslaringdami, bu yerda qanday yaxshi o'yinlar o'ynaganlarimiz? Mamayusuf, sening ham esingda bordir, a? Lekin... Lekin men bir narsaga sirayam tushunolmayapman. Qani ayt-chi, sen nega meni yomon ko'rasan, a? Senga tirnoqchalik bo'lsa ham yomonlik qilgan joyim bormi? Ayt, zig'ircha aybim bo'lsa ham yashirma, hammaning oldida ayt, gunohim bo'lsa bo'ynimga olay, kerak bo'lsa kechirim so'ray. Agar aybim, senga yomonligim bo'lmasa, u holda tushuntirib ber — meni nega yomon ko'rishing, bolalarni menga qarshi qo'yishing, tuhmat qilishing, hamma-hammasining sabablarini tushuntirib ber menga! Mard bo'lsang, to'g'risini gapir, eshitsin manavilar ham. Gaplarim to'g'rimi, jo'ralar?“ — Suyarqul shu so'zlarni aytib, Jumaboyning ko'zlariga tik qaraydi. Jumaboy gapga no'noq, birdaniga aqlli gap chiqishi gumon undan. Lekin Suyarqulning so'zlaridan qattiq ta'sirlanib ketgan Hakimchanning bulbuligo'yo bo'lib ketishi aniq: „To'g'ri, gaping judayam to'g'ri, — deydi u hayajondan ko'pirib, — masalan, sen menga tariqchayam yomonlik qilmagansan. Lekin men... — u bir zum duduqlanib qoladi. — Mening gunohlarim esa oz emas. Hozir, haligi gaplaringni eshitib turib, rosti xafa bo'lib ketdim o'zimdan. Judayam

ahmoq ekanman. Endi sirayam bunaqa noma'qulchilik qilmayman. Suyarqul, jo'rajon, so'zlarimga ishon". Hakimchaning tavba-tavallosi Mamayusufni ham sayratib yuboradi. „Esi yo'q bola ekanman, — deydi u Mamayusufga ko'z ostidan bir qarab. — Ochig'ini aytsam, papkangga qurbaqa solib qo'ygan ham, sinfda xaritani yirtgan ham men edim. Mamayning gapiga kirib... Mamay, shundaymi, a?“ — Jumaboy nafrat bilan Mamayusufga tikiladi. „To'g'ri... — deydi Mamayusuf yerga boqib. — Men... men aybdorman barisiga, lekin otam, otajonim qamalib yotsa-yu, men...“ — Mamayusuf hiqillab yig'lab yuboradi. „Yig'lama, Mamayusuf, yig'lama, — deydi ichi achib Suyarqul. — Senga ham birovlar aytgan-da, otangni Suyarqulning otasi qamatdi deb. Shunday emasmi? „Ha-da, — deydi ko'z yoshini artib Mamayusuf. — O'sar amaki xuddi shunday dedi. Ular dushmanimiz, ulardan o'ch olishimiz kerak... Axir, otang ham yozgan, yozgan-da! To'g'rimi?“ „To'g'ri, yozgan, — tan oladi Suyarqul. — Lekin tuhmat qilgan emas, rost gapni yozgan otam. Otang adashibmi, birovning buyrug'i bilanmi, ishqilib xato ishlar qilgan-da, Mamayusuf. Lekin o'chingni mendan olmoqchi bo'lishlaring...“ „Bo'ldi, do'stim, bo'ldi, — yolvorguday bo'ladi Mamayusuf. — Gapirib qiynama meni. Ko'zim mana endi ochildi. Mayli, har qanaqa jazoga tayyorman“. „Yo'q, men seni jazolayman, deb chaqirganim yo'q bu yerga. Xatoni tushunganingni o'zi yetadi. Mana endi hammasi joy-joyiga tushdi. Hech kim, hech nima buzolmaydi do'stligimizni. Mamayusuf, jo'rajonim eshityapsanmi?“

Cuyarqul chuqur xo'rsindi. Uning ikki ko'zi jiqqa yosh edi. „Shu o'ylarning hammasi chinga aylanib qolsa edi-ya, — deb orzu qilib pichirladi u. — To'rtovimiz yana o'rtoq bo'lib o'ynar edik. Agar kattalar ham shunaqa qilishsa bormi?.. Rost-da, kattalar bir joyga to'planishib, qizishmay, ochiq-oydin gaplashib olishsa bo'ladi-ku! Hadeb janjal, janjal... Umuman, bu g'avg'olarning sababi nima o'zi?“

Kattalar o'rtasidagi janjal. Suyarqulning nazarida, chuqur va zim-ziyo quduqqa o'xshar edi. Hamma janjal-to'polonlarning sababi ana shu quduqning tubida. Suyarqul hozir tezroq ana shu quduqni topishni, quduqqa tushib,

la'nati to'polonlarning sababchisini inidan olib chiqib, ham-maga ko'rsatishni juda-juda istar edi...

Suyarqul belanchakka cho'zilib osmonga tikildi. Qani endi, shu paytda oq kaptari, haqiqatan ham oppoq Semurg'ga aylansa-yu, o'sha quduqqa olib borsa uni. Ko'zlarini yumdi. Xayol ko'zgisida kaptari emas, uyning bir burchagida mushtdaygina bo'lib o'tirgan otasi, uydan chiqib ketgan Hamid akasi keldi. „Akam qayerlarda yurgan ekan, — o'y-ladi u. — Nahotki, qaytib kelmasa“. Hamid o'sha ketgani-cha qorasini ko'rsatmas, qayerdaligini hech kim bilmasdi. Otasi, bechora otasi o'zini juda oldirib qo'ydi. Uzzukun uydan chiqmaydi. Deraza qarshisidagi sarg'ish stolga ko'k-sini berib, gazeta-jurnal titkilaydi. Suyarqul otasidan biror narsani iltimos qilmay qo'rganiga ham ancha bo'ldi. U yuvosh tortib, o'ychan va xomush bo'lib qoldi. U doimo bir narsani o'ylab, qandaydir og'ir bir masalani yecholmay yurganga o'xshaydi.

XV

Mamayusuf ko'z oldidan lip-lip o'tayotgan tepalarga, daraxtlarga, uylarga qarab zavqlanadi, qanotlarini patirlatib yarim yo'lda qolib ketayotgan musichalarga tilini chiqarib ka-laka qilgisi keladi. „Mashina qanday maza-ya! — o'ylaydi u. — Birpasda istagan joyingga borasan. Avtobus kutmaysan, tiqilinchda birov o'xshatib oyog'ingni bosib olmaydi. To'rt qavat ko'rpachada o'tirganday, yonboshlab ketaverasan“.

Toychoqlari borligida (otasi „Volga“ni „toychoq“ deb erkaldi) zo'r edi. Soatlab avtobus kutishmasdi. Otasi „Vol-ga“ni garajdan haydab chiqib, darvoza ro'parasiga qo'yardi. Onasi kiyinib chiqquncha, ota-bola toychoqni yaltiratib artib qo'yishardi. Keyin xohlagan tomonlariga qushday uchib ketaverishardi. Tekshir-tekshir boshlandi-yu, bir kechada uylari huvullab qoldi. Otasi toychani allaqayoqqa „gum“ qildi. Devordagi gilamlarniyam qarindoshlarnikiga qo'yib kelishdi. Mamayusufga hammasidan ham alam qilgani — motorli velosiped! Erta-indin velosipedli bo'laman deganida... Hakimchalarga maqtanmagan bo'lsayam mayliydi-ya, izza bo'lib qoldi jo'ralari oldida.

Mamayusuf derazadan boshini chiqarmoqchi edi. Shamol ko'z ochirmadi. Yumshoq o'rinda yastanib, atrofni tomosha qilib ketaverdi.

— Otam motorli velosiped obermoqchi edi, — dedi u ancha yurishgach, xuddi o'ziga gapirganday.

O'sar buxgalter orqaga yalt etib qaradi.

— Valasapit dedingmi? Valasapitam gap bo'ptimi. O'zim oberaman. Shu bugun oberaman. Valasapit minging kelganakan, bir og'iz shipship qo'ymaysanmi qulog'imga. Seni qara-yu! Bilib qo'y, sen mani o'g'linsan. Otang bilan ikkimiz bitta odam edik. O'ttiz yil bir idorada ishladik. Bitta mayizni topsak, bo'lib yedik. Otangday tanti erkak qishloqda yo'q. Padar la'nati Malik yoz-yoz qilmaganida, ayshini surib, gurullab yurgan edi. Ammo-lekin adabini beramiz hali u zakunchini.

O'sar buxgalterning gaplari Mamayusufga yoqdi. O'ziyam bir maqtanib qo'ygisi keldi.

— Biz Suyarni bopladik. O'yinga qo'shmay, chimzordan haydadik.

— Suyaring kim? — yo'ldan ko'z uzmay so'radi O'sar buxgalter.

— Malik muallimning o'g'li.

— Boplabsizlar-u! Aylantirib-aylantirib, qulog'ini tagiga solmabsizlar-da!

— Urardig-u, ursak, o'qituvchimiz bizzi urishadi-da. Shundog'am, rosa adabini berdik. — Mamayusuf oldingi o'rindiq suyanchig'iga qo'llarini tirab iljaydi: — Bir kunchi, bildirmay papkasiga birovning flomasterini sopqo'ydim. Axtar-axtar paytida topib olishdi. Shundan beri hamma „Suyar o'g'ri“ deydi uni.

O'sar buxgalter rulga yotib piq-piq kuldi.

— Yana bir kun kutubxonadan olgan kitobini ariqqa oborib tashladim. Hakimga aytuvdim, doskaga chiqqanida tagiga pero qo'yib qo'ydi. Tap etib o'tirdi-yu, voy-voylab qoldi. Ikkovlashib xo'p kulishdik.

— To'g'ri qipsan, — deb ma'qulladi O'sar buxgalter. — Malik malimning bolalariyam sen-u menga dushman. Otangni boshiga yetgan o'shalar. Bilasanmi, otangga qo'yilgan gunoh-

ni yengillatish uchun qancha pul ketdi. O'rho', valasapit zavodi sotib olsa bo'lardi o'sha pullarga. Mayli, hechqisi yo'q, bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi. Otang hademay qutulib keladi. Ammo-lekin san-u man bu yerda qarab o'tirmasligimiz kerak. O'ch olish kerak, o'ch! Bugun bir ish qilamiz, bo'ptimi. Shahardan kelaylik, aytaman. Ammo-lekin otang eshitsu, senday azamat o'g'li borligidan xo'p suyunadi-da.

Mamayusufning qo'llari musht bo'lib tugildi. Qani endi, shu payt oldidan Suyarqul chiqib qolsa-yu, mashinadan sakrab tushib boplab savalasa.

Dala-dasht, bog'-rog'lar orqada qoldi. Mashina sershovqin shaharga sho'ng'idi.

— Avval stalovoydan muzday limonad ichib, chanqov bosdi qilamiz. Keyin aeroportga boramiz. Samolyot uchib-qo'nishini ko'rganmisan?

— Yo'-o'q.

— Shu paytgacha-ya! Uylantirsa yo'q demaydigan bo'pti-yu, haligacha aeroportni ko'rmapti-ya! — yayrab kuldi O'sar buxgalter. — Otangam g'irt eksplatatir ekan-da.

Mamayusuf qizarib ketdi. Ammo quvonchi ichiga sig'masdi. Tezroq samolyotni ko'rgisi keldi. Samolyotlar osmonda qaldirg'ochday uchib o'tganini, urush filmlarda portlab ketganini televizor va kinoda talay marta ko'rgan, lekin haqiqiy samolyotni hanuzgacha ko'rmagan. „Chanqov bosdi“dan keyin „Jiguli“ aeroport tomon qushday yeldi. Bugun O'sar amakisining „o'ng yoni“ bilan turgan kuni ekan. Samolyotlarni ko'rsatgandan keyin uni bir tor ko'chada yarim soatcha mashinada yolg'iz qoldirib ketgani demasa, rosa siyladi: istirohat bog'idagi „raketa“da uchirdi. Ikki marta morojniy olib berdi. „Sport tovar“ do'konidan motorli velosiped olganlarida Mamayusufni bir ko'rsangiz edi!..

— Qalay, maza bo'ldimi? — so'radi qaytishda.

Mamayusufning og'zi qulog'ida, taassurotlari shu qadar ko'pki, ichiga sig'maydi. U:

— Zo'r bo'ldi, zo'r bo'ldi! — deya oldi xolos.

Ular qishloqqa yetib kelishdi. Mashina yengil chang ko'tarib, Mamayusufning darvozasi oldida to'xtadi.

— Kechgacha maza qilib jo'ralaringga maqtan. Kechqurun uyga kel, xo'pmi? — tayinladi O'sar buxgalter.

...Mamayusuf shom qorong'isida O'sar amakisinikiga bordi. O'sar amakisi allanimadan tashvishlanayotganday, juda bezovta edi.

Amaki-jiyan ko'chaga chiqishdi. Tashqari zim-ziyo. Oy hali chiqmagan. Har joy-har joyga derazalardan olachalpoq xira nur tushib turibdi. O'sar buxgalter Malik muallimning hovlisi yaqinida to'xtab, Mamayusufga og'irligi bir kilocha keladigan tugun tutqazdi. „Ushla, — dedi u pishillab. — Huv terakdan tomga o'tib, bostirma tagiga tiqib kelasan“.

Mamayusuf tugunni olishga oldi-yu, tomga chiqqani qo'rqdi.

— Kuchugi yomon... qopadi, — dedi u boshqa bahona topolmay.

— Kuchuk-puchugi yo'q. Taysallama, tez bo'l. Aytganimni qilsang, ertagayoq otangning dushmanidan qutulamiz. Bor, o'g'lim, boraqol, bitta-yarimta keppolmasin.

Mamayusuf terakka qarab yurdi. Qop-qora tun odamni yutaman deydi. Allanimaga urildi. Tugun qo'lidan tushib ketay dedi. Bir xayoli, uyga qarab qochmoqchiyam bo'ldi. Lekin O'sar buxgalter... Mamayusuf tugunni bilagidan o'tkazib, terakka tirmashdi. Tomga qaragan shoxga osilib, bostirma yoniga tushdi. Bostirma xuddi g'isht terganday ustalik bilan taxlangan, pichan bog'larini sug'urish mashaqqat edi. Bir bog' pichanni tortib olguncha yig'lab yuborishiga oz qoldi. Ishni bitirib, chiqqan yo'li bilan tomdan tushdi. Zo'rg'a chidab turgan O'sar buxgalter uning qo'lidan ushladi-yu, sudraganday yugurgilab ketdi. O'sar buxgalterning terlab ketgan qo'li titrardi.

— Hech kim ko'rmadi, a? — dedi O'sar buxgalter uylariga yetib kelishgach. — Ko'rmadi. Boplading. Barakalla. Endi damingni ol. Birovga g'ing dema. Ertagami, indingami yana shaharga olib boraman-a, maza qilasan. — Shunday deb Mamayusufning qo'lini qo'yib yubordi. Ushlagan joyi jiqqa ho'l bo'lib ketgan edi.

Mamayusuf uyiga, O'sar Nazarovnikiga jo'nadi.

* * *

...Mamayusuf anchagacha uxlolmadi. Ko'zini yumsa, tugun paydo bo'ladi. Xayolida tugundagi narsa bomba-yu, hozir portlab, bostirma lov-lov yonayotganday, chelak, ketmon ko'targan kishilar qiy-chuv bilan Suyarqullarnikiga qarab chopishayotganday...

Nazarovning uyquasi qochdi. Goh u-goh bu yonboshiga ag'darilib, tezroq tong otishini, katta „tomosha“ boshlanishini intiqib kutadi. Ko'zlarini yumib, Malik muallimning qanday ahvolga tushishini tasavvur qiladi. Ana u, qo'llarini yoyib o'zini oqlayapti, sutday pokman, deyapti. „Faqat, biz faktdan ko'z yumolmaymiz, — deydi badqovoq tergovchi. — Siz o'qituvchi bo'la turib... Qonun oldida javob berasiz. Xalq oldida javob berasiz“. Malik muallim g'ulduraydi. Nima deganiga hech kim tushunmaydi. Militsionerlar uni usti yopiq mashinaga tiqadilar. Xotini sochini yulib dodlaydi... — Odamlar, „attang, attang“, deb bosh chayqaydilar.

Nazarov huzur qilib kerishdi: „Esing bo'lsa, kelib-kelib men bilan dovlashasanmi, miyasi suyulgan chol!“

* * *

O'sar buxgalter ko'kragini tirab, oppoq qog'ozni bo'ya-moqda. U har bir jumalani uzoq o'ylab, keyin yozadi. Yoqmasa, birpas o'ylab turib, o'chirib tashlaydi. Yana yozadi. Qog'oz zorlanganday shitirlaydi. Pero o'jarlik qilganday qitirlaydi. „Malik jinoyatkor. U ko'p yillardan buyon...“ O'sar buxgalter qog'ozga oxirgi nuqtani qo'ygach, ikki qayta o'qidi, tuzatdi, yana boshqatdan ko'chirib, konvertga joyladi. Konvertni tili bilan namlab yopishtirdi. Ko'ngli allanechuk bezovta bo'lib, chiroqni o'chirdi. „Bu oxirgisi, o'rtoq Nazarov. Endi otib yuborsang ham... unaqa qilmayman... E Xudo, o'zing kechir. Ko'rib turibsan-ku barisini. Majburman, ilojim qancha... Yumshoq o'ringa kirib cho'zildi. Uxladimi-yo'qmi, bilmadi. Bir mahal qarasa, tong yorishib kelyapti. Apil-tapil yuzini yuvib, mashinaga o'tirdi. Tuman markaziga yetgach, mashinani yo'l chetida qoldirib, istirohat bog'iga kirdi. Prokuratura bog'ga tutash qizg'img'img' g'ishtin binoda joylashgan edi. U oto'yin atrofida yurgan bolani imlab chaqirdi.

— Oting Saidqulmasmi?

— Yo‘q. Eshmamat.

— Saidqul degan alomat bolaga juda o‘xshar ekan-
san. — O‘sar buxgalter Eshmamatning yelkasiga qoqib qo‘ydi.
Atrofga o‘g‘rincha nazar tashlab olib, qo‘ynidan paketni
chiqardi. — Juda shoshib turuvdim, shu xatni g‘ir etib
prokuror amakingga berib kelmaysanmi?

— Prokuror amaki qayerda?

— Ana, anavi eshikdan kirib: „Turopov amaki qanilar?“ —
desang, shundoq oldiga olib borib qo‘yishadi. Xo‘pmi. Men
shu yerda kutib turaman. — O‘sar buxgalter yonidan bitta
bir so‘mlik chiqarib bolaga berdi. — Ol, morojniy yeysan.

Bola ikkilanibroq pulni oldi-da, eshik tomon chopqillab
ketdi. O‘sar buxgalter tez borib mashinaga o‘tirdi. Motorni
o‘t oldirib, eshikka tikilib turdi. Bir necha minut o‘tdi,
eshikdan avval Eshmamat, keyin novcha, oriq kishi ko‘rindi.
Bu kishini O‘sar buxgalter yaxshi tanir edi. U gazni bosdi.
Mashina tep-tekis asfalt yo‘lda yeldek uchib ketdi...

XVI

To‘ychini, Nazarovni, o‘zini o‘ylayverib tongga yaqin
ko‘zi ilingan Malik muallimni xotini mushlaganday qattiq
turtkilab uyg‘otdi.

— Turing, uyimiz kuydi! Turmaysizmi?!

Malik muallimning ko‘zlari charaqlab ochildi. U yaqin-
o‘rtada xotining bunchalar qo‘rqanini ko‘rmagan edi.

— Nima gap?

— Manavini qarang. Suyaringiz bostirmadan olib tushdi. —
Xotini qizg‘ish tugunchani erining oldiga tashladi. — Nasha!

O‘tkir hid gup etib Malik muallimning dimog‘iga urildi.

— Nasha?! — qo‘llari titrab, tugunni ochdi. — Nasha-ku!
Qayerdan olding?

— Aytim-ku, Suyaringiz bostirmadan topdi, deb.

— Bostirmadan? Qayoqdan kepqopti? Suyar qani?

— Mollarga yem beryapti.

Malik muallim tugunni olib, ko‘ylakchan tashqariga
otildi. Halloslab borib, devorga tirab qo‘yilgan narvondan

tomga chiqdi. Chiqquncha ikki marta oyog'i toyib, yiqilib tushishiga oz qoldi. Orqasidan xotini ham chiqib keldi.

— Qayerdaykan?

— Manavi yerdan, bir bog' bedaning tagidan topibdi. Mollarga yem olay desa...

— Kim qo'yibdi?!

— Men qayoqdan bilay? Siz... Dushmanlaringiz qilganda. Uyimiz kuydi. Hozir melisa bosadi!

— Og'zingni yop! Tush pastga! Tez bo'!

Malik muallimga halizamon militsionerlar kelib qoladigandek tuyuldi. Oyog'i qaltirab, zo'rg'a tomdan tushdi. Yugurib uyga kirdi. Taxmondagi ko'rpa-yostiqlarni ag'darib, tugunni sandiqning orqasiga tiqdi. Ko'rpani joyiga yig'moqchi bo'ldi-yu, yana fikridan qaytdi. — Tugunni olib hojatxonaga chopdi. Hojatxonaga kirgan yerida yana ahdi o'zgardi — ketmonni olib, hovli to'riga bordi. Yer bag'irlab o'sgan husaynining tagini kovlashga kirishdi.

— Esingizni yeb qo'ydingizmi? — dedi orqasidan soyaday ergashib yurgan xotini. — Uyda qoldirib bo'lmaydi bu zormandani!

— A! Rost aytasan. — Malik muallim ketmonni otib yuborib ko'chaga yugurdi. Qishloq endi uyg'onib kelayotgan payt, ko'chalar bo'm-bo'sh. Tezroq qutulish kerak, tezroq! U oyog'i yerga tegyaptimi, yo'qmi, sezmasdi. Qishloqdan chiqdi. Anhora yetib, ko'prik ustida to'xtadi. Atrofga alang-jalang qarab qo'lidagi tugunni suvga otmoqchi bo'ldi-yu, yana fikridan qaytdi — suvdan topib olishadigandek tuyuldi. „Ajinatepaga olib borib tashlash kerak“, degan fikr tug'ildi miyasida. Anhor yoqalab borib, qil ko'prikdan o'tdi-da, tugunni butalar ichiga otib yubordi. Ajinayam topolmaydi bu yerdan. Dahshatli xatardan qutulganini sezsa ham yuragidagi g'ulg'ula pasaymaydi. „Yo tavba! Yo tavba!“ Uning bo'g'inlari, qanshari qaqshab og'rir, tomog'i quruqshigan, tili shishganday og'ziga sig'mas, yuragi gurs-gurs tepardi. Kimdan gumonsirashini bilmas, hamma narsa uni masxara qilayotganday, ko'ziga xunuk ko'rinardi. Uyiga kelib, Suyarquldan bor gapni qayta so'rab bilib olgach, vahimasi battar oshdi. Xotini uzatgan choyni har qultumi bir hovuch cho'g'day ichini kuydirib o'tdi.

— Tomorqa oling demay men o'lay, qishloqning yarmini o'zimizga dushman qilib qo'ydik, — yig'lamsirab dedi xotini. — Endi nima qilamiz, topib olishsa — tamom...

Malik muallimning nazarida darvozadan birovlar kirib kelayotganday tuyuldi. „Suyarqul aytib qo'ysa-ya!“ — degan dahshatli o'ydan yuragi to'xtab qolayozdi.

— Suyar qani? Hoziroq sigirni yetaklatib dalaga jo'nat. Kechgacha kelmasin. Belbog'iga non tugib ber. Maktabigayam bormasin. Tur, tez bo'!

— Yergina yutkur rais qilgan, — qo'zg'ala turib qar-g'andi xotini.

— Valdirama. Tuya ko'rdingmi — yo'q. Tamom.

— Nazarov: „Malik domlani yo'q qilmasam, otimni boshqa qo'yaman“, deb yurganmish. O'shaning ishi bu, o'shaniki!

— Tilingni tiy deyaqman senga!

— Raisning qo'lidan har balo keladi. Esingizdami, Sulaymon brigadirniyam shunaqa qilib, boshini yevdi.

— Bas, dedim senga! Ko'rdingmi, ushladingmi?

— Ko'nglim sezib turibdi, ko'nglim.

Malik muallim so'z topolmay qoldi. Xotini aytgan gaplarning hammasi o'zining ko'nglidan ham o'tgandi.

— Bir gap bo'lar, xotin, — dedi u og'ir tin olib. — Ammo-lekin hozircha birovga miq etib og'iz ocha ko'rma. Bolalaring, kelinlaring ham bilmasin. Suyarqul esli, tayin-lasang — tushunadi. Hech narsa bilmaganday ishingni qilaver. Agar bitta-yarimta kelib: „Uyingni tekshiramiz“ desayam, sir boy berma, ko'rsa ko'raversin. Bizni hech nimadan xabarimiz yo'q. — Malik muallim yuziga xotirjam tus berib choy ho'playverdi. Xotini uning ichidan nimalar kecha-yotganiga tushunolmay, so'rashga botinolmay, ko'ngli alg'ov-dalg'ov bo'lib Suyarqulni qidirib molxonaga qarab ketdi.

XVII

O'sar buxgalter mashinani garajga qo'yib, uyga kirdi. O'tirolmadi. Yuragi hapriqib ketaverdi. „Tekshiruvchilar kel-ganmikin? Iye, darrov kelarmidi. Tushlarda kelsayam. Balki bugun kelmas. Ishqilib tezroq bir yoqlik bo'lsin-da. Shu ish

tugasin — bo'shaydi. Dunyoga ikki marta kelmaydi-ku. Shuncha gunohga botdi — bas. Bu yog'iga chollarga qo'shilib, qarilik gashtini suradi. Axir, davlat yetarli, birovga qaram bo'ladigan ahvolda emas. Tomoshaga boradi. Dam oladi, Yalta, Sochi degan joylarga. Faqat mana shu ish tezroq bir yoqli bo'lsaydi". O'sar buxgalter bir joyda o'tirolmadi. Oxiri chidolmay ko'chaga chiqdi. Mundoq o'ziga kelib qarasa, Malik muallimning uyiga borib qolibdi. Yo alhazar! Darvoza oldida ikkita mashina turibdi. Orqasidagi raisning „Villis“i, oldindagisi begona. „Kelishganga o'xshaydi“. Tavakkal qilib to'g'ri kirib boraversamikin. Yo'g'-e, nima deb o'ylashadi. Hech nima bo'lmaganday o'tib ketaveradi.

Darvozaga yetganda ichkaridan Malik muallimning devordarmiyon qo'shnisi Jo'ra amaki chiqib qoldi.

— O'sar aka, bu yoqqa keling, — dedi u tashvishli qiyofada.

— Ha, tinchlikmi, Jo'ra amaki?

— Odamlarda imon degan narsa qolmabdi, uka. Malikday odamni nashafurush deb yozishibdi-ya! Organdan odamlar kepti. Uyini obusk qilarmish. Guvoh kerak deyishdi. Keling, ikkovimiz borib turaylik.

— Tavba qildim, — yoqasini ushladi O'sar buxgalter. — Malik domla nashafurush... Bo'lmagan gap-ey.

O'sar bug'altir Jo'ra amakiga ergashib ichkariga yo'naldi. Darvozaxonada Malik muallimning xotiniga duch kelishdi.

— Yanga, yaxshimisiz. Bir yomon gap aytdi amakimiz.

— Nimasini aytay, aka, kosang oqarmagur bir pes shunaqa tuhmat qipti domlangizga.

Molxonadan Nazarov, shofyori va odmi kiyingan ikki notanish kishi chiqib kelishdi. O'sar buxgalter ular bilan shoshib salomlashdi. Notanish kishilardan biri, O'sar buxgalterning kimligini, qayerda ishlashi-yu, qayerda yashashini yozib oldi. O'sar buxgalter yer ostidan raisga qaradi. Rais boshqalarga sezdirmay ko'z qisib qo'ydi.

— Tepaniyam bir ko'zdan kechiramiz, — dedi mehmonlardan biri. Narvondan tomga chiqishdi. O'sar buxgalterning oyoqlari qaltiradi.

— Bostirma tagida hech narsa yo‘qmikin? — raisga yuzlandi boyagi kishi. Nazarov yelkasini uchirdi. Malik muallim iljaydi:

— Nega? Bor. Og‘il bor, og‘ilda mol-hol bor.

— Shunaqa deng. Hozir ko‘ramiz-da. — Mehmon bukchayib beda bog‘larini birin-ketin sug‘urib ola boshladi. To‘rt-besh bog‘ini olib, birdan to‘xtadi. Qaddini rostlab, yonidagilarga ishshaydi:

— Yaqinroq kelinglar-chi. Bu nima bo‘ldi?

O‘sar buxgalter hammadan oldin „Yo alhazar!“ — deb yubordi.

— Nima ekan? — dedi Malik muallim xavotirlanganday. Mehmon sumkasidan fotoapparat chiqardi. Tugunchani avval u yog‘idan, bu yog‘idan chiqillatib suratga oldi, keyin avaylab olib, yerga qo‘ydi, yana suratga tushirdi. Ko‘z oldi jimirlashib, boshi aylanib, sillasi qurib pichan g‘aramiga suyangan ko‘yi toshday qotib qoldi. O‘sha ertalab o‘z qo‘li bilan Ajinatepaga tashlab kelgan tugun edi bu! Malik muallimning qulog‘iga: „Bunda nima bor, domla?“ — degan so‘zlar elas-elas eshitildi. U beixtiyor boshini sarak-sarak tebratib, arang hushini yig‘di. Tom ustidagilarning hammasi tugun atrofida qaqqayib turishardi. „Domla, yaqinroq keling“, dedi mehmonlarning badqovog‘i. U oyog‘ini zo‘rg‘a sudrab bordi. Mehmon cho‘nqayib o‘tirib oldi-da, shoshilmay tugunni yechdi. Yechdi-yu, afti bujmayib ketdi. Tugundagi narsa bir changal mol tappisi edi.

— Qiziq bo‘ldi-ku, — dedi mehmon qo‘lini qayerga artarini bilmay o‘rnidan turarkan. — Tappini shuncha e‘zoz-laysizmi, domla?

Malik muallim ko‘zlarini katta-katta ochib tugunga, keyin atrof dagilarga boqdi. Birdan yuragi to‘lib, g‘azabdan tutaqib ketdi:

— Endi kim qo‘yganini topib berasanlar. Og‘iz-burniga shuvayman o‘sha padarla‘natini! — U shunday deb o‘tli nigohini raisga qadadi. Rais murdaday oqarib ketgan O‘sarga tikilib, og‘ir yutindi.

Jo‘ra amaki bo‘lsa, qo‘shnisini oqlash bilan ovora:

— Men sizlarga aytdim-ku, bu dushmanlarining ishi

deb. Malikvoyni mushtdayligidan bilaman. Umrida bunaqa ishning ko'chasi o'tmagan.

Shu orada O'sar buxgalter ham o'zini o'nglab oldi.

— Odamlarda imon qolmabdi-ye. Shunaqayam hazil qiladimi-a! — deya sayray boshladi u. — Otish kerak undaylarni. Ossa... — Nazarovning o'grayganini ko'rib, tutilib qoldi. — Ossa ham kam.

O'sar buxgalter bu yerda o'zini ortiqcha sezdi. Yana bir nafas tursa madori qurib, pastga qulab tushadiganday edi.

— Biz endi... ketaversak ham bo'lar, — dedi O'sar Jo'ra amakiga qarab zo'rg'a. — Ish zaril edi.

— Ha-ha, sizlarga javob. Katta rahmat, — minnatdorchilik bildirdi mehmon.

O'sar buxgalter narvondan qanday tushdi, qanday uyiga yetib keldi — bilmaydi. Boshi lo'qillab og'rir, yil o'n ikki oy to'shakda yotgan odamday, tanasida darmoni qolmagan edi. O'zini to'shakka tashlar ekan. „Bilardim, bu ishning oqibati bir changal tappiga teng bo'larini, bilardim-a! Mana endi Nazarov go'shtimni yeydi!“ — deb oh urdi. Birdan nafasi chiqmay qoldi. Yuragi to'xtagandek edi. Bor kuchini yig'ib „xoti-in!“ — dedi-da, hushidan ketdi... Ko'p o'tmay yetib kelgan „Tez yordam“ mashinasi O'sar buxgalterni tuman kasalxonasiga yetkazdi.

* * *

Nazarov kasabaqo'm kabineti oldida bir zum behol turib qoldi. Qiya ochiq eshikdan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari eshitilardi. Umrida birinchi marta hamisha pisand qilmay ochib-yopadigan bu eshik tutqichini ushlashga endi qurbi yetmayotganini sezdi. U shunday bo'lishini ancha oldin — Malik muallimning tomidayoq anglagan edi. O'sar buxgalterni „Tez yordam“ olib ketganini eshitgach, ichidan zil ketdi. „Tamom! Hammasi tamom bo'ldi! Hammasi... Yemoqning qusmog'i bor deganlari shu“. Nazarov adolat hukmidan qochib qutulib bo'lmasligini his qildi. Bu ruhiy inqiroz battar quturib yubordi uni. „Yo'q! Bir o'zi go'rga kiradigan ovsar yo'q! — dedi u tishlarini g'ijirlatib. — Ochaman! Hammangning xon-u moningga o't qo'yaman. Javob berasanlar. Birinchi bo'lib sen

javob berasan, O'sar buxgalter, sen! Infark bo'lish u yoqda tursin, yuraging tars yorilib ketsa ham qutulib ketolmaysan. Sen ham omon qolmaysan, Turdi g'ilay. Sen iflos, rais ketib, men qolaman, deb o'ylayapsanmi. Bekorlarni aytibsan! Shunday boplaymanki, mendan oldinroq borib turasan o'sha joyga. To'ychi do'konchingning ham yegan-ichgani burnidan buloq bo'lib chiqadi. Malik muallimni, Malik cholni..." — Nazarov Malik muallimni to'rga ilintirgulik bahona topolmay jig'ibiyroni chiqdi. G'azab va alamdan titragan ko'yi bor kuchini to'plab, eshikni ochdi.

* * *

Keyingi ishi to'g'rimi, noto'g'rimi, Suyarqul bilmas edi. Lekin tugundagi tappini ko'rgan tekshiruvchilarning qanday ahvolga tushishini tasavvur qilganda, ich-ichidan zavqlanardi.

Ishqilib, otasi urishmasa, bas. Otasi qayoqdan bilib o'tiribdi? Hech kim ko'rgan emas, hech kim bilmaydi. Lekin ertalab tomga chiqqanida bostirmadagi o'zgarishni sezib qolmaganidami?.. „Yaxshiyamki, sezib qoldim-a, — quvonchdan ichiga sig'may borardi Suyarqul. — Agar, ko'rib turib, indamay ketaverganimdami..."

Har kungi odati bo'yicha ertalab mollarga yem olish uchun tomga chiqqan Suyarqul bostirma yaqiniga borishi bilan kimdir g'aramga tekkanini sezdi. Yerda xas-xashak qoldiqlari, bir bog' pichan g'aramdan yarim qarichcha chiqib qolgan. Xuddi birov sug'urib olgan-u, yana joyiga qo'ya olmay shu holda tashlab ketavergandek edi. „Kim tegishi mumkin? — deb o'yladi u bir bog' pichanni yerga tashlayotib. — Otam ham, onam ham tomga chiqishmaydi. Nasim akamning mol-hol bilan ishi yo'q. Yoki... — U xayoliga kelgan shubhadan cho'chib ketdi. — O'g'ri pichanning ostida nima qiladi?"

Tavakkal qilib, o'sha pichan bog'ni sug'urib oldi... Qarasa, tuguncha. „Fu-u! Hidning yomonligini“. U tugunchani ko'chaga qaratib otmoqchi ham bo'ldi-yu, yana bir otamga ko'rsatay, deb bu fikridan qaytdi. Yaxshiyamki, o'sha paytda kallasining ishlagani.

Suyarqul ola sigirini uvatga qoziqlab, orolchaga qarab ketdi. Yo'l-yo'lakay bir quchoq shox-shabba terib oldi. Orolchanning xilvat burchagida olov yoqdi. Tugunchadagini boya o'zi yashirib ketgan joyidan olib olovga tashladi. „Yomon narsalar olovda yonib kul bo'lishi kerak“. Kelib belanchagiga cho'zildi. Keyin tip-tiniq osmonga tikilib, terak barglarining yoqimli shitir-shitiriga quloq tutdi. Xuddi bir-biri bilan gaplashayotganga o'xshaydi-ya. Qiziq, nima haqda gaplashayotgan ekan bu teraklar? Balki, bostirmamizga kim tugun qo'yganini taxmin qilishayotganmikin? Kim bo'lganda ham otamga kuchi yetmaydigan, otamdan o'lguday qo'rqadigan pastkash odamning ishi bu.

Demak, otamning ishi to'g'ri. Otam — haq!

Suyarqul shu tarzda qancha yotdi, bilmaydi. Bir mahal orolchada allakimning yurganini sezib, irg'ib turib ketdi. Otasi! Yo tavba! Besh-olti qadam narida bir nimani izlayotganday alanglab turibdi!

— Ota! — deb yubordi u hayajonlanib.

Bir sakrab tushgan Malik muallim, yalt etib o'g'liga qaradi.

— Suyar, sen... Sen nima qilyapsan bu yerda?

— Yotibman, — jilmaydi Suyarqul. — Orolim-ku bu yer mening. O'zingiz-chi, o'zingiz nima qilib yuribsiz adashib?

Malik muallim o'g'lining savoliga javob bermay:

— Bir baloning isi kelyaptimi? — dedi havoni iskab.

— Ha, olov yoquvdim.

— Olov? Shu issiqda-ya?

— Yoqib yubordim, anavini.

— Nimani?

— O'sha-da, tugundagi-chi?

Malik muallim o'g'liga qaragancha baqrayib qoldi.

— Sen qayerdan bila qolding bu yerda...

— Bilaman-da, — otasining chehrasi yorishganini ko'rib iljaydi Suyarqul. — Orolchamdan pashsha uchib o'tsa bilaman, siz nima deb o'ylayapsiz.

— Hali shuncha tomoshaning barisi meniki degin? Ob-

bo, shalpanq qulog'-e! Men bo'lsam, yegan-ichganim tati-
may, xavotir olib yuribman-a?

— Ota, endi sizga tegmaydimi hech kim?

— Mengami? Nimamga tegadi mening. Lekin Turdi
tog'ang bilan To'ychi amakinggayam yaxshi bo'lmaydi.

— Nega shunday qilishibdiykin-a, ota?

— E, o'g'lim-ey, yomon odamlar bor hali. Ular to'g'-
rilikni yengolmaganlaridan keyin, mana shunaqa pastkash-
liklar qiladilar, otani bolaga, bolani otaga gijgijlab, shu yo'l
bilan o'ch olmoqchi bo'ladilar. Lekin to'g'ri bo'lsang, hech
kim bukolmaydi belingni.

— Endi Hamid akam ham kepqolar-a, ota? Tomorqa
olamiz, uyimizda hecham janjal bo'lmaydi. To'g'rimi, ota?

Malik muallim o'g'liga qarab jilmaydi.

Ko'pdan buyon otasining kulganini ko'rmagan Suyar-
qul xuddi kichkinalik paytlaridagidek yugurib borib otasining
bo'yniga osilgisi, sersoqol yuzlaridan cho'lp-cho'lp o'pgisi
keldi.

— Bu yer judayam tinch ekan, — dedi Malik muallim
atrofqa suqlanib. — Kel, birpas dam olaylik.

Ota-bola terak ostiga yonma-yon o'tirishdi.

Malik muallim yonboshlab, ro'parasida chamanday
ochilib turgan gullarga havas bilan boqdi.

— Munchayam chiroyli-ya, bu gullar.

— Ehhe, huv anavi yerda shunaqangi chiroylilari borki,
qarab to'ymaysiz. — Maqtandi Suyarqul. — Aytganday,
kaptarlarimni ko'rganmisiz? Mana hozir ko'rasiz. — U
barmoqlarini og'ziga solib, chiyillatib hushtak chaldi. Kaptar-
lar patillab, osmonga ko'tarildi.

— Ko'ryapsizmi, huv anavisini — eng balanddaxisini
ko'ryapsizmi? O'shanisining oti Semurg', kaptarlarimning eng
zo'ri o'sha!

Ota-bola orolcha ustida charx urib uchayotgan oppoq
kaptarlarga mahliyo bo'lib qarab qolishdi...

HALQA

*Katta arava qayerdan yursa,
kichigi ham shu yo'ldan yuradi.*

Xalq maqoli

Bo'ynoq so'ritok tagida mudrab yotgan edi. Tuyqusdan qattiq vovullab, darvoza tomonga tashlandi. Rashid hovliqib uydan chiqdi. Shu payt ko'cha tarafdan otilgan tosh supa chetida turgan chelakka daranglab urildi. Kimdir tashqaridan darvozani yopib oldi. Old oyoqlari bilan eshikni tatalayotgan Bo'ynoqning akillashi aralash bo'g'iq ovoz eshitildi:

— Rashid! Tirikmisa-an?!

U borib, darvozani ochdi. Rangi quv o'chgan Sobir tashqarida titrab turardi.

— Hayda-ye buningni! Yo?.. Nimaga tirjayasan? — dedi u tutaqib.

— Hah, tanimaganingni qara-yu! Bu — o'zimizning Sobir sher-ku! Qoch, chavaqlab tashlaydi-ya! — dedi Rashid jo'rttaga itga xezlanib.

Bo'ynoq kaltakdan o'zini olib qochgandek, tisarildi, lekin irillashini qo'ymadi.

Sobir deysinib, itga mushtini do'laytirdi:

— O'shanda suvga cho'ktirib yuborsam bo'larkan san itvachchani! Qarab tur hali, kuningni ko'rsataman!

Rashid piqillab kulib yubordi.

— Hiringla-ya, hiringla! Senga kalaka qilish bo'lsa...

Bo'ynoqning qorasini o'chirmasa, jo'rasining ko'ngli joyiga tushadigan emas. Rashid uni somonxonaga qamamoqchi bo'ldi. It bo'lsa hovlini aylanib qochishini, Sobirga qarab akillashini qo'ymasdi. Rashid it zotining bu qadar kek saqlashini endi ko'rib turishi. Sobirdan kaltak yeganiga, ehhe, necha yil bo'ldi-yu, uni ko'rsa hali ham jahl bilan irillaydi...

O'shanda Sobir ham, Rashid ham o'yinqaroq bola edi. Bo'ynoqning ham qulog'i kesilmagandi. „O'g'illarimiz ham o'zimizdek qiyomatli do'st bo'lishsin“, deb otalari ularni jo'ra kiritishgan. Qishloq rasm-rusumiga ko'ra to'n kiygizishib, belbog' boylashgan. Qiyomatli jo'ralar ko'pincha birga

o'ynashardi. Shunday kunlarning birida Rashidni onasi chaqirib, qandaydir yumush buyurdi. U qaytib kelsa, Sobir Bo'ynoqni ariqdagi suvga pishib, obdan savalayotgan ekan. Zo'rg'a ajratib oldi. Bo'ynoq Sobir ushlagan chumchuqni yemagan emish. Alam qilib itni qulog'idan ushlab sudragan ekan, „g'arch“ etib qo'lini tishlab olibdi. Shu-shu, bir-biriga ko'zi tushdi deguncha, ikkovining ham jini qo'ziydi.

Bu orada Xol Bo'tayevich katta ishga ko'tarilib, Sobirlar shaharga ko'chib ketishdi. Ammo u qishloqqa onda-sonda kelsa ham Bo'ynoq bilan „g'ijillashmay“ ketmasdi.

Sobir har gal fasoni g'alati kiyimlar kiyib kelar, shaharda ko'rganlarini aytib, hammaning og'zini ochirib qo'yardi. „Maktabimizda Baxti degan jo'ram bor. O'zi chillakdag-u, o'ninchidagilar ham egilib salom beradi. Karatist. Qo'li oyboltaning naq o'zi. Bir urib, qishtni ikki bo'lib tashlaydi. Shahar zo'r-da, dunyoga mashhur odamlar sen bilan yonmayon yuraveradi“.

Bora-bora „Sobir kepti“ degan gap quloqqa chalinishi bilan bolalar ishini tashlab, ularnikiga yuguradigan bo'lishdi. „Parpi degan og'aynimning zo'r ovcharkasi bor. Oti Ressi, — yonboshlavolib gap boshlaydi Sobir. — Qurg'ur biram aqlig-e. Parpini maktab oldida cho'nqayib poylab o'tiradi. Parpi darsdan chiqishi bilan papkasini tishlab oladi-da, oldiga tushib uyga jo'naydi. Parpiga do'q qilganlarni tirqiratib quvadi. Manavi Bo'ynoq ham kuchuk bo'ptimi, kuygan po'stakkul!“ „Ressi o'rgatilganda-a?“ „O'rgatgan. Qorda Parpini chanada kataysa qildirishini bir ko'rsang... Bu shimni kiymayin devdim-a, — u gap orasida bolalarni yangi kiyimiga jalb qiladi, — juda tor, tizzani bukolmaysan. Modayam jonga tegdi“. „Shuyam modami? — aftini bujmaytiradi Sobir. — Bundan qop tikish kerak“. „Eshakka to'qimlikkayam yaramaydi“. „Vo'y, qishloqilar-e“. Sobirning birdan rangi o'zgaradi.

„Bilasanlarmi bu qancha turadi? Hammangni kiyimingni sotgandayam yarmiga yetmaydi. Maktabda men bilan fizrugimizdan bo'lak hech kimda yo'q bunaqasi!“ „Haligi, pogonli ko'yilaging bor-u, oti pikonmidi, juda chiroyli edida, — vaziyatni yumshatmoqchi bo'ladi Rashid, — buyam

yaxshi, faqat juda qimmat ekan“. „Arzonning moli tatimas. Odam dunyoga ikki marta kelmaydi“, — Sobir otasidan eshitgan gapni salmoqlab takrorlaydi.

...Rashid Bo'ynoqni somonxonaga qamab, Sobirning yoniga qaytdi. U deraza yonidagi stulda oyog'ini likillatib o'tirgan ekan. Rashid shosha-pisha o'rmini yig'ishtira boshladi:

— Bugun bormoqchi edim, isitmang bor, maktab qochib ketmaydi, deb enam qo'ymadi.

— Nima deysan?

Rashid ko'rpani taxlayotib Sobirga qaradi. Nazarida do'stining xayoli joyida emas edi. Sobirning qiyiq ko'zlari olma-kesak terar, lablari asabiy titrayotgandi. Rashid ko'rpani taxmonga joylab uning yoniga cho'kdi:

— Buncha xo'mrayasan? Sog'ayib qoldingmiyam demaysan-a? — deb gina qilgan bo'ldi.

— E-e! — Sobir asabiy qo'l siltadi. O'rnidan turib, zarda bilan derazani ocharkan, Rashidga o'qraydi:

— Bo'shatishdi, bildingmi? Raislikdan optashlashdi.

— Obbo, shunga shunchami? — Rashid kulib yubordi. — Qaytanga yaxshi-ku, g'avg'odan qutulibsan.

— Gapirasanda, — dedi u norozi ohangda, — qancha mehnatim bekor ketdi. Toshpo'latga bergan yordamim... men bo'lmasam, qolib ketardi sinfda. Ko'zini baqraytirib: „Zo'ra-von bu, keragi yo'q bizga!“ deb baqirdi-ya! Rayim bilan Nazar-chi? Ustimdan shikoyat yozibdi. Anavi latta oyimcha bo'lsa... joyini tortib olganimga chidolmay yurgan ekan, bir vahima qildi...

— Boshqalarni bilmadim-u, Mastura unaqa — kunchimas.

— Yonini olyapsanmi?

— To'g'risini aytyapman. O'zing ham ancha kekkayib ketuvding-da.

Sobir cho'g'ni bosib olganday tizza bo'yi sapchib tushdi.

— Tilingdan ilinding-a?

— Nima deganing bu?

— Nega talmovsiraysan?! Do'stingdan top, degani shu-da, — dedi Sobir o'qrayib qaragancha. — O'zingni go'llikka solmay qo'ya qol! Hammangning tiling bir. Sening hozir

kasalligining ham yolg'on. Bilaman, otam ham boshqa ishga ko'tarilayotganda kasalman, deb jo'rttaga uyda yotardi. Ishni pishitib, sheriklaringni tezlab, o'zingni panaga olibsan-da!

Sobir shitob bilan o'rnidan turdi-da, eshikka yo'naldi.

— Nimaga unaqa deyapsan? To'xta, hey!

Sobir supaga chiqib to'xtadi.

— Latta oyimcha sening nomzodingni ko'rsatdi. Do'pingni osmonga otaver! Lekin bilib qo'y, menam qarab turadiganlardan emasman! — U yana bir nima demoqchi bo'ldi-yu, shartta burilib, chiqdi-ketdi.

Rashid uning orqasidan o'ychan tikilib qoldi. Sobirlarning shahardagi hovlisiga borishgani yodiga tushdi.

...Sobirlarning uyi shaharning qoq o'rtasida — katta ko'cha yoqasida ekan. Darvozadan kirgan zahoti hayratdan Rashidning og'zi ochilib qoldi: hovli sahni qip-qizil gulzor, o'rtada marmar hovuzcha, hovuzchada yarim tanasi suvga botgan „ajdar“ og'zidan suv purkab turibdi. Uylarining peshtoqidagi naqshlari quyosh nurida tovlanib, ko'zni qamashtiradi. Gulzor orasidagi tor yo'lakchalarga asfalt yotqizilgan.

Sobir sirkka, otasi ham bir yoqqa ketgan ekan.

Sobir kechga yaqin keldi. Ular ko'chaga o'ynagani chiqishdi. Sobir Rashidni Zokir, Parpi degan jo'ralari bilan tanishtirdi. Rashid Zokir bilan Parpining Sobirga qilgan xushomadini ko'rib, hayron qoldi. Kechqurun sababini so'ragan edi, Sobir: „Do'st degan shunday bo'lishi kerak“, — deb avvaliga maqtandi. Keyin „Ikkoviyam tirnoqqa arzi maydi, morojniy oberganim, kinoga optushganim uchun shunaqa“, — deb siniq iljaydi.

Xol Bo'tayevich juda kech qaytdi. Uni shirakayf holda ikki kishi zo'rg'a qo'ltig'idan suyab kelishdi. Xol Bo'tayevich Rashidning otasini ko'rgach, avval bolalardek qiyqirib yubordi. So'ng gandarab kelib quchoqlasha ketdi. Yuz-ko'zidan yalab-yulqab o'pdi. Yonidagilar ham mehmon bilan quchoqlashmoqchi bo'lgan edi, u: „Qani, marsh!“ — deya qo'lini bigiz qilib, darvozani ko'rsatdi. Sheriklari: „Xol akamiz ja ochildilar bugun. Yashasin akaxonimiz!“ — deganicha hovlidan chiqib ketishdi. Rashidning otasi qattiq xijolat chekdi, yuzlari

qizardi, qovoqlari osildi. „Borib uxlanglar“, deb bolalarni turg'izib yubordi-da, Xol Bo'tayevichga bir nimalarni uqtira boshladi. Rashid to uxlaguncha chorpoyni otasining bosiq ovozi, Xol Bo'tayevichning: „Senlar meni ko'rolmay-sanlar“, degan o'kirishi-yu, Risolat xolaning piq-piq yig'isini eshitib yotdi...

Oradan yarim yil o'tmay, qishloqda shov-shuv tarqadi: „Xol Bo'tayevich qo'lga tushibdi. Kamomad katta emish“.

Ko'p o'tmay Sobirlar qishloqqa butunlay ko'chib kelishdi: shahardagi hovli-joylari davlat ixtiyoriga o'tibdi. Sobirning aytishicha, yomon odamlar otasini qamattirmoqchi bo'lishibdi. Ammo do'stlari bunga yo'l qo'yishmabdi. Otasini tumandagi ikki qavatli magazinga mudir qilib yuborganlar ham o'shalar emish...

Ko'chib kelishganidan keyin Xol Bo'tayevich yana avvalgiday Rashidlarnikiga tez-tez keladigan bo'ldi. Rashid bo'lsa... Sobirga, qiyomatli jo'rasiga tushunolmay qoldi. Uning gerdayishi, hadeb o'zini ko'z-ko'z qilishi Rashidni hayron qoldirdi. Sobir Nazarga bir dasta daftar, rasm, qalam desa o'zini tomdan tashlaydigan Rayimga yap-yangi flomaster berib, ikkoviniyam chizgan chizig'idan chiqmaydigan qildi. Keyin uchovlon Alini qo'rqitib, uniyam o'zlariga qo'shib olishdi. Ayniqsa, bir voqeadan keyin Rashidning ko'ngli do'stidan butunlay sovidi. O'shanda... eslasa, haliyam uyatdan yuzi qizib ketadi. Sobir Masturadan gap ochdi:

— Masturalaring g'irt latta-ya! Tag'in sinfkommish. Bo'shatish kerak uni.

— Nimaga?

— Birinchidan, qiz bola, ikkinchidan, qachon qarasang, kasal... Sinfkom degan qattiqqo'l, so'zini o'tkazadigan bo'lsa! Agar men...

Rashid bu gapdan qip-qizarib ketdi.

— Yoki sen qarshimisan? — xavotirli iljaydi Sobir.

— Yo'g'-e.

— Bu boshqa gap, — qo'lini bir-biriga ishqadi u. — Ertaga bir qo'llab yuborasan-da, og'ayni. Ikki og'iz maqtab qo'ysang bo'ldi.

— Men, haligi...

— Yaxshi bolasan-u, chaynalishing chatoq, — uning soʻzini boʻldi Sobir. — Yigit deganning gapi qilichday keskir boʻlsa.

— Shu ham gap boʻldi-yu, — dedi Rashid ensasi qotib. Sobir battar tutaqdi:

— Shaharda hamma otamga egilib salom berardi. Kimsan, koʻp magazinlarning boshligʻi edi-da! Ishdan boʻshadi-yu, oʻshalar quturgan itday oyogʻidan oladigan boʻlishdi. Nimaga? Bilmaysan! Amaldan boʻshadingmi, sendan foyda yoʻqmi — bir pulsang. Sen boʻlsang... — U yoqimsiz iljaydi. — Mayli. Shu ishni bir yoqli qilay, oʻzim savodingni chiqarib qoʻyaman. — Sobir kattalarday Rashidning yelkasiga qoʻqib qoʻydi. Rashidning gʻashi keldi. „Yaxshi odam oʻzini oʻzi koʻtar-koʻtar qilmaydi“, demoqchi boʻldi, lekin tili bormadi.

...Sobir sinfkomlikka saylangandan keyin ishlar ancha jonlandi, maktabda sinfning nomi tilga tushdi: 1-„B“ni ota-liqqa olgan kim? 6-„A“. Urush veteranlari bilan uchrashuv oʻtkazgan kim? 6-„A“. Eng koʻp temir-tersak toʻplagan-chi? 6-„A“.

Uning tashabbuskorligi hammani qoyil qoldirdi. Oʻqituvchilar sinfda unga qarab gapiradigan, baʼzilari „Toʻgʻrimi, Sobirbek?“ deb fikrini tasdiqlatib oladigan boʻlishdi.

Ammo yarim yillik „koʻtar-koʻtar“dan soʻng yangi sinfkom bosar-tusarini bilmay qoldi. U hammaga laqab qoʻyib chiqdi: Mastura — latta oyimcha, Toshpoʻlat — yoʻrgʻa, Nazar — yumshoq supurgi, Adolat — erkak sabzi...

Sinfda biror kechami, uchrashuvmi oʻtkazilsa, qoʻlini choʻntagidan olmaydi. Oʻqituvchiga boʻlsa: „Men aytgan edim...“, deb keriladi.

— Qoʻlingni kissangdan chiqarsang sovuq urib ketadimi? — dedi bir kuni Rashid. — Buncha gerdaymasang?

Sobir ikki-uch kun xoʻmrayib yurdi.

Masturaning tobi qochib, bir hafta oʻqishga kelolmadi. Sobir: „Oʻrningga boshqalar navbatchilik qildi, endi besh kun sinfga dejurlik qilasan!“ — deb buyurdi u darsga kelgach. Masturaga ogʻir ish qilish mumkin boʻlmasa ham pol yuvdi, derazalarni artdi. Ertasiga yana yotib qoldi. Ana shundan

so'ng bolalar Sobirning xulqini muhokama qilmoqchi bo'lishdi. „Meni muhokama qilishga haqqinglar yo'q! — ustun keldi Sobir.

* * *

O'n-o'n besh yil avval oddiygina „Xol cho'tir“ edi. Xol Bo'tayevich bo'lguncha ming teshikka bosh suqdi. Necha marta pand yedi, og'zidagini oldirdi. Birovning luqmasini tortib olgan paytlari ham bo'ldi.

Ko'p yillik tajribadan so'ng Xol Bo'tayevich bola tarbiyasi haqida shunday xulosaga keldi: „Bola erkin o'ssin, unga hadeb dakki berma, yosh nihol, shoxi sinib, har narsadan hadiksirovchi, qo'rqqoq bo'lib qoladi. O'g'il bola degan qilichday keskir bo'lib ulg'aysa, hech kim shashtini qaytarolmaydi“.

Xol Bo'tayevich o'g'lini saroydek keng kabinetda yelkasigacha kresloga botib o'tirishini istaydi. Buning uchun neki lozim bo'lsa, barisini qiladi. Unsin degan yo'riqchi ko'chib kelgan paytlari bir-ikki noligan edi: „Singlim, qo'chqorchamiz sho'xroq, o'zingiz qarab tursangiz“, — deb sumkachasiga bir juft fransuz atirini sekingina solib qo'ydi.

Shu bo'ldi-yu, Unsinning uni o'chdi. Sinf rahbarining ham ko'nglini shunga o'xshash yo'llar bilan tinchitgan edi. Lekin bugungisi...

Xol Bo'tayevich teparog'iga o'quvchilar xonasi deb yozilgan eshikni shaxt bilan ochdi. Albomga qog'oz yopishtirayotgan Unsin „keling“, deyishga ham ulgurolmadi.

— Ishlar tuzukmi, singil? — dedi Xol Bo'tayevich zo'raki jilmayib, qator stullardan biriga o'tirar ekan. — Bolalaringiz Sobirjonimizni xafa qilib qo'yishibdi-ku!

— Shunday bo'pqoldi. Sinfdagilar ancha to'polon ko'tarishib... — Unsin bo'yoq tekkan barmog'ini zo'r berib qog'ozga ishqay boshladi.

— Biror yo'lini qilmapsiz-da, — o'pkalandi Xol Bo'tayevich, — misol uchun oldingisidan kattaroq ishga o'tkazishmi...

Unsin ko'zlarini pirpiratib, Xol Bo'tayevichga qaradi.

— Bolaning shaxti qaytmasin deyman, singiljon. O'zi,

shunaqa ishning juda havosini olgan, ishonsangiz, bugun tuz tatigani yo‘q. O‘zini bir balo qilib qo‘ymasin, deb onasi-ning joni halak. Endi o‘zingiz bir ilojini topmasangiz bo‘lmaydi, singiljon. Ha, aytganday, onangiz tunov kuni chit so‘ragan edi. Ertaga oldimga borsin, — Xol Bo‘tayevich shu gaplarni aytgach, mayin jilmayib o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Unsin beixtiyor:

— Albatta, albatta, juda yaxshi bo‘ladi, — deb yubordi.

* * *

Ertalab sinfga kirishi bilan bolalar Rashidni o‘rab olishdi. „Sobirning o‘rniga seni saylaymiz“, deb shovqin-suron ko‘tarishdi. Rashid g‘alati bo‘lib ketdi. Noqulay ahvolga tushib qoldi. Sobirga qaragan edi, u bir oqardi-yu, engashib portfelini titkilashga tushdi.

Darsdan so‘ng yig‘ilish o‘tkazildi. Qarshilik qilgani bilan foydasi bo‘lmadi. Rashid o‘zi istamagan holda Sobirning o‘rnini egalladi. Majlis tugashi bilan Sobir eshikni qarsillatib yopib, chiqib ketdi. Rashid orqasidan yugurdi. Katta yo‘lda yetib oldi.

— Sobir! Sobir!

Sobir taqqa to‘xtab, keskin burildi, bir qadam bosdi-yu, tovonni tagida bir narsa portlab ketadiganday: „Yaqinlashma! — deya o‘shqirdi. — O‘l-a, ahvoling shu ckan-ku, demoqchimiding?!“

Rashid uning gapini baralla eshitib turgan bo‘lsa ham, xuddi tush ko‘rayotgandek, garang edi:

— Nima deyapsan, jo‘ra?..

— Tupurdim senday jo‘raga! — zahrini sochdi Sobir va ortiga shart o‘girilib, tez-tez yurib ketdi. Rashid turgan joyida uzoq serrayib qoldi.

* * *

Bo‘shagandan buyon begonasirab yurgan Sobir katta tanaffusda sinfga bulutday bostirib kirdi. Doska yonida to‘xtab, baland tepadan tevarakni tomosha qilayotganday, sinfdagilarga pisand qilmay ko‘z yugurtirdi. So‘ng chap qo‘lini

shimi choʻntagidan olmay, Rashidning yoniga keldi, sirli iljaydi, yelkasiga qoqdi.

Buning sababi sinf yigʻilishida maʼlum boʻldi: Sobir maktab oʻquvchilar boshqaruvi kotibi etib tayinlandi.

Shu kundan boshlab sinfdoshlari yana Sobirni taniyolmay qolishdi: xuddi ilgariidek shiddatkor, kuyunchak. Bir qarasang, majlis oʻtkazgan, bir qarasang, quyonxona navbat-chilariga maslahat bergan, bir qarasang, toʻpolonchilarni koyigan...

Sobir sinf yigʻilishlarida Rashidni siquvga olar, har xil bahonalar bilan koʻpchilikning oldida uni yerga urishga intilardi.

* * *

Bugun Sobir yana Rashidga zahrini sochdi.

Maktab bogʻida oʻtkazilgan hasharda ikki kishi qatnashmagani uchun uni oʻrnidan turgʻazdi.

— Xoʻsh, buni qanday tushunish kerak, oʻrtoq Nishonov?

— Oʻzing bilasan, Gʻulomning tishi...

— Men bilmayman! — Sobir stolga gursullatib bir musht tushirdi. — Tish emish... Mehnat bayrami kuniyam tish ogʻriydimi? — U uzun stol tevaragida boshini quyi solib oʻtirganlarga bir qarab olib, davom etdi. — Sinfda tartib-intizomni boʻshashtirib yuborgani uchun Nishonovga hayfsan berilishini talab qilaman, — deb oʻng qoʻlini koʻtardi. Oʻtirganlar yerga qaragan koʻyi birin-ketin qoʻl koʻtarishdi. Rashidning boʻgʻziga mushtday bir narsa tiqildi.

Yigʻilish tugagach, Rashid uyiga xomush qaytdi. Koʻngli gʻash edi. Sobirning takabburona basharasi koʻz oldidan ketmasdi.

Toʻsatdan Boʻynoqning gʻazabnok vovullashi eshitildi. Rashidning xayoliga „lop“ etib Sobir tushdi. „Boʻynoq undan boshqani bunchalik „izzat-ikrom“ bilan qarshi olmaydi...“ Adashmabdi. Sobir yaqinda olgan „Ural“ velosipedi bilan oʻzini toʻsib, devorga qapishib turibdi. Bir qoʻlida chillaksopday nasos. Boʻynoq darvoza oldida: „Oʻldirsang ham qimirlamayman“, deganday oldingi oyoqlarini uzatib, choʻzilib olgan. Rashid iti bilan Sobirning oʻrtasida toʻxtadi.

— Shu arzandangdan qutulmadim, qutulmadim-da! — dedi Sobir nasosni joyiga qo‘ya turib. — Yo‘qot buningni! Odamga tikka sapchiydi-ya?!

Rashid churq etmadi. Majlisdagi gaplar yana nash‘a qildi. „Hech narsa bo‘lmaganday shang‘illaydi-ya!“

— Sirkang suv ko‘tarmas ekan-ku, — iljaydi Sobir velosipedining yaltiroq qo‘ng‘irog‘ini jiringlatib qo‘yarkan. — Boshqalarga ibrat bo‘lsin dedim-da. Sen — o‘zimmikisan. Menga qarab ko‘p o‘qrayaverma, bir-ikki kun o‘tsin, o‘zim o‘chirib tashlayman.

„Shayton-cy, hammaning oldida yerga urib, qulog‘imga uzr aytmoqchi“, deb o‘yladi Rashid. So‘ng boyadan beri tovoniga botayotgan toshni zarb bilan tepgan edi, velosipedning qanotiga chirsillab tegdi.

Sobirning avzoyi birdan o‘zgardi.

— Hali shunaqami? — U velosipedini dast ko‘tarib, orqaga burdi. — Men yalinarmishman-u, bu kishim noz qilarmishlar. Endi o‘zingdan ko‘r! — Sobir shunday dedi-yu, velosipediga sakrab minib, g‘izillatib haydab ketdi. Bo‘ynoq Sobirning orqasidan talpingan edi, Rashid itning bo‘ynidan quchoqlab, qulog‘iga nimanidir ohista shivirladi.

Bo‘ynoq bu gapdan sevinganday, dumini likillatib Rashidning oyog‘iga suykaldi...

BOYCHECHAK

Ona-bola molxona devoriga tappi yopishardi: bolakay eski chelakda o‘tinxonadan ko‘mir kukunini tashir, yengini tirsagigacha shimarib olgan onasi tappini ko‘mir uvoqlariga bulab, dumaloqlardi-da, so‘ng devorga urardi. Bolakay birovga zarda qilgandek pachaq chelakni dam-badam dast ko‘tarib yerga to‘nkarar, botinkasining bir yoni yeyilgan poshnasi bilan chelakni ustma-ust tepkilar edi. Onasi shunda ham pinagini buzmasdi. Ilontepada qizg‘in „jang“ ketayotgan shunday pallada shalabbo bo‘lib ko‘mir tashiyotgan bolakayning alamdan bo‘g‘ilib yig‘lagisi kelardi...

Ko‘chada ot tuyoqlarining tanish dupuri eshitildi. Bolakay ko‘chaga otilmoqchi bo‘ldi-yu, onasiga qarab, turgan joyida

bo'shashib ketdi. Onasi xuddi quloq bilan ko'chani ko'rib bo'ladiganday xiyol boshini qiyshaytirib, o'qrayib qo'ydi:

— Qara, birov kelganga o'xshaydi!

Bolakay ko'chaga otildi. Uzun chakmonli kishi darvoza ro'parasidagi bukri tolga otini bog'lamoqda edi.

— Ena, Tosh tog'am!

Bolakay tog'lar orasida yashovchi cho'pon tog'asini juda yaxshi ko'rardi. Tog'asi har gal unga g'aroyib sovg'alar olib kelardi. Chiroyli tosh granata, yog'och avtomat ham shu kishining sovg'asi edi.

— Obbo, azamat-ey! Qo'zivoymas, Qo'chqorvoy bo'lib ketibsan-ku! — deya tog'asi girdikapalak bo'layotgan bolakayni baland ko'tardi. Ana shunda Qo'zivoyni ko'zi tog'asining tulki telpagiga qistirilgan sap-sariq boychechakka tushib qoldida, uning erkalab aytgan gaplari qulog'iga kirmay qo'ydi. Kechagina Murod chilim boshliq bolalar loyga belanib, qirdan boychechak topolmay qaytishgan edi. Murod chilimdek odam topolmay shalvirab qaytgan boychechakni u — Qo'zi liliput ko'tarib borsa, qoyil bo'lardi-da!

Tog'asi hovliga kirganda ham Qo'zivoyni ko'zi telpakda bo'ldi. Har qancha iymansa ham baribir o'zini tutib turolmadi:

— Tog'a, anavini qayerdan oldingiz?

— Aytganday, senga boychechak topib keluvdim, — dedi telpagini qo'liga olarkan, jiyanining halidan beri boshiga javdirab turganiga endi tushungan tog'asi. — Qara, qanday chiroyli!

— Rostdan ham mengami? — deb bolakay terisiga sig'may irg'ishlay boshladi.

— Ha-da! — deb tog'asi boychechakni telpagidan avaylab olib, unga tutdi. — Anavini qara!

Qattiq yerdan qatrab chiqqan

boy-che-chak!

Yumshoq yerdan yaltirab chiqqan

boy-che-chak!

Qo'zivoyni qo'liga boychechak tegishi bilan u tevarakka loy sachratib, Ilontepa tomon shataloq otdi.

— Ur-re-e-e! — u boychechakni qo'lida hilpiratib, toychoqdek shataloq otib chopar edi.

— Piyozini loylab ol, so'lib qoladi! — degancha ortidan qichqirib qoldi tog'asi.

Qo'zivoy Ilontepaga yaqinlashganda tepaguzarliklar „tor-mor“ etilgan edi. Pastguzarliklar qo'mondoni Murod chilim qo'llari bog'langan „asirlar“ oldida g'o'dayib u yoqdan bu yoqqa yurgancha ularga qanday jazo berish ustida bosh qotirardi. O'yin qoidasiga muvofiq kimdir otishga, kimdir osishga, kimdir surgunga hukm qilinishi kerak.

Shafqatsizligi bilan dong taratgan Murod chilimning turqidan qo'rqulik edi. U „nagan“ini havoda o'ynatgancha asabiy odimlar, belidagi qilichi, etigi qo'njida osilib turgan ho'l va kir paytavasi shap-shap etib boldiriga urilardi.

— O'rtoq qo'mondon, dushmanlar!

Qo'mondon bir sakrab tushdi.

„Bandi“lar yalt etib pastga qarashdi. Qo'zivoy tepalik sari o'rmalab kelardi. Buni ko'rib, „asir“lar nigohidagi oniy quvonch so'ndi: „Liliputning qo'lidan nima kelardi? Otabek bo'lganda...“

— Dushman qancha? — deb Qo'zivoyning yolg'izligini ko'rib turgan bo'lsa ham soqchiga yuzlandi qo'mondon.

— Bittaga o'xshaydi.

— Anig'i?

— Bitta, o'rtoq komandir!

— Tiriklay ushlansin!

„Qurollangan“ uch „jangchi“ bolakayni qurshab ola boshladi.

— Men o'ynamayman! Men boychechak olib kelyapman! — deb baqirdi nafasi bo'g'ziga tiqilgan Qo'zivoy. — Mana!

U qo'lidagi boychechakni baland ko'tardi. Boychechakning sap-sariq yaproqlari quyosh nurida tilladay tovlanib ketdi.

— Qayerdan topding?

— Qoyil!

Boychechakning quyosh nurida tovlanib turgan tilla

yaproqchalari Murod chilimdan boshqa hammaning ko'nglidagi gina-adovatga barham berdi. Chilim ham boychechakni ko'rib bir entikib tushgan bo'lsa-da, „jang“dan keyin zo'rg'a yetishgan lazzatli onlardan mahrum qilgani uchun Liliputni ich-ichidan bo'ralatib so'kdi.

— Zo'r-ku, qog'ozmasmi? — dedi u hammadan keyin boychechakni qo'liga olib. — Xo'p vaqtida kelding-da, pakashvoy. Bu endi bizniki bo'ladi!

Uning soqqaday ko'zlari ayyorona o'ynab turardi.

— Nega seniki bo'larkan? — deya chuvullashdi tepaguzarliklar.

— Sizlarni yengdikmi, yengdik! — deb baland keldi qo'mondon. — Barcha mol-mulklaring ham endi bizniki bo'lishi kerak.

— To'g'ri, to'g'ri! — tasdiqlashdi qo'mondonlarining aqliga qoyil qolgan sheriklari.

— O'yin qoidasida boychechak yo'q! — deb bo'sh kelmadi Ro'zivoi. (Otabek kelmagani uchun bugun u qo'mondonlik qilardi.) — Bermasang, Otabekni chaqiramiz!

Otabek bilan Murod tengdosh bo'lsa ham Murod undan cho'chirdi.

— Uchgacha sanayman. Bersang berding, bo'lmasa... Bir, ikki, ikki yarim, chorakam uch...

Murod dovdirab qoldi. Lekin sir boy bergisi kelmadi.

— Otabek-potabeging bilan qo'rqitolmaysan! — dedi ingichka bo'ynini o'rdakdek cho'zib. — G'irrom!

— O'hho'! Hali biz g'irrom bo'lib qoldikmi? — dedi bu tuhmatdan bo'g'ilgan Ro'zivoi. So'ng yonidagi bolakayga buyurdi: — Asad, Otabekka chop!

Endi katta janjal bo'lishi aniq edi. Buni Murod ham sezdi-da, chopishga shay turgan Asadning yengidan ushlab to'xtatdi.

— Bo'пти, jirillayverma. Qonun bo'yicha bizniki to'g'ri bo'lsa ham gapingga ko'namiz. Faqat bitta shart bilan: boychechak hammamizniki bo'ladi.

Ikki guzar bolalari „Boychechak“ aytishda ham o'zaro bellashib kelishardi. Birinchi bo'lib „Boychechak“ aytganlar

anchagacha narigi guzarliklarga gap bermay yurishardi. Murod eshitmaganlarini topib aytardi.

— Yo‘q! — deya Ro‘zivoyni burilmoqchi edi, Murod qo‘ymadi.

— Shoshma, balki Qo‘zivoyni rozidir. U esli bola, har narsaga jirillayverish yaxshimasligini tushunadi. To‘g‘rimi, Qo‘zivoyni?

Bolalar shundan keyingina bir chetda qolib ketgan Qo‘zivoyni eslab qolishdi. O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir, degandek, boychechagiga xo‘jayinlik qiluvchilarning ko‘payib ketganidan ezilib turgan bolakayga Muroddek mashhur sarkardaning „Qo‘zivoyni“ deb mayin iljayishi yoqib ketdi.

— Birga aytsak, nima bo‘pti! Qaytanga ko‘pchilik bo‘lsak, kuchuklar yaqinlasholmaydi, to‘g‘rimi?

Xijolat chekayotgan Qo‘zivoyni ikkilanib qoldi.

Ro‘zivoyni jahli chiqdi:

— Ko‘nmoqchimisan, uning gapiga? Bilib qo‘y, hozir boychechakni olmasang, ikkinchi sen bilan o‘ynamaymiz!

— O‘ynamasa, o‘ynamas! — deb avray boshladi Murod. — Mana, biz bormiz. Biz bilan o‘ynayverasan. Sen esa, hey, yosh bolaga unaqa do‘q qilaverma, abjag‘ingni chiqarib qo‘yaman.

— Shunaqami? — deb Murodgamas, bolakayga qarab alamli hayqirdi Ro‘zivoyni, — Sotqin! Ketdik, jo‘ralar!

Tepaguzarliklar Qo‘zivoyni o‘qraya-o‘qraya pastga tusha boshladilar. Esankirab qolgan Qo‘zivoyni ham ularga ergashmoqchi edi. Murod ko‘nmadi.

Qo‘zivoyni nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, tomog‘iga go‘sh ttiqilgandek burnini torta-torta o‘rtoqlarining orqasidan qaragancha qolaverdi. Tepaguzarliklar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan Murod:

— Qo‘zivoyni — boychechakning egasi, u boshqalardan uch hissa ortiq haq oladi! — deb e‘lon qildi.

Qo‘mondonning ana shu odilligidan so‘ng bolakayning chiroyi ochilgandek bo‘ldi.

...Shomga yaqin qishloq bo‘ylab bolalarning yangroq ovozi jarangladi:

Boychechak avval bahorda ochiladi-yey, ochiladi!
Yaxshilarning qoshida sochiladi-yey,
Boy-chechak, bo-oy-che-chak!

Bu ovoz hali mag'zi ilimagan dalalarga, endigina kurtaklayotgan daraxtlarga, oqimtir osmondagi yaltiroq yulduzlarga tegib aks-sado berayotgandek tuyulardi.

Reja bo'yicha, „Boychechak“ aytish Fotima folbinnikidan boshlandi. Fotima folbin qishloq chetidagi hovlida yolg'iz yashardi. Uning uch o'g'li urushda halok bo'lgan, farzand dog'i momoning ruhiga qattiq ta'sir qilgan edi. Qishloqda u haqda har xil mish-mishlar yurardi: folbin oqshomlari farish-ta-yu maloyikalar bilan gurunglasharmish, hovuz bo'yida ajinalar bilan nog'ora chalib bazm qilarmish. Kimki folbinning jig'iga tegsa og'zini qiyshiq, oyog'ini shol qilib qo'yarmish...

Hovli atrofida nurayverib yer bag'irlab qolgan paxsa devor cho'kib yotgan tuya, kallasi xumdek ayiq va yana allanima balolarni eslatardi. Bo'g'otda osilib turgan yantoq pardalar shamolda Ibn Hattob cholning soqoliga o'xshab selkillar, buralib-buralib o'sgan jiyda tanasi bitta, boshi mingta ajdardek ko'ngilga vahima solardi.

— Kaltagi borlar oldinga o'tsin! — buyruq berdi Murod darvozaga yaqinlashishgach. — Kuchuk chiqsa, hech kim qochmasin! — u ovozi boricha kuylab yubordi:

Boychechak aytgan bilan to'yamizmi-yo!
Burungilar odatini qo'yamizmi-yo!
Bo-oy-che-chak!

Nimqorong'i uy eshigi g'iyqillab, savatdek sochi ustidan ro'mol o'rab olgan folbin chiqdi. Uzun kamzulini sudragancha hassasini to'qillatib kelayotgan kampir alvastining o'zginasi edi.

— O'rgilaylar, bahor keldimi-ya? — demasa ba'zilar juftakni rostlab, qochishlari turgan gap edi.

— Bo'lmasa-chi, mana, qarang, — deb boychechakni unga uzatdi Murod.

— Aylanib ketay bahor elchisidan. Bel og'rig'idan qutuladigan bo'libman-da, — deya folbin boychechakni ko'zlariga

surtdi, yaproqlaridan avaylab o'pdi, so'ng qozondek ro'mo-
lining qatlarini uzoq timirskilab nimadir oldi-da, Murodga
berdi.

— Ma, suyunchi!

— Qozonini shuncha kovlab, o'ttiz tiyin beribdi-ya! —
dedi folbinning pulini fonus yorug'iga solib qararkan, Murod
ko'chaga chiqishgach.

— Shunisiga ham rahmat desang-chi, gap pulda emas-
ku! — dedi bosiqligi va bilag'onligi uchun „professor“ nomini
olgan Bahrilla. — Bechora momoning boychechakni ko'rib
sevinganini qara! Yig'lab yubordi-ya.

— To'qi-ya, to'qi! — deb qo'l siltadi Murod.

— Yig'ladi! Men oldiginasida edim, aniq ko'rdim, —
deb shosha-pisha Bahrillaning so'zini tasdiqladi Qo'zivoy.

— Voy, lochin ko'z-ey, qorong'ida odam odamni bazo'r
taniydi-yu, bu kishi kampirning ko'zidagi yoshni ko'rgan-
mish! — deb masxara qildi Murod. Keyin murosa qilgandek
qo'shib qo'ydi: — Mayli, yig'lasa, yig'lagandir. To'ridan
go'ri yaqin odamlarning bari shunaqa — yig'loqiroq bo'ladi.
Qani, yetishib, yetishib yuringlar. Birortangni hap etib ku-
chuk qopib olmasin tag'in.

Bolalar keyingi hovliga yaqinlashishdi.

— Shu yerda bir zo'r berasizlar, — dedi Murod darvo-
zadan kirayotganlarida. — Shodmon amakining bolasi yo'q,
bir eritamiz:

Anov tomning orqasida

oy ko'rinar,

Hamma uydan mana shu uy

boy ko'rinar!

Tom ortidagi teraklar ustida jilmayib turgan to'lin oy
hovlini sutdek yoritib yuborgan, har joy-har joyda suv
ko'llab qolgan olachalpoq supa pastida ustiga katta savat
to'nkarib qo'yilgan so'ri — hamma-hammasi kunduzdagidek
aniq ko'rinib turar edi. Bolalar „Boychechak“ ayta-ayta
so'riga yaqinlashib kelishdi hamki, hech kim chiqmadi.

— Manavini tagida qatiqmi, qaymoqmi borgan o'xshay-
di, — dedi betoqat bolalardan biri savatning tagiga boshini

tiqib. — Hech kim chiqmasa, kadi-padisi bilan olib jo'naymiz.

Xuddi shu gapni kutib turgandek, orqadagi derazada qizg'ish shu'la paydo bo'ldi. Keng ola choponini yelkasiga tashlab olgan Shodmon amaki yo'tala-yo'tala chiqib keldi.

— Hey! Nega chinqirasanlar, quloq-miyani qoqib berdilaring-ku! He, o'sha!..

Bunaqa do'q-devarani kutmagan bolalar ko'chaga qarab qochmoqchi bo'lishgan edi, Shodmon aka darvoza tomonni to'sib oldi.

— Hech go'rga bormaysanlar! Hammangni Mo'ynoqqa talataman. Mo'ynoq, ho Mo'ynoq!

Qo'rqib ketgan bolalar devor tagiga g'uj bo'lib olishdi. Kimdir yig'lab yubordi.

— Kim yig'ladi?

Churq etgan ovoz chiqmadi.

— Men demaysanmi! — deb negadir Murod Qo'zivoyni oldinga itardi.

Qo'zivoyning dami ichiga tushib ketdi.

— Senmiding? Yana bir yig'la, bo'! Yo'q, qo'shiq ayt, bilasanmi qo'shiq?

Bolakay arang boshini qimirlatdi.

— Zo'ridan aytsang, mana, shu seniki. — Shodmon aka kissasidan bir changal g'ijimlangan pul chiqardi.

— Ayt, bo'lmasa, yeb qo'yaman, vov-vov!

Muroddan eshitaverib miyasiga o'rnashib qolgan so'zlar beixtiyor bolakayning og'zidan chiqib ketdi:

„Boychechak“ aytib keldik
eshigingizga,
Xudoyim o'g'il bersin
beshigingizga.
Boy-che-chak...

Uning qaltiroq ovozini eshitgan Shodmon aka birdan bo'shashib ketdi. Enkayib bolakayning yuzlarini ketmondek kafti bilan siladi. Qo'lansa araq isidan Qo'zivoyning boshi aylanib ketdi.

— Yana bitta ayt, jon o'g'lim...

Qo'zivoy boya aytganlarini yana takrorladi.

— Aytganing kelsin, bolam. — Shodmon aka xumdek boshini bolaning ko'kragiga tegizib mung'ayib qoldi.

Tabiatan kamgap va yumshoq ko'ngil bu odam ichganda fe'li aynib, o'zgarib ketardi. Shunaqa paytda „Shodmon aka ko'cha-ko'yda bolalarga qand-qurs ulashib yurardi“, desalar, hech kim ishongisi kelmasdi.

Teraklar orasidan quyilayotgan oy nuri amakining silkinayotgan yelkasini, sirg'alib yerga tushgan ola choponini yoritib turardi. Bu g'aroyib tasodifdan bolalar anqayib qolishdi.

— Endi ketinglar! — dedi birpasdan so'ng boshini ko'tarib amaki.

Qo'zivoy Shodmon amaki bergan pullarni ola o'zini darvozaga urdi, qolganlar ham chuvullab ko'chaga yugurishdi. Fonus yorug'ida pulni sanab ko'rishdi: o'n ikki so'm! Bu — shu chog'gacha yig'ilgan pullarning hammasidan ko'p edi.

— Endi ertalabgacha uxlash yo'q!

— Bir yilda bir kun uxlamasak o'lmasmiz!

Shodmon amakining saxiyligi bolalarni ruhlantirib yubordi.

Ular birin-ketin hovlilarga kirib chiqa boshlashdi. Hamma xonadonda ularni quvonch bilan kutib olishar, kampirchollar bahor elchisi — boychechakni ko'zlariga surtishar, urushdan keyingi og'ir yil bo'lishiga qaramay, bolalarga qand-qurs, mayiz, yong'oq, pul berishar edi. Pulni Murodning o'zi olar, boshqalarini esa Ortiq degan yalpoq yuzli bola xaltaga solib, orqalab borar edi. Agar Ismat cho'loqnikida yuz bergan hodisa bo'lmaganda, bolalar hali-beri tarqalishmasdi.

Ismat cho'loqning dang'illama hovlisiga qadam qo'yishlari bilan, dimog'ga gup etib, tezak hidi urildi. Darvozaxonaga tutash molxona devorlariga biror qarich joy qoldirmay tappi yopilgan edi. Molxona oxirida laylak qilib qo'yilgan eshak aravaning shotisi tashqariga chiqib turar, arava yonidagi ustunga bog'langan eshak yantoq cho'kirtaklarini kavshar edi.

Boychechagim biyrondur-ey
biyrondur.
Qozon to'la ayrondur-urr!
Boy...

Hammaning og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qoldi. Osmonning tagi teshilib ketgandek, tomdan ustilariga shovul-lab to'kilgan suv badanlarini junjiktirib, kiyim-boshlarini shalabbo qildi. Keyin itning yulqina-yulqina irillashi eshitildi. Dovdirab qolgan bolalar duch kelgan tomonga ura qochishdi. Qo'zivoy jonholatda Murodning etagiga yopishdi. Murod uning qo'liga bir urib, etagini bo'shatdi-da; „Hamma eski saroy tomonga!“ degan cha tun qa'riga singib ketdi. Hayriyatki, it u tarafga qochganlarni quvdi, yo'qsa...

Bolalar anchadan keyin eski saroyda to'planishdi. Kimdir quruq xas-xashak topib, gulxan yoqdi.

Murod yerga to'shalgan gazeta yonida cho'kkalab, gulxan yorug'ida yig'ilgan pullarni sanab chiqdi.

— O'n sakkiz so'm.

— Yo'g'-e, — Shodmon amakining o'zi o'n ikki so'm beruvdi-ku?

— Alisherning bobosi besh, Gulsara momo uch so'm...

— Hammasi shu! — deb bolalarning so'zini kesdi Murod. — Itdan qo'rqib qochganimda tushib qolganga o'xshaydi.

Bolalar gumonsirab „qo'mondon“ga tikilishdi.

— Ishonmayapsizlarmi? Mana, ko'ringlar, — degan cha Murod cho'ntaklarining astarini ag'darib ko'rsata boshladi.

— Mayli, borini bo'!

— Ishonish kerak-da, odamga. Menga ko'pchilikning haqi kerakmas! — Murod qo'li bilan bolalarni sanadi. —

O'n ikkita ekanmiz.

— O'n uchta!

— O'n ikkita.

— Qo'zivoy-chi?

— U hisobmas.

Bu gapni eshitgan Qo'zivoyning tishi takillashdan, badani qaltirashdan to'xtab qoldi. Bolalar ham hayron bo'lib, „qo'mondon“ga qarashdi.

— Ustimizdan suv quygan kim? Shuning og'aynilari!

Jo'ralari bilan til biriktirib, bizni muzlatmoqchi bo'lgan u liliput!

— Qo'y-e, peshindan beri yonimizda-ku! — deb bolakayning yonini oldi Bahrilla, — oz bo'lsa ham berish kerak. Evi bilan-da...

— Mehribonligingni katta xolangga qilasan! — deb Bahrillaga o'shqirdi Murod. — Iching achiyotgan bo'lsa, o'zingnikini bera qol!

— Nega, Boychechak meniki-ku! Senga uch hissa ko'p beraman devding-ku? — deb yig'lamsiradi. Qo'zivoi.

— Menikimish! Ma, pishirib ye! — Murod yerga to'shlangan gazetaning bir chetida yotgan boychechakni jahll bilan Qo'zivoi qarang otdi. Boychechak sal naridagi ko'lmakka tushdi. Tillarang yaproqchalar qop-qora bulutlar qariga kirayotgan kuz quyoshidek balchiqqa cho'ka boshladi. Cho'kayotgan boychechagiga tikilgan suratga tushayotgandek qotib qolgan Qo'zivoi ning ho'nragisi, dod solib deysingisi kelar, lekin tushunib bo'lmaydigan allaqanday tuyg'u uni soqov qilib qo'ygan, azbaroyi xo'rliigi kelganidan miq etolmas edi.

Bolalarning nigohi ham cho'kayotgan boychechakka mixlanib qolgan edi. Ularning qalbida o'z „qo'mondon“lariga nisbatan nafrat hislari uyg'ongan, lekin hech qaysisi dilidagini tiliga chiqarishga botinolmas edi. Faqat Bahrilla o'zini tutib turolmadi. U birdan enkaydi-da, loyqaga qo'l tiqib, boychechakni oldi.

— Shunchalikmas-da, Murod. Boychechakda nima ayb? Bu... bu...

— E-e, bu-bulayverma! — deb o'shqirdi Murod. Agar Bahrilla yana bir og'iz teskari gap qilsa, yoqasidan olgudek shashti bor edi uning.

Bahrilla alamini zo'rg'a ichiga yutdi. Boychechakning yaproqlarini etagining uchi bilan arta-arta uni Qo'zivoi ga tutdi:

— Ma, Qo'zivoi, xafa bo'lma, menikini ikkovimiz bo'lishib olamiz.

Bahrillaning mehribonligi Qo'zivoi ning sabr kosasini toshirgan eng so'nggi tomchi bo'ldi.

— Men... menga kerakmas! Men Usmonga bermoqchi edim. Kasal, onasi kasal uning! — deb alam bilan hayqirdi Qo'zivoi. Keyin o'pkasi to'lib, ho'ngrab yubordi.

Bu gapdan Bahrilla ham, boshqalar ham titrab ketishdi. Hatto hozirgina urishqoq xo'rozdek hurpayib turgan Murodning vujudi ham tok urgandek zirqirardi.

Usmon Murodlarning yon qo'shnisi edi. Urushning adog'ida Usmonning otasidan qora xat kelgan, kasalmand onasiga qarash yolg'iz Usmonning zimmasida edi. Murod kunora onasi pishirib bergan ovqatni Usmonlarnikiga olib chiqar, Usmonlarning ahvoli hammadan ko'proq unga, Murodga ayon edi. U bo'lsa... ertaga sigaret olish uchun o'z o'rtoqlariga shumlik qilib o'tiribdi-ya...

— Menga qara, Murod...

Murod yalt etib Bahrillaga qaradi. Bahrilla uni koyigani og'iz juftladi-yu, yana fikridan qaytdi:

— Senga bir gapni tushuntirgandan ko'ra... Bolalar, Qo'zivoi juda to'g'ri o'ylagan ekan. Kelinglar, hamma pulni Usmonga beramiz.

— Bo'pti!

— Rosa sevinadi bechora Usmon, — deb chug'urlashdi bolalar.

Murod kalovlanib qoldi.

— Nega sen indamaysan? — dedi uning indamay qolganini o'zicha tushungan Bahrilla. — Berging kelmayaptimi? Ixtiyoring, zo'rlamaymiz. Haqingni ol-u...

Murod boshini shartta ko'tardi. Bir nima democchi bo'ldi. Lekin tili gapga kelmay, beixtiyor Qo'zivoigga qarab bir qadam tashladi-da:

— Shunaqa ekan, nega boya ayta qolmading? — dedi o'ksinib. So'ng nafrat bilan tikilib turgan bolalarga bir qaradida, shartta o'tirib etigini yechdi, paytavasi orasidan g'ijimlangan qog'oz pullarni olib gazetaga tashladi.

— Juda joyiga yashirgan ekan-u! — deb yubordi kimdir.

— Bu kishi yana qo'mondon emish...

— Men... men... — Murod sakrab turdi-da, etik-paytavasini olib, o'zini tun quchog'iga otdi...

— O'zidan ko'rsin, — dedi bolalardan biri.

Bahrilla pullarni shu holicha gazetaga o'radi. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek guvullab Usmonlarnikiga jo'nashdi. Oldinda pildirab ketayotgan Qo'zivoyning shodligi ichiga sig'masdi. Uning xayolida qo'lidagi boychechak mash'ala singari hammalari-ning yo'lini yoritayotgandek tuyular va shuning uchun ham qo'lini baland ko'tarib ketib borardi.

QOCHOQ

Peshanasida bayroqchalar hilpirab turgan avtobuslar devorlari chala oqlangan maktab binosi oldida to'xtadi. Kun bo'yi avtobusda yo'l yurib zerikkan bolalar eshiklar ochilishi bilan o'zlarini pastga otishdi. O'qituvchi Karimberdi akaning hay-haylashiga ham qaramay, ur-sur qilib ichkariga — hasharchilar uchun ajratilgan xonalarga yopirilishdi. To's-to'polonda sho'x oqim Hamdamni ham surib uzun koridorning ikki yoni bo'ylab ketgan xonalardan biriga ofib kirib qo'ydi. U onasi og'zini bog'lab bergan qopchig'ini deraza tagidagi bo'sh joyga tashladi-da, yelkasidan tog' ag'darilganday uf tortib, ustiga o'tirib oldi.

Xonadan achimtir ohak hidi kelar, polga to'shalgan kanop sholchalar har joy-har joyda yig'ilib qolgan edi.

Qora terga botgancha xonaga o'qdek otilib kirgan Tugal davangir oyog'i sholchaga ilashib, yiqilib tushdi. Orqama-orqa kelayotgan Salimcha uning ustidan o'mbaloq oshdi. Qo'lidan tuguni uchib ketib, borib devorga tegdi, undagi turshak, qurut, yong'oq kabi mayda-chuydalar pol bilan bitta bo'ldi.

Qiy-chuv, to's-to'polondan Hamdamning nafasi qaytdi. U chidolmay, qopchig'ini devorga suyab qo'ydi-da, tashqariga chiqdi.

Ariq bo'yida ikki kishi o'choq kovlayapti. Bahaybat bukri tut ostida katta samovar qaynab turibdi. Ariqdan u yog'i — paxtazor.

Dalaga qarab Hamdamning og'zi ochilib qoldi. Bunaqangi chaman bo'lib ochilgan paxtani televizorda ham ko'r magan edi. „O'hho'! Bir soatda yuz kilo tersa bo'ladi ya!“

U lo'ppi-lo'ppi paxtalardan bir hovuch terib, xonaga qaytdi. Eshikdan kirganida to's-to'polon ancha bosilgan, biroq

to'rvasini kovlashtirar, birov devorga gazeta yopishtirar, birov ko'rpacha to'shash bilan ovora edi. Hamdam kirgan yerida qotib qoldi: deraza tagidagi uning joyini Tugal davangir egallab olgan, Hamdamning qopchig'i esa poygakda — pechka yonida yotar edi. U Tugaldan „Nega bunday qilding?“ deb so'ramoqchi bo'ldi-yu, yuragi dov bermadi: „Derazaning oldi nima-yu, pechkaning oldi nima, — o'zini ovutdi Hamdam. — Bitta xona bo'lgandan keyin...“

Kechqurun hasharchilar sharafiga sho'rva pishirildi. Bolalar o'rtaga yozilgan dasturxon atrofida maza qilib ovqatlanishdi. Hamdam kosani bo'shatib, joyidan turayotgan edi, Tugal:

— Hamdamboy, bizzikiniyam ola ket, — deb korsonday kosasini unga uzatdi. Uning boyagi qilig'idan ezilib o'tirgan Hamdam „O'zing-chi?“, demoqchi bo'ldi. Ammo Tugalning ishonch bilan qo'l cho'zib turishi... „Olsa nima qipti. O'zingdan katta ish buyurgandan keyin...“

Hamdam samovardan yarim kosa issiq suv olib, ariq labiga bordi. Tizza bo'yi pidanadan bir changal yulib, ishga kirishdi. Ketma-ket kelayotgan Odil ham uning yoniga cho'nqaydi:

— Hm, cho'rilik qilyapsanmi?

Hamdam seskanib tushdi.

— Nima qipman? — iljaymoqchi bo'ldi u.

— Nimamish, bu yerda haqingni talashib olmasang, eshakka minganday yelkangga chiqib olishadi.

Hamdam gapning ma'nosini endi fahmladi, lekin sir boy bergisi kelmay:

— Men bilan nima ishing bor? — dedi yasama o'qrayib.

— Lapashang, hali ko'rarsan. — Odil qo'lidagi pidanani suvga jahl bilan uloqtirib, nari ketdi.

Bir tarsaki yegan kabi Hamdam bo'shashgancha cho'k-kalab qoldi. Odilning zardasi turib-turib nash'a qila boshladi. „Cho'ri!.. Topgan gapini. Cho'ri... Rostdan ham nega birovning kosasini yuvib o'tiribdi? Joyini tortib olgani uchunmi?“ Hamdamning fe'li aynidi, Tugalning kosasini qulochkashlab yerga urmoqchi bo'ldi. Yana onasining: „Kattalarning gapini ikkita qilma“, degani esiga tushib, o'zini tiydi. Mayli, hozircha indamaydi. Tag'in shunaqa qilsa...

U qizishib eshikdan kirayotgandi, kutilmaganda ichkaridan chiqib kelayotgan bolaga urilib ketdi.

Qo'lidagi idishlar yerga tushdi. Tugalning kosasi labidan darz ketdi. Hamdamni qo'rquv bosdi.

Siniq kosani ko'rgan Tugalning ko'zlari g'azabdan qisildi.

— Bu yaloqda o'zlari ichadilar-da, jiyan!

U Hamdamning kosasini tortib oldi. Hamdam kalovlanib qoldi.

— Nega zo'ravonlik qilasan?! — oraga tushdi Odil.

— O'hho', enagasi bor ekan-ku! — Odilni endi ko'rayotganday o'qraydi Tugal. — Eshitmay qoldim, nima deding?!

— Ber kosasini!

Tugal ilon chaqqanday sapchib ketdi. Hamdamning rangida rang qolmadi. Bir Tugalga, bir Odilga iltijoli termilib, ko'zlarini pիրpirata boshladi. U o'zini yomon his qilsa, hayajonlansa yoki qo'rqa shunday qilardi. Bu esa Odilga yoqmasdi. Hozir ham qarindoshining bu holatiga bir qaradi-yu g'ijindi. „Qiz bola! Ko'zlarini maymundek pirillatishini-chi! Odam degan ham shunchalar qo'rqoq bo'ladimi? Nomusini shunchalik oyoqosti qilishlariga yo'l qo'yadimi?! Nima, maktabda undan qiltiriq bola kammi? Lekin hech kim Hamdamchalik kamsitilmasov...“ Eng ayanchlisi, mayna bo'ladigan Hamdam-u, azobini Odil tortadi. Ba'zan ichida. „E, o'lib ketmaysanmi!“ deb qo'l siltab ketmoqchi bo'ladi. Boya, ariq bo'yida ham shunday qilmoqchi edi, Tugalning mana bu qilg'idan keyin... Nima bo'lsayam qarindosh. Buning ustiga Hamdamga „ko'z-quloq“ bo'lib yurishni xolasi unga tayinlagan. „Bir-ikki musht yegan bilan odam o'lib qolmaydi. Nomusni saqlash kerak. Nomusni!“

Tugal raqibini suzmoqchi bo'lgan buqaday gavgdasi-ni oldinga egib, Odil tomon bostirib kelardi. Xonani og'ir sukut qoplagan. Axir, Tugalday odamga do'q qilish... undan o'ninchidagilar hayiqishadi-yu... Yaxshiyam Hoji o'rtaga tushdi.

— Shu shimgirikka teng bo'lib o'tirasanmi, Tugal, — dedi u o'rtog'ini yupatib. — Bunaqa jinqarchalarga musht ham hayf.

Keyin bo'ynini cho'zib qulog'iga allanimalarni shivirladi. G'azabdan bo'zarib turgan Tugal birdaniga buzoqchaning shoxiga o'xshash o'g'ri tishlarini ko'rsatib, xaxolab yubordi.

— Bo'пти, bo'пти, — „balosan-da“, deganday Hojining biqiniga turtib qo'ydi u. — Lekin kosani...

— Berasan! — uning so'zini kesdi Odil. Tugalning basharasi yana yovvoyilashdi. Panjalari kalladay-kalladay mushtga aylandi. Quti o'chib ketgan Hamdam jonholatda Tugalga yopishdi.

— Menga kosa keragamas. Bo'laveradi shuyam! — bo'zlay boshladi u. — Urishmanglar. Kosangni men sindirdim! Sindirib qo'ydim...

— Eshitdingmi? — irshaydi Hoji, — qarindoshing aybini tan olyapti.

Juda noqulay ahvolga tushib qolgan Odil Hamdamga qarab:

— Ahmoq! — deya bo'g'ilib hayqirdi-da, xonadan chiqib ketdi.

— Pachag'ingni chiqaraman hali sen bolani! — orqasidan o'shqirib qoldi Tugal...

Hamdam anchagacha uxlay olmadi. Onasining: „Bu yilcha qola qolgin, otang direktoring bilan gaplashadi“, deganiga ko'nmay, ne-ne shirin xayollar bilan kelgan hasharning birinchi kunidan shuncha mojaroga duch kelib o'tirsa! Yaxshiyamki, hal qiluvchi pallada kallasi ishlab ketdi. Bo'lmasa, Odil bechoraga yomon bo'lardi. Odil ham qiziq. Kerosin sepilgan xashakday sal narsaga lov yonadi. Onasi bo'lsa shunga ishonib paxtaga yuborib o'tiribdi... Lekin yurakdan bor-da. Tugalni qo'rqitaman deydi-ya. Qoyil!

U qancha uxladi, bilmaydi. Bir payt allakimning vahimali chinqirig'idan uyg'onib ketdi. Ko'zini ochib, o'ziyam „voy!“ deb yubordi: Odil yotgan joyida velosiped haydayotganday, oyoqlarini tapillatar, barmoqlari orasiga lenta kabi o'tkazilgan qog'oz lovullab yonardi. Bolalar turib ketishdi. Kimdir yonayotgan qog'ozni yulqib o'chirdi. Qiy-chuvni eshitgan Karimberdi aka hovliqib maykachan kirib keldi. Voqeani eshitgach, shosha-pisha kartoshka qirib, Odilning oyog'iga bosdi.

— Kimdan chiqdi bu bemazagarchilik? — so'radi o'qituvchi.

— Jo'ralaridan birontasi hazillashgandir-da, — dedi Tugal. Hamdam yalt etib Tugalga qaradi. U mamnun va

beparvo qiyofada tirsagiga tayanib turardi. Go‘yo „Kimda-kim jig‘imga tegsa, shu ko‘yga tushadi“, demoqchiday... „Shu qilgani aniq. Noinsof, odamni o‘ldirishdan ham toymaydi. Yaxshiki, kechqurun Odilning qo‘ltig‘iga kirib, unga qarshi chiqmagani...“

— Hazil shunaqa bo‘ladimi? — battar xafa bo‘ldi muallim. Keyin Tugalga qarab dedi:

— Qarasanglar bo‘lmaydimi, kap-katta yigitsizlar-ku! Tugal „Biz qayoqdan bilibmiz“, deganday yelka uchirdi.

— Bo‘pti, yotinglar. Qolgan gaplarni ertaga gaplashamiz. — Karimberdi aka kallasini sarak-sarak qilib eshik tomon yurdi. Hamdam asta Odilning yoniga bordi:

— Og‘riyaptimi?

Odil teskari qarab oldi.

Paxta terish Hamdam o‘ylaganchalik oson emas ekan. Sal kunda qo‘llari shilinib ketdi. „Oq bilak“ degan yangi laqab orttirdi. Majlisda ikki marta qizardi. Mana, bugun ham ishi unmayapti. Paxtani olaman desa, qurib, shaldirab yotgan chanoqlar barmoqlariga ignaday sanchiladi, tarashaday qotib qolgan beli chim-chim og‘riydi.

„Boshqalar qanday qilib ko‘p terisharkin-a, beli og‘ri-masmikin...“

— Hormang jiyancha!

Hamdamning xayoli bo‘lindi. Boshini ko‘tardi: Tugal bilan Hoji.

— Qo‘lchani dabdala qipsan-ku, — kuydirilgan kalladay tirjaydi Hoji. Tugal esa muhim gapi bor odamday, etakni tagiga qo‘yib, chordana qurdi.

— Bu deyman, mendan xafaga o‘xshaysan-a? Men bo‘lsam, senga yordam bermoqchi bo‘lib yuribman.

Hamdam sukut saqlab turaverdi.

— Og‘zingda tolqon bormi? — Hamdamni turti Hoji. — Tugal akang senga...

— Hoji! — uning so‘zini bo‘ldi Tugal. — Bor opke.

— Yest, — Hoji g‘o‘zapoyalarni shaldiratib chopib ketdi. Zum o‘tmay bir etak paxta orqalab keldi.

— Ol, bu senga, — sahovatli jilmaydi Tugal.

Hamdam tushunolmay qoldi. Etakdagi paxta kam deganda o‘n-o‘n besh kilo kelardi.

— Nimaga lalaysan, Tugal akang eriganda foydalanib qolmaysanmi? — qistadi Hoji.

Hamdam ikkilanardi: „Nega? Buning tagida bir balosi yo‘qmikin, ishqilib?“

Hamdam shu kuni Tugal bilan Hojidan boshqa hammani dong qoldirib, ilg‘or terimchilar qatoridan joy oldi.

— Torsa bo‘larkan-ku! — maqtadi Karimberdi aka. — Endi bo‘sh kelma.

Hamdam hasharga kelganidan beri birinchi marta ko‘kragiga shamol tekkanday iljayib qo‘ydi.

Uni tun yarmidan og‘ganda Hoji uyg‘otdi:

— Tur, vaqt bo‘ldi.

Mast uyquda yotgan Hamdam nega turishi kerakligini birdaniga anglay olmadi, keyin kechagi suhbatni eslab, shosha-pisha kiyindi.

O‘sha kungi voqeadan so‘ng Hamdam Tugallar bilan apoq-chapoq bo‘lib qoldi. Ular har kuni Hamdamga bir etak paxta berishar, u bo‘lsa „valine‘matlari“ga choy damlar, kosalarini tozalardi. Hamdam bu ishlarni boshqalarga sezdirmay qilishga tirishar, ammo Oyni etak bilan yopib bo‘ladimi? Nimagadir, bolalar Hamdamning xuddi shunday qilishini oldindan bilishganday, e‘tibor berishmasdi. Faqat Odilning ichini it tinar, Hamdam uchun boshqalarning yuziga tik boqolmay qolgandi. Maktabda Hamdamning o‘jizligi shunchalar oshkor bo‘lmagandi. Bu yerda esa, hatto o‘zidan kichiklar ham „Zo‘r qarindoshing bor-da“, deya boshini tebratayotganday. Odil uning basharasiga qaytib qaramaslikni o‘ylab qo‘ygan bo‘lsa ham chidab turolmadi. Bir kuni tushlikdan qaytishayotganlarida uni chetroqqa tortdi-da:

— Qachongacha birovlarning yalog‘ini tozalab kun ko‘rmoqchisan? — dedi bo‘g‘ilib. — E, qarindosh bo‘lmay o‘!

Hamdam ko‘zlarini pir-pir uchirib, miq etmay turaverdi. Odil tutaqib ketdi.

— Bilasanmi, sen... — u dilidagilarni ifodalovchi so‘z izlab, tutilib qoldi. Hamdam har qanday so‘zni eshitishga tayyorday javdirab turaverdi, xuddi xayr-ehson kutayotgandek...

— Sen, agar bilsang... hech kim emassan! Bildingmi, hech kim!

Hamdam to'satdan birov tumshug'iga musht tushirib qoladiganday, kallasini orqaga oldi, chuqur xo'rsinib, yelkasini qisdi:

— Hech kim? Qanday qilib... hech kim?

— E, bor-e! — qo'l siltadi Odil.

„Hech kim... O'ylab topgan gapini: hech kim. Nega endi hech kim? U — Hamdam-ku! Tugallarning kosasini yuvayotgan bo'lsa, bekorgamas — yordam berishyapti. Ularning yordami bilan yig'ilishlarda lavlagisi chiqmaydigan bo'ldi. Qarindosh bo'lgani bilan bir hovuch paxta bergan emas-ku, o'zi. Tez terganda-yu... Eh, bir baxti chopib, mashhur terimchi bo'lib ketsa bormi... Voz kechardi hammasidan. Tez terishning siri qayerda ekan? Kim bilarkin ana shu sirni? Tugal bilarov. Bilmasa gap sotib, pana-panada papiros burqsitib yurgan odam hammadan ko'p termasdi“.

Hamdam o'ylay-o'ylay buning sirini Tugaldan so'radi.

— Bizmi... — Tugal bu yog'iga nima deymiz, deganday Hojiga qaradi.

— Kechasi teramiz, — ilib ketdi Hoji.

— Kechasi terilgan paxta og'ir bo'ladi, — dedi o'rtog'ining topag'onligiga qoyil qolib Tugal. — Ishing unadi.

— Unda... men ham sizlar bilan teray.

Ular bir-birlariga ma'noli qarab olishdi.

— Fe'l-atvoringga qarab ko'ramiz, — dedi ikkalovi nomidan Hoji. — Lekin bu — sir-a? Biz bir maslahatlashaylik, nomzoding yoqsa...

...Uchovlon oyoq uchida tashqariga chiqishdi. Kecha oydin. Yulduzlar sovuq qotayotganday ojiz yaltiraydi. Ko'kda kumushdan yasalgan kulchaday oy. Havo — namxush.

Hamdam o'zida yo'q xursand. Nihoyat, o'sha „sir“ning kalitini topdi. Endi hammaga ko'rsatadi kimligini. Hech kimdan tili qisiq joyi bo'lmaydi. Yalinmaydi o'sha maqtanchoq Odilga ham...

Dastlab ariq yoqalab, keyin paxtazor oralab ancha yurishgach, shiypon yonidan chiqishdi. Shiypon oldidagi

paxta uyumi oy shu'lasida kumushtepadek tovlanadi. Oldinda borayotgan Tugal to'xtadi. Atrofga quloq soldi:

— Boshladik!

Tugal bilan Hoji etaklarni to'shab, shosha-pisha paxta sola boshlashdi. Hamdam anqayib qoldi. „Kechasi terish... Bu... o'g'rilik-ku!“

— Nega baqrayasan? — pishilladi Tugal.

— Bu... bu...

— „Bu-buning“ga balo bormi, chuvalchang! Bo'lmaysanmi tezroq!

Hamdam garangsib etagini yozdi. Uchovlon paxta to'la etaklarni inqillab-sinqillab tutzor orasidagi chuqurga olib kelishdi. Nafas rostlab olishguncha o'g'irlangan paxta uyumlari ustida cho'zilib, gapirmay yotishdi. Tun sokin, ahyon-ahyonda chigirtka chirillaydi, qishloq tomondan itning erinchoqlik bilan hurgani eshitiladi.

— Yigirmadan o'mardigov, — jimlikni buzdi Hoji.

— Yana bir reys qilsak, ertangi plan yest, deyaver, — osmonga qarab yotgan Tugal shunday deb Hamdam tomon o'girildi:

— Qalay, oqshom terish zo'rakanmi, jiyan?!

— Yana boramizmi? — savolga-savol bilan javob berdi Hamdam.

— Bo'lmasam-chi, — Tugal oyoq-qo'llarini cho'zib, kerishdi.

— Men... bormayman!

— Kechasi terish osonmas-da, og'aynichalish?!

Hamdam sakrab turib etagini bo'shatdi. Uning keskin harakati hamrohlarini sergaklantirdi.

— Ha, nima qilmoqchisan? — xavotirlandi Tugal.

— Ketaman! Bildingmi, ketaman! Menga bunaqa... O'g'irlangani keragamas! — bo'g'ilyotganday xirilladi Hamdam.

Tugal uning tirsagidan changallab:

— Voy, oppoq bola-yey, sizga o'g'irlangani keragamasmi? Shu paytgacha qayoqdan olayotgan eding yoki katta xolang terib berayotganmidi? — deb o'shqirgach, Hamdamda paydo bo'lgan jur'at darhol so'ndi.

— Men senga aytuvdim-a? — yuvilmagan qoshiqday oraga suqildi Hoji.

— Bas qil! — Tugal bir soʻz bilan Hojining unini oʻchirdi va Hamdamni turtib yubordi:

— Yoʻqol! Bundan keyin yaqinimizga yoʻlamaysan! Bu haqda biron kishiga ogʻiz ochsang, enangni koʻzingga koʻrsataman!

Hamdam tutzordan chiqqach, yengil tortganday boʻldi. Faqat yuragi gʻash edi. Maktabga yaqinlashgan sayin gʻashlik vahimaga aylandi. Qilib qoʻygan ishidan uyalib, vujudiga titroq kirdi: „Oʻl-e, oʻgʻri!“ Xayolidan oʻzi seskanib ketdi. Atrofga olazarak nazar soldi. Yuragini hovuchlab, maktab yonidagi tutgacha bordi. Nari yurishga yuragi dov bermay, daraxt tanasiga suyanib qoldi. Tut bilan yotoqxonada orasida simda osilib turgan chiroq „chatoq qilding“, „chatoq qilding“, deya bosh chayqayotgandek tebranardi.

Tuyqusdan eshik ochilib, kalta paxtaligini yelkasiga tashlab olgan Karimberdi aka paydo boʻldi. Hamdam orqaga tislandi. Daraxtning yoʻgʻon koʻlankasi panasiga borib ariqdan oʻtdi-da, toʻgʻri kelgan tomonga jon-jahdi bilan yugurib ketdi. Uning koʻzlari ochiq, lekin hech narsani koʻrmas, xuddi poyonsiz chuqurlikka choʻkib ketayotgandek... Oyogʻi gʻoʻzapoyaga ilashib, yuztuban yiqildi, ogʻziga tuproq kirib, yuzi pichoq bilan tilganday jizillab ketdi. Lekin ogʻriqqa eʼtibor bermay, irgʻib turdi. Chopdi. Yana yiqildi. Turdi. Qoramtir tun pardasiga burkangan kimsasiz dalaga shoshib koʻz yugurtirdi. Birdan oʻzini yerga otdi. Yuragi toshib, hoʻngrab yubordi. Salqin shabada yelkasini sovitdi, yerning zaxi koʻkragini muzlatdi. U tizzalarini quchoqlab oldi. Endi nima qiladi, Feruzaning, bolalarning yuziga qanday qaraydi? Nima deydi ularga? Sharmandalik, ahmoqlik, bemaʼnilik...

Sekin-sekin badani sovib, sal oʻziga keldi. „Bu yerda ortiq oʻtirib boʻlmaydi. Yaxshisi, oʻzim boraman, bor gapni aytaman. Onam, egilgan boshni qilich kesmas, derdilar-ku!“ U oʻz fikridan oʻzi aynib qolishidan choʻchib, tez-tez yurib ketdi. Ariq boʻyida Tugal bilan Hojiga duch kelib, taxta boʻlib qoldi. „Nega maktab tarafdin kelishyapti, tutzorda qolishuvdi-ku“. Ana, Tugal ham uni koʻrdi. Bir daqiqa qotib

turdi. Keyin, hatlab oldiga keldi. Baquvvat panjalari bilan bo'ynidan omburday siqib, burnini yerga ishqay boshladi. Hamdamning yuz-ko'zlarini ho'l-quruq o't-o'lanlar, shox-shabbalar timdalay boshladi, tishlari orasida tuproq, qum g'ijirladi.

— Birovni bolasini o'ldirib qo'lasan-ku, qo'y, bo'ldi endi! — ularni ajratmoqchi bo'ldi Hoji.

— Kindigini sug'urib olaman, bunaqa chaqimchini! — ho'kizday pishilladi Tugal. — Hali meni sovunimga kir yuvmabdi!

Hoji Hamdamni Tugalning panjasidan zo'rg'a ajratib oldi. Hamdam o'zini o'nglay olmay, to'rt oyoqlab qoldi.

— Ko'tar o'ligingni! — o'shqirdi Tugal. — Kinga aytyapman?!

Hamdam gandiraklab qaddini rosladi.

— Qani yur! — Tugal ikki yoshli bolani yetaklaganday sudrab ketdi uni. Chuqurga yetishgach, itarib yubordi. Hamdam paxta uyumiga yiqilib tushdi.

— Mana shuning hammasini xirmonga tashiysan!

Hamdam shosha-pisha etakni to'ldirdi. Ko'p solib yuborganmi, qancha urinmasin, ko'tarolmadi. Hoji yordam bermoqchi bo'lgandi, Tugal qaytardi:

— Tegma, o'zi ko'taradi!

Hamdam kuchanib ko'tarmoqchi bo'luvdi, etakning ipi uzilib ketdi. Tugal yana musht solmoqchi bo'ldi, baxtiga Hoji bor ekan, qaytarib qoldi. Kaltakdan qutulganiga shukur qilgan Hamdam yana etakka yopishdi. Qaltiroq qo'llari bilan uzilgan iplarni bir amallab bog'ladi. Keyin bir siltab yelkasiga oldi-da, tutzor oralab pildirab ketdi. U zilday yukni ko'tarib borarkan, xo'rlikdan dodlagisi kelar, o'zining nega shunchalar xo'rlanayotganiga sira tushunolmasdi.

* * *

U ertalabdan beri bor-yo'g'i bir etak paxta terdi. Vujudi zirqiraydi, boshiga arilar in qo'yganday... G'o'zapoya shitirladi. Hamdam boshini ko'tardi, ko'z oldi jimirlab, yiqilib tushay dedi.

— Hamdam, nima bo‘ldi? — yumshoq bu tovushni tushida eshitayotganday edi. Ko‘z oldini qoplagan o‘rgimchak to‘riday xira tuman asta tarqab, Feruza bilan Halimani ko‘rdi. Yelkalarida paxta to‘la etak, Feruzaning chiroyli qomati engashgan, ko‘zlarida tashvish va mehr.

— Bosh... og‘riyaptimi? — Feruza boshqalarni sensirar, Hamdam bilan gaplashganda esa egasiz gap qilardi.

— Qo‘y, mazasi yo‘q shekilli, bechoraning gapirish-gayam chog‘i kelmay turibdi, — hiringladi Halima. — Yur, Peru. — U oldinga o‘tib ketdi.

Feruza asta keta turib Hamdamga yana qaradi, shundoqmi, deganday. Hamdam siniq iljaydi...

— Hey, belangi! — u Halimaning yoqimsiz ovozidan uyg‘onib ketganday bo‘ldi.

— Baqqa ke, qani!

Qizlar yigirma qadam narida turishibdi. Feruzaning yelkalari hayronlik bilan qisilgan, Halima bo‘lsa qo‘llarini beliga tirab olgan. Hamdamning yuragi shuvullab ketdi: „Yana nima bo‘ldiykin?“ U biron bo‘ynidan bog‘lab sudraganday og‘ir qo‘zg‘aldi.

— Peruning paxtasi qani?! — yaqinlashar-yaqinlashmas so‘roqqa tutdi Halima.

Hamdam egatidagi paxta uyumini ko‘rib, hech nimaga tushunolmay qoldi: bir etakkina paxtasi o‘z-o‘zidan ko‘payib qolgandi.

— Bu kishi qanday qilib mash‘al bo‘ppoldi, desak! — shang‘illadi Halima. Keyin shovqinni eshitib, girdini qurshab olayotgan tomoshatalab bolalarga izoh bera boshladi:

— Kelsak, Peruning paxtasi yo‘q. Bunday qarasam, mana bu kishini jo‘yasida katta uyum paydo bo‘ppopti. Agar manavi kitob bo‘lmaganda bo‘yniga olmasdi bu qiltiriq. Peru kitobini paxtasini ichiga yashirib ketuvdi-da!

Hamdam tili chiqayotgan go‘dakday duduqlandi. Ko‘zlari pir-pir uchdi. Bolalarning „Bundan ko‘ra o‘lganing... gadoylik qilganing yaxshimasmidi?“, „A‘lochimish tag‘in bu kishi“, deb o‘yib-o‘yib olishlari, voqeani o‘zgacha qoniqish, o‘zgacha sevinch bilan kuzatib turgan Tugalning yasama mehribonlik

bilan: „Sizni juda to‘g‘ri, halol yigit deb eshitgandik, yaxshi qilmapsiz-da, jivan. Qizlarnikiga ko‘z olaytirguncha, xirmondan o‘marsangiz-ku, birov payqamasdi“, deb masxara qilishi, Karimberdi akaning ayanchli bosh tebratishi... Bu qanday gap axir. Kechagi qilmishlari uchun tortayotgan bo‘lsa mayli edi, bu azoblarni. Bilibmi, bilmaymi o‘g‘rilik qilgandi, chidardi. Lekin bu... tuhmat, qip-qizil tuhmat-ku!..

U kichkinagina go‘dak emish. Onajoni katta tog‘oraga o‘tirg‘izib qo‘yib cho‘miltirar, hadeb sonchalariga iliq suv quyarmish, u qiqir-qiqir kularmish-u, ovozi chiqmasmish...

Hamdam uyg‘onib ketdi. Yarim tanasi ochilib qolibdi, tagidagi ko‘rpacha muzday, kalta ishtoni... jiqqa ho‘l! Oyoqlarini shoshib ko‘rpa ostiga tiqdi. „Nahotki...“ Ko‘rpa ostidan kalta ishtonini ushlab ko‘rdi: muzday!..

Xona jimjit. Bolalar pish-pish uxlamogda. Shu mahal Tugalning ko‘rpasi qimirlaganday bo‘ldi. Hamdamning yuragi shig‘illab ketdi. Boshini ko‘rpaga burkab oldi. „Shu qilgan“ — yashin urganday vujudi zirqirab ketdi. Tugalning: „Xirmondan o‘marsangiz-ku...“, deb ishshayib turishi lop etib ko‘z oldidan o‘tdi. Kunduzgi va hozirgi voqealar ko‘zga ko‘rinmas ip bilan bir-biriga bog‘langanday tuyuldi. Birdan hushyor tortdi. Tugalni yotgan joyida bo‘g‘ib tashlagisi keldi...

Dimiqib ketdi. G‘ijimlangan ko‘rpadan boshini chiqardi, baribir issiq. Butun vujudi qiynoqda, o‘ylagan sayin o‘zini yomon his qila boshladi. „Bu qanaqasi bo‘ldi? Nima qilish kerak endi? Bu yerda qolib bo‘lmaydi. Bo‘lmaydi! Ketish... qochish kerak!“ Yotgan joyida shimini, ko‘ylagini kiydi. Etigi bilan paxtaligini qo‘ltig‘iga qisdi. Yana birpas quloq solib yotdi. So‘ng oyoq uchida eshik tomon yurdi.

Shahar chetidagi avtostansiya g‘ij-g‘ij odam: birov to‘rva orqalagan, birovda tugun, birovda chaqaloq... Chaqaloq big‘-big‘ yig‘laydi. Avtobuslarning motori gurullaydi, sement suvog‘i ko‘chgan devorda qiyshayib turgan karnay betinim shang‘illaydi:

— Diqqat! „Kenagas“ birinchi stoyankadan ketadi!

— Shofyor Jo‘rayev, dispetcherga! Jo‘rayev!!!

Chetdagi pastak do‘koncha panasida turgan Hamdam

ko'kraklarini kerib, bemalol ketayotgan odamlarga qarab alamdand yig'lagisi kelardi. „Ularga qanday maza. Hech kimdan qo'rqishmaydi, berkinishmaydi...“

Maydonga ikkita avtobus kelib to'xtadi. Hamdam qishlog'iga bunaqa uzun avtobuslar qatnamasligini bilsa ham, bo'ynini g'ozday cho'zib, qarab qo'ydi. Keyin boshini toshbaqaga o'xshab yelkalari orasiga tortdi.

Kapaga o'xshash oq qalpoq kiygan kishi undan besholti qadam narida baliq qovurmoqda. Katta qozondan taralayotgan yoqimli hid dimog'ini qitiqlaydi, ertalabdan beri tuz totmagan — qorni tatalaydi. Qozonga qaramaslikka o'zini majbur qilsa ham ko'zlari og'averadi. „Qani endi pul bo'lsa-yu...“, qult etib yutindi, teskari qarab oldi. Boshqa narsalarni o'ylamoqchi bo'ldi. Uddalay olmadi. Temir o'choqdan toshgudek lovullayotgan olov, katta qozon... Birdan seskanib ketdi. O'zini panaga oldi. Kimdir o'tkir ko'zlarini unga qadab turganday... Bu ko'zlar unga ertalabdan buyon qadamma-qadam ta'qib qilib kelayotganday edi. U ko'zlarga tik qarashdan qo'rqardi. Ko'zlar goh Karimberdi aka, goh Tugal, goh Odil, goh otasiniki bo'lib ko'rinar, biri koyir, biri masxara qilar, unga azob berardi. Hamdam qo'rqa-pisa tevaragiga alangladi. Hamma o'zi bilan o'zi ovora. Ko'ngli sal taskin topdi.

— Diqqat. Kenagas avtobusi keldi! — xirilladi karnaydand ovoz. Hamdamga jon kirdi. Sakkiz-o'n qadam narida ularning avtobusi. Shu yerda turganidan beri bunaqa avtobuslarning bir nechtasi kelib ketdi. U hech qaysisining yaqiniga yo'lay olmadi. Qo'rqdi! Kimdan? O'ziyam bilmaydi. Lekin qo'rqdi. Avtobuslarni dilgir kuzatib qolarkan „endigisiga albatta chiqaman“, deb o'zini ovuta-ovuta kunni kech qildi. Bu oxirgisi bo'lishi kerak. Ko'ngli sezib turibdi. Shundan qolsa... „Nima bo'lsa bo'lar...“

Yuragini hovuchlab panadan chiqdi, oyoqlari qaltirardi. Sakkiz-o'n qadam yerni bosib o'tguncha... terlab ketdi. Mana, nihoyat, yetdi. Bir oyog'ini avtobus zinasiga qo'ydi-yu, titrab ketdi: to'g'ridagi o'rindiqda sinfdoshi Esonning otasi Eshbek aka o'tirardi. Xuddi biron ko'kragidan itarganday,

beixtiyor orqaga tisarildi. Qo'rqdi. Qo'rqmay bo'ladimi? Eshbek aka uni ko'riboq Esonni so'raydi. Nima deydi? Xo'p, ana, uni bir amallab aldadi, deylik. Lekin uydagilariga, otasiga... „Qochdim, Tugal yuzimga qorakuya surtdi, urdi, tuhmat qildi“, deydimi. Hamdam yana eski joyiga kelib, do'konchanning taxta devoriga suyandi. O'zini suvga cho'kayotganday notavon sezdi. Ich-ichidan Tugalni so'kdi. Hammasiga o'sha aybdor. Avval joyini, keyin kosasini tortib oldi, o'g'rilikka boshladi. Feruzaning paxtasini unikiga qo'shib qo'ygan ham shu — Tugal! U bo'lsa... tagiga suv quydiyam, g'ing demadi. Qo'rqdi! Endi hammadan qo'rqadi. Hech kimning ko'ziga tik qaray olmaydi. Hech kimning! Hatto baliq qovurayotgan xomsemizning ko'ziga ham! „Hamdam duv-duv oqayotgan yoshini yengiga artdi. „Endi qayerga borsam, — o'ylay boshladi yana, — yoki orqaga qaytsammi... Qanday? Odilni, Feruzani, Karimberdi akani, boshqalarni yuziga qanday qarayman?! Axir, o'g'riman, qochoqman! Men...“ Hamdamning shunday xo'rligi keldiki, dunyoda u kiradigan eshik, bag'riga bosadigan mehribon odam qolmaganday... Shu ko'yi qayerga borarini, kimdan najot so'rarini bilmay karaxt bo'lib uzoq turdi.

To'satdan avtobus, ularning avtobusi joyidan qo'zg'aldi. Portdan bepoyon dengizga chiqayotgan kemaday, avtobuslar orasidan o'rmalab, katta yo'lga burildi va zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ana shunda hozirgina avtobusning orqasidan chopgisi, „Meni olib ketinglar!“ deb qichqirgisi kelib turgan bolaning alami birdan g'azabga aylandi. Ko'z oldiga Tugalning irshayib turgan basharasi keldi-yu, chindan ham ro'parasida raqibi turganday qo'llari musht bo'lib tugildi. „Sen... eshak qilib minaman, deb o'ylovdingmi, a? — Tovushini chiqarmay o'shqirdi u. — Tushingni borib suvga ayt. Kimligimni mana endi ko'rasan! O'g'riligingniyam, tuhmatchi, mush-tumzo'rligingniyam ochib tashlayman. Dabdalangni chiqaraman!“ — U, umrida birinchi marta bo'lsa kerak, qo'rquvni unutdi, tomirlarida qon ko'pirib, shaxt bilan eng chetda turgan avtobus tomon yurdi. Bu avtobus uni o'zi qochib kelgan tomonga olib borar edi...

ISHQIBOZLAR

Xo'jaligimizning sport kompleksi endi butun tumanga mashhur. Oqshomlari, ayniqsa, stadionimiz guvullab turadi. Biz endi sportchidan ham ko'ra ishqiboz, tomoshabinmiz. Biroq mana shu joylarda latta to'p tepib, hamma yoqni changitib yurgan paytlarimiz ham bo'lgan.

...Ertalab chorpoyada nonushta qilayotgan edik, darvoza oldiga otliq odam kelib to'xtadi. Rais ekan. Uni ko'rishimiz bilan hammamiz joyimizdan dik etib turdik.

— Qo'zg'almanglar, qo'zg'almanglar, — dedi rais ildam kelib otamning qo'lini olarkan. — Men bir minutga...

Onam qo'yarda-qo'ymay yangi ko'rpacha soldi. Rais chorpoya chetiga bir oyog'ini bukib, omonat o'rnashgach, otamga yuzlandi:

— Hov birdagi tanqidigizdan keyin nimalar qilayotganimizdan xabaringiz bor-a? Stadionni aytyapman. Bugun o'shani ochamiz. U yoq-bu yoqdan mehmon aytganmiz. Tumandan rahbarlar kelishadi. Shunga bormasangiz bo'lmaydi.

— Albatta, albatta, — deb bosh irg'adi, otam. — Ammo men u yerda nima qilaman? Soqolimni selkillatib to'p tepamanmi?

— Undan ham muhimroq ish bor, alvon tasmani kesib, yoshlarni tabriklaysiz.

Gapning ma'nosiga endi tushungan otam qo'llarini yozdi:

— Men-a?

— Bu yig'ilish qarori! Demak, kelishdik. Tushda o'sha yerda bo'ling, — deb o'rnidan qo'zg'aldi.

Rais ketdi-yu, otamning oromi buzildi. Avval bir nimalarni pichirlab, bosh chayqab, — o'zicha iljayib o'tirdi. Keyin uydan kiyim-boshini olib chiqib, onamga do'q ura boshladi:

— Odamni javratmay ish qiladigan kuning ham bo'ladimi? Yaktakning ahvolini ko'r! Nima bu, kiyimmi, eshakni to'qimi?

— Nima balo tumanga ovoza bo'lmoqchimisiz? — deb otamning do'qiga po'pisa bilan javob berdi onam. — Esingiz joyidami?

— Raisning gapini eshitmadingmi?

— To'g'ri-da, otam borishi kerak! — deb oraga suqildi akam.

Buni ko'rib, otamning jig'ibiyroni chiqdi:

— Sendan so'rayotganim yo'q! Hammasiga ikkoving aybdorsan...

...Haqiqatan ham otamning „futbolchi“ bo'lishiga akam ikkovimiz „aybdor“ edik.

Ilgarilari futbol desa, otamning tepa sochi tikka bo'lardi. Tiyinlab yig'ib olgan to'plarimizni bir necha marta o'roq bilan yorib tashlagan. O'yinga alahsib, ishdan qolganimiz uchun jahli chiqardi.

Otam bizni bir necha marta chimzorimizdan haydab keldi, o'qituvchimizga aytdi, koyidi. Ilojini topolmagach, yon bosishga majbur bo'ldi:

— Menga desa, oyoqlaring po'rsildoq bog'lab, qavarguncha tepinglar! — dedi bir kuni ikkovimizni o'tqazib qo'yib. — Lekin avval ishni qoyil qilib qo'yanlar. O'yindan bir kun oldin ikki kunlik normani bajarsanglar — xo'p, bo'lmasa...

Jon-jon deb rozi bo'ldik. Ertaga o'yin degan kuni men ola sigir uchun ikki kunlik o't o'rib kelaman, akam ham qanday bo'lmasin ikki kunlik „plan“ni bajaradi. Ikkovimiz ham komandaning ishongan o'yinchilari emasmizmi, bunday paytlarda ko'pincha o'rtoqlarimiz kelib ko'maklashishadi. Qisqasi, otam ham xursand, biz ham.

Shu orada qo'shni qishloq komandasi bilan uchrashuv o'tkazdik. O'yinchilarning hammasi o'quvchilar. Lekin kinomexanik Turg'un aka, montyor Xurram aka, pochta yon Rabbim aka kabi „ashaddiy“ ishqibozlarimiz komandani „qishloqniki“ deyishni yaxshi ko'rishardi. Har o'yinda hayho'ylab, bizni qo'llab-quvvatlab turishadi. Ular bor joyda yuz-ikki yuz tomoshabinning baqiriq-chaqirig'i hech gap emas. Qo'shnilar bilan bo'lgan uchrashuv paytida shu ishqibozlar o'tib ketayotgan otamni ko'rib qolib, qo'yarda qo'ymay olib kelishibdi. „Qodir bobo, o'g'illaringizning o'yinini ko'ring! Pele-ya, Pelening xuddi o'zi!“ — deb biz-

ni ham, futbolni ham rosa maqtashibdi. Shu o'yinda akam — uchta, men — ikkita to'p uribmiz, deng.

Kechqurun, uyga kelsam, otam chorpoyada yonboshlab Kenja boboga maqtanyapti:

— Qurg'ur-ey, futboli ko'pkaridanam ham qiziq ekan. Boya deng...

Xullas, uyimizda futbol haqida o'qtin-o'qtin gap bo'ladigan bo'lib qoldi. Shunday suhbatlarning birida otam:

— O'yinlaringning yog'och darvozasi bo'larkan, sizlarda nega yo'q? — deb so'radi.

— Darvozaga yog'och kerak, kim beradi deysiz? — dedi akam yig'lamsirab.

— Xo'jalikning kattalariga aytinglar! To'rta yog'och nima degan gap.

— Borgan edik, haydab yuborishdi.

— Shunaqa degin?.. — Otam birpas o'ylanib turdi-da: — Qani bu yoqqa yuringlar-chi!.. — deb o'rnidan turdi.

Otxonada o'tgan yili imorat uchun olingan yog'och-taxtalar bor edi.

— Shulardan yasasa bo'ladimi? — dedi uzun xodalarni ko'rsatib.

— Bo'ladi! Bo'ladi! — deb yuboribmiz baravariga.

— Unday bo'lsa, olib boringlar!

Quloqlarimizga ishongimiz kelmay, do'stlarimizning oldiga yugurdik. Chimzorda darvoza vazifasini bajaruvchi ikki uyum tosh o'rnida rasmana darvoza qad ko'tardi.

— Ammo yutqazib qo'yib yuzimni shuvut qilsanglar, o'zim buzib tashlayman! — deb kuldi otam darvoza to'sinlarini qimirlatib qo'yarkan.

— Yutqazmaymiz!

Stadion stadionga o'xshasa g'ayratingga g'ayrat qo'shilarkan. Hash-pash deguncha bu atrofda bizga teng keladigan komanda topilmay qoldi. Turg'un aka-yu Xurram akaga o'xshaganlar hazil-huzul tarqatgan „Qodir futbolchi“ degan nom ham tillarda doston bo'lib ketdi.

Bir kuni otam bilan shaharga tushdik. Magazinlarni aylanayotib ko'zim yo'l yoqasidagi e'longa tushib qoldi:

„Bugun „Spartak“ stadionida Samarqand va Qarshi komandalari o'rtasida uchrashuv bo'ladi“.

— Ota, bir tomosha qilmaymizmi?

— E, qo'y-e!.. Uyda qancha ish turibdi-yu...

— Ammo-lekin yomon zo'r bo'ladi-da!..

— Rostdanmi? — deb sal yumshadi otam.

— O'-o'! Nimasini aytasiz! — deb ta'riflay ketdim hovliqqancha.

Xullas, kirdik. Bir payt yonimga qarasam, otam atrofidagilarga qo'shilib hayqiryapti!

— Mana buni tomosha desa bo'ladi! Sizlarniki yong'oq o'yiniday gap ekan, — dedi otam o'yin tugagandan keyin zavq-shavqini yashirolmay. — Darvozasidagi to'rni ko'rdingmi? To'p jonivor tuzoqqa tushgan qushday pitirlaydi. Shundan olish kerak ekan-da. Magazinda sotsa keragov?

— Sotadi, sotadi.

— Yur, qani, bir ko'raylik-chi.

Ikkovimiz „Dinamo“ magazinidan to'r sotib oldik.

— Ana endi sizlarniki ham qoyilmaqom bo'ladi. Ammo Rajab bedanavozdan ehtiyot bo'lasizlar, matrapga o'ch. Ko'rsa ilib ketishdan toymaydi.

To'r haqidagi xabar bir zumda qishloqqa ovoza bo'ldi. Bolalarning sevinchdan dikir-dikir sakrashlarini ko'rsangiz...

Otam ham yasharib ketgandek edi: o'yin bo'ladi, degan kuni bizdan oldin stadionga jo'naydi. Chophonini yostiqliq qilib, chimzor chetiga yonboshlaydi. O'yin „kulminatsion nuqta“ga yetgan paytlarda esa sapchib-sapchib ketadi, yosh bolalardek bir nimalar deb hayqiradi. Yonidagi chollar etagidan tortib qolishmasa, o'rtaga tushib ketishi hech gapmas. Aytmoqchi, ishqibozlarimizning safi ham kengayib ketdi. Ilgarilari „Qarib quyilmagan chol“ deb otamdan kulib yurgan Kenja bobo, Qarshi bobo, Fayzi bobo degan otaxonlar ham kunda shunda.

Komandamizning dovrug'i oshgan sayin bizga qiyin bo'la boshladi. Olis-olislardan zo'r-zo'r komandalar kuch sinash uchun keladigan bo'lishdi. Shunday og'ir bellashuvlardan

birida tuman markazidagi „Chinor“ komandasiga yutqazib qo'ydik. Ruhimiz tushib, shalpayib turganimizda otam kelib: „Xafa bo'lmanglar, polvon ham yelkasi bir-ikki yer iska-gandan keyin polvon bo'ladi, — deb taskin berdi. — Ammo shu shaharliklarni bir boplaganlaringda bormi...“, deb bosh chayqab qo'ydi. Yutqazsak, oqibati yomon bo'lishini bilganimiz uchun cho'chib turgan edik. Otamning taskinidan so'ng ancha tetiklashdik. Bir-ikki o'yinda g'alaba qozondig-u, keyin... Qo'shni tumandagi „Yangiobod“ xo'jaligi koman-dasi bilan bo'lgan uchrashuvda ham omadimiz chopmadi. Otamga malol keldi. Ayniqsa, Kenja boboning: „Qodirvoy, endi etakni bar urib, o'zingiz maydonga tushmasangiz chatog'ov“, degan pichingi otamga nashtarday botdi. Bizga yomon o'qrayib, hammadan oldin jo'nab qoldi. Keyingi o'yinda yana yutqazdik. Otam chimzorga kelmay qo'ydi.

Bugun qanday bo'lmasin yutishimiz shart edi. Ammo... Birinchi taymning o'zida qatorasiga uchta to'p o'tkazib yubordik.

Ikkinchi taym endi boshlanganini bilamiz, maydonda to'satdan bolta ko'targan otam paydo bo'lib qoldi: yaktagining ko'kragi ochiq, ko'zlari olaygan, avzoyi buzuq...

— Yo'qol, hammang! Tekinxo'rlar! Tanballar! — deb yaqinidagi o'yinchiga xezlandi.

Turg'un aka bilan yana bittasi ushlamoqchi bo'lishdi-yu, vajohatidan qo'rqib, oldiga yurak betlab borisholmadi. Otam darvozaga bolta soldi. To'sinlarni chopib, to'rni qiymalay boshladi. Hammamiz chekka-chekkada otamning harakatlarini churq etmay kuzatib turibmiz. Boboylar bo'lsa tizzalariga shapatilab, qotib-qotib kulishadi.

— Nomusga o'ldirdinglar! Ikkinchi to'p tepganlaringni ko'ray-chi! — deb darvozaga bolta urardi otam.

Darvozalarni qulatgach, jahl bilan qishloq tomon jo'nab qoldi.

Bu gap raisning qulog'iga yetganni, yo'lda otamni to'xtatib, tanbeh bermoqchi bo'libdi:

— Nima qilasiz yoshlarga ozor berib? Tayyor stadionni buzibsiz, bu qanday gap?

— Iching achisa, o'zing qur! Kim aytadi seni xo'jalikning otasi deb?! To'rtta cho'pga kuchi yetmaydi-yu!.. — debdi otam zarfa bilan.

Shu-shu otam to'nini teskari kiyib oldi. Chimzorimiz ham suv quygandek jimjit. Oramizda jur'at qilib chimzorga boradigan mard yo'q. Bir kuni yosh bolalardan ikki-uchtasi to'p tepishayotgan ekan, otam hammasini oldiga solib quvlabdi. Komandadoshlarimiz: „Otaga aytinglar, endi sira yutqazmaymiz, deb ko'ndiringlar“, deb har kuni akam ikkovimizni tezlashadi, yalinishadi. Lekin bu gapni otamga aytishga qani bizda yurak bo'lsa!..

O'ylay-o'ylay shunday qarorga keldik: idoraga — to'ppa-to'g'ri raisning oldiga boramiz. „Bizni Qodir boboning qiynoqlaridan qutqaring“, deymiz.

Gapni bitta qilib, yigirma chog'li bola idoraga yo'l oldik. Kotiba opaning hay-haylashiga qaramay, raisning kabinetiga kirib borsak, kimni ko'rdik deng-a? Otamni! Kenja bobo, Qarshi bobo, Yana ikkita chol raisga nimalarnidir uqtirishyapti.

— Bo'ldi, bo'ldi, hammasiga tushundim, — dedi nihoyat, rais kulgidan qizargan ko'zlarini uqalab. — Ham-malaringizning tilingiz bir ekan, biz taslim bo'ldik. Albatta, stadion quramiz.

Keyin bilsak, otam boshliq chollar ham raisning huzuriga stadion masalasida kirishgan ekan.

Oradan sal o'tmay, chimzorimizda buldozerning gurullagan sadosi yangradi. Keyin mashinalar g'isht, sement, taxta-yog'och tashib kela boshladi. Bugun esa...

Darsdan so'ng, kolonna bo'lib, to'g'ri chimzorimizga bordik. O'hho', chimzor o'rnida tevaragi chiroyli panjara bilan o'ralgan haqiqiy sport kompleksi o'zini ko'z-ko'z qilib turibdi: yam-yashil maydon chetidagi yugurish yo'lkalari oppoq chiziqlar bilan ajratilgan, bir tarafda voleybol, basketbol maydonchalari...

Xuddi butun tuman ko'chib kelgandek, atrofga odam sig'maydi. Stadion eshigiga tortilgan alvon lenta qarshisida basavlat kishilar kimnidir kutayotgandek. Shu payt raisning

ko'zi odamlar orasida turgan otamga tushib, mikrofoniga enkaydi:

— Qodir ota, bu yoqqa, bu yoqqa keling!

Yo'l-yo'l yaktak, yangi do'ppida basavlat bo'lib ketgan otam iymnib yaqin keldi.

— O'rtoqlar! O'rtoqlar! — dedi rais mikrofoniga ikki-uch chertib. — Bugun biz bu yerga katta tantana — xo'jaligimiz sport kompleksini ochish tantanasiga yig'ilganmiz. Hozir alvon lentani kesish uchun men, — u yonidagilarga mug'ambirona ko'z qisib, iljaygancha davom etdi. — Men bu qaychini eng keksa futbolchimiz Qodir otaga beraman!

Biz, yosh futbolchilar esa yugurib borib otamni quchgimiz, „Endi hech qachon, hech kimga yutqazmaymiz, sizni nomusga qo'ymaymiz! — deb hayqirgimiz kelardi...

MUNDARIJA

Qissalar

QAYTA TUG'ILGAN BOLA

3

BALAND TOG'LAR OSTIDA

57

OQ KAPTARLAR OROLI

97

Hikoyalar

HALQA

180

BOYCHECHAK

189

QOCHOQ

201

ISHQIBOZLAR

215

ABDUSAID KO'CHIMOV

QAYTA TUG'ILGAN BOLA

2-nashri
„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2018

Muharrir *M. Mirsalikov*
Badiiy muharrir *B. Ibragimov*
Tex. muharrir *S. Nabiyeva*
Musahhah *M. Mirsalikov*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Axrorova*

Nashriyot litsenziyasi AI №291. 04.11.2016. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 23.05.2018. Bichimi 84×108^{1/17}. Kegli 10,5 shponli. Times TAD garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'oz. Shartli b. t. 11,76. Hisob-nashriyot t. 7,97. Ikkinchi zavod 10 000 nusxada bosildi.
Buyurtma №1-18A

O'zbekiston Mathuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 206. Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 131-18.


**84(5 O'6
K 96**

Ko'chimov, Abdusaid.

Qayta tug'ilgan bola [Matn] /A. Ko'chimov.
2-nashri. — Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU,
2018. — 224 b.

ISBN 978-9943-22-285-4

**UO'K:821.512.133-31
KBK 84(5O'6**



84(50)k
k 96

O'SMIRLAR ADABIYOTI

Qator asarlari bilan o'quvchilar mehri- ga sazovor bo'lgan iqtidorli adib Abdusaid Ko'chi- movning qo'lingizdagi kitobiga kiritilgan qissa va hikoyalarning bar- chasida aynan ana shu go'zal sertashvish man- zaralar – o'smirlar ruhiy olamida sodir bo'lguv- chi rivojlanish jarayonlari badiiy talqin qilinadi.

O'smirlik – inson hayotining eng murak- kab, eng qaltis, eng nozik davridir.

Bolalikdan balo- g'atga o'tish bosqichi hisob- lanmish bu davrda xarakter shakllanadi, kuchli his- tuyg'u, g'ay- rat-shijoat jo'sh uradi; o'smir qalb hissiyotga berilib, mustaqil bo'lish- ga, o'z qiyofasini namo- yon qilishga intiladi.



© „O'qituvchi“ NMIU
100206, Toshkent sh.,
Yangishahar ko'chasi, 1,
Tel.: (+99871) 224-04-12,
E-mail: info@oqituvchi.uz,
Web-site: www.oqituvchi.uz

ISBN 978-9943-22-285-4



9 789943 222854